

*Rashod  
Nuri Guntekin*

# Tamg'a



**RASHOD NURI GUNTEKIN**



**„Jahon adabiyoti oltin fondi“**

**TAMG‘A**



**XAZONREZGI**



**„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“  
TOSHKENT – 2019**

**UO'K: 821.512.161**  
**KBK: 84(5Tuk)**  
**G95**

**Rashod Nuri Guntekin**

**Tang'a**/ Muallif Rashod Nuri Guntekin. – T.: „Qaldirg'och nashriyoti“, 2019. – 288 b.

**Mas'ul muharrir**  
**ASHURALI JO'RAYEV**

**UO'K: 821.512.161**  
**KBK: 84(5Tuk)**

**ISBN 978-9943-5710-1-3**

© R. N. Guntekin  
© „Qaldirg'och nashriyoti“, 2019.

# TAMG'A

## 1

Bolalik yillarimning ilk xotirotlari avgust oyining bir kechasi-yu, allaqanday bayram tantanalari bilan bog'liq. Hozir men mana shularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rgan-ga o'xshamayman, nazarimda bir paytlari shu haqda kimdir menga bir ertak aytib bergan-u, shu shirin ertak xotiramda mahkam o'rnashib qolganday...

Go'yo boshqa bir dunyodan kelib qolganday, to'rt taraf-ga behad cho'zilib ketgan ko'z ilg'amas bir bog'... Daraxtlar orasida esa rango-rang fonuschalar... Sutdek oqarib turgan yo'lkalar... Yasan-tusan odamlarning shovqini... Chaqmoq-day bir chaqnab, keyin osmonga turfa ranglar sochgan mushaklar... Xuddi ertaklardagiga o'xshab faqat nur va zul-mat hukmron bunda!

Ba'zan bu dunyoga men xuddi o'sha kecha mangu zul-mat qa'ridan kelib qolmaganmikanman, degan xayollarga ham boraman.

Onamni eslayolmayman. Qachon olamdan o'tganini ham bilmayman. Ammo o'sha kecha atrofimda girgittan edi u... Meni malla soch bir juvon ko'tarib olgandi. Ehtimol, onamdir o'sha. Ehtimol, yetimlik dog'ida ko'pam o'rtanmas-lik uchun o'zim ichimdan to'qib chiqargandirman buni.

Avgust oyining bu bayram kechasini eslab qolgan yolg'iz men emas ekanman. Butun oilamiz uchun u qutlug' kelgan ekan. O'sha kuni sulton dadamni (biz u kishini posho dada derdik) vazirlikka ko'tarib, ichki ishlar vazirligining ixtiyori-ga topshirib qo'yibdi. Opam rahmatli ham xuddi o'sha kuni uzatilgan ekan.

Erenko'y qishlog'idagi katta uyimni eslab eslab bilanman. Oradan ancha yil o'tgach, nimilarni ko'rgan Erenko'yga borib qo'yib pastakkinaga tosh devor bilan

~~uyimni eslab eslab bilanman~~  
SANA QANDI KOTIB QOYILG'AN  
VA SERVIS INSTITUTI  
KUTUBXONA XIZMATHI  
№ 57385

Nochorgina bir bog'. Maysa-giyohlari qurigan, nimjon butalar, so'ligan lavandalar ayqash-uyqash, onda-sonda esa chang bosgan, quriyozgan qarag'aylar uchraydi. Bog'ning ichkarisida esa hamma yog'i nurab ketgan shiypon huvullab yotibdi.

– Biz huv anavi uyda turardik, sen unda yosh bola eding, – deyishdi menga. – Uyni keyin sotib yuborganmiz...

Istanbulning eski mahallasi bo'lmish Oqsaroydagi boshqa bir uyimiz juda yaxshi esimda. Bu joyni besh qo'limday bilaman. Agar o'sha tomonlarga yo'lim tushib qolguday bo'lsa, ilojini topib o'zimiz turgan mahallaga albatta kirib chiqaman. Eski uyimizning ro'parasida bir tup sadaqayrag'och bo'lardi. Hozir uning faqat tanasi qolgan, shoxlarini kesib tashlashibdi.

Men shu qayrag'och tagida hamisha bir zum to'xtab o'taman. Ko'chaning narigi betida ilgarilari xom g'ishtdan qurilgan yoki sinchli bir qavatli eski uylar bo'lardi. Hozir asar ham qolmagan ulardan. Qolaversa, bular unchalik esimda ham yo'q. Ammo jimjimador, chiroyli naqshlar bilan bezatilgan uyimizning old tomoni, muyulishdan to quduqqacha yetgan baland devor hozirgiday ko'z o'ngimda... Ana ikki tabaqali eshigi bor pastakkina keng darvoza... Undan shinaimgina hovliga kiriladi. Kunning eng issiq paytlarida ham bu yer hamisha salqin va sokin bo'ladi...

Serbar va yassi zinadan chiqsam, salomxonaga – uyning erkaklarga ajratilgan bo'limiga kiraman. Xuddi boshqa bir, olamga kelib qolganday bo'laman. Moviy va qizil ranglarga bo'yalgan devorlar, tillarang hallari o'chinqiragan pastak shiftlar, billur qandilli uzun yo'laklar, derazalariga og'ir Damashq pardasi tutilgan hazin ham bo'm-bo'sh xonalar.

Birma-bir xonalarni aylanaman, sinchkovlik bilan hamma narsaga razm solaman... Garchi uy ichida xayolan kezib yurgan bo'lsam ham bolalikdagi hamma voqealar esimga tushadi. Xonalardan biriga kirib, devordagi taxtacha oldida to'xtab qolaman. Forscha bitilgan jimjima yozuv tilsimli suratga o'xshaydi. U paytlari men o'qishni bilmasdim, ammo suratga o'xshagan bu narsa miyamga shunday o'tirishib qolgan ekanki, oradan shuncha vaqt o'tishiga qaramay, shu

taxtachaga bitilgan forsha yozuvni hozir ham yoddan o'qib berishga qurbim yetadiganday.

Salomxonadan yuqoriga – ayollar uchun ajratilgan xonalarga torgina zinadan chiqiladi. G'ira-shira yorug' tushib turadigan bu zina bir eshikka borib taqaladi. Eshikka ko'kimtir, xira oyna qoplangan. Sababini bilmayman-u, lekin, nazarimda, bolalik yillarimdagi hamma muhim voqealar mana shu eshik ro'parasida sodir bo'lganday.

Ramazon oylarida uydagilar kechqurunlari namoz o'qish, Qur'on tushirish uchun kiraverishdagi keng xonaga to'planishardi. Men enagam Kamyob xalfa bilan oynaband eshikning tagida turib, shu yerda fotihaga qo'l ochardim, tushunib bo'lmaydigan so'zlarni pichirlab duo o'qirdim.

To'ng'ich akam rahmatli to'y kuni qallig'ini mana shu eshikdan olib o'tgan. Hali-hali esimda, kelinning boshidagi oppoq chodra eshikning kesakisiga ilinib qolgandi. Akam bo'lsa zinadan turib, pastdagi mehmonlarning ustiga hovuch-hovuch tanga sochish bilan ovora edi.

Muzaffar akam ikkovimiz birinchi marta maktabga ketayotganimizda shu eshik oldida dadamning qo'lini o'pganmiz. O'shanda ikkalamiz boshimizga har xil munchoq qadalgan telpak kiyib, zarhal hoshiyali chiroyli jildlarni bo'y-nimizga osib olgandik...

Bir kuni ukam Suadni ham oq kafanga o'rab, shu eshikdan olib chiqishuvdi. Suad mendan atigi bir yosh kichik edi, to'satdan o'lib qoldi. Bu yog'ini so'rasangiz, uyimizga o't ketgan o'sha kechasi Kamyob xalfa qo'limdan mahkam ushlagan cha o'zini zinaga urgan va shu eshikka yetganida qoqilib yiqilgan edi...

Uzoq kechmishdagi o'sha betakror kunlarni eslasam, shularning hammasi bir-bir ko'z o'ngimdan o'tadi va yuragimning allaqayeri jiz etib, bir zum hapriqib ketadi...

Shunday. Qayrag'och tagida bir lahza tursam bo'ldi, yana o'z holimga qaytaman, yana o'sha ilgarigi ismi jismiga monand Iffatga aylanaman.

Keyinchalik eshitishimcha, onam qo‘l-oyog‘i chaqqon, sarishta, ro‘zg‘or tebratishni yaxshi biladigan ayol bo‘lgan ekan. Uning o‘limidan keyin ro‘zg‘orimiz butunlay izdan chiqib ketdi. Dadam uyga qayrilib qaramasdi, rahmatli katta akam o‘taketgan o‘yinqaroq bo‘lib, qo‘liga tushgan narsani yeb sovurardi, opalarimning esa parvoyi falak edi. Shu vajdan hammamiz uydagi chalasavod murabbiylar bilan g‘irrom boshqaruvchilarning qo‘liga qarab qoldik. Butun ro‘zg‘orning izmi shularning qo‘lida edi. Buni hatto men ham bilardim.

Dadam ikki haftada bir marta saroyga borib kelar, boshqa kunlari esa xonasiga kirib olib, nuqul semiz-semiz arabcha va forscha kitoblarni mutolaa qilardi.

Mahmud afandi degan murabbiyimiz bo‘lardi. U bizga ham qadrdon do‘st, ham ustoz edi. Oilamizni men usiz tasavvur qilolmasdim. Mahmud afandi Muzaffar akam bilan meni o‘qitardi. Uyi Sarigo‘zal tomonda bo‘lib, faqirona hayot kechirardi. Mahmud afandi bir paytlari boshiga salla o‘rab, machitga imomlik qilgan, deyishadi. Keyinchalik boylarning uyidan dars olib, shu bilan tirikchilik o‘tkazadigan bo‘libdi.

Dadamni kamdan kam ko‘rardim. Baland bo‘yli, baquvat, yurganida ham sipolikni qo‘ldan bermaydigan mo‘ysafid edi u. Boshiga doim kuloh kiyib yurar, oq oralagan uzun sochlari esa hamisha keng kiftlariga tushib turardi. Ikki beti qip-qizil, burni yo‘g‘on, tikanday o‘tkir jingalak soqolli bu odamni ko‘rganimda meni mehrdan ko‘ra ko‘proq vahima chulg‘ab olardi. Dadamning ko‘ziga tik qarayolmasdim – katta, tim qora ko‘zlari payvasta qoshlar tagida chaqmoqday chaq nab turardi.

Dadam men bilan hecham gaplashmasdi. Goh-gohida u menga muruvvat ko‘rsatib, iyagimdan qattiq chimchilab tortqilar yoki yelkamga qars etib bir tushirib qolardi. Uning uchun bu eng katta iltifot edi.

U movut chakmoniga o‘ralib, katda kun bo‘yi eski kitoblarni titkilab o‘tirar, ba‘zan esa odob bilan qarshisiga tiz

cho'kkan Mahmud afandiga yangroq forsha baytlardan o'qib berardi. Dadamni xuddi shu holatda esda saqlab qolganman.

\* \* \*

Meni onamning enagasi, cherkas kampir – Kamyob xalfa boqib katta qilgan. Onam o'lganidan keyin u menga onalik qildi, men ham butun vujudim bilan unga o'rganib qoldim.

Ko'shkning yuqori qavatida o'zi chog'roq bo'lsa ham lekin yorug'gina bir xona bo'lardi. Kamyob xalfa ikkovimiz ko'pincha shu xonada o'tirardik, ovqatni ham ba'zan o'sha yerda yerdik.

Bu xonaning derazasidan ham bog'imiz, ham machitning hovlisi ko'rinib turardi. Kechqurun bolalar machitning hovlisiga to'plangan paytlarda men stullarni deraza yoniga surib, uydagi bolishlarni ustiga to'shardim, keyin stulga, undan tokchaga chiqib, bolalarning shovqin-suronini tomosha qilib o'tirardim. O'zim betoqat bola bo'lganim uchun ochiq havoda goh quvlashib, goh urishib o'ynab yurgan tengqurlarimni ko'rib havasim kelardi. Kim bilan o'ynashni bilmay, uyda yolg'iz o'sdim. Ochig'i, o'zim tengi bir gala xolavachcha va ammavachchalarim ham bor, ular ba'zan biznikiga kelib turishadi. Lekin magazin oynasiga qo'yilgan qo'g'irchoqqa o'xshab, kiyim-boshi yaltiroq, olifta va sermulozamat bayovlar menga yoqmas, ular bilan o'ynagim kelmasdi. Mening fikr-yodim ko'chada edi, bir-biri bilan goh mushtlashib, qo'lidagi nonini olib qochadigan, goh aravaga osilib, goh daraxtga tirmashadigan o'yinqaroq bolalarga talpinardim. Ko'nglim shularni qo'msardi. Ammo ular bilan o'ynash u yoqda tursin, bizni hatto ko'chaga ham chiqarishmasdi.

Akam bilan mening maktabga borishimiz zo'r tantana bilan boshlandi. Darvozaning oldida bizga fayton muntazir turibdi, sal narida bir gala o'quvchi bolalar saf tortgan. Bolalar qiroat bilan har xil oyatlar o'qishadi. Kiyim-boshim yangi bo'lgani uchun o'zimni noqulay sezaman. Bo'ynimda zarhal hoshiyali jild, boshimda munchoq qadalgan chiroyli



telpak. Bolalarga tezroq qo'shilsam degan umidda turgan joyimda betoqat bo'laman.

Lekin butun umidlarim puchga chiqdi. Bizning maktab ana shu tantanali muqaddima-yu chiroyli naqshlar bilan bezatilgan lavh ustidagi charm muqovali, zarhal haftiyakni o'qish, keyin esa muallim domlanning qo'lini o'pish bilan tugadi.

Shundan keyin Mahmud afandi haftasiga ikki marta biznikiga keladigan bo'ldi. U Muzaffarga xat-savod o'rgatardi. Men ham saboq olardim. Akam o'qilgan narsalarni tushunar, men bo'lsam hali yosh bo'lganim uchun bir chekkada og'zimni qo'lim bilan to'sib, jimgina esnab o'tirardim. Garchi maktab yoshiga yetgan bo'lsam ham, xuddi qiz boladay hamon ostona hatlab ko'chaga chiqolmasdim. Birinchi marta hayotdan ko'nglim sovishiga ham shu sabab bo'ldi.

### 3

Ichimdagi dardimni faqat Kamyob xalfa tushunardi va qo'ldan kelganicha yupatardi meni. Enagam yoshlikda o'zi bilan birga cho'rilik qilgan dugonasi Mohpaykar xalfanikiga boradigan bo'lsa, ko'pincha meni ham olib ketardi. Mohpaykar xalfa Qiztoshi tomonda turardi – hozir ming uringan bilan baribir o'sha joyni topolmayman.

Mohpaykar kampirning tor ko'cha boshidagi ko'rimsiz, eski va qiyshiq kulbasi men uchun dunyodagi eng shinam, eng oromijon maskan edi. Shu yerda men o'zimni qushday erkin sezardim. Uy egasining Murod degan o'g'li bilan apoq-chapoq bo'lib ketdim, ikkovimiz hamisha birga bog'ga chiqib, qushlarga tuzoq qo'yardik yoki hovlida chillak o'y-nardik.

Keyinchalik o'sha yerda boshqa do'stlar ham orttirdim.

Mohpaykar xalfaning uyidan chiqib, besh daqiqacha yayov yurilsa, muyulishda maktab ko'rinadi. Mahalladagi bolalar bilan Murod shu maktabda o'qishardi. Ularni ko'rib rosa havasim kelardi.

– Men ham maktabga boraman... Meniyam olishsin, – deb enagam bilan Mohpaykar xalfaning qulogʻini bitirdim.

Oxiri ikkovining menga rahmi keldi shekilli, Murodga qoʻshib meniyam maktabga eltib qoʻyishdi.

– Iffatni mehmon oʻquvchim deb bilsangiz, baʼzan kelib tursa, domla afandim, – iltimos qilishdi ular muallimdan. – Maktabga boraman, deb yigʻlab qoʻymayapti. Hecham ovutib boʻlmayapti...

Mana, nihoyat, murodimga yetdim. Endi haftada bir-ikki marta maktabga qatnaydigan boʻldim. Ochigʻini aytsam, „mehmon“ boʻlib kelib-ketish sal oriyatimga tegardi. Domlamiz menga marhamat koʻrsatib, yonida olib oʻtirardi; dars qilmay kelgan kunlarim urib-soʻkmasdi; mabodo toʻpolon chiqarsam, boshqa bolalarga oʻxshab qulogʻimdan choʻzmas, hech nima koʻrmaganday parvo qilmay oʻtiraverardi.

Katta odamlarga oʻxshab bolalarning ham oʻziga yarasha dardi va alami boʻladi. Ular shu dard-alamlarini ichlariga yutib yurishadi. Nafsoniyat ham shunday... domla yalangoyoq oʻrtoqlarimdan meni ajratgani uchun shunaqayam oʻkinib yurardimki. Meni ulardan ustun qoʻygani uchun yayrab shoʻxlik qilolmasdim, xohlagancha mushtlasholmasdim.

\* \* \*

Bir kuni hammamizni qandaydir bir maʼrakaga aytib ketishdi. Domla bolalarni hovliga yigʻib, endi saflab boʻlgan ham ediki, toʻsatdan enagam kelib, qoʻlinga yopishdi.

– Sen u yoqqa bora koʻrma. Dadang eshitib qolsa, naq ikkalamizning taʼzirimizni beradi.

Boshimni egib, xomush safdan chiqdim, enagam bilan bir chekkaga borib turdik.

Bolalar yurib ketishdi. Ular qoʻl ushlab, baravar qadam tashlab borishar, nimanidir tilovat qilib, ketidan: „Omin!“ – deb qichqirishardi. Havasim kelib, ularning ortidan qarab qoldim, keyin alamimga chidayolmay enagamga yopishib, hoʻngrab yigʻlab yubordim. Koʻz yoshim taʼsir qildi shekilli, u indamay qoʻlimdan ushladi-da, birov koʻrib qolmasin,

degan andishada meni tor ko'chalardan boshlab ketdi. Bir-pasda bolalarga yetib oldik. O'rtoqlarimning safiga qo'shilib olib, men ham dam-badam „Omin!“ – deb qichqirib bordim. Yoshimga yosh qo'shilib, ulg'ayib qolgandayman. Yig'i ham to'xtagan. Navbat endi enagamga kelgan ko'rinadi: u tez-tez ro'molchasi bilan ko'zini artib, eng orqada sudralib kelmoqda.

Maktabga qaytib kelsak, ma'arakadan shirin kulchalar yuborishibdi. Hammamiz yopirildik. Shundan keyin soqolli bir janob kattagina qizil to'rvasini ochib, bir hovuch yap-yangi tanga oldi-da, bolalarga bo'lib bera boshladi.

Navbatim kelganida men ham qo'limni cho'zdim. Lekin domla shosha-pisha:

– Bu bola Xolis posho janoblarining o'g'illari bo'ladi, – deb uni to'xtatdi.

– Iya, shundaymi!.. Xo'sh, azamat, o'qishlar qalay?

Soqolli amaki betimni silab, istihola aralash nari o'tib ketdi. Men bo'lsam qo'limni uzatganimcha angrayib qoldim. Nima, hamma qatori men ham: „Omin!“ – deb baqirmadimmi, shu beradigan tangasiga loyiq ish qilmadimmi?! O'rtoqlarimning oldida meni o'sal qilgan domlaning bu qilmishini ko'nglimga tugib qo'ydim.

\* \* \*

Domla afandimiz Bolgariya tomondan ko'chib kelgan bo'lsa kerak. Tabiati hazil-mutoyibaga moyil bo'lgani uchun hammaga laqab qo'yardi. Meni negadir „Botir“ derdi.

Ba'zan u maktabda hammani yoppasiga savalab chiqardi. Aytaylik, birorta odam kelib, shogirdlaringiz bog'ga kirib, olxo'ri o'g'irlashdi, deb arz qiladi. Yana biri siz namozga ketganingizda bolalar tosh otib, oynani sindirishdi, deydi. Bolalarga ko'z-quloq bo'lish – domlaning ishi, albatta. Shuning uchun ham u aybdor bolani topolmasa, hammaga baravar jazo berardi. Sho'xlik qilgan bola ham, albatta, jazodan qochib qutulolmasdi. Biz ham buni eng to'g'ri yo'l deb bilardik.

Bir kuni domla yana namozga ketganida uch-to'rtta shumtaka sinfxonada mushuk tutaman deb lavhlarni ag'darib, siyohdonlarni to'ntkarib yuborishdi.

Domla qaytib kelgach, rosa xunobi oshdi. U indamay eshikning qulfini soldida (yalpi jazo berilganida shunday qilinmasa, bolalar qochib ketishi mumkin edi-da), yeng shimarib ishga kirishib ketdi.

Maktabdagi jazo usulini o'sha kuni birinchi marta ko'rdim. Sinfxonada qiy-chuv ko'tarildi, bolalar ho'ng-ho'ng yig'lab, o'zlarini oqlamoqchi bo'lishardi.

- Menda ayb yo'q! Xudo haqqi, yo'q!
- Oyijon! Oyi!
- Men qilganim yo'q! Rahm qiling!

Ammo domla afandining parvoyi falak - u bolalarni galma-galdan yechintirib, faloqqa bog'lash va tovoniga tayoq urish bilan band. (Maktabda shunday taomil bo'lardi: o'z „nasibasi“ni olgan bola yig'lab-siqtab sherigining oyog'ini ushlab turardi. Shu tariqa u bironing azobini ko'rib, o'zining og'rig'ini sal esdan chiqarardi.)

Sinfimizda Tohir sassiq degan bola bo'lardi. Kaltak yemagan bitta o'sha qolardi. O'zi juda nimjon, kasalmand bola edi. Faloqqa yotish navbati unga kelganida har gal ichi o'tib ketardi.

Hali-hali esimda - o'sha kuni maktabga qora gulli, qizg'ish kastum kiyib kelgan edim. Sinfidoshlarim inqillab, ohvoh qilib turishgan edi, bir chekkaga borib shosha-pisha oyoq kiyimimni yechdim. Navbat menga yetganida to'g'ri muallimning oldiga bordim:

- Paypoqni ham yechaymi, domla afandi?

Boshqalarga o'xshab yig'lamayotganimni, aksincha, jazoga jon deb tayyor turganimni ko'rib boyoqishning kapalagi uchib ketdi. Nima deyishini, meni qandoq qaytarishini bilmay, o'ylanib qoldi.

- Sen nari tur, - dedi u oxiri. - Mehmonsan...

Domla ko'rsatgan tomonga qarasam, Tohir sassiq turibdi. Qurtlagan tishini ko'rsatib, bir nima deb iljayadi.

O'rtoqlarimni tashlab, o'shaning oldiga boramanmi? Bundan ham ortiq sharmandalik bo'ladimi?

– Men mehmon emasman bu yerda, domla afandi! Hamma qatori men ham jazo olishim kerak.

Jamiki tantiq bolalarga o'xshab ovozimda iltimos emas, buyruq ohangi yangradi.

– Ha, mayli, yotsang yotaqol! – dedi domla birpas ikkilanib turgach.

Domla ehtiyot bilan oyog'imni ko'tarib, qo'lidagi tayog'i bilan ikki-uch marta tovonimga asta urib qo'ydi...

Darsdan keyin meni oldiga chaqirdi. Ko'zida mehr va shafqat porlab turardi – buni birinchi ko'rishim edi.

– Obbo botir-ey! Sendan durust odam chiqadiganga o'xshaydi, – dedi u qulog'imdand cho'zib.

#### 4

Maktabimizda Umar chittak degan bola bo'lardi. Havo sovuq bo'lsa, maktabga nuqul oyisining guldor to'r ko'ylagini kiyib kelardi. Shuning uchun men uni „Umarnisa“ deb chaqirardim. Umar ham menga laqab topib qo'ygan edi. Sochim sap-sariq bo'lib, buning ustiga ko'zoynak taqib yurganim uchun (uzoqni yaxshi ko'rolmasdim) u meni „Yahudiy malla“ deb chaqirardi.

Kunlardan birida biz, odatdagidek, tushki tanaffusga chiqib, maktab bog'ida uydan olib kelgan narsalarimizni yeb o'tirgan edik. Oltin kuz pallasi. Chinor barglari yerga gilamdek to'shalgan. Ro'paramda Umar non bilan zaytun yeb o'tiribdi. Meniki kotlet, jonimga tekkan. Shuning uchun Umar bilan almashmoqchi bo'ldim. U jon deb ko'ndi. Menga non bilan zaytun, Umarga esa kotlet juda ma'qul keldi, maza qilib yeya boshladik.

Bolalardan kimdir Umar Iffatni aldab, ovqatini tortib oldi, deb domlaga chaqibdi. Darg'azab bo'lgan domla yugurib kelib, Umarni nimjon yelkasidan bir siltab turg'izdi-da, betiga ikki tarsaki tushirdi. Keyin qo'lidan kotletni yulqib olib, menga uzatdi. Qo'rqib ketganimdan tilim aylanmay qoldi. O'zimga kelgach, rosa vijdonim azoblandi: meni deb Umar boyoqishga jabr bo'ldi-da...

Shu-shu Umar chittakka elakishib qoldim. Dars paytida yonida o'tiradigan, tanaffusda esa birga o'ynaydigan bo'ldim. Hayot nimaligini men birinchi marta o'sha Umar chittakdan o'rgandim. Qattiqchilikni ko'rgan ko'pchilik kambag'al bolalarga o'xshab, uning ham bilmagan va eshitmagan narsasi kam bo'lardi.

– Mening buvim falaj bo'lib yotibdi, – derdi u kuyunib.  
– Oyim birovlarining kirini yuvib beradi... Biz kechqurunlari ko'pincha qorong'ida o'tiramiz. Ba'zi kunlari och-nahor yotamiz...

Oyisining to'r ko'ylagini kiyib kelgan kunlari Umarni mayna qilganlarim esimga tushsa, ich-ichimdan zil ketaman.

Oilaning butun umidi harbiy maktabda o'qiydigan to'ng'ich akasidan ekan. Lekin u maktabni bitirib, endi ofitserlik unvonini olay deganda boshiga katta tashvish tushibdi: u tuhmatga uchrabdi, sudga tushibdi va Fizon<sup>1</sup> ga surgun qilinibdi.

Akasidan gap ochilsa, Umar jiddiy tortib, ma'yusgina boshini quyi solardi.

– Akam yonimizda bo'lganida bunchalik xor bo'lmasdik...

Bir kuni to'satdan miyamga bir fikr keldi.

– Bilasanmi, Umar, xayolingga bir fikr keldi. Dadamdan iltimos qilib ko'rsam-chi. Axir posho degan nomi bor-ku. Sultonga aytsa, akangni gunohidan o'tar.

Azbaroyi xursand bo'lganidan Umar bo'ynimga osilib oladi, deb o'ylagan edim, yo'q unday bo'lmadi. U chollarga o'xshab labini burdi-da:

– Foydasi yo'q! – deb boshini chayqadi.

Biroq akasini qutqarish xayoli miyamga mahkam o'r-nashib qolgan edi. O'sha paytlari hamma narsa menga oson va oddiy bo'lib ko'rinardi.

Ikki-uch marta dadam o'tirgan xonaning oldiga bordim, kira solib uning oyog'iga o'zimni tashlamoqchi ham bo'ldim. Hatto bir marta yurak yutib ichkari kirdim ham, lekin

<sup>1</sup> Fizon – Liviya sahrosi (Shimoliy Afrika)dagi surgun joyi. 1911-yildagi Tripolitaniya urushidan keyin bu joylar Usmonli imperiyasidan Italiyaga o'tgan.

dadamga ko'zim tushishi bilanoq tilim g'uldurab, gapirolmay qoldim.

Nima ham bo'lib bir kuni qattiq shamollab qoldim. Ko'rupa-to'shak qilib yotib oldim. Sovuq terga tushib, alahsirab yotibman-u, hamon Umarning akasi ko'z o'ngimdan ketmaydi. Bir mahal kechasi yomon tushdan cho'chib uyg'onib ketdim. Bundoq qaragam, dadam tepamda o'tirgan ekan. Dadam peshanamni ushlab ko'rgach, sekin boshimni silab qo'ydi. Hamisha bilagiga solib yuradigan kahrabo tasbehi shu on yuzimga muzdek tegdi.

– Xo'sh, Iffat, qalaysan? Qayering og'riyapti?

Dadamga tikilib turdim-u, lekin churq etmadim.

– Balki ko'ngling biror nima tusayotgandir? Aytaver, bozordan olib beraman.

Dadamning bunchalik mehribon va mushfiq bo'lishini endi ko'rib turgandim. Shu topda menga mehri tovlanib, kasal holimga achinayotganini bolalarga xos bir idrok bilan sezdim.

Ikkala qo'lim bilan boshimni silayotgan qo'lga yopishdim, keyin ho'ng-ho'ng yig'lab, uni labimga tutdim.

– Menga hech nima kerakmas, posho dada... Umarning akasini qamoqdan bo'shatishsa bo'ldi... Bechoralarga qiyin bo'ldi...

– Umaring kim? Qanaqa Umar?

– Maktabimizdagi... Umar chittak... Akasiga tuhmat qilishgan, surgunda... Sulton otamizdan iltimos qiling, yolboring, gunohidan o'tsinlar.

Dadamning qovog'i uyuldi.

– Bu gapni senga kim o'rgatdi?

U kishining yana avzoyi buzildi. Noma'qul ish qilib qo'yganim uchun meni qaltiroq bosdi. Churq etmadim, yana isitmasi ko'tarilgan odamday ko'zimni chirt yumib oldim.

Darvoqe, mendan u javob kutgani ham yo'q. Jerkib-jerkib enagamdan allanimalarni surishtirdi.

Shu orada men rostakamiga hushdan ketib qolibman.

Bir necha kundan keyin sog'ayib ketdim. Enagamdan birinchi so'ragan narsam shu bo'ldi – Mohpaykar xalfanikiga

qachon boramiz? Maktabga deb so'ragani tilim bormadi. Lekin enagam nimkosani darhol payqadi:

– Maktabni endi tushingda ko'rasan. Tamom! Seni deb rosa gap eshitdim... Oppoq sochim bilan-a!..

Umar chittak bilan shu tariqa vidolashdim. Egniga oyi-sining to'r ko'ylagi-yu oyog'iga buvisining shippagini kiyib, uyimizning oldida aylanib yurganini bir-ikki marta ko'rdim. Nuqul ikki ko'zi bizning derazada.

Keyin ahvoli nima kechganini bilmayman. Mutlaqo ko'rinmay ketdi. Uni qayta uchratmadim.

## 5

Dadam bizni negadir maktabga bergisi kelmasdi. Mahmud afandi akamni o'n yetti yoshgacha, meni esa o'n to'rtga kirguningimcha o'qitdi. Bundan tashqari biz oila shifokorimiz Isroil-beydan fransuz tilidan haftasiga ikki marta dars olib turdik.

Yillar o'tishi bilan Mahmud afandi yurakdan mehr qo'ygan enagam Kamyob xalfaning o'rnini egallay boshladi. O'ziyam nihoyatda shirinso'z, og'irtabiat odam edi. Hayotda eng asosiy narsa – bu ilm-ma'rifat va itoatdir, derdi bu zo-hid. „Mening uchun shogird qotil bo'lganidan maqtul bo'lgani afzal!“ – uning eng yaxshi ko'rgan iborasi shu edi.

Mahmud afandi Muzaffardan ko'ra ko'proq menga mehr qo'yganini sezib yurardim. Akam qandaydir loqayd, kamhafsala bola bo'lib o'sdi, bir narsadan quruq qolganday hamisha po'ng'illab yurardi. Lekin shu bilan birga u kalondimog', qo'rs bola edi – Mahmud afandini uy xizmatchisiday ko'rardi.

Oldin Oqsaroyda, Oqsaroydagi uyimizga o't tushganidan keyin Findiqlida turdik. O'n to'rt yoshga to'lguninga qadar davom etgan bolalik yillarim shu zaylda behalovat kechdi.

\* \* \*

Dadamdan ikki yosh kichik bir ammam bo'lardi. Qoramursalning Domlajiq degan joyida eridan yer-suv qolgan bo'lib, ammam o'sha yerda yashardi. Xatija ammam ikki qizi



bilan beva qolgan o'sha kezlarda dadam uni Istanbulga, yoniga chaqirgan ekan, lekin ammam ko'nmabdi, yer-suvini ko'zi qiymabdi.

Dadam har yili yozda Muzaffar ikkovimizni dam olgani ikki oyga Domlajiqqa jo'natardi. Arifmetika darsida men yana necha kundan keyin qishloqqa jo'narkinmiz, deb hisoblab o'tirardim. Mahmud afandi buni sezibdi shekilli, dars paytlarida og'zimni daftar bilan to'sib, esnab o'tirganimni ko'rdi deguncha so'rab qolardi:

– Qani, Iffatbey, manavini top-chi: bugun o'n ikkinchi fevral, Qoramursalga birinchi iyunda jo'naysiz, xo'sh, yana necha kun qolibdi?

Yoki bunday derdi:

– Orol nima? Domlajiqqa ketaverishdagi tegirmon esingdami? O'sha tegirmonning oldidan soy o'tadi-a? Soy o'rtasida quruq yerlar bor, ya'ni atrofi suv, o'rtasi – yer. Orol deb ana shunga aytiladi. Bular juda kichkina orollar, albatta. Bir to'da orolga esa...

Qoramursal degan nomni eshitsam, allanechuk bo'lib ketardim. Nazarimda bug'doyzorlar oralab o'tgan issiq yoz shamoli lop etib betimga ufurganday bo'lardi.

Qoramursalda men yayrab-yayrab o'ynar, bir yil uyda o'tirib zerikkanlarimning xumorini o'n hissa qilib chiqarardim. Xatija ammam meni o'pib boshiga qo'yar, nima sho'xlik qilsam ham, sira koyimasdi. Enagam Kamyob xalfa oldiniga ko'z-quloq bo'lib turmoqchi bo'ldi-yu, lekin buning uddasidan chiqolmaganidan keyin o'z holimga qo'yib berdi.

Ammamning qo'rg'onida o'zim tengi bolalarni topib oldim. Bular xizmatkorlarning bolalari edi. Keyin qo'ni-qo'shnilarniki ham yig'iladigan bo'ldi. Xullas, kattakon lashkar to'pladik. Hammamiz chuvullashib goh qushlarga tuzoq qo'yamiz, goh yaqinginadan o'tadigan soyda baliq tutamiz.

Akam mendan norozi. Bolalar bilan yalangoyoq ko'cha changitib, pichan g'aramiga ag'anayman, ot qo'shilgan tosh molaga chiqib, gir-gir aylanaman, dov-daraxtlarga tarmashaman yo qishloqi bolalar bilan mushtlashaman. Buni ko'rib akamning tepa sochi tikka bo'lib ketadi.

– Qorachalar bilan o‘ynama, ayb bo‘ladi! Meni sharmanda qilyapsan, axir... Kim aytadi seni poshoning o‘g‘li deb... Qarab tur, dadamga yozib yuboraman xatda, – deb po‘pisa qiladi.

Domlajiqda meni deb enagam boyoqish Kamyob xalfaning tinka-madori quridi. Bechora kampir mendan xavotirlanib, doim yuragini hovuchlab yurardi. Biz qayoqqa borsa, u ham o‘sha yerda edi – ketimizdan halloslab tepalikka chiqar, sal nafasini rostimay turib, chopqillab pastga tushar, keyin tikanzorga o‘zini urib, u yerdan hamma yerini yumdalab-tirnab chiqardi. Bunaqa paytlarda qattiq koyib berardi, albatta, lekin imonim komilki, mendan rostakamiga ranjimasdi. Chunki yil bo‘yi uyda qamalib o‘tirganimni bilar, bunga o‘zining ham yuragi achishib yurardi.

Yozgi ta’tildan keyin Istanbulga hamisha boshqacha bo‘lib qaytardim. Terisi oftob tig‘iga dosh berolmaydigan hamma mallalalarga o‘xshab etim bot-bot po‘st tashlardi. Yong‘oq o‘ynayverib, qo‘llarim qorayib ketgan, yuz-ko‘zim, oyoqlarim tilingan, yara-chaqa...


## 6

Qo‘rg‘ondan chiqib, o‘n daqiqacha yurilsa, atrofi qalin yong‘oq daraxtlari bilan o‘ralgan eski bir tegirmon keladi. Bu tegirmon haqida mish-mishlar ko‘p: birov uni qarg‘ish tekkan joy desa, yana birov atrofidagi qamishzorga jinlar uya qurgan, o‘tgan-ketganni botqoqqa sudrab olib ketishadi, derdi.

Bolalar bilan tegirmon atrofida girdikapalak bo‘lardik-u, lekin bog‘ga kirib, yong‘oqxo‘rlik qilgani yuragimiz betlamasdi.

Shu sehrlı tegirmon hadida bir afsona bor. Buni enagamdandan eshitganman.

Qo‘rg‘on ro‘parasidagi baland tepalikda ilgari Kamarli degan qishloq bo‘lgan ekan. Shu qishloqda Oysha degan bir qiz bo‘larkan. Qiz nihoyatda suhbatchi ekan, sochlari taqimiga tusharkan. Uni Ismoil degan yigitga unashib qo‘yishgan.



ekan. Kunlardan bir kuni Ismoil askarlikka olinib, Yamanga urushga ketibdi... Oysha yetim o'sgan bo'lib, hech kimi yo'q ekan, qo'l uchida kun ko'rarkan. Oyshaning husn-jamolini ko'rgan va suyangan tog'i yo'qligini bilgan qishloq yigitlari uni tog'ga olib qochmoqchi bo'lib ko'p urinishibdi, ammo qiz ularning hiylasiga uchmabdi. Oxiri qishloq oqsoqollari o'zaro kelishib, Oyshani tegirmonchi G'affor og'aga olib bermoqchi bo'lishibdi. Qiz yum-yum yig'labdi. Mening sevgan yorim bor, cholga o'lsam ham tegmayman, deb turib olibdi. „Bilib qo'y Yaman degan joydan shu vaqtgacha hech kim sog' qaytib kelmagan. Qallig'ingdan umidingni uz, u allaqachon nobud bo'lgan“, deb uni avrab-aldashibdi. Qiz boyoqish nechog'li yig'lab-siqtab, nechog'li yalinib-yolvormasin, baribir uni cholga uzatishibdi.

Oradan ikki yil o'tibdi. Oysha yangi ro'zg'orga ko'nikib ketibdi. Shu zaylda kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Qarabsizki, kunlardan bir kuni Ismoil Yamandan soppa-sog' qaytib kelibdi... „Sendan umidimizni uzib, qallig'ingni G'affor og'aga olib berdik... Nachora, taqdir ekan, chidamay iloj yo'q“, deb hamqishloqlari uni yupatishibdi. Oldiniga Ismoil taqdirga tan berganday bo'libdi. Lekin keyin alamiga chidayolmabdi... Kechqurunlari ba'zan tegirmonning oldiga borib, hazin qo'shiqlar aytib o'tirarmish. Buni eshitib yurak-bag'ri ezilgan Oysha yum-yum yig'larmish.

Bir kuni Ismoil yo'lda Oyshani ko'rib qolibdi, G'affor og'a qishloqqa ketganida eshigingni ochib qo'y, men kelaman, debdi. Oysha ko'nmabdi. „Yo'q, Ismoil, bu gapingni qo'y... Odamlar eshitib qolsa, sharmanda bo'laman... G'affor og'a badjahl odam. Bilib qolsa seniham o'ldiradi, meniyam“, deb uni bu shaxtidan qaytarmoqchi bo'libdi.

Ammo Ismoil o'jarlik qilib, so'zida turib olibdi... Taqdir ekan, aytgani kelibdi. Bir kuni tunda oshiq-ma'shuqlar yuz ko'rishibdi. Hali ular hasratlashib, bir-birining visoliga to'yib ham ulgurmagan ekanki, birdan itlar vovullab, eshik taqillab qolibdi. Sezishibdiki, G'affor og'a qishloqdan bevaqt qaytgan. Tegirmonning ichida qayerga ham yashirinish mumkin? Shunda Ismoil bunday debdi: „Qo'rqma, Oysha... Men baribir o'larkanman. Shunday ekan, senga dog' tushir-

may o'lganim ma'qul... Bu yoqqa kelganimni endi hech kim bilmaydi. Shunday deb o'zini soyga otibdi. U butunlay g'oyib bo'libdi, hech qayerdan jasaki ham chiqmabdi. Ismoil o'lim oldidan ham ma'shuqasini, uning or-nomusini o'ylagan bo'lsa kerakki, hali-hali soy tagida xarsangtosh bo'lib yotarmish...

Shu afsona sabab bo'lib, men bu dunyoda ishq-muhabbat degan narsa borligini bildim. Ilgarilari tegirmonni ko'rsam, yuragimni vahm bosardi: uning atrofidagi quyuq yong'oq daraxtlari, bo'm-bo'sh ovloq joylar ko'zimga qabrison bo'lib ko'rinardi. Lekin Ismoil bilan Oyshaning ishq-muhabbatidan naql etuvchi bu oddiygina afsona yoshim ulg'aygan sari men uchun chuqurroq ma'no kasb eta bordi.

Quyuq qamishzordagi jinlardan endi qo'rqmayman. Oshiq yigit sharpasi meni o'ziga tortadi, qalbimda allaqanday mayin hazinlik, o'kinch uyg'otib yuboradi.

Sevgan yorining or-nomusi va iffati deb o'zini soyga tashlab halok bo'lgan baxtiqaro yigitdan qo'rqib yurishlik tentaklik emasmi, axir?!

Afsona meni ko'p narsaga o'rgatdi. Ishqda vafo bo'lishini, oshiq ma'shuqasi uchun o'zini qurbon qilishi lozimligini shu tariqa bilib oldim...

## 7

Muzaffar akam o'n yetti yoshga to'lishi bilan yelkasiga zarbof akselbant taqib, sulton hazratlariga adyutantlikka o'tdi. Uyda yolg'iz o'zim qoldim. Buning ustiga Mahmud afandi ham tez-tez darsga kelmaydigan odat chiqardi. Bir safar miyasiga qon quyilib yotib olganidan keyin boyoqish o'zini o'nglolmay qoldi.

Bir kuni kechga yaqin dadam meni xonasiga chaqirib qoldi:

- Seni litseyga bermoqchiman, Iffat. Ko'cha bolasi bo'l-may, yaxshi o'qishing kerak. Ertaga tayyor bo'lib tur!

Yetti uxlab tushimga kirmagan narsa ro'y berdi!! Suyunganimdan kechasi bilan uxlamay chiqdim.

Ertasiga ertalab Mahmud afandi meni izvoshda litseyga olib bordi. Meni imtihon qilib ko'rishdi, Mahmud afandi chindan ham yaxshi saboq bergan ekanmi yoki poshoning o'g'li deb siylashdimi, har holda yuqori sinfga qabul qilindim.

Maktabda baobro' oilalardan mendan boshqa bolalar ham bor ekan. Ular maktab hovlisida boshqalarga qo'shilmay o'zlaricha yurishar, o'zlari o'ynab, o'zlari kulishardi. Meniyam yonlariga olmoqchi bo'lishgandi, ko'nmadim. Men kekkayish nimaligini bilmasdim, sodda va kamtar bola edim. Chinakam do'stning, samimiy muhabbatning gadosi edim. Bir-birini faqat „bey afandim“ deb chaqiradigan va o'yin-kulgiga qo'shilmaydigan bu sermulozamat, dimog'dor va sipo boyvachchalar jinimga yoqmasdi. Meni boshqa toifadagi bolalar o'ziga tortardi. Shulardan o'rtoq topib, tez kunda do'stlashib ketdim.

Tabiatan quvnoq va ko'ngli ochiq bola bo'lganim uchun hamma bilan elakishib ketaverardim. Sinfirmizda yoshi bizdan kattaroq Jalol degan bola bo'lardi. Juda jiddiy edi, yaxshi o'qirdi, boyvachchalarni sira yoqtirmasdi. Oldiniga mendan ham yotsirab yurdi-yu, ammo keyinchalik murosamiz kelishib, menga mehri tovlanib ketdi.

Litseyga kelganimda yosh bola edim. Biroq u yerda tez ulg'ayib, katta bo'ldim. Yozgi ta'tilda haliyam Domlajiqqa borardim. Bundoq qaraganda men hamon o'sha quvnoq, sho'x va o'yinqaroq Iffatning o'zi edim-u, lekin yildan yilga og'ir-vazmin tortib, serfikr bo'lib borayotganimni o'zim ham sezardim.

Endi men ilgari qushlarga tuzoq qo'ygan joyimda – daraxtlar soyasida soatlab kitob o'qiyman yoki shirin xayollar og'ushida yotaman.

Jalol akam bilan do'stlashib ketdik. Tabiatan u mard va jo'shqin, isyonkor edi. Saroy amaldorining o'g'li ekanligimni unutilib, menga ozodlik va konstitutsiya haqida gapirib berardi. U sultonning beboshliklari-yu saroy a'yonlarining kirdikorlarini qattiq savalar, Nomiq Kamol<sup>1</sup>ning she'rlarini

<sup>1</sup> Nomiq Kamol (1840–1888) – atoqli turk adibi va jamoat arbobi, sultonni yevropacha burjua-liberal islohotlar o'tkazishga, shu jumladan, konstitutsiya qabul qilishga majbur etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan „Yangi usmonlilar“ maxfiy jamiyatining a'zosi.

yoddan o'qib berar edi. Shu vaqtga qadar butunlay boshqa gaplarni eshitib yurgan edim, menga boshqacha g'oyalarni, hayot to'g'risida boshqacha tasavvurlarni singdirmoqchi bo'lishgan edi. Demak, men endi oilamizga bo'lgan munosabatimni o'zgartirishim, tug'ishganlarimdan voz kechishim lozim edi. Lekin, shunga qaramay, Jalolning gaplari to'g'ri ekanligiga tezda qanoat hosil qildim.

Ishqiy romanlardan tashqari endi, yashirincha, taqiqlangan kitoblar o'qiydigan bo'ldim. Bu kitoblarda ozodlik uchun kurash haqida, revolutsiya to'g'risida gap borardi.

Yangi do'stim bilan faqat bir narsada kelisholmay qoldik:

Jalol faqat qilich va o'q bilan adolatga erishish mumkin deb hisoblardi; xayolparast va optimist bo'lganim uchun men muxoliflar bir-biriga yon bossa, murosa qilsa, hammasi to'g'ri bo'lib ketadi, deb o'ylardim. Ehtimol, bunga sabab – u o'limga mahkum etgan qarshi lagerda qarindosh-urug'larim, yaqin odamlarim bor bo'lganligidir.

## 8

Nihoyat, litseyning oxirgi sinfiga o'tdim. Dadam imtihonlar tugashi bilan meni ham Muzaffarga o'xshab sultonga adyutantlikka bermoqchi ekanini aytdi. O'zimga qolsa, Mulkiya<sup>1</sup> maktabiga yoki universitetning yuridik fakultetiga kirib o'qisam degandim. Saroy xizmatiga sira toqatim yo'q. Biror viloyatga borib, sidqidildan, halol xizmat qilish men uchun oliy mukofot edi. Shuhratparastlik nimaligini bilmasdim. Kichikroq bir hovli-yu jo'jabirday jon bo'lsa bas, menga boshqa narsa kerakmas. Odam bolasi uchun oilani, bolalarini o'ylab mehnat qilishdan ham kattaroq baxt bormi?!

Ba'zan do'stim Jalolga ichimdagi shu gaplarni to'kib so-lardim.

– Tashvish qilmasang ham bo'ladi, Iffat, – deb yupartardi u meni. – Hayotdan juda oz narsa so'rayapsan, albatta baxtli bo'lasan.

---

<sup>1</sup> Mulkiya – fuqarolar muassasalari uchun xizmatchilar tayyorlaydigan maktab.

Sovuq va tund qish kuni. Bu kun hecham esimdan chiqmaydi. O'sha kuni ertalab bir noxush xabar litseyni alg'ovdalg'ov qilib yubordi. Yosh o'qituvchimiz Vojihbey o'tgan kechasi qamoqqa olinibdi. Sababini hech kim aniq bilmasdi. Sinfga kira solib, Jalolning qo'lidan ushlab, so'radim undan:

– Vojihbey nega qamalibdi, sababini bilasanmi?

U menga g'alati qilib bir qarab qo'ydi-da, noxushlik bilan:

– Kimdir sulton saroyiga xat yuboribdi, o'qituvchimiz yuqori sinf o'quvchilariga konstitutsiyadan gapirdi, deb chaqibdi, – dedi.

Vojihbey bilgan narsasini shartta gapiradigan, fikrlari erkin odam ekanini bilardim, albatta.

– Qaysi iflosning ishi bu? – g'azabdan ovozim titrab ketdi.

Jalol churq etmadi. Atrofimizga boshqa bolalar yig'ildi.

Sinfimizda hech qachon bunaqa sovuq sukunat bo'lman edi. Geografiya darsi boshlandi. O'qituvchi allanimalar haqida ming'illab gapiryapti, biz ham nomiga yozib o'tiribmiz. Ichimga chiroq yoqsa yorimaydi. Dars haddan tashqari cho'zilib ketganga o'xshaydi.

Devordagi osma soatga qaradim: tanaffusga o'n daqiqa qolibdi. Shu payt birdan eshik ochilib, litseyda bosh nazoratchi bo'lib ishlaydigan chol ko'rindi.

– Uch yuz yigirma ikkinchini, Iffat afandini direktor chaqiryapti, – dedi u o'qituvchiga qarab.

Hayrat va sarosima ichida joyimdan turdim. Hammaning ko'zi menda.

Koridor bo'ylab ketyapmiz, nazoratchi oldinda. Nimaga chaqirishganini so'rashga tilim bormaydi. Koridordan o'tib, zinadan yuqori chiqdik, direktor xonasining oldida to'xtadik.

Bosh nazoratchi Sami afandi eshikni sekin taqillatdi, to'g'rirog'i, eshitilar-eshitilmas chertganday bo'ldi-da, tutqichni bosib ochdi, yana churq etmay, o'zini chetga oldi va meni ichkari kiritib yubordi.

Direktor bilan uning o'rinbosaridan tashqari xonada yana uchta begona odam o'tirgan ekan: nemislarga o'xshab mo'ylovi buralgan, jingalak soch va turqi sovuq yosh bir adyutant, egniga uzun surtyuk kiyib, boshidagi hoji do'ppi – fasini ko'zigacha tushirib olgan oqsoch bir kishi hamda bir chekkada kichkinagina stolda bir nima yozib o'tirgan sodanamo, qorachadan kelgan, ko'zoynakli yigit.

– Marhamat, Iffat afandim, – dedi direktor ovozi titrab. Boyoqishning rangi quv o'chib ketibdi.

– Iffatbey siz bo'lasizmi? – deb so'radi mallasoch adyutant. Turqiga o'xshab ovozi ham sovuq, chiyildoq ekan.

– Ha, afandim.

– Xolis posho janob oliylari padaringiz bo'ladilarmi?

– Shunday.

– Dadangiz mehribon sultonimizning eng sodiq va eng tadbirkor qullaridan hisoblanadilar. Siz ham sultonimizning sodiq fuqarosi ekanligingizga, binobarin qiblagohimiz podshoh hazrati oliylarining manfaati yo'lida qo'ldan kelgan xizmatni ayamassligingizga zarracha shak keltirmayman...

Xotiramda qolgan mana shu tumtaroq muqaddimadan keyin janobi ofitser yana bir talay balandparvoz gaplarni qildi.

U gap bilan ovora-yu, sheriklarining ko'zi menda. Faqatgina direktor bir nimani ko'rmoqchi bo'lgan odamday yomg'irdan xira tortgan oynaga tikilgan, qo'lida bir varaq qog'oz g'ijimlab o'tiribdi.

Sinfda nimaga hammaning nafasi ichiga tushib, bunchalik qo'rqib ketganini endi tushundim. Ma'lum bo'lishicha, Vojihbey „qattiq g'alamislik“ qilgan, „ba'zi bir shakkok va xoinlar Xudoning sevgan quli, muruvvatli sulton hazratlarini yomonlab yozgan kitoblarni o'qigan“. Ammo o'quvchilardan biri saroy devoniga imzosiz xat yozib, mana shu „g'oyat xatarli jinoyatchi“ ni ma'lum qilibdi va bu bilan „taqdirlashga loyiq katta xizmat“ ko'rsatibdi. Yosh adyutantning shama qilishiga qaraganda, bu imzosiz xatni men yozganmishman, shunday taxmin qilishganmish. Bunga jiddiy asos ham bor emish: axir men „saltanatning eng sodiq quli“ bo'lmish Xolis poshoning farzandiman-ku?



Ko'z oldim qorong'lashib ketdi.

– Hech nimadan xabarim yo'q, – dedim tishimni tishimga qo'yib. – Xatni kim yozganini ham bilmayman.

Adyutant o'zini go'llikka solib, gapimga ishonganday bo'ldi-yu, savolni teskari qo'ydi:

– Xo'sh, Vojihbeyni yaxshi bilarmidingiz axir? Konstitutsiya, konstitutsiyali tuzum haqida, boshqa narsalar to'g'risida o'rtoqlaringizga gapirib turarmidi?

– Bilmayman! – dedim zardam qaynab. Nega menga yopishasiz, kerak bo'lsa so'rang boshqalardan!

Bu gapim adyutantning suyak-suyagidan o'tib ketdi, Lekin darhol o'zini bosib olgan bo'lsa ham, menga po'pisa qilmoqchi bo'ldi.

– Bilgan narsani aytmaslik sizga yarashmaydi. Bu gaplarning hammasi podshoh hazrat oliylariga taalluqli!.. Shu qo'rsilingizni padari buzrukvoringiz eshitib qolsalar, sizdan xursand bo'lmaydilar, albatta.

Bu po'pisa battar g'azabimni oshirdi. Men ham jahl ustida og'zimga kelganini qaytarmadim:

– Men ayg'oqchi emasman, janobi adyutant!

Shundan keyingi hangomani tasvirlashga qalam o'jiz. Direktor yonidagi stulni ag'darib yubordi. Qorachadan kelgan kotib ko'zoynagi tagidan menga baqrayib qarab qoldi. Yosh adyutantning rangi oqarib ketdi. Faqatgina bir odam gapga aralashmay jim turgan uzun surtyukli, oqsoch janobgina pinagini buzmadi.

– Ruxsat eting, bey afandim, – dedi u shirador, mayin ovoz bilan adyutantga murojaat qilib. – Aftidan, beyzoda og'izlaridan chiqib ketgan gapning ma'nosiga yaxshi tushunmasalar kerak. Ruxsat eting, o'zimiz bir bafurja gaplashib olsak...

Mo'jazgina eshikdan o'tib, maktab muzeyiga kirdik.

– Shu yer xoli ko'rinadi. Marhamat, Iffatbey.

Meni o'tkazib yuborib, keyin o'zi kirdi.

Bu janobga biror boshqa joyda duch kelib qolsam, o'taketgan darajada halol, nihoyatda odil odam ekan, deb o'ylagan bo'lardim. Chindan ham shunaqa iltifotli, xush-ovoz, xushmuomala, shinavanda odam ediki, boshqa

sharoitda uchrashib qolsak, ehtimol unga butun yurakdagi gaplarimni to'kib solgan bo'lardim. Lekin u o'zining sirini ochib qo'ydi. Meni oldinga o'tkazib yuborayotganida adyutantga qarab ko'zini ayyorona qisib qo'rganini sezib qoldim.

Oldiniga u muzeydagi eksponatlardan gap ochdi, meni samimiy suhbatga tortmoqchi bo'lib, bular haqida fikrimni so'radi. Keyin asta-sekin gapni burib, xushomad qilishga o'tdi, nasl-nasabingiz toza ekan, yaxshi tarbiya ko'ribsiz, deb meni ko'klarga ko'tardi, gap orasida hatto „bu ko'zlarga yarashib tushgan ko'zoynak tagida zo'r aql tafti sezilib turibdi“ deb qo'shib ham qo'ydi.

Uning gaplarini eshitgan odam, „hammaning baxt-saodatini o'ylaydigan, chumoliga ham ozor berishdan cho'chiydigan bir avliyo ekan bu“, deb o'ylashi mumkin edi. Suhbat (agar shu suhbat bo'lsa) bir yarim soatdan ortiq davom etdi. Biroq bu shirinsuxan odamning va'zlari mendan sado chiqavermaganidan keyin o'z-o'zidan to'xtab qoldi.

\* \* \*

Menga javob berishganida tanaffus boshlanib, bolalar endi sinfdan chiqishayotgan edi. Qalbmida iftixor hissi bilan birga allaqanday tashvish, hatto vahm ham bor. Bugungi gap-so'zlar debocha ekaniga, boshimga hali yana ko'p malomatlar tushishiga imonim komil deyarli. Shunday bo'lsa ham o'z huzur-halovatingdan kechib, birovga yaxshilik qilish – garchi bu narsa og'ir va mashaqqatli bo'lsa ham – kishiga huzur bag'ishlar ekan.

Ko'chada yomg'ir zo'raydi. Maktab hovlisiga bog'dan sharillab suv kela boshladi. Ba'zi bolalar sport maydonchasidagi peshayvonning tagiga berkinib olishgan, yana birovlar koridordagi derazalar panasida turishibdi. Maktabimiz ko'zimga hech qachon bunaqa huvullab ko'rinmagan edi. Vestibulning bir chekkasida ho'l plashlarni ilib, soyabonlarni ochib qo'yishibdi. Jalolni shu yerdan topdim. Devorga suyanib, kitob o'qiyotgan ekan. Yugurib oldiga bordim.

– Jalol bu yaramaslar meni rosa qiynashdi-da!.. Mendan nimalarni surishtirishganini aytsam, ishonmaysan...

Hoynahoy xayrixohlik bildirar, deb qo‘limni cho‘zgan edim, orqaga tisarildi. Ko‘z ko‘zga tushdi va shu on yuragim shuv etib ketdi. Mendan shubhalanayotganini ko‘zidan sezdim.

Bo‘lgan voqeani bir boshidan gapirib bermoqchi bo‘lib turgan edim, buni ham unutib, tomdan tarasha tushganday:

– Gumoning kimdan, Jalol? Seningcha, qaysi pastkashning ishi bu? – deb so‘radim.

Jalol churq etmay yana kitobiga tikildi.

Ko‘zimni javdiratib, yana bir karra so‘radim.

U asabiy holda yelka uchirib, istehzo aralash:

– Kim bo‘lardi, men, albatta... Mendan boshqa odamning qo‘lidan kelmaydi! – dedi va betimga ham qaramay, sport maydonchasiga qarab ketdi.

Turgan joyimda qotib qoldim. Qanchalik ayanchli ahvolda tushib qolganimni endi sezdim: yolg‘iz saroy adyutanti emas, o‘rtoqlarimning hammasiyam meni imzosiz xatning muallifi deb o‘ylashibdi.

Tanaffus tugadi. Bolalar koridor va zinalardan chopqilab sinflariga kirib ketishdi.

Qimirlashga ham majolim yo‘q. Vestibulning qorong‘i bir burchagida, namiqqan plash va soyabonlar orasida turibman, hech kimga keragi yo‘q, g‘arib bir kimsaman.

Vujudimni chuqur umidsizlik chulg‘ab oldi. Endi nima qilmayin, o‘zimni oqlashga har qancha urinmayin, bu shubhalardan qutulolmayman. Koridor bo‘shab qolgach, plashimni kiydim-da, oyoq uchida yurib, orqa eshikdan ko‘chaga chiqdim.

Yomg‘ir hamon savalab yog‘yapti, ko‘chaning o‘rtasidan sharillab loyqa suv oqib yotibdi.

Qo‘lim cho‘ntakda, boshimni egib ketyapman. Alam bilan o‘ylayman; „Yo‘q! Endi litseyga qaytib bormayman. Baxtli hayotim tugadi... Tamom... hammasi tamom...“

Bir paytlari ham hurmat ko‘rib, ham hurmat qilgan va qalb to‘ridan bir umrga joy olgan muborak dargohni tashlab qochgach, yana bir kuni shu ostonani qo‘msab qolgan

darbadar odamga o'xshab alamimdan ho'ngrab yig'lab yu-bordim.

## 9

Uyga kelgach, Kamyob xalfaga tobim qochib, tomog'im og'riyotganini aytdim. Rosti ham shu edi.

Tuni bilan karavotda ag'anab, alahsirab chiqdim, a'zo-yi-badanim cho'g' bo'lib yondi.

Ertalab tursam, dadam meni chaqirtirgan ekan. Rosa gap eshitishimni bilaman, lekin hayiqmadim.

Xonaga kirsam, dadam ro'parada mindar<sup>1</sup> ga cho'kkan Mahmud afandi bilan gaplashib o'tirgan ekan. Dadam meni sezmaganday gapida davom etdi. Lekin kirishim bilanoq qoshi chimirilganini payqadim. Ular shunchaki ezmalashib o'tirishgan edi. Dadam ko'ngilsiz gapni darrov boshlamaslik uchun ataylab men tomonga qaramayotgan edi.

Eshik oldida og'irligimni goh u, goh bu oyoqqa solib turibman-u, bundan o'n yilcha oldin Umar chittakning akasi haqida dadamga yalinib-yolvorganim esimga tushdi. O'shandayam tomog'im og'rib qolgan edi.

Nihoyat, birpaslik sukunatdan so'ng dadam menga qayrilib qaradi.

– Sendan xafa bo'lishyapti-ku, Iffat... Kecha maktabda muhim bir ish yuzasidan murojaat qilib, sendan fikr so'rashgan ekan. Ularga qo'pollik qilibsən... Umuman odob doirasidan chiqibsən...

Dadamning qovog'i solingan bo'lsayam, lekin men kutganchalik emas. Gapirayotganida ko'zini olib qochadi, ovo-zida ham ilgari qat'iyat va salmoq sezilmaydi.

– To'g'risiyam shu, hech narsadan xabarim yo'q edi, posho dada, – dedim zo'rg'a ovoz chiqarib.

– Bilmagan narsangni bilasan deyishga hech kimning haqqi yo'q, albatta,.. Ammo kattalarga qo'pollik qilgin, tag'in yetmasa, haqorat qil, deb kim o'rgatdi?

O'rtaga og'ir jimlik cho'kdi.

– Qani, gapir... Nimaga kajbahslik qilding?

<sup>1</sup> Mindar – turklarda ko'rpacha o'mida ishlatiladigan dumaloq bolish.

Indamay turaverdim.

– Lekin aybing faqat shu emas... Maktabdan ham qochib-san...

– Axir nima qilay, posho dada, o'rtog'larimning betiga qarayolmasam, hammasi meni... chaqimchi deb o'ylasa... Qaysi yuz bilan boraman maktabga.

Mahmud afandi menga iltijo aralash „Jim!“ degan ishorani qildi.

Dadam titroq bosgan qo'li bilan eshikni ko'rsatib baqirdi:

– Yo'qol bu yerdan!

Boshimni egib, eshikka qarab yurdim. To'satdan yana o'zi chaqirib qoldi:

– To'xta... Bu yoqqa kel...

Izinga qaytdim. Dadam o'rnidan turib, kitob javoniga yaqinlashdi, ichidan bitta kitob olib, changini artdi va yana joyiga qo'ydi: keyin ikkinchisini olib, ichini varaqlagan bo'ldi, uniyam joyiga qo'yib qo'ydi. Nihoyat, boshini ko'tarib, yuzimga tik qaradi:

– Iffat, har bir odamdan bilmagan narsasini va hatto bilgan narsasini ham so'rashlari mumkin. Mendan ham ba'zan so'rab turishadi. Shunda men ham. „Bilmadim!“ – deb javob beraman. Tushundingmi?

Yo'q, bu ovoz posho dadamning ovozi emas! Birov uni bo'lib qo'yadiganday tez-tez, cho'rt-cho'rt gapirardi. Kitob javonining oldida turgan bu qariya ilgarilari hecham yaqiniga yo'lab bo'lmaydigan, purviqor posho dadamga sira o'xshamasdi.

– Har kimning ustidan arz qilishlari mumkin! – dedi so'zida davom etib dadam. – Xo'sh, nima bo'пти? Eng, muhimi vijdon, o'sha toza bo'lsa bas!.. Ehtimol... hatto turgan gap ham, hozir senga o'xshab meniyan chalpishayotgandir, go'ringa g'isht qalashayotgandir... Lekin tepamda Xudo turibdi, Iffat, men hech qachon chaqimchilik qilmaganman!..

Shu payt ko'zimga dadam chunonam qarimsiq, nimjon va baxtiqaro bo'lib ko'rinib ketdiki, xo'rliгим kelganidan beixtiyor kipriklarim namlandi. Ko'zoynagim xiralashib, hech narsaning farqiga borolmay qoldim.

– Bor!.. Jo‘na endi!.. – Dadamning ovozi horg‘in va zaif edi.

Dadam o‘sha kuni menga butunlay boshqa bir odam bo‘lib tuyuldi. Bir-birimizga yana ham qadrdonroq bo‘lib qolamiz endi, deb o‘ylagan edim, aksi bo‘lib chiqdi. Orzularim ushalmadi. O‘sha kungi gapdan keyin dadam battar qo‘rslashib, tumshayib oldi.

## 10

Litseyga bormay qo‘ydim. Yana xunobgarchilik va bekor-chilik bilan o‘tadigan uzundan uzoq, zerikarli kunlar boshlandi. Men o‘zi kim bo‘laman, mendan qanaqa odam chiqadi? Buni hech kim bilmaydi. Lekin shunisi ham borki, endi hech kim, hatto enagam Kamyob xalfa ham saroy xizmatiga kirish haqida churq etib og‘iz ochmaydi...

Qandaydir bayram kuni edi, uyimizga qarindoshlar yig‘ilishdi. Peshinda dadam bilan Muzaffar saroydan qaytib kelishdi. Saroy adyutantining bayram kiyimini kiyib, zarbof akselbantlar taqib olgan akam mehmonlar oldida o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lib, hamma bilan alohida-alohida so‘rashib chiqdi. Mehmonlarning ikki ko‘zi unda edi. Ochig‘i, yaqindagina yigirmaga to‘lgan Muzaffar chindan ham havas dilsa arzigudek, suqsurday yigit edi!..

Amakim Muzaffarni rosa ko‘klarga ko‘tarib maqtadi, butun oilamiz sen bilan faxrlanadi, dedi. Boshqalar ham, so‘zsiz, u nima desa, shunga qo‘shilib o‘tirishdi. Ammo sal o‘tmay amakim chegaradan chiqib ketdi.

– Mana, Iffat, – dedi u menga o‘girilib, – akangdan o‘rnak ol! Yoshing ham anchaga borib qoldi... Harakat qilsang, sen ham shunday bo‘lishing mumkin.

Nazarimda u meni kamsitib – gapirganday bo‘ldi. „O‘rnak ol“ degani qulog‘imga „Vaqt g‘animatida es-hushingni yig‘ib ol“ day eshitildi.

Bunaqa nasihatlarni undan ilgari ham ko‘p eshitganman. Shuning uchun o‘rganib ketganman. Lekin o‘sha topda bu gapi menga og‘ir botdi.

– Xalqqa biror nafi tegmaydigan xizmatga kirishni men xohlamayman! – dedim dangal turib.

Amakim qizarib ketdi. Bir nima deb meni qattiq jerkib bermoqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘zini ushlab qoldi.

– Ming afsus, Iffat, – dedi u jahl bilan. – Xolis poshodek odamning farzandidan bunday yengiltaklikni kutmovdim.

Indamadim. Mehmonxona suv quyganday jim bo‘lib qoldi. Bu jimlikni o‘zining noo‘rin ta‘nasi bilan akam buzdi:

– Bunaqa zararli g‘oyalarni qayerdan o‘rganding, hayronman... Xudo haqqi, kelajaging meni tashvishga solyapti.

– Mendan ko‘ra o‘zingning tashvishingni qilsang bo‘lardi! – jerkib tashladim men ham. – Xalq qiyomatgacha g‘af-lat uyqusida yotavermasa kerak!..

O‘rgamchik notiqqa o‘xshab zo‘r harakat bilan aytgan bu gapimni eshitib, amakim sapchib tushdi.

– Bu bola butun oilamizni xonavayron qiladi! G‘alamis yosh turklar yo‘ldan uribdi buni, – dedi u qo‘lini paxsa qilib.

Qoramursallik ammam bo‘lmaganida bundan battarog‘ini ham eshitardim. Yaxshiyamki ammam vaqtida qo‘limdan ushlab, mehmonxonadan olib chiqib ketdi. Meni boshqa xonaga olib kirib, qo‘lidan kelganicha nasihat qilgan bo‘ldi. Boshimga qanaqa kulfat tusharkan, bilmadim-u, lekin ammam sho‘rpehana ekansan, deb rosa achindi. Oxiri ammam meni o‘pib-erkaladi, o‘zingni ehtiyot qil, deb yalinib-yolvordidi...

Anchadan keyin o‘zimga kelgach, nima ish qilib qo‘yganim o‘zimga ta‘sir qildi. Bo‘lar-bo‘lmasga janjal ko‘tarish, tortishib o‘tirish – tabiatimda yo‘q narsa. Amakimdan allaqachon ko‘nglim qolgan, akamni bo‘lsa kaltafahmligi uchun bolalikdan yomon ko‘raman. Ular bilan tortishib o‘tirish xayolimda ham yo‘q edi. Nima, o‘zim ham sezmaganda Muzaffarga havas qila boshladimmi? Yoki bo‘lmasa qizil muqovadagi taqiqlangan risolalar meni shu ko‘yga solib qo‘ydimi?

Maktabga bormay qo‘yganimdan keyin mukkasiga tushib revolyutsion adabiyotlarni o‘qiy boshladim. Esimda, sotsializm haqidagi risolalardan biri shunday deb boshlanardi: „Ey yigit! Sen yigirma yoshga chiqding. Kelajak haqida, kasb-

kor haqida o'ylab ko'radigan vaqting keldi. Men dunyodagi jamiki kasblar ichida eng faxrli va eng oliyjanob bo'lgan bir kasbni senga ravo ko'rgan bo'lurdim: insoniyatni zulmdan va ichki qullikdan ozod etguvchi Buyuk mafkuraviy ozodlik lashkariga askar bo'l". Bu so'zlar menga yod bo'lib ketgan edi.

Amakim va akam bilan oramizda bo'lib o'tgan gap-so'zdan hamda shunga o'xshash voqealardan keyin qarindoshlarim meni isyonchiga va hatto revolutsionerga chiqarib qo'yishdi. Bunga sira xafa bo'lganim yo'q. Aksincha, ichimdan xursand bo'ldim. „Buyuk mafkuraviy ozodlik lashkarining bir askari“ sifatida qiyinchiliklarga mardonavor bardosh berdim.

Kunlar, haftalar, oylar o'tdi... Men tamoman o'zgarib ketdim. Ilgarigi xushchaqchalikdan asar ham qolmadi. Sog'lom, o'yinqaroq va sho'x bola edim, mana endi ko'zoynak ostidan atrofidagi muhitga ma'yus boqadigan, yuzlari so'lg'in, hamisha xomush va lanj yuradigan yigitcha bo'lib qoldim.

## 11

Bu voqea enagam Kamyob xalfaning janozasi kuni ro'y berdi. Ayub sulton<sup>1</sup> dan kemada qaytayotgan edim. Janozaga uydan men bilan murabbiy choldan bo'lak hech kim borgani yo'q. Enaga kampir o'libdi, deb yuragidan achingan, ko'z yoshi to'kkan odam bo'lmadi. Go'yo odam emas, uyda o'rgamchik bo'lib ketgan mushuk olamdan o'tganday.

Havo nam izg'irin bo'lishiga qaramay, yuqori palubadan ketgim kelmadi. Osmonni bulut qopladi. Nazarimda u butun olamni va hatto miyamni ham qoplab olgandek. Yuragim siqilib ketyapti. Onamni boqib katta qilgan mehribon cherkas kampir men uchun bunchalik azizligini bilmagan ekanman. Endi u yo'q, usiz dunyo ham huvullab qolganday...

Birdan Jalolga ko'zim tushib qoldi. Menga tikilib qarab turgan ekan. Ko'zimni yerga oldim.

<sup>1</sup>Ayub Sulton – eski Istanbulning chekka joyi. Muhammad payg'ambarning sahobalaridan sulton Ayubning sag'anasi o'sha yerda.



Jalol oldimga keldi.

– Iffatbey, sizda ikki og‘iz gapim bor edi.

O‘rnimdan turdim va betiga ham qaramay:

– Qulog‘im sizda, – dedim.

– Oldingizda aybdorman: o‘tgan yili sizga nisbatan nohaqlik qilgan ekanman... Hammasi keyin ma‘lum bo‘ldi: Vojihbeyning o‘rnini bir o‘qituvchi mo‘ljallab yurgan ekan, uni sotgan ham o‘sha ekan... Sizga xat yozib, uzr so‘ramoqchi bo‘ldim, afsus, imkoni bo‘lmadi... Meni kechiring!

Hayajondan tilim aylanmay qoldi. Gap-so‘zsiz qo‘l qisishib, yonma-yon o‘tirdik. Oldiniga gapimiz qovushmay turdi.

Jalol enagam o‘lganini eshitgach, qattiq qayg‘urdi, qo‘lidan kelganicha meni yupatdi.

Uning gaplari menga ta‘sir qildi, qalbimni chulg‘ab olgan cheksiz alam osuda motamga aylandi, bu dunyoni tark etib ketgan qadrdon odamimga mehr-muhabbatim nishonasi o‘laroq ko‘zimdan duv-duv yosh to‘kildi.

Jalol ikkovimiz oqibatli do‘st va aka-uka bo‘lishga qasamyod qilib, bir-birimiz bilan xayrlashdik. Ruhim yengil tortdi, bilamanki, endi men yolg‘iz emasman.

## 12

Konstitutsiya e‘lon qilinganini<sup>1</sup> Qoramursalda eshitdim. Ammamning qo‘rg‘onida qattiq yo‘tal tutib, kasal bo‘lib yotgan edim. Ammam uch kungacha ketishga ruxsat bermadi, oxiri, to‘rtinchi kuni kasal holimga qaramay uydan qochdim va to‘g‘ri kemaga o‘tirdim.

Orzularim ro‘yobga chiqdi nihoyat! Ammo buni zo‘r umid bilan kutgan bo‘lishimga qaramay unchalik xursand ham emasman. Dadam, akam, qarindosh-urug‘larim saroy xizmatchilari-ku. Ularning holi nima kecharkin?

Kema sohilga yaqinlashganida „Yashasin hurriyat!“ degan xitoblar bilan saf-saf bo‘lib o‘tayotgan namoyishchilarni ko‘rdim. Orkestr gumburlaydi. Olomon uzra bayroqlar

---

<sup>1</sup>1908-yilning iyulida yosh turklar revolutsiyasi yuz berdi; sulton Abdul Hamid II armiyaning tazyiqi ostida yosh turklarning ultimatumini qabul qilishga va 1876-yil konstitutsiyani tiklashga majbur bo‘ldi.

hilpiraydi. Hayajondan boshim aylanib ketdi. Bolalikda orzu qilgan, o'smirlikda o'ylab yurgan narsam ro'yobga chiqdi. Yuragim hapriqib, negadir xavotirlanib – ko'z o'ngingda mo'jiza ro'y berayotgan bo'lsa, hamisha shunday bo'ladi – ko'chaga chiqdim va olomonga qo'shilib ketdim. Endi men yakkash emasman, shaxsiyatim ham yo'q, men olomonga singib ketdim, men ko'pirib-hayqirayotgan dengizning – odamlarni olg'a surib ketayotgan ulkan oqimning kichik bir zarrachasiga aylandim.

Namoyishchilar bilan chorrahaga yetdim va birdan xaloyiq qonxo'r zolimlar qatori Xolis poshoning nomini ham tilga olayotganini eshitib qoldim.

Beixtiyor qadamimni sekinlatdim, to'dadan chiqib, orqaga qaytdim.

Namoyishchilar olislab ketishdi, ovozlari ham eshitilmay qoldi, lekin „Xolis poshoga la'natlar bo'lsin!“ degan xitoblar qulog'imdand ketmasdi...

Shu payt dadamni ayon ko'rganday bo'ldim. Mana, munkillab, nimjon bo'lib qolgan posho dadam kitob javonining oldida turibdi va ilk bor dilini ochib, „Men hech qachon chaqimchilik qilmaganman, Iffat!“ – deb qasam ichyapti.

\* \* \*

Uyga qaytdim. Hamma umidsizlikka tushgan, vahimada. Opam kasal yotibdi. Xizmatkorlar sarosimada. Surishtirib-surishtirib, oxiri nima bo'lganini bildim.

Ozodlik e'lon qilingan kuni opamning eri qochibdi. Har holda Misrga bo'lsa kerak... Dadamga birga qochaylik, degan ekan, ko'nabdi... Kelishimdan bir kun burun uyimizning oldida bir to'da namoyishchilar paydo bo'libdi. Oldiniga: „Xolis poshoga la'natlar bo'lsin!“ – deb qichqirishibdi, keyin tosh otib, oynani sindirishibdi. Oradan ikki-uch soat o'tgach, dadamni qamoqqa olishibdi. Hozir qayerda yotganini hech kim bilmas emish...

Uyda hamma menga tumshayib yuribdi. Boshqalarning ko'nglidagi gapni opam ayta qoldi.

– Xo'sh, murodingga yetdingmi endi?! – dedi u kesatib.

Oradan ikki kun o'tdi. Uyimiz moxov ko'chgan orolga o'xshaydi. Qarindoshlar-u tanish-bilishlardan birortasi ham biznikiga yo'lamay qo'ydi. Uchinchi kuni Mahmud afandi keldi. Dadamning daragini endi eshitdik. Hozir u shahar politsiya boshqarmasida ekan, yaqin kunlarda Mitilena<sup>1</sup> oroliga surgun qilisharmish.

Opam bilan akam yosh bolalarday yiglab yuborishdi, ularning yoniga xizmatkorlar qo'shildi.

– O'zini ko'rdingizmi, Mahmud afandi? – deb so'radim.

Keksa o'qituvchi xijolat bo'lib ko'zini chetga oldi.

– Afsuski, hali oldilariga borolganimcha yo'q.

– Unday bo'lsa, bugun birga bora qolaylik.

Opam bunga qarshi chiqdi, Muzaffar unga qo'shildi.

– Yo'q, yo'q! Hali atrof notinch... Sabr qilish kerak... Erta-indin hammamiz birga borarmiz...

Ularning gapiga quloq solib o'tirmadim.

Xohishingiz, – dedim qat'iy ohangda. – Agar Mahmud afandi bormaydigan bo'lsa, yolg'iz o'zim ketaveraman.

\* \* \*

Dadamni ko'rish ham qiyin ekan. Mahmud afandi koridorma-koridor yurib, bir-bir eshik sanab chiqdi. Bir oyog'i kasal bo'lishiga qaramay, u xonadan bu xonaga yelib-yugurib, kimni ko'rsa shunga yalinaverib, boyoqishning tinkasi quridi. Eng oxiri dadamni ko'rishga ruxsat oldik. Ichkari kirayotganda hamma yog'imizni tintishdi. Barzangi politsiyachining orqasidan tor va qorong'i koridor bo'ylab ketyapmiz-u, boshim g'uvullab, tizzam qaltiraydi. Dadamning holi nima kechdiykin? Menga hamisha qattiqqo'l va serviqor bo'lib ko'ringan odam endi qay ahvoldaykin?

Dadam kichkinagina kamerada, chog'roq temir karavotda miriqib chekib o'tirgan ekan. Mahmud afandi ho'ngrab borib tiz cho'kdi va uning qo'llarini yuziga bosdi.

<sup>1</sup> **Mitilena** – Egey dengizida joylashgan Lesbos oroli, ilgari u Usmonlilar imperiyasiga qaragan.

Shunisi g'alatiki, posho dadamning kayfiyati yomon emasdi. Aksincha, u: „Bu dunyoda revolutsiya degan narsalar tez-tez bo'lib turadi. Shungayam tashvishmi endi, Mahmud afandi?“ deb hazillashib ham qo'ydi.

Dadamni bunchalik ruhan tetik ko'raman deb o'ylamagan edim.

– Xo'sh, uydagilar qalay? – deb so'rab qoldi u mendan.  
– Hamma sog'-salomatmi, hech kim qo'rqib-netib yotib qolgani yo'qmi?

Dadam Muzaffar nega kelmaganini hozir so'rab qoladi, deb bir nimani bahona qilmoqchi bo'lib turgan edim. Lekin u esiga ham kelgani yo'q.

Dadam bilan yarim soatcha birga bo'ldik. Ketmoqchi bo'lib o'rnimizdan turgan edik, dadam bir parcha qog'rozga allanima yozib, menga uzatdi.

– Kutubxonaning kaliti senda tursin, Iffat. Manavi qog'ozga ba'zi kerakli kitoblarni yozdim. Topib qo'y. Opangga ayt, bir-ikki sidra ich kiyim tayyorlab qo'ysin. Ertaga kechqurun yo'lga chiqsak kerak. Shu aytganlarimni Husayndan berib yubor... Yoki... – Dadam bir lahza o'ylanib qoldi. – Yoki o'zing olib kela qolasanmi, o'g'lim?..

Bilib turibmanki, dadam Istanbuldan jo'nayotib meni yana bir ko'rmoqchi-yu, lekin ortiqcha ko'ngilchanlik qilmaslik uchun buni aytishdan iymanyapti.

– Siz nima deysiz, – dedi u Mahmud afandiga qarab. – Iffat ertaga kemaga yetib chiqa olarmikin? Bir monelik bo'l-masmikin?

– Qanaqa monelik bo'lishi mumkin? Albatta chiqamiz, shundaymi, Iffat?

– Posho dada, men siz bilan Mitilenaga boraman! – dedim shartta turib.

Dadam hayron bo'lib menga qaradi.

– Yolg'iz ketsangiz bo'lmaydi, – dedim hovrimni bosib. – Yoningizda birorta odam bo'lishi kerak... Issiq-sovug'ingizga qarab turadigan yaqin odamlaringizdan...

U mo'ltirab menga qaradi va kechirim so'raganday bo'lib dedi:

– Yaxshi, Iffat...

Mitilenada ikki yarim yil qolib ketdim.

Dadam ikkovimiz kichkinagina bir uyda, g'aribona turmush kechirdik. Istanbuldagi uy bilan Buyuk Chekmajadagi qo'rg'onimizni musodara qilishdi. Dadamni hamma juda badavlat bo'lsa kerak, deb o'ylardi, holbuki, uning maoshidan bo'lak ortiqcha daromadi yo'q edi. Hatto o'limidan uch oycha oldin dadamning bisotidan ba'zi nodir qo'lyozma kitoblar bilan tasbehini sotishga to'g'ri keldi... Dadam ichichidan bunga achinib yurdi, uni ko'rib men battar ezilib ketdim.

Istanbul bilan aloqa qilmay qo'rganmiz. Revolutsiya sabab bo'lib, oilamiz xazonday to'zib ketdi. Opam eri bilan Misrda o'rnashib qoldi. Muzaffar akam issig'ida bir badavlat oilaning qiziga uylanib, ularning Shahzodalar orolidagi uyiga ichkuyov bo'lib kirib oldi. Ilgari bayramlarda va qabul kunlarida eshigimizning turumini buzib, dadamning etagini cho'lpillatib o'pib yurgan qavm-qarindosh-u tanish-bilishlar endi uning ismini tilga olishdan ham qo'rqishadi. O, endi bularning hammasi vatanparvar va hatto revolutsiyoner bo'lib qolgan. Yolg'iz Mahmud afandidan har haftada xat olib turdik.

Keyin nima bo'lishi bilan dadamning ishi yo'qday. Xuddi ilgari paytlardagiday boshiga takya, egniga xalat kiyib olib, deraza oldida kun bo'yi o'rta asr shoirlarining devonini o'qib o'tiradi.

Hademay ikki yarim yil ham o'tib ketdi. Qish chiqay deb qolgan edi, dadam birdan zotiljamga chalinib, olamdan o'tdi.

Joni uziladigan kuni yaxshi esimda: dori ichirayotganimda rangini ko'rib qo'rqib ketdim – yuzi za'faronday. Dadam ko'zini chala yumib, zo'rg'a nafas olib yotardi. Ko'zini ochmay qo'limni topdi va ko'ksiga qo'ydi. Keyin zo'r-bazo'r labiga bosib, birin-ketin barmoqlarimning uchini o'pa boshladi. U hushidan ketgunga qadar shu alfozda qimir etmay turaverdim.

Hozir orolda bekorga o'tib ketgan ikki yarim yillik umrimni eslasam, o'qtin-o'qtin yuragim achishib ketadi, ammo posho dadam o'limi oldidan barmoqlarimni qandoq labiga bosgani yodimga tushsa, miyamga shu xayol kelgani uchun vijdon azobiga uchrayman, dadamning xotirini behurmat qilganday o'zimdanda o'zim jirkanib ketaman...

Istanbulga qaytgach, dadamning so'nggi kunlarini Mahmud afandiga batafsil gapirib berdim.

Mening gaplarimni eshitib chol odam yosh boladay ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Iffatbey! Men musulmon bandasiman, zero haq gapni aytaman. Dadangizga juda jabr qilishdi... Xolis posho pok odam edi. U birovga hecham yomonlikni ravo ko'rmagan. Podshoh qanchalik qistamasin, u jandarm boshlig'i lavozimida uch haftadan ortiq turgani yo'q. Taqsimning bit-ta kamchiliklari bor edi: falsafa sotishni yaxshi ko'rardi, u kishi oqimga qarshi suzib bo'lmaydi, ahvol shu ekan, shundoq ketsa ketaversin, deb hisoblardi. Maktabdan qochgan kuningiz nima deganlari esingizda bormi? O'sha kunga qadar men ham Xolis poshoni yaxshi tushunmay yurgandim. U kishi sizni haydab chiqargach, oqarib ketdilar, boshlarini changallab: „Iffat meni tamom qildi... Hatto farzandim ham mendan nafratlanadi“, dedilar. Yig'laganlarini shunda o'z ko'zim bilan ko'rdim...

Yo'q, dadam uchun ikki yarim yil umrimni bag'ishlaganimga achinmayman – mening kelajagim uchun bu yillarning salmog'i juda katta bo'ldi...

## 15

Istanbulga qaytib kelgan paytimda yigirma bir yoshda edim. Bu shaharda endi yolg'izman, rizqimni terib yeyishga majburman. Akam yer-suv bilan uyni qaytarib olaman deb sudlashib yuribdi. Qaytarib olishiga ko'zim yetmaydi. Mabodo uddasidan chiqadigan bo'lsayam, bu ish bir-ikki yilsiz bitmaydi. Qolaversa, akamdan ham, boshqa qarindoshlardan ham umidimni uzganman.

Litsey ham chala qoldi. Mitilenada turganimizda bir tay kitob o'qigandim, ma'lum bo'lishicha, hozir bularning sariq chaqalik ahamiyati yo'q ekan. Shunday bo'lsayam bo'sh kelmadim, umidsizlikka tushmadim. Boylik orttirishni havas qilmasdim, pul desa o'zini tomdan tashlaydiganlardan emasdim. Lekin ish mening jon-tanim edi. Agar halol bo'lsa, har qanaqa ishni ham qilishga tayyor edim.

Mahmud afandi bilan Jalol menga yordam berishdi. Ikkovi yuridik fakultetga o'qishga kirasan, deb turib olishdi. Hatto biror ish topib beramiz, ham o'qib, ham ishlaysan, deb va'da qilishdi.

Universitetga kirishda qiynalganim yo'q. Darhol saboqqa berilib ketdim.

Mitilenadan qaytgandan beri akamnikida, Shahzodalar orolida yotib yurgandim. Kelinoyim meni yaxshi kutib oldi, onasiyam hurmat qiladi. Uy ichi bilan hammalari menga parvona, o'ksitishmaydi. Ammo, sirasini aytganda, o'zimni noqulay sezaman: bergan bir kosa ovqatlari malol kelayotganday, ularga og'irligim tushayotganday tuyuladi menga. Shuning uchun ham tezroq birorta ish topib, o'z aravamni o'zim sudrasam, deb ko'zim to'rt bo'lib yurgandim.

Mahmud afandi bilan Jalol ikkovi meni biror yerga kotib, reportor yoki o'qituvchi qilib joylashtirish uchun ko'p harakat qilishdi.

Nihoyat, orzu ushalganday bo'ldi. Bir kuni Mahmud afandi halloslaganicha universitetga kirib keldi.

– Sizga ajoyib joy topib qo'ydik, Iffatbey, – dedi u sevinchi ichiga sig'may. – Deputat Jamil Karimbeyning farzandlariga haftasiga ikki marta dars berasiz... Haqqiyam tuzukkina...

Jamil Karimbey bir paytlari uning qo'shnisi bo'lgan ekan. 1904-yilga qadar viloyatda hukumat amaldori bo'lib ishlagan ekan. Konstitutsiya e'lon qilingandan keyin uni o'zi ilgari mutasarrif<sup>1</sup> bo'lib ishlagan sanjoqdan<sup>2</sup> deputat qilib ko'rsatishibdi.

Istanbulga ko'chib kelganiga uch yil bo'lgan ekan. Hozir Bosfor sohilida, Bebekdagi ko'shkida oilasi bilan turarkan.

<sup>1</sup> **Mutasarrif** – sanjoq hokimi.

<sup>2</sup> **Sanjoq** – sulton Turkiyasida ma'muriy bo'linish; viloyatdan kichikroq.

Uyiga qatnab dars beradigan o'qituvchi bo'lib oldim. Birinchi qilgan ishim shu bo'ldiki, Shahzodalar orolidan Istanbulga ko'chib kelib, Gedikposhodagi chog'roq pansionga o'rnashib oldim.

Akamning uyidagilar ketmaysan, deb turib olishdi, lekin qor va yomg'irda har kuni oroldan Istanbulga, Istanbuldan esa Bebekka qatnash menga og'irlik qiladi, qiynalib qolaman, degan vajni ko'rsatdim.

Keyingi yillarda ancha izdan chiqib qolgan ekanman, yana hayotga sho'ng'ib ketdim. Har kuni erta bilan universitetga boraman, peshindan keyin Bebekka jo'nayman, mabodo darsim bo'lmasa, uyga kirib olib kitob o'qiyman.

Pansion bekasi ko'ngli ochiq armani xotin bo'lib, bir paytlari u Istanbuldagi badavlat xonadonlarga kirib-chiqib yurgan ekan. Menga u derazasi Bosforga qaragan yaxshi bir xonani ajratib berdi. O'zini menga yaqin tutib, issiq-sovug'imdan xabar olib turar va meni „taqsirim“ deb atardi.

Hech bir narsadan muhtojlik sezmay, tarala-bedod qilib yurdim. Hatto „ko'ngil torlari“ ham chertilib ketdi.

Uyimizning ro'parasida sochlari jingalak, shahlo ko'z bir qiz turardi. Bichiqlik qizi edi u. Bu qiz oynaning oldiga o'tirib olib, bir nimalarni tikar, ayni chog'da billurday yangroq ovozi bilan sho'x yoki hazin qo'shiqlarni xirgoyi qilardi.

Biz tanishib oldik va aloqamiz kun sayin yaxshilanib bordi. Hatto bir kuni oydin kechada u bilan sayrga ham chiqdik. Ikkovimiz qo'l ushlab to dengiz yoqasigacha bordik...

\* \* \*

Shogirdlarimning otasi ellikdan oshgan odam edi. Karimbey deputatlikdan tashqari savdo-sotiq bilan ham shug'ullanar va o'zining aytishicha, yaqin orada siyosatdan butunlay voz kechish niyatida edi.

Ehtimol, Shamil Karimbey unchalik yomon odam emasdir, lekin u haddan tashqari tamagir, har narsadan o'ziga



manfaat qidiradigan ashaddiy moddiyuni edi. U o'zini dunyodagi hamma narsadan yuqori qo'yar, qo'liga besh-o'n tanga pul tushib, bosar-tusarini bilmay qolgan odamlarga o'xshab nihoyatda takabbur edi. Uning shu xususiyati menga sirayam yoqmadi.

Shogirdlarim bo'lmish Xandon bilan Kamol ham bir jihatdan otaga o'xshab ketishardi. Ammo darslarga kelganda men ularning tirishqoqligi va odob-axloqiga qoyil qoldim. Qo'limdan kelganicha ular bilan yaxshi muomalada bo'ldim. Xullas, tez orada biz inoqlashib ketdik.

O'n to'rt yashar Xandon ancha-muncha idrokli bo'lsayam, lekin har narsadan tez ta'sirlanadigan, asabiyroq qiz edi. U menga tez elakishib ketdi, hatto oilaviy sirlarni ham menga gapirib beradigan bo'lib qoldi.

Onalari to'qqiz yil burun sil kasalidan o'lgan ekan. Oradan uch oy ham o'tmay otasi izmirlik bir savdogarning qiziga uylanibdi. O'gay ona kuzdan beri Izmirda ekan - otasi qattiq kasal emish. Xandonning o'gay onasiga unchalik hushi yo'qligini gap-so'zidan bilib oldim. Yana shuni ham sezib turibmanki, qiz bechoraning qanoti singan, o'gay onaga nisbatan yuragida bir dunyo alami bor, agar ishonchdan qolmasam, bu begona xotin haqida menga yana bir qop malomatli gaplarni aytib beradigan.

Bu xonadonda uni yoqtirmasliklarini payqadim. Hamma uning yaqin orada Istanbulga qaytib kelishini katta bir baxtsizlik deb biladi. Ularning bu kayfiyati menga ham yuqdi. Bir kuni Kamol shu hafta ichida o'gay onasi kelishini aytganida negadir birdan bo'shashib ketdim.

## 17

Karimbeyning ko'shki katta bir bog'ga tutashib ketgan. Darvozadan bog'ga kiraverishda chog'roq ayvoncha tushgan. Bu ayvoncha xuddi menga atab qurilganday. Shogirdlarim bilan shu yerda dars o'tkazaman, shaharga tushmagan kunlarim shu yerda yotib qolaman.

Vodiya xonim Izmirdan kasal bo'lib qaytdi. Xandonning gapiga qaraganda otasining o'limi uni ezib yuboribdi. Xonasidan chiqmay, hech kim bilan gaplashmay yurdi. Mana, kelganiga bir oy bo'ldi, uni haliyam ko'rganim yo'q.

Bir kuni ko'shka kelgach, odatim bo'yicha to'g'ri ayvonga bordim. Dars qiladigan joyimizda shogirdlarim bilan ularning o'gay onasi ham o'tirgan ekan. Xandon meni bu ayolga tanishtirayotib, uni „oyim“ deganida hazillashyapti, deb o'yladim, beixtiyor unga tikilib qoldim. Men nimagadir Vodiya xonim barvastadan kelgan, go'shtdor, ulug'sifat va bir so'zli juvon bo'lsa kerak, bunaqalarning butun husni olmaday qip-qizil yuzida-yu, bilqillagan badanida bo'ladi, bu bilan ular kerilib ham yurishadi, deb o'ylagan edim. Vaholanki qarshimda nozik-niholdan kelgan, kichkinagina, rangpar ayol o'tiribdi. Egnidagi qora ko'ylagi bilan silliq tarab, orqaga mahkam turmaklab qo'ygan sochi rangini yana ham bo'g'ib yuborgan. Yoshgina juvondan ko'ra ko'proq u uyda o'tirib qolgan qariqizga o'xshab ketadi.

– Sizga yangi shogird olib keldim, afandim, – dedi u olti yashar o'g'liga ishora qilib. – Nihod ham Xandon va Kamol bilan birga o'qimoqchi... Xulqi sizni qiynab qo'ymas deb o'ylayman. Shu shart bilan uni qabul qilib olishingizni so'rayman.

Nihodni ilgari ham bog'da ko'rib yurardim. Bir-ikki marta gapga solmoqchi ham bo'ldim-u, lekin elakishmadi. Chaqirsam nuqul tiraqaylab qochardi.

Hozir ham u bir qo'li bilan onasiga mahkam yopishib, ikkinchi qo'li bilan yuzini to'sib o'tiribdi. Onasidan zo'g'ra ajratib oldim. Jingalak sochlaridan silab, yonimga o'tqazdim-da, darsni boshlab yubordim.

Vodiya xonim darsda o'n daqiqacha bo'ldi. Oldiniga kursida qimir etmay, jimgina o'tirdi. Keyin bir-ikki o'rnidan turib, kitoblarni titkiladi, daftarni varaqlagan bo'ldi, oxiri sekingina tashqari chiqib ketdi.

O'sha kundan keyin uni tez-tez ko'radigan bo'ldim. Ba'zan bolalar bilan aylanib yurganida bog'da uchrashib qolardik. Ikki-uch og'iz shunchaki gaplardan qilib, turli tomonga ajrashib ketardik. Ora-sira darsga ham kirib qolar-

di. Egnida hamisha qora ko'ylak, xuddi arvoonga o'xshab jimgina kirar, bir burchakda indamay o'tirgach, yana jimgina chiqib ketardi...

Sekin-asta u oilada o'zimni erkin his qila boshladim. Haftada ikki marta yotib qoladigan bo'ldim. Agar uyga mehmon keladigan bo'lsa, meni ham albatta taklif qilishardi.

Mehmon kelgan kunlari Vodiya xonim sira o'zgarmasdi – o'sha kamgaplik va o'sha xotirjamlik. Uning birinchi bo'lib og'iz ochganini, samimiy kulganini, bir nimaga qiziqsinganini yoki biror kimsaga shafqat ko'rsatganini hecham ko'rganim yo'q. Xafaqonlik va ma'yuslik kasaliga muhtalo bo'lgan kamgap hamda mag'rur ayol edi u. Uning tashqi qi-yofasi ham tabiatiga o'xshab ketardi: yuzi tiniq, sal rangpar, lablari qonsiz, quyuq kipriklar ostida hamisha yer chizib turadigan ko'zlar, chakkasiga tutashib ketgan qoshlar...

Bunaqa chehradan bir qarashda biror narsa ilg'ab olish qiyin.

Masalan, men o'zim uning ko'zi qora bo'lsa kerak, deb yurgan edim. Bir kuni gaplashib o'tirganimizda razm solib qaragam, ko'zlari ko'kimtir-sarg'ish-u, nihoyatda tiniq va beg'ubor ekan. Uning ko'zlariga tikilib qaralguday bo'lsa, yuzi ham boshqacha bo'lib ko'rinadi: nozik chiziqlari o'zgarib, qandaydir ko'z ilg'amas chiroy kasb etadi, lablariga jon kirib, yomg'ir yuvib o'tgan gul yaproqlariday qizg'ish rangga bo'yaladi.

Bu juvon xonadonga nega yoqmay qolganini va uni nimaga chalg'ib yurishlarini tushunolmay qoldim...

## 18

– Juda xushchaqchaq odam ko'rinasiz-a, Iffatbey?

Bolalarga hisobdan qiyin bir masalani tushuntirib berayotgan edim. Masalani tushunmay, battar chalkashtirib yuborishdi. O'zimni bosib, jahl qilmasdan, yana boshdan tushuntirib berdim, ularga dalda bo'lsin uchun gap orasida qiziq-qiziq misollar bilan latifalar keltirdim.

Har kungi odati bo'yicha bir burchakda kitob o'qib o'tirgan Vodiya xonimning ikki ko'zi menda ekanini sezib turibman. Dars tugagach, beixtiyor:

– Sizga shunchalik g'ayri tuyuldimi bu, xonim afandim?– deb yubordim.

– G'ayri deysizmi? Yo'q... Men shunchaki...

Vodiya xonim sal qizardi-yu, gapini tugatolmay qoldi.

Ba'zan kayfiyatim juda joyida bo'ladi. Bunday paytlarda hamma narsa ko'zimga olovdek bo'lib ko'rinadi, o'zimdan ham, atrofimdagi odamlardan ham xursand bo'lib ketaman, kelajakka bo'lgan ishonchim ortadi, bu dunyoda yashab turganim, uning havosidan nafas olayotganim uchun terimga sig'may ketaman. Shunda butun vujudimni odamlarga mehr-muhabbat, odamlarga shafqat hissi chulg'ab oladi. Kim ko'rinsa, shunga yuragimni ochsam deyman. Bunday damlarda qo'limdan hecham yomonlik kelmaydi.

O'sha kuni xuddi shunday kayfiyatda edim. Hecham tortinmay, ilhom bilan, bermalol gapga tushib ketdim:

– Balki gapingiz to'g'ri hamdir, xonim afandim... Lekin mening hozirgi ahvolim xushchaqchaq bo'lishga imkon bermasa kerak. Bir paytlari men turmushning achchiq-chuchugini bilmay, erka o'sgan bola edim... Ochig'ini aytganda, men eski paytlardayam sulton tomonida bo'lmaganman. Sofko'ngil, sodda va samimiy bola edim, xolos. Dunyoga o'zi demokrat bo'lib tug'ilganman, desam ham bo'ladi.

– Shu gapingizga qo'shilmayman, Iffatbey... Aksincha, siz qattiqqo'l odamga o'xshaysiz... Siz hatto biror narsani iltimos qilayotganda ham ovozingizda po'pisa bo'ladi, buni sezdim...

Men kulib yubordim.

– Nimaga endi, xonim afandim? Men-a? Hecham bo'lmagan gap! Men kichkina odamman; o'zimning holim o'zimga ma'lum, ko'nikkanman shunga... Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, men fikrimni aytishdan ham o'zimni tiyib yuraman, shogirdlarimdan bo'lak hech kim bilan tortishib o'tirmayman.

– Aslo, aslo, Iffatbey!.. Ehtimol, o'zingiz ham yaxshi bilmassiz, lekin siz juda mag'rur odamsiz.

– Kaminangiz o‘z imkoniyatlariga oshiqcha baho berib yubormaslikka qurbi yetadigan darajadagi odam, xonim afandim, – dedim kulib. – Men hech qachon baxt va omad ketidan quvgan emasman, binobarin, boshimga kulfat tushganida yoki o‘ylaganlarim sarob bo‘lib chiqqanida ham hech vaqt tushkunlikka tushmaganman, hatto bir lahzagayam... Bilasizmi, men qachon o‘zimni mag‘rur sezishim mumkin? Bu dunyoda mustaqil yashay olishim mumkinligini o‘zimga va odamlarga isbot qilib ko‘rsatgan, o‘z kuchim bilan o‘zimga sharoit yaratgan taqdirdagina! Xo‘sh, shu taxlit fikr yuritadigan odam chinakam demokrat bo‘la olmaydimi?..

– Unday bo‘lsa nega odamlardan qochasiz?

– Men-a?

– Balki fikrimni to‘g‘ri tushuntira olmagandirman. Aytmoqchimanki, nega siz boshqalarga o‘xshamaysiz? Nimaga jamoat ichida, qolaversa, Jamil Karimbeyning uyiga keladigan odamlar o‘rtasida qimtinib o‘tirasiz? Nima uchun siz o‘z yurtigingizda xorijiyga yoki mehmonga o‘xshab yurasiz?

Nima deyishimni bilmay, esankirab unga qaradim. Mana shu yuvosh, ko‘rinishidan nihoyatda sodda juvondan bunaqa gap chiqadi, deb o‘ylamagan edim.

Lekin shu zahotiyuq o‘zimga kelib, es-hushimni yig‘ib oldim.

– Bilasizmi, xonim afandim, buning ham o‘ziga yarasha sabablari bor. O‘zingizga ma‘lum, hozirgi tasavvurlarga ko‘ra oilamiz badnom bo‘lgan... Kaltakning bir uchi menga ham kelib tegadi, albatta... Nega desangiz, otam bilan men ham surgunda bo‘ldim, uni yolg‘iz tashlamadim... Bu mening burchim edi. Hozir endi boshqalarga o‘xshab yursam, ikkiyuzlamachi ekan, deyishadi... Ochig‘ini aytganda, yangi tartib-qoidalarga nisbatan menda na adovat bor va na nafrat...

Otam oldidagi burchim haqida gapirganimda haliyam azador yurgan Vodiya xonim o‘zining boshiga tushgan musibatni esladi shekilli, birdan ma‘yus tortdi. U gapni boshqa yoqqa burib, otasi haqida, uning kasali to‘g‘risida batafsil gapirib berdi. Yuragini bo‘shatib olsa, ancha yengil tortadi, buni bilaman. Ammo negadir, nazarimda, u mendan boshqa hech kimga va hatto begona odamlarga qaraganda o‘ziga

ancha-muncha yaqin bo'lgan eriga ham bunchalik yorilib gapirmaganga o'xshab ketdi.

## 19

Jamil Karimbeyning Rifqibey degan bir qarindoshi bo'lardi; sira jinimga yoqmasdi o'sha.

Oldin u boshlang'ich maktabda muallimlik qilardi, bir qarindoshining katta obro'si hamda o'zining laganbardorligi va sermulozamatligi sabab bo'lib, ikki yil ichida odam qatoriga qo'shilib, tashqi ishlar vazirligida katta amalga minib oldi. U kezi kelsa boshliqlarning tovonini yalaydigan, lekin o'zidan bir pog'ona past bo'lganlarni sira ayamay, bosib-yanchib ketadigan odamlar toifasidan edi.

Bir kuni u mehmonga kelmoqchi bo'lgan ekan, meniyam taklif qilishdi. Ishim ko'pligini bahona qilib, chap bermoqchi bo'lgan edim. Xandon bilan Kamol mahkam yopishib olishdi. Noiloj qolishga majbur bo'ldim.

Butun o'tirish davomida Rifqibey hech kimga gap bermay, beandishalik bilan rosa va'zxonlik qildi.

Ovqatdan keyin esa Kamolni bir tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi. Dastlab u, Kamol fransuzchadan bo'shroq ekan, sanashni yaxshi o'rganmapti, degan xulosaga keldi.

– Eng muhimi, bu og'zaki nutq, – dedi nasihatimiz ohangda u menga o'girilib, – Kamol bilan imkon boricha ko'proq fransuzcha gaplashing.

Rangim oqarib ketayotganini sezib, boshimni quyi soldim.

Fransuz tilidan keyin Rifqibey hisob darsiga o'tdi. Ko'chada o'tib ketayotgan aravakashni yoki restoranda ofitiantni chaqirganday, qo'li bilan meni imlab, gazetaning bir chekkasiga har xil raqamlarni yoza ketdi, ora-sira: „Tushunarlimi?“ – deb so'rab ham turdi.

Jamil Karimbey uning gapini eshitmayotgan bo'lsa ham:

– To'g'ri, afandim... Xuddi shunday... Hisobda gap ko'p... Uni yaxshi bilish kerak, – deb qo'ltig'iga suv purkab turdi.

Yana yarim soatcha shunday o'tirdik. O'zimni arang bo-sib turibman.

Nihoyat, osma soat o'nga bong urgan edi, Rifqibey o'rnidan qo'zg'aldi.

– Fayton chaqirtirgan edim... Eshikda kutib turgan bo'lsa kerak?

– Agar kelgan bo'lsa, xabar qilishadi, – dedi uni yupa-tib Jamil Karimbey. – Darvoqe, hozir aniqlaymiz. – U men tomonga o'girildi. – Fayton kelibdimi darrov bilib keling.

O'zimni yo'qotib qo'yganimdan sakrab o'rnimdan tur-dim, mehmonxonadan chiqa turib, bir burchakda kashan-dalarga qo'yilgan stolchani ag'darib yubordim...

\* \* \*

Rifqibeydan keyin qolgan mehmonlar ham tarqalishdi.

Bog' ichi bilan ayvonga qarab yo'l oldim. Dengiz yoqa-sidagi bodom daraxtlari orasida Vodiya xonim yolg'iz kezib yurgan ekan. Bildirmay o'tib ketmoqchi bo'lgan edim, meni o'zi chaqirib qoldi.

– Iffatbey, Istanbulga ertaga jo'naysizmi?

– Biror yumushingiz bormidi, xonim afandim?

Bu gapni: „Endi menga ish buyurmagan siz qoluvdin-giz“, degan ma'noda aytib yuborganimni o'zim ham sezmay qoldim.

Vodiya xonim churq etmay yerga qaradi. Bir nimadan xafa bo'lgani shundoq sezilib turgan edi.

Anchagacha jim turdik. Keyin gap qotdim:

– Havo sovuq. Uyga kirsangiz bo'lardi.

– Boshim og'riyapti... Ochiq havoda biroz yurmoqchi-man... Demak, ertaga jo'naysiz... Qachon qaytasiz?

– Payshanba kuni qaytsam kerak, – dedim biroz o'yla-nib.

– Aytgan kitobingizni ola kelasizmi?

– Albatta... Agar ishim ko'payib, kelolmay qolsam, birovdan yuborarman. Yaqinda yuridik fakultetda imtihon-lar boshlanadi... Darslarni tayyorlash kerak...

– O‘zim ham biluvdim! – deb yubordi Vodiya xonim hayajonini yashirmay. – Sizni endi qaytib ko‘rmasak kerak.

Hayron bo‘lgan kishiday, yasama kulgi bilan javob berdim:

– Nega endi? Qayerdan oldingiz bu gapni?

Vodiya xonim nomiga bo‘lsayam kulmadi.

– O‘sha ahmoqona g‘alvani deb... bugun kechqurungi..

– Qanaqa g‘alva?

– Go‘llikka solmang o‘zingizni, iltimos... Nega unga javob qaytarmadingiz? Ta‘zirini berib qo‘ysangiz bo‘lmasmidi?

– Kim? Menmi? Meni kechiring-u, xonim afandim, lekin men kimman o‘zi? Aqcha olib ishlaydigan bir o‘qituvchiman. Shundoq ekan, xo‘jayinning uyidagi mehmonlarga hurmatsizlik qilishga o‘qituvchining qandoq haddi sig‘adi? Mehmonlarning ko‘ngli nimani tusasa, u shuni qilishga majbur. Ularning haqqi bor bunga shunday emasmi axir?..

– Ana ko‘rdingizmi, aytmovmidim... Sirtidan yuvosh ko‘rinsangiz ham aslida nafsoniyati zo‘r odamsiz...

O, Vodiya xonim hozir men shu paytgacha bilgan tortinchoq va yuvosh juvonning tamomila aksi edi. Sirilib kiyilgan ko‘ylak ostidagi xipcha badani to‘lg‘anib, ko‘zlari ehtirosga to‘lgan edi.

Oraga noqulay jimlik cho‘kdi.

– Ijzatingiz bilan men boray endi, xonim afandim.

– Ertaga siz bilan ko‘rishamizmi?

– Barvaqt jo‘nashim kerak.

– Bolalar sizni sevib qolishdi.

– Men ham ularga o‘rganib qoldim.

– Qattiq xafa bo‘lishadi.

– Men ham shunday. Qadrdon bo‘lib qoluvdik... Ularni hamisha eslab yuraman... Sizniyam hecham unutmaman... Menga ko‘rsatgan e‘tiboringiz uchun, qilgan hamma yaxshiliklaringiz uchun bir umr minnatdorman.

– Izzat-nafsingizga tegadigan gap bo‘ldi, Iffatbey, buni yaxshi bilaman. Lekin nima bo‘lgandayam iltimos qilaman, qoling...

Men indamadim.



– Nimagaligini tushundingizmi?

Yerga qadalgan uzun kipriklarida miltillab yosh ko‘rindi.

– Yaxshi... qolaman... – dedim zo‘rg‘a, havo yetishmayotganday entikib.

Endi menga hech qanday haqorat cho‘t emas!..

## 20

Bu mening birinchi muhabbatim edi... To‘g‘ri, bundan oldin ham oshiqlik ko‘chasiga kirib chiqqan paytlarim bo‘lgan. Lekin o‘spirinlikdagi bir lahzalik, o‘tkinchi oshiq-ubeqarorlikni kimlar boshidan kechirmagan deysiz.

Vodiyani sof yigitlik ishqi bilan sevib qoldim. Ko‘zimga hech narsa ko‘rinmaydi, xuddi uyquda yurganga o‘xshayman. Atrofimda ro‘y berayotgan narsalar bilan mutlaqo ishim yo‘q. Dunyo men uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, u endi bu totli sevgim uchun chambar bo‘lishi lozim, xolos. Mening shu muhabbatimni deb kunlar birini biri quvlab o‘tadi, fasllar ketidan fasllar keladi.

Tunlari dengiz yoqasida uchrashamiz. Men xonamdagi derazadan sohilga sakrayman, qayiqlar turadigan eski bir saroy tomonga oshiqaman. Vodiyani o‘sha yerda kutib olaman.

U o‘n besh yashar qizga o‘xshab hech narsadan tap tortmaydi, cho‘chimaydi, xatarni parvo ham qilmaydi. Vaholanki, har qadamda bizni ko‘rib qolishlari mumkin.

Esimda, bir kuni bog‘dagi it vovullab qolib, naq o‘takamizni yordi. Vodiyaning kaftimdagi barmoqlari muz kesildi. Itning ovozi o‘chgandan keyin ham anchagacha tungi sukunatga quloq solib turdik.

O‘sha kecha Vodiya birinchi marta menga ko‘nglidagi g‘ashlikni to‘kib soldi:

– Nihod bir o‘zi yolg‘iz uxlaydi... Ko‘pincha yarim kechada turadi-yu, lekin bir falokat bo‘lib bevaqt uyg‘onib ket-sa-ya... Meni qidirib qolishsa, uyda yo‘qman...

Birinchi uchrashgan kunimizdayoq men ham shu xayolga borgan edim. Ammo hozir uni yupatmoqchi bo‘ldim.

– Hechqisi yo‘q... Toza havo olgani bog‘ga chiqqandir, deb o‘ylashadi.

– Qidirib qolishsa-chi? Bu yoqqa bostirib kelishsa-chi?

Oyog‘imiz tagida chayqalib yotgan tim qora suvga ishora qildim.

– Unda... Unda shilq etib o‘zimni suvga tashlayman... Yolg‘iz o‘zing qolasan... hech kimda shubha tug‘ilmaydi, – dedim dabdabavor qilib.

Vodiya buni hazil deb tushundi-yu, lekin men buni chin ko‘ngildan aytgan edim. Men unga Domlajiqdagi tegirmon afsonasini gapirib berdim, keyin sevgan yorini badnom qilmaslik uchun o‘z hayotini qurbon qilgan o‘sha dehqon yigitga o‘xshab, kerak bo‘lsa men ham sening uchun jonimni fido qilaman, deb qasam ichdim.

Dengiz bo‘yida ilk bor uchrashgan paytimizdayoq Ismoil bilan Oysha xayolimga kelgan edi. Munosabatlarimiz ham o‘sha afsonadagiga o‘xshaydi – bu fikr tobora chuqurroq miyamga o‘rnashib boryapti. Ikki o‘rtadagi muhabbatimiz nima bilan tugashi ma‘lum, boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Buni bilaman o‘zim. Qolaversa, yoshligimdan buyon fidoyilik haqida o‘ylayman, qon-qonimga singib ketgan bu narsa. Muhabbat butun vujudimni larzaga soldi, qalb kosam hislarga limmo-lim to‘ldi; ana shuning uchun ham endi men fidoyilikni qattiq qo‘msab qolgandim.

## 21

Bog‘ qo‘ynida ilk bor uchrashib, bir-birimizga sevgi izhor qilganimizga to‘rt oy bo‘ldi. Vodiya nimam yoqib qoldi? Buni keyinroq tushundim. Sirdan qaraganda mo‘min-qobil va hatto kasalmand bo‘lib ko‘ringan bu juvon aslida har narsadan ta‘sirlanuvchi, mag‘rur ayol edi. Jamil Karimbey uni tushunmasdi, tushunishga harakat ham qilmasdi. Zotan, Vodiya ham erini xush ko‘rmasdi; ustiga-ustak Karimbeyni u mug‘ambir, o‘ziga bino qo‘ygan, qo‘pol va qo‘rs odam, deb bilgani uchun zarracha hurmat ham qilmasdi. „Erim odam emas, qo‘g‘irchoqning o‘zi“, derdi u qayta-qayta...

Bir necha yildan beri yotoqlari boshqa ekan.

Vodiya Jamil Karimbey haqida sira xayolimga kelmagan gaplarni aytdi. Erining son-sanoqsiz o'ynashlari borligi, ichkilikbozliklari, buzuqliklari haqida go'yo bunga sira aloqasi yo'qday bemalol, sira kuyunmasdan gapirib berdi.

Kunlardan birida men uni savolga tutdim: xo'sh mendek oddiy va bedavo, buning ustiga xunukkina bir odamni yaxshi ko'rib qolib, or-nomusingni, obro'-e'tiboringni garovga tikishingga sabab nima?

U qo'limni kaftlari orasiga oldi, unga tikilib turib, o'ychanlik bilan shunday dedi:

– Odamning eng katta husni asl tantilikda, Iffat, sen buni yaxshi bilmaysan... Qo'llaring ham biram boshqacha-ki...

\* \* \*

Avgust oyining oxirlarida shamollab yotib qoldim. Kasalim og'ir bo'lmasayam, ikki hafta uyda qimirlamay yotishga to'g'ri keldi.

Ancha sog'ayib qoldim. Vaqt peshin edi, uyga oftob kirmasligi uchun pardani tushirib qo'ydim, shu on xonaga kishini betoqat qiluvchi sarg'ish, nim qorong'ilik cho'kdi. Meni allaqanday orziqish hissi chulg'ab oldi.

To'satdan eshikda pansion bekasi ko'rindi.

– Qoramursaldan amnavachchangiz kelibdi... Sizni ko'rmoqchi ekan.

Kursidan sapchib turib, mehmonga peshvoz chiqdim. Maqbula Istanbulda nima qilib yuribdi? Zina tomondan yengilgina oyoq tovushi eshitildi. Dahlizga chiqdim. Qarshimda turgan Vodiya edi. Qishloq ayollariga o'xshab ustiga keng qora chodra yopinib olibdi, yuz-ko'zi ko'rinmaydi.

Beka mehmonni uy eshigigacha kuzatib qo'ygach, bizni xoli qoldirib ketdi. Bir og'iz ham so'z topolmay sevganimning qo'liga labimni bosdim...

Mendan darak bo'lmagach, Vodiya xavotirga tushibdi.

Oxiri bir tavakkal qilishga jur'at etibdi: gap-so'zga qolishdan cho'chimay oldimga kelibdi... Ikki soat qanday o'tganini sezmay qoldik. Vodiyaning sira ketgisi yo'q edi.,.

Boyoqish juda charchagan ko'rinadi, men turgan uyni qidirib topguncha ona suti og'zidan kelganga o'xshaydi. Charchoq ko'zlari xira tortib, xuddi oftob urganday so'lg'in yuzida qizil dog'lar paydo bo'libdi.

Vodiya aslida tabiati bo'shanggina juvon bo'lsayam, niyatiga yetish uchun katta matonat ko'rsatibdi. Hamma voqeani menga o'zi gapirib berdi. Oldin Shishlida turadigan dugonasining oldiga boribdi. Tasodifni qarangki, o'sha joyda chodrasiga qahva to'kib yuboribdi. Hali bozorga ham kirib o'tishi lozim ekan, shuning uchun dugonasi katta qora chodrasini berib, joniga ora kiribdi...

Hayotimda eng baxtli kun edi u! Hali-hali shu fikrdaman...

## 22

Qish keldi. Endi kechalari Vodiya bilan dengiz bo'yida uchrasholmay qoldik.

Ba'zan Vodiya bolalar bilan dars qilib turganimda sinfonaga kirib kelar va bir chekkaga borib, jimgina kursida o'tirardi.

Xandon sezib qolmasin degan andishada bir-birimizga tik qarashdan ham cho'chirdik.

Jamil Karimbey har xil ishlarini bahona qilib, haftasiga bir-ikki marta Istanbulda yotib qolardi. Ana shunday kechalardan birida men Vodiyaning bog'ga taklif qildim. U ham rozilik berdi.

Tun yarimdan og'ganida kelishilgan joyda uchrashdik. Aksiga olib, yomg'ir quyib berdi. Havo sovuq edi. Shamollab qolishdan qo'rqib, Vodiyaning uyga kiritib yubormoqchi bo'ldim. Lekin u ko'nmadi. Boshini yelkamga qo'ydi. Sochlari yomg'irdan ivib ketibdi. Shamollab qolasan, paltoni yopinib ol, desam ham ko'nmaydi.

– Qo'yaver... Kasal bo'lsam bo'la qolay, – deb pichirlaydi, xolos.

Sochlarini silab, uni bog' eshigiga boshladim.

– Shu yerda xayrlasha qolaylik endi... Tag'in shamollab qolmagin, – deb yolvordim.

Vodiyaning qo'limni qo'yib yuborgisi yo'q.

– Yur men bilan, Iffat, – dedi u shivirlab. – Hamma uxlab qolgan... Hech kim ko'rmaydi.

Qorong'i hovlidan o'tib, to'rt qator zina orqali mo'jazgina xonaga kirdik. Derazalari dengizga qaragan ekan... Keyin oynaband eshik orqali yana boshqa xonaga o'tdik. Bu – Jamil Karimbeyning ishxonasi bo'lib, izzatli mehmonlarni va biror yumush bilan kelgan baobro' odamlarni shu yerda qabul qilardi u.

– Chiroqni yoqib yuboraymi? – so'rab qoldi Vodiya.

Nafasim ichimga tushib ketdi. Yalt etib qarasam, kulib turibdi – hazillashayotgan ekan. Yuragim taka-puka bo'lib turganidan u huzur qilayotgan edi...

Deraza yonidagi katga yonma-yon o'tirdik. Vodiya kun bo'yi chopqillab holdan toygan yosh boladay jimib qoldi, boshini yelkamga qo'yib, bo'ynimdan mahkam quchoqlab oldi. Men ham uning namiqqan sochiga asta labimni bosib, nozik chehrasiga tikilib qoldim. Ikkovimiz churq etmay, anchagacha shunday o'tirdik.

Yuqori koridordagi soat jaranglab ikkiga bong urdi.

– Menga ruxsat, Vodiya, boray endi, – deyishim bilan u hozir mendan ajrab qoladiganday mahkamroq yopishib oldi.

– Qo'rqyapsanmi?

– O'zimni o'ylayotganim yo'q... Senga gap tegmasin deyman...

– Hammasi uxlab yotibdi.

– Har holda ehtiyot bo'lgan yaxshi... Meni deb boshing baloga qolsa-ya? Unda men nima degan odam bo'laman?

Vodiya qo'li bilan og'zimni to'sdi.

– Jim!.. O'zim bilaman nima qilishimni... Hammasini o'ylab qo'yganman... Agar bilib qolib, to'polon ko'targuday bo'lishsa, shartta o'zimni o'ldiraman! Gap bitta, Iffat...

– Unday bo'lsa nimaga ko'nding bunga?

– Bilasan-ku, axir, seni sevaman. Ammo bunaqa joyda uchrashishlik g'irt tentaklikning o'zi, sen bilan bu yerda birinchi va oxirgi marta ko'rishishimiz bu... Endi kelasi yozgacha faqat bolalarning oldida uchrashib turamiz, xo'pmi, jonim?

– Xohishing... Men sening halovatingni muhabbatimdan ustun qo'yaman.

Birinchi va oxirgi marta deb kelishilgan „tentaklik“ haftada bir marta odat tusiga kirib qoldi. Jamil Karimbey Istanbulga jo'nagan kunlari chorda yotib qoladigan bo'ldim. Vodiya yarim kechada xonaga kirib, har gal qorong'ida meni kutib o'tiradi. Chorbog'da bog'bon chol bilan ikki oqsochdan bo'lak hech kim yo'q. Bog'bon hovlining bir chekkasidagi oshxona yonida, oqsoch xotinlar esa boloxonada yotishadi. Men, faqat Xandondan cho'chirdim, xolos.

## 23

O'sha kecha Vodiya bilan odatdagi joyda – kichkinagina xonada uchrashdik. Osmonni bulut qoplagandi, hademay yomg'ir quyib beradiganga o'xshardi.

Vodiyaning tanasi bo'shashib ketayotganini sezib turgandayman. Xuddi havo yetishmayotganday entikib qo'yadi, asabiy holatda qo'limni qattiq qisadi.

Havo nihoyatda og'ir va dim bo'lgani uchun men ham bezovtaman. O'rtadagi jimlik asabga tegadi, binobarin, tun sukunatini buzish uchun paydar-pay gaplardan qilib o'tiribman. Qo'shni bog'lardan itlarning vovullagani eshitiladi.

Vodiya quchog'imda uxlab qolgandek edi. Birdan u to'lg'anib ketdi:

– Eshityapsanmi? Hovlida birov yurganga o'xshaydi.

– Hech kim yo'q, qo'rqma, yanglish eshitgandirsan.

Oldiniga ikkovimiz quloq tutdik. Keyin oyoq uchida yurib oynaga yaqinlashdik.

Vodiya yanglishmagan ekan: hovli tomondan oyoq tovushi eshitildi.

– Narigi xonaga o'ta qolaylik, – dedi Vodiya shivirlab.

Qiya ochiq oynaband eshik orqali Jamil Karimbeyning xonasiga oʻtdik. Baxtimizga, uying koʻcha tomonga qaragan derazasi ochiq ekan. Chit parda ortidan sekin tashqariga qaradik.

Yuqori qavatdagi xonalardan birida jinchiroq koʻrindi. Uning xuddi olis yulduznikiga oʻxshagan xira yorugʻida uch kishining qorasi sezildi. Ularning shivir-shivir gapi eshitildi. Bittasi bogʻbon chol ekan, darrov tanidim.

– Sen orqa eshikka qarab tur! – deb buyurdi u qorongʻida yuzi koʻrinmay turgan sherigiga.

Ikki kishi biz entikib turgan oynaning oldiga keldi. Ularning gap-soʻzi endi bermalol eshitilardi.

– Hoʻv anavi tomondan kelayotgan ekan, – dedi bogʻbon qoʻli bilan bodom daraxtlari oʻsgan tomonni koʻrsatib. – Bittasini aniq koʻrdim. Ehtimol, yonida sherigi ham bordir... Bogʻeshigiga oʻzini urib, gʻoyib boʻldi...

Bogʻbonning yonidagi odam isteʼfodagi generalga qarashli koʻshkning oshpazi edi. Bogʻbon hammaga jar solgan koʻrinadi.

Ular bogʻga chiqadigan eshikni poylab, gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir gaplashib turishibdi.

– Bekaga xabar qildingmi?

– Yoʻq, yoʻq... Politsiya kelsin... Hozir kelib qolishadi... Orqa eshikka Zaynab koʻz-quloq boʻlib turibdi... Sen huv anavi burchakda tur... Devordan oshib tushishmasin.

Vodiyanning boʻyniga chirmashgan qoʻllarim boʻshashdi, muzlay boshladi – u hushidan keta boshlagan edi... Men uni dast koʻtarib qoʻshni xonaga olib chiqdim va avaylab yotqizib qoʻydim.

Mutlaqo xotirjamman, kalam ham joyida, kuch-quvvatim, irodam tarang – tahlika meni shunga majbur qilgan. Har qanday olishuvga shayman.

Orqaga qaytishning imkoni yoʻq. Hech qayoqqa qochib ham boʻlmaydi, baribir qoʻlga tushaman. Lekin men oʻz jonimni oʻylayotganim yoʻq. Miyamda faqat bir fikr charx uradi: nima boʻlsayam uni qutqarishim kerak...

Ismoil haqidagi eski afsona esimga tushdi. Shu atrofda soy bo'lganida hech ikkilanmay o'zimni suvga otardim-a albatta...

Vodiya katda o'zini bilmay tirishib yotibdi.

– Xudo haqqi, Vodiya, meni qo'y, o'zing boraver. Xonangga chiqib, ichidan berkitib ol!.. Tezroq bo'l, hozir kelib qolishadi.

Na qulog'iga gap kiradi va na biror sado chiqadi undan. A'zoyi badani dag'-dag' titraydi, xolos.

Hushiga keltirmoqchi bo'lib oldin kaftlarini uqaladim, keyin dast ko'tarib, tik o'tqazib qo'ydim. Oxiri bir amallab uni zinaning oldiga olib chiqdim.

– Bor! Men bilan ishing bo'lmasin! – dedim yolvorib.

Vodiya ancha o'ziga keldi.

– Sen nima qilasan, Iffat? – so'radi zinapoyaga cho'kib.

– Qochishga urinib ko'raman... Ilojini qilolmasam, mayli, qamayverishsin...

– Sharmanda bo'ldik!

– Hecham!.. Faqat men qo'lga tushaman. Bu yerga nima uchun, nima maqsadda kelganimni hecham bilisholmaydi.

– Baribir xarob bo'ldik!..

– Seni saqlab qolaman, Vodiya!.. Men o'g'riman, kasbim o'g'rilik deyman... Ha, ha, uyga o'g'irlikka tushuvdim, deb aytaman.

Garchi bu gapni beixtiyor aytib yuborgan bo'lsam ham, o'zimga juda ma'qul keldi. Ha, topdim! O'g'irlikka tushuvdim, deyman. Mard kishining ishi bu!“

Ham xursand bo'lganimdan, ham hayajondan o'pkam to'lib ketdi. Vodiyaning qo'l-oyoqlarini o'pib, bunga rozilik so'radim, yalinib-yolvordim.

Buni eshitib uning rosa achchig'i chiqdi, albatta, bunaqa sharmandalikka yo'l qo'ymayman, deb turib oldi.

Lekin mening qarorim qat'iy edi. O'zimni bosib, vazminlik bilan unga tushuntirdim:

– Xo'sh, ular sirimizdan voqif bo'lishsa, unda nima, sharmanda bo'lmaymizmi? Birovning xasmiga ko'z olaytirish, uni eridan tortib olish ikki pullik narsa uchun o'g'irlikka tushishdan ko'ra og'irroq jinoyat emasmi?



Ko'chadan politsiyachilarning hushtak chalgani eshildi, Vodiya to'la taslim qilgan narsa ham shu bo'ldi. Sevgilimning nam ko'zlaridan yana bir bor o'pdim, uni o'zimdan nari itarib, Jamil Karimbeyning xonasiga qaytdim.

Politsiya kelishiga tayyorgarlik ko'rib qochish kerak... Jamil Karimbeyning stolida pul ko'p bo'lsa kerak. Otashkurak bilan uni buzib ochdim, qog'ozlarni titkilab, qo'lga ilingan pul va zayomlarni cho'ntakka tiqdim, ichidan buzuq til-la soat chiqqan edi, uniyam oldim. Zarb bilan eshik taqilladi, deraza oynalari qarsillab ketdi.

Eshikni ochib, politsiyaga o'zim taslim bo'lmoqchi bo'ldim. Ammo Vodiya bilan hozirgina xayrlashgan joyimizda, zina ustida darmonim quridi. Turgan joyimda o'tirib qoldim va ikkala qo'lim bilan yuzimni berkitib oldim.

Tergovda ikki kecha-yu ikki kunduz o'tirib chiqdim. Uchinchi kuni Jalol kechga yaqin meni bir amallab kafilga chiqarib oldi.

Jalol bu kecha meni yolg'iz qoldirgisi kelmay, zo'rlab uyiga olib ketdi. O'zim juda charchab, holdan toyganman, xuddi kasalga o'xshayman. Do'stim xonasiga joy solib, meni yotqizdi.

– Tezroq uxla, Iffat... Qolgan gaplarni ertaga ertalab gaplashamiz.

Jalol karavot boshidagi stolchaga shamdonni qo'yib chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, uni to'xtatdim.

– Menga qara, Jalol, – dedim unga tikilib. Meni qaysi yurak bilan bu yoqqa boshlab kelding? Uyingni shipirib ket-sam nima deysan?

Jalol oldimga keldi.

– Meni shunchalik kallavaram deb o'ylayapsanmi, Iffat? Yoki tergovchiga o'xshab meniyam laqillatmoqchimisani?

– Bu nima deganing? – shosha-pisha so'radim undan.

– Yaxshisi, bu gapni hozir qo'yaylik... Uxla... Ertaga bir qulog'ingni cho'zib qo'yayki...

U eshikka qarab yurgan edi, mahkam qo'lga yopishdim.

– Agar meni kechasi bilan uxlamay chiqsin desang ke-taverishing mumkin.

Noiloj u orqasiga qaytdi, ko'zimga tikilib qaragach, dona-dona qilib gap boshladi:

- Sen o'ta tentaklik qilgansan, Iffat... Orqa-o'ngingga qaramay o'zingni o'tga tashlagansan. Voqeani eshitgach, gap nimada ekaniga tushundim. Kecha tergovchining oldiga boruvdim, bergan javoblaringni ko'rib, bunga yana bir karra imonim komil bo'ldi. Jindek bo'lsayam o'z qadrini biladigan o'g'ri hech qachon meni ushlanglar, men o'g'riman, deb ay-yuhannos solmaydi... Seni ko'rgan zahotim bu narsa yana ham oydinlashdi, menda qittak ham shubha qolmadi... Yosh boladay sodda ekaningni bilardim-u, lekin bunchalik, deb o'ylamagan edim...

Rangim oqarib ketganini sezib turibman.

- Tergovchiga gullab qo'ymagandirsan har holda? - shosha-pisha so'radim undan.

Jalol miyig'ida kulib qo'ydi.

- Ana, tilingdan ilinding o'zing... Xotirjam bo'l. Bir ko'nglim aytmoqchi bo'ldim-u, lekin indamay qo'ya qoldim.... To'g'risi hozircha indamay qo'ya qoldim. Ammo vaqti kelib bor haqiqatni aytish kerak bo'lsa...

A'zoyi badanimga kuch yog'ilganday bo'ldi.

- Hecham bu ishni qilmaysan! - jig'ibiyron bo'lib jerkib tashladim Jalolni. - Men seni eng yaqin og'aynim deb bilardim!

- Bu juvonne sevishingni ko'pdan fahmlab yurardim, - dedi Jalol ham qizishib. - Qo'rqma, kim u, oti nima deb surishtirib o'tirmayman. Garchi xayolingda faqat o'sha bo'lsayam... Keyingi paytlarda xuddi telbaga o'xshaysan. Ko'p marta sen bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi, seni bu xatarli yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldim... Nima gap o'zi, loaqal endi ichingdagini aytsang-chi. Balki birgalashib chora toparmiz.

Tonib o'tirishning foydasi yo'q, Jalol hammasidan xabardor.

- Menga qara, Jalol! Sen eng yaqin do'stimsan. Qolaversa, ko'ngil sirimdan xabaring bor... Yuragimni battar yaramassan, deb o'ylayman... Uni qattiq sevaman... Nomiga dog' tushmasin deb shu ishni qildim, boshqa ilojim yo'q

edi... O'z xohishim bilan shunday qildim, binobarin, hech qachon bunga pushaymon qilmayman...

– Ko'ramiz hali, Iffat! Yaqin orada ko'ramiz! – dedi Jalol istehzo bilan.

– Yana qaytarib aytaman: hech qachon bu ishimdan pushaymon bo'lmayman, – javob berdim o'zimni bosib, qat'iy ohangda. – Odamlar meni jinoyatchi deb o'ylasa o'y-layversin. Sud meni kesib yuborsayam roziman. Axir buning nima ahamiyati bor? Men uni sevaman, bildingmi? Uni deb shu ishni qildim! Menga rahm qilmay qo'ya qol! Bu bilan yuragim qanchalik taskin topganini bilmaysan, Jalol!..

Qattiq charchagan bo'lishimga qaramay ilhom bulog'im ochilib ketdi. Boshimga tushadigan jabr-u jafolar men uchun katta baxt ekanini aytdim.

– Obbo bechora-yey! – miyig'ida kulib dedi Jalol. – Mana shu qiziqqonlik tufayli hamma narsa o'lda-jo'lda qoladi... O'zing bir o'ylab ko'r-a, Iffat: hozirgina qovog'ingdan qor yog'ib turgan edi. Ko'zimga tik qarashga botinolmay turuv-ding... Mana endi bo'lsa o'z xayolingda muhabbat yo'lida jafo chekkan bir qahramonsan. Birpasda shunchalik o'z-garib qolishingga sabab nima? Sabab shuki, siringdan xa-bardor ekanimni, ahvolingni tushunib, senga yon bosishim mumkinligini bilasan. Ammo shunday kun keladiki, mening hamdardligim ham, uning muhabbati ham dilingga tasalli berolmay qoladi... Ana shunday bo'lmasligi uchun hozirda-yoq buning chorasini ko'rish kerak... Sen boshqa odamsan, ko'pchilikning yuziga oyoq qo'yib, bemalol halovat surib yuraveradiganlardan emassan, oqimga teskari suzadigan-lardan emassan.

Jalol bilan yarim kechagacha tortishdik. Do'stim Jamil Karimbeyning o'zi bilan kelishishni maslahat qildi. Lekin bundan hech qanday natija chiqmasligiga, aksincha, u bat-tar shubhalanib qolishi mumkinligiga imonim komil edi.

– Nima bo'lsa, bo'ldi endi. Boshga tushganni ko'z ko'radi. Ikkovimiz ham fikrimizda qoldik.

Jalol hamma gapdan xabardor ekan! Ham cho'chidim, ham suyundim bunga: eng hurmatli, eng yaqin do'stim ol-

dida obro'yim bir pul bo'lmaganligi uchun kuchimga kuch qo'shilganday bo'ldi.

Ancha tetiklashdim, dilim ravshan tortdi, uch kunlik azoblardan so'ng birinchi marta g'arq uyquga ketdim.

## 25

Omadim keldi. Buning uchun tasodifdan minnatdorman.

Sud bo'ladigan kuni havo yomon aynib qoldi. Shimoldan qattiq shamol turdi. Kechadan beri maydalab turgan qor bo'ralab ura boshladi.

Mahkama koridori ko'chaga o'xshab qorong'i va bo'm-bo'sh. Zalda uch-to'rtta sud amaldori-yu mening ishim yuzasidan chaqirilgan guvohlardan boshqa hech kim yo'q.

Jalol tipirchilab turibdi.

– Menga qara, Iffat, – dedi u meni chetga tortib, – hozir hayotingda eng mas'uliyatli, hal qiluvchi payt keladi. Advokating sifatida, do'sting sifatida men seni himoya qilaman... Senga bor gapni aytmoqchiman. Sening bundan keyingi taqdiring shu bugun bo'ladigan sud hukmiga bog'liq. Senga u og'ir tamg'a bosadi. Bundan buyog'iga noming o'g'riga chiqadi. Gapimni tushun, sen nochor odamsan, binobarin hayot-mamoting atrofdegilar seni qanchalik hurmat qilishiga, senga qanchalik ishonishiga bog'liq. Mana, ko'rdingmi, men bor haqiqatni senga ochiq aytyapman.

Men do'stimning xiyla titroq bosgan qo'lini olib qattiq qisdim.

– Boshqa ilojim yo'q, Jalol, endi chekinib bo'lmaydi... Aslida men o'g'ri emasman, bu xonadonga o'marish uchun emas, balki... xullas, boshqa maqsadda kiruvdim, deb sudga aytishim kerakmi?.. O'zing ham ko'rib turibsanki, bunday qilolmayman... Iloj qancha. Bo'lar ish bo'ldi endi!

Go'yo Jalol mening o'rnimga aybdorlar kursisiga borib o'tiradiganday uni astoydil yupatdim, dalda berdim.

Zal nim qorong'i. Qari sudya astariga paxta tiqilgan paltoga o'ranib olgan. Zo'rg'a yo'talini bosib, nimjon ovoz bilan, beparvogina meni so'roqqa tutadi.

Mening javoblarim aniq va lo'nda. Sud ko'pam uzoqqa cho'zilmadi. Nazarimda bu sovuq va qorong'i zaldan hammayam tezroq chiqib ketishni istardi. Prokuror meni ozodlikdan mahrum etib, qamash kerakligini aytdi. Jalol meni oqlamoqchi bo'lib uzundan uzoq nutq so'zladi:

Eng oxiri sud „tunda birovning uyig'a kirib, qulfni buzib o'g'irlik qilgani uchun“ meni olti oy qamoq jazosiga hukm qildi.

Jalolning xunobi oshdi, bu hukmni qaytadan ko'rish haqida ariza ber deb turib oldi.

– O'zingniyam, meniyam qiynama, do'stim,– deb javob berdim unga. – Arizadan foyda yo'q, battar odamni ezib yuboradi... Tezroq bir yoqli bo'lgani ma'qul...

Shundan keyin ikkovimiz churq etmay, jimgina koridor bo'ylab yurdik. Zinaga yetganda devor tagida ikki qo'li bilan boshini changallab turgan cholga ko'zim tushdi...

Jalol taqqa to'xtadi; men beixtiyor yuzimni berkitib oldim – qarshimizdagi odam Mahmud afandi edi. Boyoqishning eski ust-boshi jiqqa ho'l, oppoq soqoliga ko'zidan tirqirab yosh oqyapti. Titrab turgan qo'llarini cho'zib oldimga keldi va meni bag'riga bosdi.

– Qandoq gap bu, Iffat? – dedi u pichirlab. – Oh, bolagim!– Madmud afandi ho'ngrab yig'lab yubordi.

Nechog'liq tuban ketganimni men shundagina tushundim. Hozirgina o'zimni tengi yo'q qahramon deb o'ylab turgandim, ruhim shod, zavqim baland edi. Mana endi bo'lsa keksa muallimning yuziga tik qarayolmayman, qani hozir yer yorilsa-yu, meni qa'riga olsa...

Mahmud afandi bilan zina oldida birpas turib qoldik, ammo bir nima deyishga til ojiz edi.

Xayrlasha turib, chol meni yana bag'riga bosdi, keyin ivib ketgan, kiyimini boshiga ilib, inqillaganicha zinadan pastga tushib ketdi.

– Ranging quv o'chib ketibdi, Iffat, – deb qoldi Jalol.

– Men uchun eng og‘ir zarba shu bo‘ldi,– dedim arang iljayib.

## 26

Men tushgan qamoqxonada ta‘mirlash ketayotgan ekan. Mahbuslarning bir qismi xuddi qo‘tonga qamalgan podaday koridorda uymalashib yotishibdi. Qo‘li uzun odam turmayam xor bo‘lmas ekan. Nazoratchining „obro‘li“ mahbuslarga ajratib qo‘ygan xonasiga Jalolning yordami bilan joylashib oldim.

Bu yerda yangi og‘aynilar orttirdim. Shulardan biri soliq inspektori; yig‘gan pulini yeb qo‘yib, qamoqqa tushgan. Ikkinchisi – ko‘rinishi tetik, echkisoqol bir chol, o‘taketgan xotinboz va buzuq odam. Beva qo‘shnisinikiga kirib, uni to‘pponcha bilan qo‘rqitibdi. Yana birining ismi – Vosif afandi. U soliq boshqarmasida kotib bo‘lib ishlagan. Boshlig‘ini urgani uchun sakkiz oyga qamalgan. To‘rtinchi tanishim – siyosiy mahbus. O‘zi shunday deydi.

Rumelidan<sup>1</sup> chiqqan soliq inspektori boshiga kulfat tushsayam hazil-mutoyibani qo‘ymaydigan, dilkash odamlar toifasidan ekan. Meni birinchi bo‘lib kutib olgan ham shu bo‘ldi.

– Xush kelibsan, inim! Boshing toshdan bo‘lsin! Qancha berishdi?

Gapiga tushunolmadim. Nimani qancha berishdi? Buni yana o‘zi tushuntirib berdi.

– Qanchaga qamashdi, deb so‘rayapman.

– Olti oyga, afandim, – deb javob berdim.

Soliq inspektori kotibga yuzlandi.

– Ana, Vosif afandi, ko‘rdingmi, Xizr Ilyos kuniga<sup>2</sup> hammamiz qutulib chiqarkanmiz... Uchta bo‘ldik hozir... Yana birortasini toparmiz. Besh-o‘n liradan to‘kma qilsak, bitta qo‘y keladi. Qo‘yni qayiqqa bosib, shahardan chetga chiqib ketamiz... Udni ham olvolaman... Raqi<sup>3</sup> ham topilsa, rosa

<sup>1</sup> **Rumeli** – Turkiyaning Yevropa qismi.

<sup>2</sup> **Xizr Ilyos kuni** – yozning birinchi kuni.

<sup>3</sup> **Raqi** – araq.

bazmi jamshid bo'ladi... Bir yayraymiz!.. „Oqsoqol“ning sog'lig'igayam bir ko'taramiz o'shanda!..

„Oqsoqol“ deb u xotinboz cholga shama qilayotgan edi: chunki u hali-beri chiqadigan emas.

– Ziyofating boshingda qolsin, – dedi chol ham bo'sh kelmay. – Shu yerning o'zida yana uchrashib qolmaylik!

– Otgandayam orqa-o'ngimizga qarab, jindak-jindakdan otamiz-da. Bo'lmasa yana biror g'alva chiqarib, qo'lga tushish hech gap emas. Xudo ko'rsatmasin...

Vosif afandi nega qamalغانimni so'rab qoldi. O'g'irlik qilib qo'lga tushdim, afandim, – dedim pinagimni buzmay.

Kotib ko'zimga tikilib qaradi.

– Tuhmatga uchrabsan-da!

– Yo'g'-a... Afsuski, gapim rost, afandim.

Soliq inspektori xaxolab kulib yubordi.

– Ana xolos! Joynamoz tepasida turgan odamga o'xshaysan-a, inim... Ochig'ini aytgan odamning sadaqasi ketsang arziydi... hammaning boshida bor bu savdo... Baxtsiz hodisa ro'y beribdi... Boshing baloga qolibdi... Ha, mayli, arzimagan narsa uchun dorga osishmaydi-ku. Lekin ba'zi birovlar bir qop aqchani gumdon qilsayam tili uzun bo'ladi, qo'lga tushmaydi... Bizga o'xshagan sho'ring qurg'urlar arzimagan besh-o'n chaqani deb avaxtaga tushadi...

– O'zing haqiqat, haqiqat deb ayyuhannos solasan-u, nega bizga yolg'on gapirasan? – uni uzib oldi chol.

Inspektor vazmin tortdi, xuddi sudda javob berayotgan odamday bo'ynini bukdi.

– Azbaroyi Xudo, oqsoqol, aldaganim yo'q... Pul turgan sumkani olib, ko'chaga chiqdim... Birdan yomg'ir boshlanib qoldi, boshimdagi fasni esa yangi dazmollaganman. Xullas, tramvayga tushib ketmoqchi bo'ldim. Sakrab chiqib oldim. Vagonning orqa tomonidaman. Bittasi nuqul menga suykalaverdi. Keyin o'sha muttaham kifti bilan meni itarib, sumkaga chang soldi, shartta qo'limdan yulib olib, tramvaydan sakrab qochdi... – Inspektor xuddi teatrda tomosha ko'rsatayotgan odamday imo-ishora bilan voqeani tushuntirib berdi.

„Oqsoqol“ning sabri chidamadi, shartta o‘rnidan turib, boshidagi fasini yerga uloqtirdi.

– Topgan gapini qarang! – bobillay ketdi u zaharxanda kulib. – Xuddi biz bunga ishonadiganday. Pulni hazm qilib yuborgan bo‘lsang kerak... Yaxshisi, halol gapni aytaver bizga... Agar birorta nozaninga sarflagan bo‘lsang, umringdan baraka top. Bordi-yu, xom kallalik qilib kartaga boy bergan bo‘lsang, bu kuningdan battar bo‘l!..

Inspektor gapni chalg‘itmoqchi bo‘lib, „oqsoqol“ning o‘zini yanib ketdi.

– Bu qariya nima karomat ko‘rsatganini bilasanmi?– dedi u menga qarab. – Oppoq soqolidan uyalmay bir beva xotinga tegajog‘liq qilibdi, to‘pponcha o‘qtalib qo‘rqitibdi-ya... Shundoqmi?..

Bir burchakda o‘tirgan kotib yigit chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

Ishq savdosi boshqacha bo‘larkan, yurakdan uraman desa yoshiga qarab o‘tirmas ekan!

– Haq gapni aytding, o‘g‘lim, – dedi uni quvvatlab „oqsoqol“. Yurakdan uraman desa yosh-u qari baravar... Ammo tepamda Xudo turibdi, bu ishda mening aybim yo‘q... Bilsang, o‘zi beva qolgan ayol edi... Rahmatli eri bilan yaqin oshna edik. Eri bor paytidayoq menga ishva qilib yurardi. Uylariga mehmon bo‘lib kelsam, tirqishdan mo‘ralab hingir-hingir kulardi. Yoki bo‘lmasa, yengini bilagigacha shimarib, qiya ochiq eshikdan patnusda qahva uzatardi.. Menku, kalima keltirib, ko‘zimni yerdan olmay o‘tirardim-a, albatta... Har qalay, do‘stimning jufti haloli... To‘satdan eri qazo qilib qoldi... Har holda ayol kishiyam tirik jon, afandim... Birovning yordamiga muhtojlik sezadi... Og‘ir-yengiliga qarashib yurdim. Axir ko‘zdek yaqin qo‘shnimiz, buning ustiga yolg‘iz jon, qolaversa, yaqin do‘stimning xotini...

Soliq inspektori bo‘lsa battar tegajog‘liq qilib, kula-kula kesatadi.

– Uf, ichagimni uzding, oqsoqol! To‘pponchaniyam savob ish uchun olvolgan bo‘lsang kerak, a?

Chol ensasi qotib, labini burdi.

– Ko‘ngling buzuq ekan, oshnam! – dedi va unga qayrilib ham qaramay, gapida davom etdi: – Xullas, afandim, bu



xotin menga battar noz-karashma qiladigan bo'lib qoldi... Ipsiz bog'lanib qoldim. Dastlab har xil sovg'a-salom olib keladigan bo'ldim, keyin oyog'iga tufli olib berdim, bora-bora ko'ngli nimani tusasa, shuni muhayyo qildim. Hech narsani ayamadim undan... Keyin bundoq qaragam, o'taketgan qallob bo'lib chiqdi. Men uni bekorga pokiza deb yurgan ekanman... Gapning po'stkallasi shuki, afandim, eshitsam, mahallamizdagi bir olifta bilan don olishib yurar ekan... Bir kuni kechqurun kayfda tavakkal qildim. Devordan oshib tushib, to'g'ri xonasiga kirib bordim. Xonasiyam shundoq hovliga qaragan edi. Meni ko'rib, dodlab yuborsa bo'ladi-mi... O'chir ovozingni, la'nati, nega bo'kirasan, qo'rqma, ikki og'iz gapim bor, shuni aytaman-u ketaman, desam ham bo'lmadi. Uning bo'kirganini eshitib, butun qo'ni-qo'shni yugurib chiqdi... Meni quvlab qolishdi. Rasvo bo'lgur shu yerdayam aldadi, menga to'pponcha o'qtaldi, debdi. Haqiqatan ham yonimda to'pponcha bor edi. Ammo to'pponcha nomiga isnod keltiradigan bir temirtak, hech narsaga yaramasdi... Mana endi o'sha megajinni deb shu ko'yga tushib o'tiribman...

Soliq inspektoriga o'xshab chol ham hazilkash odam ekan. Ikkovi goh bir-birini kalaka qilsa, goh o'tgan-ketgandan hasratlashib o'tirishardi.

Kotib Vosif afandining yoshi o'ttizlarda. Baland bo'yli, norg'ul soddadil yigit. O'n olti yoshidan beri shu sohada ishlarkan.

Shu idorada o'n to'rt yil jonimni jabborga berib ishladim. Oxiri yetti yuz qurush<sup>1</sup> maosh oladigan bo'ldim... Qo'limda birorta boshqa hunarim yo'q, shuning uchun yetti bukilib ishlab keldim... o'zim yuvosh ohamman, birovning gapini ikkita qilgim kelmaydi, ishdan qochmayman. Boshlig'im hamma yumushni menga yuklab qo'ydi. Bu ham yetmagandek unga yana yugurdaklik qilaman: bozorga borib goh go'sht, goh sabzi-piyoz olib kelaman. Har kuni shu ahvol?, anavini olib kel, manavini eltib ber! Xuddi meni malayiday ishlatadi... Jo'jabirday jonmiz, shular och qolmasin deb

---

<sup>1</sup> **Qurush** – mayda pul, liraning yuzdan biri.

hammasiga chidab keldim. Eshitgan rahmatim shu bo'ldiki, bir kuni u meni katta boshlig'imizga chaqibdi. „Insof bormi sizda, endi yeb turgan nonimni tortib olmoqchimisiz“, deb dangal aytdim o'ziga. Rosa ko'pirib ketdi, og'ziga bodi kirib, shodi chiqdi. Men ham chidab turolmadim... Yerga yotqizib, rosa tepkiladim. Dabdala qildim... Qamoqqa tushganimga achinmayman. Endi meni davlat ishiga olishmaydi, man qilishdi, shunisi yomon bo'ldi!..

Ko'pchilik idora xizmatchilariga o'xshab Vosif afandi ham tabiatan kamhafsala va sustkash, o'zining soyasidan qo'rqadigan, injiq odam edi.

Men endi adoyi tamom bo'ldim, – derdi u menga zorlanib. – Ochlikdan tirishib o'lsam kerak, boshqa ilojim yo'q... – Shundan keyin u yosh bolaga o'xshab ho'ng-ho'ng yig'ildi.

Hamxonalardan to'rtinchisi o'ziga bino qo'ygan, kibr-u havosi juda baland, g'alati bir odam ekan. Firibi ochilib qo'lga tushgan va to'qqiz oyga kesilgan bo'lsayam, o'zini „siyosiy mahbus“ deb bilar, shuning uchun bizga o'xshagan jinoyatchilar bilan bordi-keldi qilishni o'ziga ep ko'rmasdi.

Meni shu kameraga olib kelishganida rosa jig'ibiyron bo'libdi, endi men shu hashaki o'g'rilar bilan birga yotamanmi, degan mazmunda turma boshlig'iga shikoyat yo'llabdi. Bu gapni men anchadan keyin soliq inspektoridan eshitdim.

## 27

Bir-birini quvlab, kunlar va haftalar o'tib boryapti. Bu notanish muhitda o'zimni begonaday his qilaman, uning quvonchi va tashvishlari bilan zarracha ishimi yo'q, atrof-dagilarning bahsiga tushunmayman. O'zimdanda, ahvolimdan or qilaman-u, lekin pushaymon emasman, g'ulg'ulaga tushayotganim ham yo'q. Atrof-tevarakdagi odamlarni faqat tushda ko'rganga o'xshayman – men uchun ular tamoman begona, qolaversa, nazarimda, ba'zan ular butunlay yo'qqa o'xshaydi. Muhabbat o'ti es-hushimni olib qo'ydimikin? Yoki betobmanmi? Bilmadim... Karaxt odamga o'xshayman.

Kamerada uzzukun mudroq bosganday uzala tushib yotaman, qimir etmayman, qimirlashning o'zi xayolimda jahannam azobiday tuyuladi...

Ishtaham yo'q, na suv ichaman va na ovqat yeyman, shunga qaramay kalam va butun jismim qandaydir uzoq sarxushlik og'ushida. Tashqi muhit bilan aloqani uzgach ruhiyatimda ajib bir yangi olamni kashf etdim. Bu olamga g'arq bo'lgan kishi ko'ngli tusagan ishni bemalol qilaveradi, charchoq nimaligini bilmaydi u, ammo kim kimga peshvoz chiqqanini: noma'lum sarhadlarni odam quvlab ketyaptimi yoki ularning o'zi yaqinlashib kelyaptimi – bilib bilmaydi. Faqat shunisi bor. Hatto Vodiya bag'ringa bosib turgan kezlarimdayam ko'nglim to'lmaydi, bir nima yetishmayotgandek bo'ladi. Zotan bunday damlarda o'zligimni yo'qotib qo'ygandayman...

Aftidan, hasrat va tashvishlar meni qulatganga o'xshaydi...

Fevral yetib keldi. Bir necha haftadan beri tinmay quygan yomg'ir oxiri to'xtadi. Oftob mo'raladi. Deraza ro'parasidagi nuragan devor badanida ko'kat ko'rindi, ko'klam nafasi ufurdi.

Nazoratchi qoramursallik bir xotin men bilan ko'rishish uchun ruxsatnoma olganini kelib aytdi.

Yuragim hapriqib ketdi. Oyoq-qo'lim bo'shashib, taxta karavotda qimirlayolmay qoldim. Bu Vodiya bo'lsa kerak albatta! Garchi o'zimdan o'zim yashirib yurgan bo'lsam ham, qamoqqa tushganimdan buyon uning yo'liga ko'z tikib o'tirgandim. Uni deb men o'z hayotimga zomin bo'ldim. Endi u ham meni deb gap-so'zdan qo'rqmay yo'lga chiqsa kerak, axir.

Ertalab ko'klam nafasini sezib, oftob chiqqanini ko'riboq shu bugun biror muhim voqea ro'y berishini bilgan edim!

O'tgan yili Gedikposho ko'chasidagi pansionda kasal yotgan paytimdayam Vodiya qoramursallik qarindoshi bo'laman, deb kelgan edi. Qishloq xotinlariga o'xshab yana qora chodra yopinib olgan bo'lsa keragov...

Nazoratchi oldinda, men orqada ketyapman-u, xayolimda Vodiyaning oftobdan bug'riqqan, rangpar chehrasi. O'sha kuni shunday edi-da u...

Biror o'rinsiz harakat yoki imo bilan sirni ochib qo'y-maslik uchun o'zimni obdan qo'lga olib, qamoqxona idorasiga kirdim. Bilsam, kelgan odam Vodiya emas, qoramursal-lik Xatija ammam ekan.

Parishon holimni, g'ussa to'la ko'zlarimni ko'rib ammamning yuragi achishib ketdi.

- Hechqisi yo'q, Iffat, xafa bo'lma! Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', - meni yupatdi u yig'lam-sirab.

Yarim soatcha gaplashib o'tirdik. Ammam, o'g'irlik ustida qo'lga tushdim, desam ham ishonmadi, bilib turibman, Iffat, sen tuhmatga uchragansan...

Balki gapimga ishongisi kelmagandir? Yoki menga meh-ri zo'r bo'lgani uchun bunchalik tuban ketadi, deb hatto xayoliga ham keltirmaganmikin? Yo bo'lmasa menga achin-ganidan o'zini go'llikka solayotganmikin? Sababini hecham tushunolmadim.

Gapni chalg'itish maqsadida Domlajiqdagi yangiliklar-dan so'radim. Ammam boyoqishning o'z tashvishi o'ziga yetarkan: uch-to'rt yildan beri mulkidan putur ketibdi, ku-yovlari yer-suvga qarab turamiz, deb uni xarob qilishibdi, natijada ammam qulog'igacha qarzga botibdi. Endi uning maqsadi yer-suvni sotib, qarzlardan qolgan puliga Istanbul-dan kichikroq hovli sotib olish ekan...

Gapini eshitib o'tiribman-u, xayolim boshqa joyda, „Eh, ammajon, Xatija ammajon, boshimga tushgan shu kulfatda sizning ham ozmi-ko'pmi aybingiz bor. Domlajiqqa bormaganimda, tegirmon haqidagi afsonani o'sha yerda eshitma-ganimda, ehtimol, men bu ishni qilmagan bo'larmidim“.

Bechora Xatija ammam munkillab qolgan bo'lishiga qa-ramay meni ko'rish uchun naq Qoramursaldan yo'l bosib kelibdi. Shunchalik aziyat chekib kelgan ammamni ko'rib suyunishim kerak edi-yu, lekin aksi bo'lib chiqdi, uni ko'r-gandan keyin yuragim battar siqilib ketdi. Shu paytgacha sevgan va ardoqlab kelgan odamimdan endi butunlay ajrab

qolganimni tushundim. Men moxovdan ham battar odamman, menga dahshatli tamg'a bosilgan, binobarin, umr bo'yi sharmandayi sharmisor bo'lib yurishga mahkum etilganman. Kimni qanchalik sevmayin, uning yuziga tik boqishga ojizman! Binobarin, huzurida boshimni egib turishga majburman, u bo'lsa menga rahm qiladi, achinadi...

Qarshimda ammamni ko'rishim bilanoq Vodiyadan endi tamoman ajrab qolganimni, butun orzu-umidlarim chip-pakka chiqqanini darhol sezdim.

Nega shunday bo'ldi? Vodiyani xayol qilib, ammamni ko'rganim uchunmi? Faqat-a?..

O'sha kundan e'tiboran undan umidimni uzdim, yakka o'zim qoldim, orzularim chilparchin bo'ldi.

## 28

Qamoq muddatim tugadi. Dam olish kuni peshindan keyin kotib Vosif afandi ikkovimizni chiqarib yuborishdi.

– Yelkamning chuquri ko'rsin bu joyni! – deb yubordi u. – Peshanada bor ekan, qamog'iniyam ko'rdik. – Ko'zidan duv-duv yosh to'kildi.

Sulton Ahmad maydonidagi tramvay bekatigacha birga ketdik. Shu yerda ajralishimiz kerak. U shaharning kunbotaridagi chekka mahallaga, Edirnqopuga boradi. Oilasi o'sha yerda turarkan. Men bo'lsam qayerga borishimniyam, nima qilishimniyam bilmayman.

So'lim may oyi. Odamlar toza havo olish uchun to'da-to'da bo'lib dengizga oshiqishadi.

Vosif afandi bir parcha qog'ozga tamaki o'radi-da, tramvay kutib turgan bir choldan tutatib keldi.

– Bilasanmi, Iffatbey, – dedi u qulog'imga shivirlab – olov so'ramoqchi bo'lib birdan tilim g'o'ldirab qoldi, xuddi qamoqda yotib chiqqanim manglayimga yozib qo'yilgan-day... Uf, Xudo haqqi, juda qiyin bo'larkan!

Mening ham ahvolim shu. Nazarimda, hamma bizni tanib qolib, orqasiga o'girilib qarayotganday. Qamoqdan qachon qutulib chiqarkinman, yana erkim o'zimda bo'lib,

boshim oqqan tomonga qachon ketarkinman, deb rosa kutgandim. Mana endi bo'lsa odamlardan tortinaman, ulardan cho'chiyman, xaloyiq ichiga kirishga yuragim dov bermaydi. Shahar ko'chalari, maydon ichimga g'ulg'ula soladi.

Vosif afandi yengimdan tortdi.

– Vaqting bormi, yur, bir aylanib kelamiz... Dengiz yoqasidagi qahvaxonada bittadan qahva ichib qaytamiz.

Bu gapni menga juda ma'qul tushdi...

Bir-birimizdan ajralgimiz kelmaydi. Gavjum maydondan tor ko'cha tomonga burilib, tanho yo'llardan Oxirqopu mayog'iga chiqib oldik.

Vosif afandi shahar devorining xarobalari tagidagi ochiq qahvaxonani ma'qul topdi. Odam siyrak ekan. Bular ham, asosan, kambag'al xristianlar bo'lib, bahor bayramini nishonlash uchun bola-chaqasi bilan kelishgan. Har kim o'z tamaddisi bilan. O'g'il bolalar shataloq otib yurishibdi, qiz bolalar esa odob bilan devor tagida chechak terishayapti.

Bizdan pastroqdagi boshqa bir qahvaxonada o't o'chiruvchi yigit surnayga jo'r bo'lib qo'shiq aytyapti. Rangi zaxil surnaychi asbobini chiyillatib chalayotgan bo'lsayam, yigitning ovozi zo'r ekan. Kuyni eshitib Vosif afandining dili ezilib ketdi.

– Chiqarishga chiqarishdi-yu, lekin bu yog'i dumi xurjunda bo'ldi, – yana qamoqxonadagiday nolib ketdi u. – Ish berishgani yo'q, pul yo'q, qo'limda biror hunarim ham yo'q, dardi bedavoman...

„Hali yoshsiz, noumid bo'lmang, Xudo xohlasa hali ish-laringiz yurishib ketadi, ro'shnolikka chiqasiz“, deb qo'limdan kelganicha uni yupatishga harakat qildim.

Hozirgina ich-ichidan kuyinib o'tirgan Vosif afandi darhol minnatdorchilikka o'tdi.

Bir og'iz so'z bilan ko'nglimni ko'tarding, rahmat. Oliy-janob odam ekansan.

Boyoqish shunchalik sodda bo'lmasa, bu gapni men ko'proq o'zim uchun aytganimni bilmasmidi?!

Yonida ikki bolasi bilan ostonada o'rta bo'y, malla soqol bir mo'ysafid ko'rindi. Vosifga ko'zi tushishi bilan u:

– O‘zingmisan! Omon-eson qutulib chiqdingmi? – deb qichqirib yubordi.

Ular quchoqlashib ko‘rishishdi. Ikkovlari ilgari birga ishlashgan ekan, idora boshlig‘i bu odamgayam ko‘p jabr yetkazibdi.

– Qutulganing rost bo‘lsin, do‘stim, tabriklayman! U yana Vosifni bag‘riga bosib, yuz-ko‘zidan o‘pdi.

– Bu kishi bilan birga jabr tortdik... o‘zi yaxshi yigit, – dedi Vosif meni tanishtirib. – Olti oy birga azob chekishdik. Chol kelib yonimizga o‘tirdi.

– Janoblariyam birov bilan yoqalashib qamoqqa tushganmidilar? – deb so‘rab qoldi u.

Vosif meni tanishtirganiga pushaymon bo‘lib, mujmalgina:

– Ha... Shunga o‘xshashroq... hayotda nimalar bo‘lmaydi... Boshiga bir tashvish tushgan, – deb qo‘ya qoldi.

Men teskari qarab oldim.

Birpasdan keyin ikkovi o‘rinlaridan turishdi. Sobiq hamkasabalarning yo‘li bir ekan, qo‘shni turisharkan. Men yana biroz o‘tirmoqchi bo‘ldim. Vosif afandi keta turib, menga uy adresini berdi, so‘ngra mahkam bag‘riga bosdi. Men boshpana topishim bilanoq xat orqali ma‘lum qilishga va‘da berdim. Xayrlashdik.

Ularning orqasidan qarab qoldim. Quyosh hademay botadi, qal‘a devorlari uzun soya tashlagan. Vosif bilan sherigi o‘zaro nima haqdadir gaplashib, devor yoqalab ketishyapti. Vosif „mening boshimga tushgan tashvish“ haqida gapirib ketayotganiga negadir imonim komil edi.

Ko‘cha bo‘shab qoldi, shovqin tindi. Marmar dengizi tomon yo‘l olgan kema ortidan ilonizi bo‘lib chiqqan tutun g‘ira-shirada asta singib ketadi. Qarshi qirg‘oqda sohil mayoqlari yondi. Bir maromda sokin chayqalib yotgan to‘lqinlarga quloq tutib, o‘z xayollarimga berilib ketdim.

Mana, nihoyat, orzularim ro‘yobga chiqdi: yana erkin qushman! Ammo bu erkinlikni men nima qilaman? Bir paytlari jondan aziz bo‘lgan qarindosh-urug‘larim ham, yor-birodarlarim ham endi men uchun yetti yot begona. Xatija ammam oldimga kelgan kuniyoq buni tushungan-

man. Yuridik fakultetdan voz kechishga to'g'ri keladi. Universitetdan haydashmagan taqdirdayam, qaysi yuz bilan o'rtoqlarimning betiga qarayman? O'g'irlik qilib qamoqda olti oy yotib chiqqandan keyin yana qonun-qoidalardan gap ochib, birovlarini sud qilishlik insofdanmi, axir? Biror yerga borib ishlashning ham imkoni yo'q – kim menga ishonardi? Peshanaga bosilgan bunday tamg'a bilan hech kim birovdan shafqat so'rayolmaydi! Bunga haqqi yo'q! Balki Jalolning o'sha kungi gapi to'g'ridir? Qolaversa, bolalikda qulog'imga kirgan afsona qahramoni Ismoilga taqlid qilishim shartmidi o'zi?

Xuddi avji baland girdobga tushib qolganman-u, meni u chirpirak qilib surib ketyapti... Miyamga kelgan fikrlar ham meniki emas, birovnikiga o'xshaydi. Ichimni o'rtab yotgan shubha-gumonlar o'zimni o'zimga qarshi qo'ymoqchi. Men muhabbat yo'lida fidoyilik qildim, binobarin meni bunga undagan ham, menga kuch-quvvat bergan ham shu muhabbat bo'ldi... Ha, men shuni deb o'zimni fido qildim. Xo'sh, agar o'sha harakatim endi o'zimga bema'ni bo'lib tuyulayotgan bo'lsa, o'tmishimdan butunlay voz kechib, uni unutib yuborishga rozi ekanman, bu yog'i nima bo'ladi, qandoq jon saqlab qolaman, hammasiga qandoq chidayman?.. Yo'q, ishq-muhabbat qalblarga pinhoniylar nur bag'ishlaydi, binobarin nima bo'lsayam men uni himoya qilishim kerak.

Ko'zimni yumib, majburan uni esladim. Izmim faqat Vo-diyada!..

## 29

Qorong'ilik cho'kibdi. Narigi sohilni ko'rib bo'lmaydi. Orqa tomondan allakimning oyoq tovushi eshitildi. O'giri-lib qaradim: sal nariroqda ikkita politsiyachi aylanib yurgan ekan. Beixtiyor seskanib ketib, darrov o'rnimdan turdim.

Nomi o'g'riga chiqqan odam bunaqa bemahalda past-qam joylarda sandiroqlab yurmasligi kerak.



Jalolning uyida ikki marta, Mahmud afandinikida esa bir marta tunab qoldim. Bechora o'qituvchim bir oyog'i kasal bo'lishiga qaramay, meni izlab bormagan joyi qolmabdi. Uyi haliyam Sarigo'zalda ekan. Xotini hamisha betob, shuning uchun ro'zg'orga kelini qaraydi. O'g'il qazo qilganidan keyin chol-kampir kelin boyoqishni ko'chirib olib kelishgan, hozir u bularga farzandday bo'lib qolgan. Mahmud afandining nevara o'g'li o'nga chiqibdi.

O'sha kuni allamahalgacha gaplashib o'tirdik. O'zi kambag'al bo'lsayam, lekin halol va or-nomusli bu odamlar ichida nihoyatda yayrab ketdim. Nimagadir shu uy menga mutlaqo bexatar tuyuldi. Istanbulning bir chekkasidaman, meni hech kim topolmaydi, mening o'tmishim bilan, menga bosilgan tamg'a bilan bu yerda birovning ishi yo'q.

Mahmud afandi, dam-badam mening osuda bolalik yillarimni eslab qo'yadi. Gap orasida u juda yaxshi tarbiya ko'rgansiz, deb qistirib o'tadi yoki zab ajoyib fe'lingiz bor edi-da, deb maqtab qo'yadi. Xullas, menga xushomad qilayotganini sezib o'tiribman. Bilamanki, ko'nglimni ko'tarmoqchi, ilgari qandoq bo'lsangiz, hozir ham shundaysiz, hech narsa bo'lgani yo'q, deb tasalli bermoqchi. Ayni paytda biror noo'rin so'z bilan yaramga yana tuz sepib qo'ymaslik uchun tiliga ehtiyot bo'lib gapiradi.

Koshkiydi Mahmud afandi boshimga tushgan savdolar-niyam mana shunaqa jo'ngina qilib, xuddi bir tasodif narsaday gapirib bersa. Ehtimol o'shanda men boshimga tushgan bu g'alvalarni unutilgan bir kechmish deb bilarmidim...

Biz gaplashib o'tiribmiz-u, Mahmud afandining nevarasi Sa'di lampa tagida darsini qilyapti. Bolakayning o'ziga yarasha tashvishi bor. Fransuz tilidan uyga vazifa berilgan, shuni yodlashi kerak, so'zlarini yaxshi tushunmayotganiga xunob, ertaga o'qituvchi chaqirib qolsa nima bo'ladi, deb qo'rqib o'tiribdi.

– Qani, kitobingni bu yoqqa olib kel-chi, balki foydam tegib qolar, – dedim Sa'diga qarab.

Sa'di yonimga kelib, kitobini ochdi. Kichkinagina bir hikoya ekan, birgalashib tarjima qildik. Hikoyaning nomi „O'g'ri mushuk“ ekan. Jummalarni birma-bir tarjima qilib

beryapman. Bundoq qarasam, bola qizarib-bo'zarib ketyap-ti. Mahmud afandiga sekin ko'z qirimni tashladim: uniyam yuzida sarosima. O'zimni sezmaganga olib, hikoyani oxirigacha tarjima qilib berdim, hatto oxirida keladigan qissadan hissani ham o'qib berdim: odam bolasi u yoqda tursin, hatto mushuk ham zinhor birovning moliga ko'z olaytirmasligi kerak...

O'rtaga og'ir jimlik cho'kdi. Mahmud afandi boshini xam qilib o'tiribdi. Nazarimda hatto chiroq ham xira tortib ketganday bo'ldi...

### 30

Bir kuni Muzaffarning uyida tunab qolishga to'g'ri keldi. Boqchaqopudan o'tib ketayotgan edim, ikki qo'li to'la qog'oz xalta bilan magazindan akam chiqib qoldi. O'zimni ko'rmaganga olib, yonidan o'tib ketdim. Chamamda, u ham oldiniga shunday qilmoqchi bo'ldi-yu, lekin keyin bu fikridan qaytdi shekilli:

– Iffat!– deb chaqirib qoldi.

Noiloj orqaga qaytdim.

– Seni qidirmagan joyim qolmadi. Qayerda yuribsan o'zi? Borib ko'ray desam, adresingni bilmayman...

– Qutulib chiqqanimga to'rt kun bo'ldi o'zi...

– O'zim ham shundoq deb o'ylovdim. Ko'rinmaganingga xavotir oldim. Uygayam kelmayсан. Qayerdaligingni bilmasak...

Indamadim.

– Senga hech aql kirmadi-kirmadi-da, Iffat!

Qamoqda o'tirganimda akam mayda-chuyda ko'tarib ikki-uch marta oldimga keluvdi, xolos. Mana endi shu vaqtgacha meni qidirib topmaganiga o'sal bo'lib, butun aybni menga to'nkamoqchi. Kemaning jo'nashiga vaqt oz qolgani uchun akam qo'ltig'imdan olib, meni pristan tomonga sudrab ketdi. Men ham ro'yixushlik berib, qo'lidan qog'oz xaltalarni oldim...

Kelinoying sendan juda xafa, Iffat... Boshingga tashvish tushganini eshitib, biram ezilib ketdiki... Bir kecha bo'lsa-yam yotib ketmasang bo'lmaydi...

– Bir kuni borarman... Xotiningni so'rab qo'y...

– Bir kuning nimasi? Ketdik hozir.

Oldiniga ikkilanib turdim. Qamoqda yotganimdayoq bu haqda o'ylab ko'rgan edim. Akamning oilasi oldida gunoh-kordayman, garchi Muzaffarning bunga hech qanday aloqasi bo'lmasayam, meni deb odamlarning orasida boshini ko'tarib yurolmayotgandek. Ammo, uylariga bormasam, gap-so'z battar ko'payishi mumkin. Shuning uchun hamma shubha va nadomatlardan bir yo'la qutulmoq kerak. Qancha tez bo'lsa, shuncha soz.

– Mayli, aka, ketdik hozir.

Salonning ichi dimiqib ketibdi, palubaga chiqaylik, dedim kemaga o'tirgach. Sababi – salonda tanishlardan biror-tasi uchrab qolsa, akam noqulay ahvolga tushib qolishi mumkin, deb o'yladim.

Muzaffar turmushidan nolib ketdi.

– Qaynatamning ishidan putur ketgan. Xotinning asabi chatoq, nuqul xarxasha qiladi... Haligacha biror ishga kirganim yo'q. Hozir bo'sh joy topishning o'zi amri mahol... Qisqasi turmushning mazasi yo'q...

Turmushining mazasi yo'qligini bilardim. Ammo buni yana eslatib qo'yishdan maqsadi: „Menga ishonmay qo'ya qol, aravangni endi o'zing tort“, deyish bo'lsa kerak. Bekor-ga o'zini ovora qilib nima qiladi... Koshki undan umidim bo'lsa...

Kelinoyim meni xuddi ilgarigi paytlardagidek ro'yixush-gina kutib oldi. Otasi har qachongidek yana bir bema'ni ha-zil qildi.

– Ha, qo'lga tushdingmi, bezori! Hozir qulog'ingdan cho'zib, ta'ziringni berib qo'yamiz.

Bu gapi menga qattiq botdi, nima deyishimni bilmay dovdirab qoldim, keyin o'zimni o'nglab olib, darhol javobni yopishtirdim:

– Qamoqdan chiqqan odamni darrov dorga sudrash insofdanmi axir? Rahm-shafqat degan narsa bormi?

Kelinoyim qizarib ketdi.

– Ana xolos! Topgan gapingni qara-yu! – dedi chol kif-tini uchirib.

Gapning po'stkallasini aytib, bir yo'la orani ochiq qilib olish uchun osongina qutulish imkoni tug'ilganidan xur-sand bo'ldim. Aybni yopish uchun qizarib-bo'zarib tilyog'la-malik qilgandan bunisi ming chandon afzal edi-da.

Nozik jiyanim ancha esini tanib qolibdi. Tizzamga chiqib, rosa sochimni to'zitdi, ko'zoynagimga chang soldi.

– Amakingni tinch qo'ysang-chi endi!– dedi onasi uni koyib.

– Mayli, qo'yaving... Bolani yaxshi ko'raman o'zim, bi-lasiz-ku.

– Siz ham uvali-juvali bo'ling ishqilib!

Yuragimning allaqayeri jiz etib ketdi. Yana bir orzu-ha-vasdan mahrum ekanimni darhol sezdim: men farzand ko'r-mayman... Bola-chaqani boqib katta qilasan... Ularga mehr qo'yasan, ardoqlaysan, jajji qo'lchalarini cho'zib, senga tal-pinganida boshing osmonga yetadi... Shu farzandlarim bir kunmas bir kun otasi o'g'ri bo'lganini eshitib qoladi-ku, axir... Hozir qarindosh-urug'larimning ko'ziga tik qarash-ga botinolmayman, keyin bir umr o'g'il-qizlarimdan xijolat bo'lib yuraymi... Yo'q, uylanish fikridan voz kechgan ma'qul.

Kim biladi, tizzamda o'tirgan manavi ko'k ko'z jiyancham ham bir kun katta bo'lganidan keyin amakisidan or-qilib yurar.

\* \* \*

Ovqatni tashqarida yedik. Endi qahva ichmoqchi bo'lib turgan edik, oqsoch xotin qo'shnilar chiqqanini aytib qoldi, akam bilan kelinoyim ko'z urishtirib olishdi.

– Obbo! Ba'zan haftalab qorasini ko'rsatishmaydi, o'zi-miz bir yozilishib o'tirmoqchi bo'lganda darrov yopirilib ke-lishadi-ya!

– Mayli, zarari yo'q, xafa bo'lma, – dedim akamni yupa-tib. – Men charchaganman... Negadir boshim ham og'rib

turibdi. Ruksat bersalaring, kirib yotay, qolgan gapni ertaga gaplasharmiz...

Ikkovi yana bir-biriga qarab qo'ydi.

– O'zing bilasan, Iffat... – deb javob berdi akam. – O'z uyingdasan.

Bildimki, ular uchun mehmonlarga ko'rinmaganim ma'qul.

Akam mehmonlarning oldiga chiqdi, kelinoyim men bilan uyga kirdi. Oqsoch xotinni ovora qilgisi kelmadi shekilli, menga o'zi joy solib berdi.

– Yaxshi uxlab turing, Iffatbey. Xo'p, ertalabgacha...

U tungi chiroqni yoqqach, eshikni yopib, chiqib ketdi.

Uyqum kelmadi... Derazani ochib, osmonga tikildim, chamasi, oradan besh daqiqacha vaqt o'tdi. Kimdir tapir-tupur zinadan chiqib, jon holatda eshikni dukullatib qoldi.

–Kiravering!

Kelinoyim ekan. Negadir bezovta ko'rindi.

– Kechirasiz, Iffatbey, sizni bezovta qildim. Manavi shkafda Nozikning o'yinchog'i bor ekan... Hoynahoy siz ertalab kech tursangiz kerak, bolasi tushmagur ko'zini ochishi bilan o'yinchog'ini qidirib qoladi, keyin xarxasha qiladi... Juda tantiq bo'lgan.

U menga ko'rsatmaslik uchun shkafni qiya ochib, tez-tez allanimalarni yig'ishtira boshladi. Bunaqa antiqa shkafda o'yinchoq turishiga aqlim yetmadi. Shu payt bir narsa taq etib polga tushdi, men ham sekingina qarab qo'ydim...

Xayriyat, kelinoyim shosha-pisha men yotgan xonadan olib ketmoqchi bo'lgan o'yinchoq sinmadi: u marvarid shodasi edi!..

## 31

Jahongir dahasidan arzonigina bir hujra topdim. Ba'zan Jalolni ko'rgani idorasiga borib turaman.

– Namuncha pashshaxo'rda bo'lib qoldi, deb hayron bo'lmayapsanmi? – dedim bir kuni unga hazillashib. – Ehtiyot

bo'li, tag'in jinoyatchi bilan gaplashib yuribdi deb o'zingga gap tegib qolmasin.

– Bu yerga qanaqangi jinoyatchilar qadam ranjida qilishini aytsam og'zing ochilib qoladi, Iffat, – dedi Jalol ma'yus jilmayib. – Masalan, o'tgan gal shu yerda ko'rgan til-la tishli odaming qalbaki hujjat yasagani uchun uch marta o'tirib chiqqan. O'sha kuni kelgan po'rim xonim bo'lsa xuddi kinodagiday g'aroyib suratda bir kechada beva bo'lib qoladi – erini zaharlab o'ldiradi, lekin politsiya qotilni topolmaydi. Olti oydan keyin bu xonim shartta o'zining kuyoviga turmushga chiqib oladi. Kelishingdan xiyol oldin men bir kishi bilan gaplashib o'tirgan edim. O'zi halol odam, savdogar. Mening halolligimga ham shubha bo'lmasa kerak. Bir kishidan veksel berib qarz olgan ekan, o'sha halokatga uchrab, olamdan o'tibdi. Mana endi ikkita halol odam uning merosxo'rlariga vekselni to'lamaslik yo'llarini qidirib, rosa bosh qotirdik. Bu janjalli ish, albatta, lekin omadimiz kelsa, men ham quruq qolmayman. Oldimga keladigan mijozlar hammasi shularga o'xshagan obro'li, izzati joyida, ulug'sifat odamlar. Sud, janjal va hatto qamoq jazolari bularning nazarida bosh qotirib o'tirishga arzimaydigan shunchaki mashmasha, bir nafaslik g'alva, xolos...

– G'oyat minnatdorman... Ko'nglim ancha taskan topdi... Demak, biz ham yallo qilib yuraversak bo'larkan, – dedim gapni yana hazilga burib. – Soqovning tiliga soqov tushunadi, deb shuni aytar ekanlar-da.

– Asosiy kamchiliging nimada, bilasanmi?– davom etdi Jalol battar qizishib. – Sen tabiatan pok odamsan, shu poklik qon-qoningga singib ketgan... Aks holda bu mojaroni allaqachon esdan chiqarib yuborgan bo'larding...

– Gapniyam boplaysan-da, Jalol!..

– Nima, butun boshli Istanbulning sendan bo'lak tashvishi yo'q deb o'ylaysanmi?.. Xudo haqqi, meni hayratga solyapsan!..

Jalol qo'lini cho'ntakka tiqib, poshnasini taqillatganicha xona ichida tez-tez yura ketdi.

Asta hushtak chala turib, stoldagi papiros qog'ozidan bir dona oldim-da, ko'zoynagimni artishga tushdim. Keyin joyimdan qo'zg'aldim.

– Ha mayli, men boray endi. Ishing ko'p ekan, xalaqit bermay qo'ya qolay.

Jalol bir zum indamay turdi.

– Ha, ko'plikka ko'p ishim... Ammo eng muhimi hozir seniki... Sen abgor odamsan... O'zing bir narsani hal qilolmay-san... O'tir, gaplashib olamiz.

Oldin kelishib olaylik men sen aytganchalik abgor emasman. Ko'p narsa qo'limdan keladi, men hech nimadan qo'rqmayman, hammasiga tayyorman. Faqat...

– Yaxshi... O'qishni davom ettir!

– Endi yurist bo'lolmayman.

– O'qituvchi bo'l.

O'zing o'ylab ko'rgin, shaltog'i chiqqan odam qaysi yuz bilan o'qituvchilik qilishi mumkin?

– U holda birorta savdo firmasiga ishga kir.

– Xo'sh, bordi-yu o'sha firma seniki bo'lganida mendek sobiq o'g'rini ishga olarmiding o'zing?

– Xuddi shu savolni berasan deb o'ylovdim o'zim ham. Abgorligingni isbotlovchi yana bir dalil bu... Oriyatni yengmoqlik uchun ham zo'r kuch kerak, azizim Iffat.

– Tilingga asal, Jalol!. Sendan ajoyib muallim chiqishi mumkin...

Jalol istehzo, hatto nafrat aralash bir viqor bilan menga qarab qo'ydi.

– Bilaman, hozir ruhiy tushkunlikdasan... Vaqt-soati kelib jarohating bitib ketadi, albatta... Lekin mening nazarimda, hozir eng muhimi – senga biror ish topib berish. Ermakka bo'lsayam mayli, seni hayotga qaytarsa bas... Qolganini keyin o'ylashib ko'ramiz. Endi biz seni biror yerga joylashtirib qo'ymaguncha tinchimaymiz. Tinka-madorimiz quriguncha shaharni ilma-teshik qilib, senga ish topamiz...

Jalol do'stdan ham afzal ekan, u menga otadek mehribon bo'lib qoldi...

Bosforning narigi betida, Qisiqli degan joyda yana bita ammam turardi. Xatija ammamdan keyin qarindoshlar orasida eng ko'p o'shani hurmat qilardim. Bir vaqtlari (unda men tug'ilmagan ekanman) o'sha ammam tushgan kema halokatga uchragan, shu-shu u suvda yurishdan yurak ol-dirib qo'ygan ekan. Shuning uchun ham ammam hecham biznikiga kelmasdi. Bayram kunlari Muzaffar ikkovimiz Qisiqliga borib, ammamni ko'rib kelardik.

Akamning uyida yotib qolgan kunim gapdan gap chiqib, o'sha Faxriya ammamni eslashib qoldik.

- Ha, esimda borida senga aytib qo'yay, Iffat, - dedi akam naridan beri. - Ammamni bir ko'rib kel, qancha tezroq borsang, shuncha yaxshi. Qattiq kasal yotibdi. Ahvoli og'ir. Yaqinda o'sha tomonga yo'lim tushuvdi, kirib chiqdim. Seni ko'p tilga oldi. Rosa yig'ladi... Albatta bir ko'rinish ber...

Faxriya ammam farishtaday bir xotin bo'lib, uni hammamiz boshimizga ko'tarib yurardik. Lekin farzandlari bilan murosamiz unchalik kelishmasdi. Aniqroq qilib aytganda, bizni ular saroy ahli, zodagonlar deb bilib, oilamizni yoqtirishmasdi. Eshitishimga qaraganda, hurriyat e'lon qilinganda ammamning Ibrohim degan o'g'li posho dadamning go'riga rosa g'isht qalabdi. Bularning yoniga endi kuyovi ham qo'shilgan. Boshimga tushgan shuncha savdolar-dan keyin Ibrohim meni quchoq ochib kutib olmasa kerak, har holda undan biror iltifot kutish qiyin. „Yaxshi, bir kirib o'tarman“, deb qo'ya qoldim. Lekin, ochig'ini aytganda, ammamning uyiga borishga hecham ko'nglim yo'q edi. Muzaffar kayfiyatimni sezdi shekilli, qo'shib qo'ydi:

- Paysalga solib o'tirma, Iffat... Keyin ko'rolmay qo-lishing mumkin...

Shu gapidan keyin borishga ahd qilib qo'ydim.

\* \* \*

Shanba kuni peshindan keyin Qisiqli tomonga yo'l oldim. Haftaning shu kuni va shu soatida Ibrohim ham, ku-



yovi ham uyda bo'lmashligiga ishonchim komil edi. Faxriya ammam shol ro'molini yelkasiga tashlab, bog'dagi xarrakda o'zini may oyining mayin oftobiga toblab o'tirgan ekan.

Ammam meni uzoqdan tanib, o'rnidan turdi, yelkasini titroq bosib, ro'moli yerga sirg'alib tushdi...

– Iffatginam keldi, jajji Iffatim, – deganicha u ho'ngrab yig'lab yubordi.

Ammam meni yoniga o'tqazib, rosa termildi, yuz-ko'zimdan, peshanamdan o'pdi.

U akam aytganchalik betob emas ekan. Haliyam o'sha: goh biror ishga unnab ketadi, ro'zg'orga qarashadi, bo'sh qoldi deguncha bolalariga ko'maklashadi. Lekin juda ozib, munkayib qolibdi, yuzi kichrayib, sochi oppoq oqarib ketibdi.

Qariganda odam yosh bolaga o'xshab qaysar bo'lib qolarkan: ammamning oldida ikki soatcha o'tirdim, endi Istanbulga qaytay, deb o'rnimdan turmoqchi bo'lgan edim, u yig'lamsirab:

– Bir kecha bo'lsayam biznikida yotib ketasan! – Bo'lmasa o'lib-netib yursam, uvolimga qolasan, – deb koyib berdi.

Bechora ammaginam! Nima uchun bu yerda tunab qolishga rozi bo'lmayotganimni bilganida bunchalik yolvormasmidi. Uni xafa qilgim kelmadi, shuning uchun noiloj qolishga majbur bo'ldim.

\* \* \*

Kechasi uydagilarning hammasi uyquga ketganida Faxriya ammam oldimga kirdi. Oynani yopmoqchi bo'lgan edim, unamadi, shol ro'moliga o'ralib, kursiga cho'kdi. O'tgan-ketgandan gaplashib o'tirdik. Ko'nglida bir gap bor-u, lekin nimadan boshlashini bilolmay turganini sezib o'tiribman.

– Iffat, o'zing bilsang kerak, men unchalik badavlat emasman, arzirli mol-mulk ham qolgani yo'q. Uskudorda kichikroq do'konchamiz bo'lardi. O't tushib yonib ketdi, uchto'rt oy burun yerni ham soddik. Qo'limga to'rt yuz lira pul tegdi, uch yuzini bola-chaqaga berdim, atigi yuz lirasi qoldi.

Shundan ham ajrab qolmasam deb qo'rqaman... O'zingga ma'lum, odamzod o'limligini yig'ib qo'ymagan bo'lsa, go'rida tinch yotolmaydi... Shu qolgan yuz lirani bankka qo'y-sammikan degan xayoldaman. Xo'sh, sen nima deysan?

– Zab ish bo'ladi-da, amma...

– Ha, shunaqa-yu, lekin Istanbulga men qandoq boraman. Ahvolimni o'zing ko'rib turibsan... Bankka pulni kim eltib beradi?..

Men churq etmadim.

– Shuni sendan berib yuborsam-chi, Iffat?

– Bu ishni Ibrohimbeyga yoki kuyovingizga topshirsangiz durust bo'lasmikin?

– Unday qilsa ham bo'ladi, – dedi u biroz o'ylanib tur-gach. – Lekin ularning bilmagani ma'qul... Do'ppi tor keldi deguncha yalinib kelishaveradi... Ko'nglim bo'sh, yo'q de-yolmayman.

Men yana indamadim.

– Sendan yashiradigan joyim yo'q, Iffat, qolaversa, men ularga ishonmayman... Suyangan tog'im faqat o'zingsan...

Beixtiyor ko'zimga yosh keldi. Buni yashirish uchun jo'rttaga xandon otib kuldim.

– Qo'yni bo'riga topshirar ekansiz-da?

– Bu nima deganing, Iffat?

– O'g'irlik qilib, qamalib chiqqanimni eshitganingiz yo'qmi hali?

– Bilaman, Iffat, hammasidan xabarim bor, lekin sen bo-yoqish quruq tuhmatga uchrabsan, – deb u yana ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Xatija ammam ham shu gapni aytdi, ammo buning sira tuhmat joyi yo'q... Hayot shunaqa ekan... Boshimga kulfat tushdi... Ilojim qancha...

Faxriya ammam gapirishga ortiq majoli qolmay, ho'ng-ho'ng yig'ladi.

U meni yupatib, ko'nglimni ko'tarish, o'zimga ishonmay qo'yganimni sezib, qo'lidan kelganicha dalda berish maq-sadida, ayni paytda meni o'g'ri degan gapga ishonmaganli-gini ko'rsatish uchun shu bank masalasini o'ylab topganiga

shubha yo'q. Menga yuragi achishgani uchun u shu pulidan kechmoqchi, uni sadaqa sifatida bermoqchi menga.

Pulini hecham olgim yo'q, rad etsam, dili ranjiydi. Sen hamon o'sha-o'shasan, ilgarigiday halol va poksan, deb meni yupatmoqchi bo'lyapti ammam. Bu ezguligi behuda ekaniga men uni qandoq ishontiray?!

O'sha yuz lira pulini bankka qo'yguncha yuragim qanchalik taka-puka bo'lgani hali-hali esimda. Bergan omonatini oldirib qo'yishdan qo'rqib, yo'l bo'yi - kemada ham, ko'chada ketayotganda ham qo'limni cho'ntakka tiqib, hammasini mahkam changallab keldim o'shanda...

### 33

Qamoqdan chiqqanimgayam ikki oy bo'ldi. Jalol meni biror yerga joylashtirish uchun hamma ishini tashlab, kun bo'yi men bilan shahar kezadi. Istanbulda ahvol og'ir. Qo'li-da hunari bor, o'zi badnom bo'lmagan qanchadan qancha odam och-yalang'och yuribdi-yu, mendaqalarga yo'l bo'lsin...

Do'stim qo'lidan kelganicha meni yupatmoqchi bo'ladi-yu, lekin ba'zan o'ziyam xunobi oshib:

- Qanaqa bema'ni zamonga qoldik! Osmon uzoq, yer qattiq! - deb jig'ibiyron bo'ladi.

Jalol boyoqishning o'zi nochor ahvolda bo'lib, ishlari hecham yurishmayotgan edi.

U yoshligidan sobit revolyutsioner edi. Uch yuz yigirma to'rtinchi yil<sup>1</sup> konstitusiyasi uni mutlaqo qanoatlantirmadi. Qolaversa, Jalol hech qanday tuzum bilan chiqishmaydigan odamlar toifasidan edi. Binobarin, bunday odamlarning orzu-umidlari shu qadar ilgarilab ketadiki, natijada xalqlar va mamlakatlar bularni quvib yetolmaydi. Ko'pchilik idealistlarga o'xshab u ham yomonlik bilan yaxshilik, yovuzlik bilan ezgulik bir-biriga chatishib ketganini bilmas yoki bilgisi kelmasdi. Dunyoning o'zi shunaqa-ku, axir. Bunday odamlarning hecham omadi yurishmaydi.

<sup>1</sup>Hijriy hisobda uch yuz yigirma to'rtinchi, ya'ni 1324-yil, milodda 1908-yilga to'g'ri keladi.

Do'stim najot so'rab birovga ko'z tikkanini bilmayman. Topgan-tutgani zo'rg'a ro'zg'orga yetar, oilasi bilan qo'l uchida kun ko'rardi.

Bir kuni uyga kelsam, Jalol xat tashlab ketibdi. Aristidi afandi degan do'kondor meni ishga olaman debdi, shuning uchun ertaga Galataga<sup>1</sup> borib, unga uchrashishim kerak ekan.

„O'zi qanaqa odamligini yaxshi bilmayman. Yaqindagina ishini qo'lga oldim. Kecha idoramga kelgan edi, menga ishning ko'zini biladigan es-hushli bir yordamchi kerak, yosh bo'lsin, deb qoldi. Seni aytdim. Darhol oldimga kelsin, dedi. Ehtimol, til topishib qolarsizlar“.

Ertasi kuni erta bilan aytgan joyiga bordim. Meni kichkinagina xonaga olib kirishdi. Aristidi afandi degani yoshi elliklarga borgan, jikkakkina bir yunon ekan, labining tepasiga chechak toshgani uchun mo'ylovining bir uchi siyrak, ko'zi mug'ambir.

Meni u iliqqina kutib oldi, keyin ro'paramga o'tirib, firmasi Anatoliya hamda Yevropada tayyor kiyimlar bilan savdo qilishini, shu topda turk va fransuz tillarini biladigan mehnatkash, qo'l-oyog'i chaqqon bir xizmatchiga muhtoj ekanini, ba'zan uni ish bilan Anatoliya tomonlarga ham yuborishi mumkinligini gapirib berdi.

Savdo ishlariga unchalik tishim o'tmasligini ochiq aytdim.

– Buning ahamiyati yo'q, – meni yupatgan bo'ldi u jilmayib. – Hali yosh ekansiz, o'rganib ketasiz... Shuncha ichida yurib, hali o'zim ham buning tagiga yetolganim yo'q, – deb qo'shib qo'ygach, kulib yubordi.

Qancha oylik to'lashini so'rab bilganimdan keyin rozilik berdim.

Xayrlashar ekanman, Aristidi afandi:

– Xo'p, ertaga tavsiyanomalarni olib keling, kutaman, – deb qoldi.

Nima deyishni bilmay gangib qoldim: chindan ham ahvolim mushkul edi. Yonimda hech qanaqa qog'ozim yo'q,

<sup>1</sup> Galata – Istanbulning bir dalasi, yangi shaharning kema to'xtaydigan, savdo-sotiq rastalari joylashgan qismi.

chunki shu vaqtgacha biror yerda ishlamaganman, deb ayt-sam ham bo'ladi-ya, albatta... Ammo keyin nima deyman? Boshimdan kechganlarni qanday yashiraman? Baribir er-tami-kech sir oshkor bo'ladi-ku. Ishdan haydasa yana bir burda nonga zor bo'laman, deb har kuni yurak o'ynog'ida titrab-qaqshab yurgan ma'qulmi?.. Ana shunday og'ir xa-yollarga cho'ngach, oxiri bor gapni aytishga jazm qildim.

- O'rtog'im mening to'g'rimda sizga hamma gapni ayt-magan bo'lsa kerak... Qamoqda olti oy yotib chiqqanimdan, xabaringiz bormi?..

Qariyaning ko'zi shokosa bo'lib ketdi:

- Nega qamaluvding?

- Ahmoqlik qilib... Birovning pulini oluvdim...

Aristidi afandi qattiq tikilib turgani uchun ko'zimni yer-ga oldim. Mening to'g'riso'zligim unga ma'qul tushdi, har holda ishga olsa kerak, degan umidda edim. Shu gap og'zim-dan chiqishi bilan bildimki, xato qilibman, umidim endi chilparchin bo'ldi.

Aristidi afandining endi „afsus, ming afsus, bizni ma'zur tutasiz“, deb meni silliqqina, jo'natib yuborishdan boshqa iloji yo'q. Otni ilgariroq qamchilash maqsadida shosha-pisha:

- Bilishimcha, endi meni ishga olmasangiz kerak.. Buni o'zim ham bilgan edim, - deb qo'shib qo'ydim.

Do'kondor xaxolab kulib yubordi. Hayrat aralash boshimni ko'tarib, betiga tikildim. Chehrasi men kutgandan butunlay boshqacha edi. Ko'zida hatto qandaydir mehribon-lik hissi balqib turardi.

- Ko'rinib turibdi, hali juda g'o'r ekansiz... Yoshlikda ni-malar bo'lmaydi... Xullas, ertaga kelavering, xo'pmi?

- Demak, meni ishga olaverasizmi?

Aristidi afandi yelkamga qo'lini tashlab, sekingina, hat-to erkalaganday qilib kiftimni bosib qo'ydi, yana joyimga o'tirishga majbur bo'ldim.

- O'tir, bo'tam, o'tir... Qani, ochiqchasiga gaplashib olaylik-chi... Xo'p, sen bir marta gunoh ish qilibsan deylik... Xo'sh, biz nima qilishimiz kerak? Seni dengizga uloqtiray-

likmi?.. O'tgan ishga salavot. Hammaning o'ziga yarasha gunohi bor. Senga o'xshaganlar to'lib yotibdi.

Aristidi afandi „bular son-sanoqsiz“, deganday qo'li bilan ishora qilib qo'ydi.

– Hammamiz odam bolasimiz. Tangrining o'zi bizni shunday yaratib qo'ygan. Ilojimiz qancha. Ko'zimizga biror narsa issiqroq ko'rinsa, qo'limiz tushmagur darrov cho'zila qoladi...

U qo'li bilan deraza tomonga ishora qildi. Ro'paradagi uyning tomida bir mushuk kalladay suyakni sudrab ketayotgan ekan.

– Ana, ko'ryapsanmi, mushuk kimningdir uyidan suyak o'marib ketyapti... Xo'sh, bo'lmasa nima qilsin? Ochidan tirishib o'lsinmi?.. Suyak o'g'irlagani uchun uni urib o'ldirish shartmi? Mutlaqo shart emas! Agar qo'limizga tushsa, ta'ziri berib qo'yishimiz mumkin, xolos.

Nima deyishimni bilmay, hayrat ichida qari do'kondorga tikilib qoldim. Kim o'zi u? Odamzodning ojiz va noqis tomonlarini bilgani uchun inson bolasiga yuragi achishib, uning hamma gunohlaridan kechib yuboradigan faylasufmi? Yoki shunchaki bir beandisha odammikin-a.

Aristidi afandi butun tafsilotni mendan bilib oldi. Men, xohlagan paytimda ularnikida tunab qolardim, deganimda juda hayron bo'ldi; uy egasining pulni stol tortmasiga yashirib yurishini eshitib, sira ishonmadi.

– Pulni men o'zim shunday joyga berkitib yuramanki, hatto o'g'illarim ham qidirib topolmaydi. Otam ham shunday qilgan, – dedi u gapni lo'nda qilib.

Menga aytgan gapining asosiy mazmuni shu bo'ldiki ilojini topsa, hamma o'g'irlik qiladi, birov xonadondan, boshqa birov davlatdan o'maradi. Eng muhimi – birovning gunohiga qolmaslik, uning o'g'ri bo'lishi uchun imkon bermaslik kerak. Hamsuhbatimning qat'iy fikriga qaraganda, ayb o'g'irlik qilib qo'lga tushganda emas, balki shunga imkon yaratib bergan odamning o'zidadir...

Uning shu xildagi uzundan uzoq mulohazalari zamirida yotgan yashirin ma'noni men saldan keyin tushunib qoldim. Aristidi afandi nima ish qilishim kerakligini aytib,

menga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi. Asosiy vazifam bojxonaga tushgan har xil mollarni qo‘lga kiritish ekan. Buning uchun avvalo bojxona xizmatchilari bilan aloqani mustahkamlash kerak bo‘larkan. U o‘tmaydigan mollar qandoq pullanishini, sug‘urta bilan temiryo‘l yoki kema orqali keltiriladigan yuklar qandoq qilib yo‘qotib yuborilishini, shunga o‘xshagan lo‘ttibozliklarning yo‘li qanaqaligini birma-bir gapirib berdi.

– Sen hali yoshsan, albatta, – dedi u pirovardida, – lekin durustroq razm solib yursang, ko‘zing pishiydi... Yaxshi ishlasang, yaxshi choychaqa olasan, yoningda doim mo‘may pul bo‘ladi...

Menga sirayam tortinmay maslahatlar beryapti, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatyapti. Ko‘ngliga keladi deb ham o‘ylamaydi. Ichidagi bor gapini to‘kib solyapti. Ha, rost-da, tilyog‘lamalikning nima keragi bor? Olti oy qamalib chiqqan allaqanday o‘g‘rivachchadan sir saqlashning nima hojati bor?..

Shu topda miyanga yalt etib bir fikr keldi: kunim endi halol odamga qoladimi, deb o‘ylagan Aristidi afandi o‘g‘rilik ko‘chasiga kirib chiqqan bir muttahamani qarshisida ko‘rib, rosa quvongan bo‘lsa kerak.

Uni va‘zxonlikdan to‘xtatib, jerkib bermoqchi ham bo‘ldim, ammo jur‘at etolmadim – yuragim dov bermadi. Yo‘q to‘g‘ri kelmaydi, deb gapini ham qaytarolmadim.

– Yaxshi, ertaga kelaman, – dedim idorasidan chiqarkanman, zo‘rg‘a g‘o‘ldirab.

Sirdan qaraganda shunchaki bir hodisa bu, ammo keyin anchagacha o‘zimga kelolmay yurdim. Garchi ishga joylashmoqchi bo‘lib birinchi marotaba urinib ko‘rgan bo‘lsam ham, shu voqeadan keyin halol non topib yeyishdan mutlaqo umidni uzdim. Men o‘g‘ri, muttahaman, kallakesar odamlar orasida yashar ekanman, deyman o‘zimga o‘zim, g‘azabim qaynab, ich-ichimdan o‘rtanaman. Nahotki bir kuni kelib men ham shularga o‘xshagan bo‘laman-a?

Bir kuni ertalab uyda gazeta o'qib o'tirgan edim, ko'cha tomondan g'ala-g'ovur eshitilib qoldi. Qo'shnilar birin-кетин derazalarini ochib qaray boshlashdi. Shosha-pisha men ham derazadan mo'raladim. Muyulishdagi baqqolning do'koniga tumonat odam yig'ilibdi.

Politsiyachi xaloyiqni tarqatish bilan ovora. Do'kon oldidagi yo'lkada tungi qorovul atrofidagi xotin-xalajga imoshora bilan allanimalarni tushuntiryapti.

Derazadan engashib, pastda zinani tozalayotgan beka-dan nima gapligini so'radim.

– Baqqolning do'koniga o'g'ri tushibdi, – dedi u boshini ko'tarib.

Yuragim birdan hapriqib ketdi.

– O'g'rini ushlabdimi, xonim? – deb so'radim undan.

– Ushlab bo'larmidi uni! – dedi u qo'lini panshaxa qilib.

Derazani yopib, yana gazetani qo'lga oldim. Ammo o'qi-yolmadim. Meni vahm bosdi. Ichimni it tirnayotganday bo'ldi.

O'sha kuni uyga juda kech qaytdim. Bekaning bundan xabari bor. Qo'shnilardan ba'zilari ham sezgandir. Politsiya o'g'rini shu mahalladan qidirishi aniq. Kim, nima deb surishtirishadi, yaqinda qamalib chiqqanimni eshitgach, mendan gumon qilishi turgan gap... To'g'rimi axir?.. Yo'q, to'g'ri emas, deb o'zimni yupatmoqchi bo'laman-u, qani endi foyda qilsa. Oxiri sabrim chidamay uydan qochib chiqdim. Vaholanki shu bugun ko'chaga chiqmayman deb ahd qilgandim.

To'g'ri Jalolning oldiga bordim. Bugun bo'sh ekan. Bir nima deyishga jur'at etolmay ro'parasida indamay o'tiraverdim. Aslida unga bor gapni aytib bermoqchi bo'lib kelgan edim-u, lekin negadir ko'nglim bo'lmadi, gapirgani tilim bormadi.

Havo ochiq edi. Jalol ishdan keyin, Ozodlik haykali tomonga borib, bir aylanib kelaylik, deb qoldi.

– Charchaganman, – deb bahona qildim. Qosh qoray-guncha uyga yetib olmoqchi bo'ldim. Ko'chada ketyap-man-u, nazarimda hamma menga olayib qarayotgandek.



Bekam uy oldida paypoq to'qib o'tirgan ekan. Ro'parasida to'xtab, ikki-uch og'iz ob-havodan gapni aylantirdim, keyin shunchaki esimga tushganday qilib:

– Ha, aytmoqchi, o'g'rini topishdimi, xonim? – deb so'radim.

Kampir yo'q deganday bosh chayqadi-da, yana tugunlarini sanay ketdi. Oxiri hammasini sanab bo'lgach, menga bir qarab qo'ydi.

– Sizni politsiyadan qidirib yurishibdi... Boya bir politsiyachi kelib yo'qlab ketdi.

Endi shubhaga o'rin qolmadi: o'ylaganim to'g'ri bo'lib chiqdi.

– Xo'p, xonim. Hoziroq yetib boraman, – javob berdim bo'ynimni bukib.

Qop-qorong'i ko'chada tanho politsiya bo'limiga ketyapman-u, o'zimga o'zim ayanchli va nogiron ko'rinib ketdim. Garchi hech qanaqa aybim bo'lmasa ham vijdonim oldida yuzim qaro edi.

Endi hech qanday umidim qolmadi. Bundan buyon xorzor bo'lishga mahkum etilganman. Umrim endi politsiya bo'limida, sudda o'tadi, suyagim qamoqda chirydi. Istagan odam mendan gumonsirashi, xo'rlashi, haqorat qilishi mumkin...

O'sha kuni politsiyaga ketayotib, yo'l-yo'lakay g'alati bir narsani kashf qildim: bundan atigi o'n oy muqaddam men tamoman boshqa odam edim.

Meni o'shanda politsiyadan sudga, keyin suddan chiqib qamoqqa olib ketishayotganida zarracha xijolat bo'lmagan edim. Bunday sharmandalikka qanday chidaganimga endi hayron bo'laman. Hozir bunaqa joylarni eslasam, yuragimni battar vahm bosadi. Darvoqe, meni butunlay vahima chulg'ab olgan ko'rinadi.

\* \* \*

Politsiya bo'limiga yetib keldim. Ichkari kirsam, komissar xotinini do'pposlagan bir araqxo'ring ishini ko'rib o'tirgan ekan.

– Keling, afandim, marhamat, o'tiring, picha sabr qilasz endi, – dedi u menga bo'sh stulni ko'rsatib.

Haligi odam bilan u yigirma daqiqacha ovora bo'ldi.

Komissar araqxo'r bilan xotinini koyib berdi, ikkovini ancha uyaltirdi, ba'zan po'pisa ham qilib ko'rdi, xullas, oxiri ularni yarashtirib, uyiga jo'natdi.

Xizmat burchini qoyil qilib o'rinlatgani uchun o'zida yo'q xursand komissar miyig'ida kulib qo'ygach, menga o'girildi.

– Har kuni shunaqa mashmasha... Kap-katta bo'lsayam yosh boladan battar bular...

– Meni yo'qatgan ekansiz, shunga keldim, deganimdan keyin komissar bir nimani eslamoqchi bo'lganday bir zum o'ylanib qoldi. Keyin stolining tortmasidan bitta papka olib, ichidagi qog'ozlarni titkilab ketdi.

– Ismingiz nimaydi?

– Iffat...

– Iffat? Ayollarning ismi-ku bu... Darvoqe, ha... Bizda bir jandarm kapitani bor, uning ham oti shunaqa, Iffat afandi...

Komissarning dilkashligi va hazil-mutoyibasini ko'rib, ancha hovurdan tushdim. Oxiri u qidirgan qog'ozini topib, papkadan sug'urib oldi.

– Sizni harbiy chaqiriq bo'limidan yo'qlashibdi.

Shunday dedi-yu, menga yana bir razm solgach, qo'shib qo'ydi:

– Bu yerda „Politsiya bilan olib kelinsin“, deb yozilgan ekan. O'zingiz topib bora olsangiz kerak, Iffat afandim?

Qanchalik qo'rqqanimni o'ylab, birdan kulgim qistadi: Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar, deb shuni aytar ekanlar-da!

## 35

Yoz ham o'tib boryapti, lekin haligacha ish topolganim yo'q. Xonamda soatlab ag'anab yotaman yoki ovloq joylarni tanlab, ko'chama-ko'cha sandiroqlab yuraman. Holim xarob, shaharda eng qashshoq odam men bo'lsam kerak. Qoramursaldagi ammam bilan Muzaffar goh-gohida menga

uncha-muncha xayr-ehson berib turishmaganda allaqachon ochlikdan tirishib o'lgan bo'lardim. Qay holda ekanimdan hech kimning xabari yo'q, albatta. Birovga churq etib og'iz ochmadim. Og'zimga uvoq olmagan kunlarim ham bo'ldi, ammo bundan hatto Jalolning ham xabari yo'q.

Bir paytlari dadam menga tilla soat hadya qilgandi. Uni ko'z qorachig'iday avaylab keldim. Mana endi uni sotmasam bo'lmaydi – ijara haqini to'lashim kerak. Lekin yo'lini bilmayman, hech ishim tushmagan. Jaloldan so'rab bilay desam, iloji yo'q, shashtimni qaytaradi, yana qo'limga pul tutqazadi. Mendan pul undirish uchun ataylab soatdan gap ochyapti, deb o'ylashi mumkin.

Tavakkal qilib Bodistonga<sup>1</sup> bormoqchi bo'ldim. Kim nima sotayotgan bo'lsa, shunga razm solib turamanda, keyin molimni ko'rsataman.

Bozor to'la odam ekan. Qimmatbaho tosh, uzuk va bilaguzuk, kumushdan ishlangan soat zanjirlarini aravachaga yoyib qo'ygan savdogarlar bilan chayqovchilar zo'r berib molini maqtaydi. Bozorga ul-bulini olib chiqqan odamlar orasida mendan ham g'aribroq, mendan ham shudsizroqlari bor ekan. Ikkita mis lagan bilan bitta to'r ko'ylak ko'tarib olgan bir xotin u yoqqa boradi, bu yoqqa keladi-yu, lekin bir nima deyishga yuragi betlamaydi.

Bozor ichida rosa aylanib yurdim, atrofimdagilarga razm soldim, ammo yurak yutib birovga og'iz ochmadim.

Nihoyat, oppoq ipak salla o'ragan, ko'rkam soqolli, diyonatlinamo bir chayqovchi chol ko'zimga olovdek ko'rinib ketdi. O'shaning oldiga bordim, xuddi biror aybli ish qilib qo'ygan odamday qizarib-bo'zarib ahvolimni tushuntirdim. U kaftimdagi soatga ko'z qirini tashlab olgach:

– Hozir bandman, o'g'lim... Keyinroq... – dedi-yu, yo'lga ravona bo'ldi.

Bozorga kiraverishda yerga palos tashlab, mollarini kimoshdiga sotishayotgan ekan. G'uj-g'uj odam. Men ham tomosha qilmoqchi bo'ldim. Bir payt kimdir yelkamni turtganday bo'ldi. – Qayrilib qaradim. Yonimda bir odam tur-

<sup>1</sup> **Bodiston**– Istanbul timidagi qator rasta. Bu yerda qimmatbaho buyumlar, qurol-aslaha va nodir narsalar bilan savdo qilinadi.

gan ekan. Uni qayerdadir ko'rganga o'xshayman-u, lekin hecham eslolmadim.

– Omonmisan, Iffatbey!.. Ishlar qalay?

– Yomon emas... Qimirlab yuribmiz, – dedim mujmalgina qilib.

– Meniki ham chakki emas, ikki hafta bo'ldi chiqqanimga... Nima, meni eslolmayapsanmi?

Endi esimga tushdi – qamoqda birga yotgandik. U yerda xuddi darveshga o'xshab soch-soqolini o'stirib, paxmoq bo'lib yurardi. Endi juda olifta bo'lib ketibdi – soqoli silliq qirilgan, labining tepasida ingichka mo'ylov. Tanimaganimcha ham bor ekan. Qamoqda u bilan bir marta hamsuhbat bo'lgan edik shekilli, lekin men bilan xuddi eski oshnasiday goh kiftimga qoqib, goh qo'limni qattiq siqib apoq-chapoq ko'risha ketdi.

– Haligi odamga nimani ko'rsatding?.. Qani, men ham bir ko'ray-chi!

Kaftimni ochib soatni ko'rsatdim.

– Moling chakki emas-ku... Qayerdan o'marding?

Gapiga tushunolmay bo'zrayib betiga qaradim. Tirjayib turib yana savolini takrorladi. Bodiston tom-pomi bilan ustimga qulab tushganday bo'ldi, qulog'im shang'illab, a'zoyi badanimni titroq bosdi... O'zimni zo'rg'a bosib oldim.

Mo'ylovini burab, yana ham yaqinroq keldi.

– To'g'ri, hozir bu mol seniki, lekin kecha u kimning qo'lida edi? – Meni u qo'rqib ketdi deb o'yladi shekilli, qo'shib qo'ydi, – og'zingda tolqon bormi, nega indamay-san? Ikkovimiz bir odammiz-ku, qo'rqma. Qani, bu yoqqa yur-chi, jinday gap bor.

Bodistonning qorong'i va xilvat joyiga o'tdik. U cho'ntagidan bitta uzuk olib, menga uzatdi.

– Xo'sh, qalay?.. Zo'r-a brilyant ko'zli... Aylantirib ko'r-chi!.. Qorong'ida yonishini ko'rdingmi... Kamida o'ttiz patta turadi. Lekin sen bilan biz har bittasini o'n liraga, hatto besh yoki ikki liraga sotsak ham foyda qilaveramiz... Bir odamda shundan yuztacha bor... pullash kerak... Bu yerda mening bozorim o'tmay turibdi, beshtasini senga beraman...

Ust-boshing binoyiday, sendan hech kim shubha qilmaydi...  
Xo'sh, kelishdikmi?

Endi o'zimni ancha o'nglab olgan edim. Shuning uchun:

– Bilasanmi, oshnam, bu ish mening qo'limdan kelmaydi... Xo'p, omadingni bersin! – dedim-da, tez-tez yurib ketdim.

Birpasda ko'chaga chiqib oldim, keyin shosha-pisha qiyalikdan tepaga ko'tarila boshladim. Nazarimda, u bilan gaplashib turganimni hamma ko'rgan-u, mabodo izimga qaytadigan bo'lsam, bu soatni qayerdan olding, deb olomon yoqamga yopishib, politsiyaga sudrab qoladiganday. Lekin shu topda lop etib bir narsa esimga tushdi: bugun albatta ijara haqini to'lashim kerak. Uyga qaytib borishim bilan kechqurun beka oldimga kiradi, bir emas, besh-olti marta yo'qlab keladi, har gal kirganida baqqolning pulini berish kerak, qassobning pulini berish kerak, deb noliydi. Ertaga baribir yana bozorga tushishim kerak. Shunday bo'lgandan keyin yana yurak o'ynog'ida bir kun yurishning nima keragi bor? Bunaqada umr bo'yi qo'rqib yurish hech gap emas.

Tavba, bu qanaqasi bo'ldi o'zi – o'zingning soatingni ham sotolmay qo'rqib yursang-a!..

Bodistonga qaytib borishning iloji yo'q. Shuning uchun tavakkal qilib bozor oldidagi zargarlik do'konlarining boriga kirdim. Keksa bir armani soatni olib, rosa tekshirgach, qancha berishini aytdi. Oldiniga biroz ikkilandim-u, keyin rozi bo'ldim. Zargar pulni berishdan oldin aft-angorimga, ust-boshimga bir razm solib chiqdi. Aftidan, ikkilanib turganim yoki soatni bunchalik arzon-garovga tashlab ketayotganim uni shubhaga solgan bo'lsa kerak. Ammo har nima bo'lganidayam o'ziga kattagina foyda qolishiga ko'zi yetgach, qutini ochib, menga bir dasta qog'oz pul uzatdi.

## 36

Bir kuni boshim og'ib yana Jalolning idorasiga kirib qolibman. Do'stim meni ko'rib suyunib ketdi.

- Kelgani juda yaxshi bo'ldi, Iffat! Endi telegramma yuborib, chaqiray deb turgan edim! Senbop ish topib qo'ydim! „Xalq huquqi“ gazetasiga xodim kerak ekan... Bu gazetaning aft-angori qanaqa, bilmayman. Hozircha nazardan qolgani yo'q har holda... Darhol o'sha yerga bor. Bosh muharriri Sami Bolig'bey degan odam, men yuborganimni ayt-sang bo'ldi.

Sami Bolig'bey o'sha paytlari eng qaynoq jurnalistlardan hisoblanardi. Uning qalamiga mansub bo'lgan, tili va tig'i o'tkir maqolalar har kuni „Xalq huquqi“ gazetasida chiqib turardi.

Siyosatga aralashmay qo'rgan edim. Ammo boshimga tushgan sarsongarchiliklar tufayli alamzada bo'lib yurgandim. „Xalq huquqi“ o'z sahifalarida hokimiyat organlarini do'pposlab urib chiqishi menga yoqardi. Bunday maqolalar ba'zi odamlarning va ayniqsa „baxtiyor“ kimsalarning ta'bi-ni xira qilib, pachavasini chiqarganini ko'rsam, xuddi o'zim o'ch olganday rosa xumorim tarqab, huzur qilardim.

O'sha zahotiy oq gazeta idorasiga bordim. U eski, yarimvayrona bir binoda joylashgan ekan. Ko'rinishidan aslo odam turadigan joyga o'xshamaydi. Allaqaysi bir xonadan g'ala-g'ovur ovoz eshitilgan edi, birpas kutib turdim-da, keyin shartta eshikni ochib, ichkari kirdim.

Xonada to'rt kishi o'tirgan ekan. Shulardan biri g'o'labirdan kelgan, ellik besh yoshlar chamasidagi odam ovozin-ing boricha hukumatni bo'ralab turgan ekan. U pidjagini yechib, kraxmallangan ko'ylagining yenglarini shimarib olibdi. Har ikki gapning birida botmondan mushti bilan stolni gursul-latib qo'yadi.

Gapning beliga tepganim unga yoqmadi, shuning uchun, kim kerak, deb sovuqqina so'radi. Meni advokat Jalolbey yu-bordi, bosh muharrirda ishim bor, deb aytdim.

- Iya, Iffatbey sizmisiz? Juda soz, bo'tam! Qo'shni xona-ga kirib turing, hozir bo'shab qolaman, bir gaplashib olamiz.

Idorada ko'zoynak taqqan, chuvvakkina bir odam ish-lab o'tirgan ekan. U menga derazaga yaqinroq o'tirishni aytgach:

- Zerikmay o'tirasiz, ko'cha shundoq ko'rinib turadi, - deb qo'shib qo'ydi-da, yana qog'ozlariga sho'ng'ib ketdi.

U boshini ko'tarmay, gap-so'zgayam aralashmay, astoydil berilib ishlar, o'qtin-o'qtin esa: „Ne ko'ylarga solding meni, ey nozanin?“ deb sevgan ashulasidan yulib olgan shu misrani xirgoyi qilib qo'yardi. Ora-sira yangi papka olish uchun o'rnidan, turadi-da, qaytib joyiga o'tirgach:

– Mendek sho'ring qurg'urga nozaninni kim qo'yibdi-ya, – deb to'ng'illab qo'yadi. Bu gapni o'ziga aytyaptimi yoki mengami – bilib bo'lmaydi...

Sami Bolig'bey mehmonlarini kuzatgach, xonaga kirdi va gapning po'stkallasini ayta qoldi.

– Menga sizni Jalolbey tavsiya qildi, azizim. Ta'rifingizni qilib berdi. Darhol ish boshlashingiz mumkin. Hozir bitta o'rin bo'shagan, muxbirlik o'rne... Ochig'i, puli kamroq. Lekin iloj qancha? Zotan biz hukumatga o'zini sotgan manjallaqilardan emasmiz. Darvoqe, agar istasangiz, sizni mas'ul kotib qilib olishimiz ham mumkin. Besh-o'n qurush ko'proq olasiz..

– Yo'g'e, muxbirlik bo'laveradi menga...

Sami Bolig'bey kulib yubordi:

– „Xalq huquqi“ gazetasida mas'ul kotib bo'lishlik xatarli ish, albatta... Tribunalga tushsang bormi tamom bo'ldim deyaver!.. Aytmoqchi, bu ish sizga to'g'ri ham kelmaydi... Hozir esimga tushdi.

Hayron bo'lib bosh muharrirga qaradim.

– Kotib sudga tushmagan bo'lishi kerak, – dedi u pinagini buzmay. – Boshingizga tushgan mashmashalardan xabarim bor.

Tilim aylanmay qoldi. Shu gapdan keyin shartta o'rnimdan turib tiraqaylab qochish kerak edi-yu, lekin qimirlashga menda majol yo'q. Noiloj gapini eshitib o'tiraverdim. To'satdan Sami Bolig'bey gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

– Arzimagan besh yuz qurush pul uchun sud qilishadi, grajdanlik huquqlaridan mahrum etishadi. Shu ish to'g'rimi? Ha, to'g'ri. Mutlaqo va batamom to'g'ri! Xo'sh, mana seni olaylik! Ahmoqmisan?! O'taketgan ahmoqsan! Ahmoq bo'lmasang, oliyjanob odamlarga o'xshab talashib-tortishib biror martabaga erishmasmiding, hukumatga bosh bo'lib olgach, besh yuz ming lirani gumdon qilmasmiding!

Sen bo'lsang qandaydir besh yuz qurushni o'marib o'tiribsan-a... Tag'in bu kishi fuqarolik huquqlarini da'vo qiladilar! Birovning besh qurush puliga ko'z olaytirgan o'g'rivachcha bilan qassobning suyagini olib qochgan mushuk o'rtasida nima farq bor? Hech qanaqa!.. Mayda-chuyda o'g'irlik qilgan odam gap-so'zga qoladi, nafsoniyati bir pul bo'ladi. Seni fuqarolik huquqlaridagina emas, insoniylik huquqlaridan ham mahrum etish kerak. Ana shunday, azizim! Bu dunyoning ishlari shunaqa ekan! G'olib kelgan ko'z yoshi to'karkan!..

Sami Bolig'bey nasihatimiz gaplardan ham qo'shibchatib, uzundan uzoq va'zxonlik qildi. Gapining orasida goh menga murojaat qiladi, goh esa xuddi maddohlarga o'xshab o'zicha bahs yuritib ketadi.

Bosh muharrirning gaplarini o'ylab, tuni bilan uxlamay chiqdim. Bolig'bey menda g'alati taassurot qoldirdi. Ezmalikka ezma, tili zahar, devonatabiatroq bo'lsayam, lekin yomon odamga o'xshamaydi. Har qalay men haqimda yomon fikrda emas. Aks holda meni ishga olarmidi? Ha, men o'z sarguzashtlarimni unutib yuborolmaydiganga o'xshayman. Qayerga bormay, darrov eslatib qo'yishadi. Yurak yutib jonimga qasd qilolmaganimdan keyin unga chidashga, haqorat eshitganda bo'yinni bukib turishga majburman-da...

Ertasi kundan „Xalq huquqi“ gazetasida ishlay boshladim.

## 37

Tez orada ishga kirishib ketdim. Yangi o'rtoqlarim bilan yaqindan tanishib oldim. Ishni sog'inib qolgan ekanman, qanchalik ko'p charchasam, shunchalik ko'p rohat qilardim.

Bir kuni Jalolga yorildim.

- Sen menga juda katta yaxshilik qilding. Meni ochlik azobidagina emas, ruhiy qiynoqlardan ham xalos etding.

- Demak, ishingdan xursand ekansan-da? - deb so'radi u.

- Judayam...

- Ortiqcha charchayotganing yo'qmi?



- Bilasanmi, qanchalik ko'p toliqsam, shunchalik huzur qilyapman. Ish paytida o'zimni o'ylamay qo'yaman.

- Xo'sh, boshliqlaring, o'rtoqlaringdan xursandmisan?

- Albatta... Sami Bolig'bey qattiqqo'l, injiqtabiat odam-u, lekin ko'nglida kiri yo'q... E, hozir bunaqa halol, pokdomon odam kam topiladi. Yangi hamkasblarim ham yomon odamga o'xshamaydilar... Bular orasida har xil odam bor, albatta, ammo hammasiyam ko'ngilga yaqin. Ular ham meni hurmat qilishadi. Ochig'i, birortalari bilan ham yozi-lishib gaplasholmayman-u, lekin, men senga aytsam, bunga xafa bo'lmayman. Ularning tengi emasman, bilaman buni.

- Haliyam yosh bolasan, Iffat...

- Yashirib nima qilaman? Men peshanasi qashqa odamman. Shuning uchun hamisha „xo'p bo'ladi“ deb turishim kerak... Ba'zi birovlar o'zi qiladigan yumushni menga yuklab qo'yadi, shundayam indamayman, jon deb bajaraman... Azbaroyi Xudo, hozir men uchun eng muhimi - ish. Bilasanmi, Jalol, men uchun ishning hecham katta-kichigi yo'q. Boshqalar nima qilayotgan bo'lsa, men ham shuni qilyapmanmi, demak, odam ekanman, shuning o'zi menga yetadi. Shu yo'l bilan sekin-asta jirkanch tamg'adan qutulaman. Binobarin, bashorat qilib aytgan gaplaring bir kunmas bir kun ro'yobga chiqsa ajab emas, Jalol... Vaqti kelib jarohat bitib ketadi, ana o'shanda men yana odam qatoriga qo'shilib qolaman.

Jalol nimagadir chuqur bir xo'rsinib olgach, qat'iy ohangda dedi:

- Bunga shak-shubha qilmasang bo'ladi. Yana biroz vaqt o'tsin, hech narsa ko'rmaganday bo'lib ketasan... Sendagi jarohat hozirning o'zida bitib ketgandir ham, ammo sen juda vasvas bo'lib qolgansan, hamma narsani darrov o'zingga olasan. Xullasi kalom, Iffat, ruhing tetik hozir, juda xursandman.

- Yana bir sirni aytaymi, Jalol? Kundan kunga fe'lim o'zgarib, sirkasi suv ko'tarmaydigan alamzada bir odamga o'xshab ketayotgan edim. Mana endi sekin-asta o'zimga kelyapman, kayfiyatim ham joyida. Qisqasi, o'zimda yo'q xursandman...

Jalol menga qarab kulib qo'ydi, keyin oxiri jur'at etib so'radi:

– Bir narsani so'rasam maylimi? Muhabbat bobida ishlar qalay hozir? Haliyam uni sevasanmi?

– Albatta...

– Negadir bo'shshibroq gapiryapsan.

– Ha, uni haliyam sevaman, lekin ilgari qanday desam, vijdonga xilof ish qilgan bo'laman...

– Fidoyilik qilganingga endi pushaymon emasmisan?

– Yo'q, shunday qilishim kerak edi. Insofi bor har qanday odam ham mening o'rnimda shunday qilgan bo'lardi. Bino-barin, pushaymonga hech qanday o'rin yo'q... Lekin shuni aytish kerakki, ilgari o'z ixtiyorim bilan o'zimni azobga qo'yib, bundan dilim taskin topgan bo'lsa, o'sha taskindan asar ham yo'q endi...

\* \* \*

Kunlardan birida Sami Bolig'bey meni kabinetiga chaqirdi. Nimadandir tashvishda ekani sezilib turibdi.

Iffatbey, siz bilan nozik bir masala xususida gaplashib olmoqchi edim. Faqat shu gap oramizda qoladi, deb so'z bersangiz.

Hayron bo'lib betiga qaradim:

– Shubhasiz, afandim.

– Qanday mashaqqatlar bilan gazeta chiqarayotganimizdan xabaringiz bormi?

Indamay turaverdim.

– Ko'pincha maoshingizniyam vaqtida berolmay qolamiz. Shundoq emasmi?

– Bunaqa gapning nima keragi bor, afandim?– dedim battar hayronligim oshib.

– To'g'ri, maoshni uncha-muncha kechiktirib to'lagan bilan osmon uzilib yerga tushmaydi. Lekin umuman pul berolmay qolsak-chi, unda nima bo'ladi? Darvoqe, „lekin“ga na hojat? Biz sindik!.. Ammo nima qilib bo'lsayam kurashni davom ettirishim kerak, shunga majburman.

Sami Bolig'bey mendan qutulmoqchi ekan-da, – xayolimga birinchi kelgan narsa shu bo'ldi. Binobarin, nafsoniyatimniyam o'ylagan holda mushkulini o'zim oson qilmoqchi bo'ldim.

– Unday bo'lsa, bey afandim, buning yo'li oson: sarf-xarajatlarni kamaytirasiz, masalan, men ishlab turgan o'rinni qisqartasiz-da, bu yumushni boshqalarga taqsimlab berasiz...

– Buning foydasi yo'q! – dedi u gapimni cho'rt kesib. – Go'yo hammasiga siz sababchiday!.. Yo'q, bo'tam, men boshqa narsani o'ylab turibman. Gazetaga mablag' kerak, Shundaymi?

Men churq etmadim.

– Bu qanaqa bema'ni savol, deb hayron bo'lyapsizmi? Hozir hammasiga tushunasiz. Tovlamachilik qilmasam bo'lmaydigan ko'rinadi.

Bolig'beyning qiziq-qiziq ishlariga o'rganib qolganman. Deyarli har kuni g'alati bir hunar ko'rsatadi. Lekin, shunga qaramay uning aslida halol va pokiza odam ekaniga hamon imonim komil edi. Shuning uchun ham yana hazil qilyapti deb o'yladim. Bu kishining hazillari esa hamisha sirdan qo'pol, ta'mi zaharday achchiq bo'lardi...

– Ha, tovlamachilik qilishga to'g'ri keladi, – dedi u gapida davom etib. – Qabih ish bu, shubhasiz, lekin boshqa ilojimiz yo'q. Shunga majburmiz. Ba'zan oliyjanob maqsad yo'lida mana shunaqa yaramas usullarga murojaat qilishga to'g'ri kelib qoladi. Yo do'konni yig'ishtirasan, yoki shu ishga rozi bo'lasan, bo'lak iloj yo'q... Xullas, Iffatbey, gapimga yaxshilab quloq sol. „Muzaffar Boqining transport shirkati“ degan bir firma bor... Sen uni yaxshi bilasan. Muzaffar Boqi degani aslida shunaqangi muttaham odamki, nariyog'i yo'q, Yunon va yahudiy korchalonlari bor, butun ish shularning qo'lida. Shu shirkat hokimlarning ahmoqligi, ovsarligidan foydalanib, harom yo'llar bilan pul ishlamoqda. Qo'limda shuni isbot qiladigan ba'zi hujjatlar bor. Mana shu muttahamlar bilan hokimlarni birvarakayiga qon qaqshatmoqchi-man. Shuning uchun ham tovlamachilik yo'lga o'tmoqchi-man. Gazetamizni omon saqlab qolishning yagona yo'li shu.

Ammo shunisi borki, tovlamachilik nima, uning yo'l-yo'rig'i qanaqa - bunisini bilmayman. Afsuski, bu sohada tajribasizman... Shunga qaramay ba'zi narsalarni o'ylab qo'ydim. Qani, sen bunga nima der ekansan?

Gapni qayoqqa burayotganiga tushunolmay, jimgina quloq solib turibman.

- Men senga aytsam, firma bilan o'zim bevosita gaplasholmayman. Muzaffarbeyning oldiga borib, bor gapni dangal aytadigan odam kerak. Shunda u bizga qancha kerak bo'lsa, shuncha pulni ikki qo'llab tutqazadi... Ammo u bilan qay tarzda gaplashish, nima deyish kerak, bunisiga aqlim yetmaydi, tishim ham o'tmaydi bunga...

Bolig'bey sapchib o'rnidan turdi, poshnasini taqillatgancha asabiy holda u yoqdan bu yoqqa yurishga tushdi. Mushtini goh qisib, goh yoyib ancha vaqt xona ichida aylanib yurgach, nihoyat, oldimga kelib to'xtadi, bahaybat qo'llarini kiftimga qo'yib, viqor bilan dedi:

- Menga yordaming kerak, o'g'lim. Bugunoq Muzaffar Boqi bilan uchrashishga harakat qil, qo'limdagi hujjatlarni sotib, firmani tinch qo'yishga rozi ekanimni ayt unga. Ammo bitta shartim bor: tilxat degan narsa bo'lmaydi!.. Bular bilan ishni pishiq qilmasang bo'lmaydi, qo'llaridan har balo keladi, tilxatni ro'kach qilib, bizni rasvo qilishlari mumkin. Tushundingmi? Gapning qisqasi, butun umidim sendan. Menimcha, xodimlarimiz orasida bu masalada sening oldingga tushadigani bo'lmasa kerak.

Bu gapini eshitib, tepa sochim tik bo'lib ketdi. Shartta o'rnimdan turib, men ham betiga sachradim.

- Menga ko'rsatgan iltifotlari uchun tashakkur, bey afandim!.. Nima, umrimda bir marta harom yo'lga kirib, o'g'irlik qilib qamalib chiqqan bo'lsam, darrov shuni yuzimga solib, bu ishni sendan boshqasi eplayolmaydi, deyaverasizmi?

Bolig'bey kalovlanib menga qaradi.

- Kechirasan, Iffat! Nima deyayotganimni o'zim ham bilmayman. Sen halol, or-nomusli odamsan, bilaman. Or-nomusli, halol odam bo'lsam, nega bu ishni menga buyurasiz, deyishing mumkin. Lekin bu boshqa mavzudagi gap... Mendan xafa bo'lma, Iffat!.. O'tir... Bilasanmi, o'g'lim,

hayotda faqat to'g'ri, tekis yo'ldan boraman degan odamga juda-juda qiyin bo'larkan. Shu paytgacha men dilimdagi gaplarimni dangal aytib keldim. Do'q-po'pisalarni pisand qilmadim, qop-qop va'dalarga uchmadim... Ammo bu bilan men hech narsaga erishganim yo'q. To'g'ri yo'l meni boshi berk ko'chaga olib chiqdi. Gapimni tushunyapsanmi? Yana yo'lda davom etmoqlik uchun oldin boshi berk ko'chadan chiqib olish kerak. Men yana to'g'ri yo'lga chiqib olishlik uchun, ha, faqat shuning uchun orqaga qaytishga, o'ng yoki chap tomonga burilishga majburman... Menga e'tiroz bildirishing mumkin: odam bolasi qoqilib yiqilsa nima qipti, axir u quduqqa dumalab tushgan tosh emas-ku, deb... Odamzod go'lligi yoki ehtiyotsizligi orqasida oldin o'zini o'zi aldaydi, keyin esa qabihlikka bemalol ko'nikib ketadi... Lekin buyam boshqa mavzudagi gap...

Sami Bolig'bey kursiga cho'kib, ikki chakkasini qisdi. Ko'rinishi juda abgor edi. Oshkora suhbat meni gangitib qo'ydi. Umidlari puchga chiqqan bu odam ko'zimga endi boshqacha ko'rina boshladi. Unga rahmim keldi.

– Ha, mayli, Iffatbey, – dedi u biroz sukut saqlagach, – seni ishdan qo'ymay... Kechir meni!.. O'zing tushunasana ahvolim chatoq. Mening o'rnimda bo'lganingda sen nima qilarding?!. Darvoqe, sening boshinggayam ko'p tashvish tushgan. Bilaman, halol yigitsan... Boshqa ilojing qolmaganidan keyin o'sha bema'ni ishni qilgan bo'lsang kerak... Mayli, o'g'lim, borib ishingni qil.

Ostonaga yetganimda Sami Bolig'bey yana chaqirib qoldi:

– Fizikadagi og'ish qonuni esingdami, Iffat? Buni qaraki, shu zang'ar qonunning fizik jismlar u yoqda tursin, hatto odamlarga ham aloqasi bor ekan-a. Endi tushunibman buni!..

Men bo'ynimga olmagan yumushni Sami Bolig'bey boshqa bir odamga topshirdi. Ammo gazetamizning kuni bitib qolgan ekan, kundan kunga ahvolimiz og'irlashib boraverdi. Ishchi va xizmatchilarga maosh to'lashga qurbi yetmay qoldi.

Oradan kun utmay „Xalq huquqi“ gazetasi yopildi. Sami Boligʻbey mutasarrif – okrug mudiri boʻlib ishlash uchun uzoq Anatoliyaga joʻnab ketdi.

### 38

„Xalq huquqi“ gazetasi yopilgach, xodimlarning ayrimlari ishsiz qolgan boʻlsa, baʼzilari boshqa gazetalarga oʻtib ketishdi. Keksa tarjimonlardan Sazoyi afandi meni „Telegraf“ gazetasiga joylashtirib qoʻydi.

„Telegraf“ gazetasining xoʻjayini Ali Rusuhiybey, garchi qoʻli egriroq odamga oʻxshasayam, firibda shaytonga dars beradiganlardan ekan. Ishini hamisha shunaqa imi-jimida qoyil qilib yuradiki, makrini hech kim sezmay qoladi. Gazetachilikda suyagi qotgan va hamisha bir nimadan nolib yuradigan Sazoyi afandi boʻlmaganida men ham koʻp narsalardan bexabar qolarkanman.

Bizga-ku buning sira daxli yoʻgʻ-a, – deb shikoyatga tushib ketardi chol baʼzan turmushdan nolib qolgan kezlari, – lekin, afsuski, bu dunyoda halol non topib yeydiganlar kam. Har kim bir nimani koʻzlab yuradi.

„Xalq huquqi“ gazetasidagiga oʻxshab jonimni jabborga berib ishlab yurdim. Bu yerda hammaga maʼqul keldim, men ham qoʻlimdan kelganicha buni oqlashga harakat qildim.

Oradan ikki oy oʻtdi. „Telegraf“ bilan „Xalq farovonligi“ gazetasi bir-biriga it-mushuk boʻlib qoldi. Har ikkalisida bir-birini bulgʻalaydigan maqolalar bosiladigan boʻldi. Gazetxonlarga yaxshigina ermak topildi. Kundan kunga gazetamizning tiraji osha bordi. Ilonning yogʻini yalagan Rusuhiybey raqibining nozik joyini topib, qattiq pand berdi. „Xalq farovonligi“ gazetasining xoʻjayini allaqaysi bir viloyatda sud raisi boʻlib ishlagan kezlari pora olgan ekan. Rusuhiybey shuni kimdandir eshitib qolib, gazetada har kuni rosa koʻpirtirib yozdi, turli-tuman hujjatlar bilan xatlarni berib turdi.

Qoʻlimiz baland kelayotgandek edi. „Xalq farovonligi“ning xoʻjayini alami ichiga sigʻmay, bizning muharrirni

gazetasida bo'ralab so'kib, uni og'ziga sig'ganicha ablah, o'g'ri, muttaham, deb haqorat qilib yotibdi-yu, lekin otgan o'qi nishonga tegmayapti – muharririmizning qaltis joyini topolganicha yo'q.

Bir kuni ishga kelsam, Sazoyi afandi bizning xonada o'tirgan ekan.

– Bularning pastkashligini ko'rdingmi? Voy ablahlar-ey!– deb qoldi u.

Qo'limdagi portfelni stolga otib, bamaylixotir:

– Ha, nima qipti? – deb so'radim.

– „Xalq farovonligi“ ning bugungi sonini o'qimadingmi? – hayron bo'lib so'radi Sazoyi afandi.

– Hali o'qiganim yo'q, to'g'ri uydan kelyapman...

– Demak, hech narsadan xabaring yo'qmi?

– Yo'q...

– Bilmaganing ham ma'qul, Iffat!

Yuragim shig'etib ketdi.

– Meni yozishibdimi?..

– Faqat seni emas, hammamizni yozishibdi, Iffat! Lekin ko'proq seni chalpishibdi... Rusuhiybeyni qo'lga tushirolmay garang edi-da ular... Shuning uchun bizga yopishishibdi...

Stolda yotgan gazetalarni titib, „Xalq farovonligi“ ni topdim, zo'rg'a titroqni bosib, ichini ochdim. Katta harflar bilan terilgan sarlavhaga ko'zim tushdi: „Kallakesarlar uyasi“. Maqola bunday boshlangan:

„Biz „Telegraf“ gazetasi deb atalmish kallakesarlar uyasining haqiqiy basharasini nihoyat gazetxonlarga ko'rsatish qo'yishlikni o'z burchimiz deb bildik. Butun umri qabih ishlar bilan shug'ullanib, shuning orqasida mol-dunyo orttirgan itvachcha Rusuhiy shaharning qoq o'rtasida „Telegraf“ degan nom bilan kallakesarlar uyasini tashkil qildi. U jamiyatga sidqidildan, beg'araz xizmat qilib kelayotgan or-nomusli, yuzi yorug' va halol odamlarimizni ko'pchilikka yomonotliq qilib ko'rsatish niyatida soxta hujjatlar yasab, ularni e'lon qildi. Bugun biz o'sha olchoq itvachchaning atrofidagi yuvindixo'rlarni afkori umum oldida fosh etib, ularning haqiqiy basharasini ko'rsatib qo'ymoqchimiz. Biz

„Telegraf“ degan qo‘lansa nom ostida uya qurgan kallake-sarlar hadida biror hukm chiqarishni gazetxonlarimizning o‘zlariga havola qilamiz.

„Xalq farovonligi“ning xo‘jayini gazetamizning har bir xodimini balchiqqa chaplab chiqibdi. Maqolaning oxirgi qismi menga bag‘ishlangan ekan. Unda shunday deyilibdi:

„Hatto bu to‘daning ichida oyoq-qo‘liga kishan urilib, qamoqda o‘tirib chiqqan professional o‘g‘ri ham bor. Bu xumpar aslida istibdod yillarida nom chiqargan o‘ta qonxo‘r zolimlardan birining zurriyoti bo‘ladi. „Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan“, degani shu bo‘lsa kerak-da. Yoshligidan o‘g‘rilikni kasb qilib olgan, bir kuni tunda o‘ziga ko‘p yaxshiliklar qilgan valine‘matining uyiga o‘g‘rilikka tushib, bola-chaqasiga to‘pponcha o‘qtalغان holda temir sandig‘idagi bor pulini shilib ketgan. Rusuhiy degan sassiq cho‘chqaning shu o‘g‘riga o‘xshagan hamtovoq va yuvindixo‘rlari xususida bu yerda nimaiki aytgan bo‘lsak, shularning hammasi uchun bugun mo‘min bandalari oldida, ertaga esa Haq taoloning o‘zi oldida javob berishga hozir-u nozirmiz“.

Es-hushimni yo‘qotmay, shu gaplarni qandoq qilib oxirigacha o‘qib chiqqanimga o‘zim hayronman. Rang-ro‘yimni ko‘rib, Sazoyi afandi qo‘rqib ketdi.

– Iffat, o‘g‘lim! Nima bo‘ldi senga? Tinchlan... O‘zingni bos. U palidning qanaqa ablah odam ekanini hamma biladi-ku, axir... – dedi u meni yupatishga tushib.

Shu payt umumiy ishlar mudiri xonaga kirib qoldi. U ham keksa tarjimonga qo‘shilib, menga tasalli bera boshladi:

– Qo‘y, o‘g‘lim, xafa bo‘lma. Men sendan battarroq bo‘lganman. Men senga aytsam, Beyo‘g‘lida bir uyimiz bo‘lardi. Uy deyishga arzimaydियam aslida. Bundan uch yil oldin o‘shani bitta xotinga ijaraga beruvdim. Qiziyam bor ekan. Keyin bilsam, bular axloqsiz odamlar ekan. Pulini qaytarib, uydan haydadim. Ustimdan xat yozishibdi. Gazetaga ishga kelishdan oldin xususiy islovotxonam bo‘lganmish... Ana, ko‘rdingmi, oshnam! Xudo haqqi; men bularni sudga beraman!..

– Bu ablahni hammamiz sudga berishimiz kerak! Boplab ta‘zirini berish kerak! – deb yubordi Sazoyi afandi.



Ancha o'zimni o'nglab olgan edim.

– Yo'q, yo'q! Hammasiga faqat o'zim aybdorman, – shunday dedim-u, tashqari chiqib ketdim.

Birozdan keyin Rusuhiybeyning oldiga kirib, gazeta-dan bo'shab ketmoqchi bo'lganimni aytdim. Bosh muharrir menga aynan nima bunchalik og'ir botganini hecham tushungisi kelmadi.

– Bolalik qilyapsiz... Mening ustimga har kuni mag'zava to'kishadi, chidab kelyapman-u... Ha, mayli, ertaga o'zim seni gazetaga yozib chiqaman, hammasi bosdi-bosdi bo'lib ketadi.

– Iltimos qilaman, bey afandim, gazetada zinhor nomim chiqa ko'rmasin. Menga qilgan eng katta yaxshiligingiz shu bo'ladi... Axir bu tuhmat, deb aytolmayman-ku. Bu gapni o'zim rad etolmaganimdan keyin raddiyaga nima hojat?! Har kim o'zini bilib, janjaldan nariroq yurishi kerak. Men oqibatini o'ylamay xato ish qilib qo'ygan odamman. Buning uchun hech kimni qoramayman!.. Hatto ochimdan tirishib o'lsam ham endi redaksiya ostonasiga qadam bosmayman...

Mening astoydil ketmoqchi bo'lganimni ko'rib, Rusuhiybey ancha xafa bo'ldi. Garchi sakkiz kunga haq olishim kerak bo'lsa ham o'n kunga hisob-kitob qilgach, kitoblarimni yig'ishtirdim-da, redaksiyadagilar bilan xayrlashishga ham betim chidamay, sekingina jo'nab qoldim.

\* \* \*

Agar hech narsadan tap tortmaydigan, dadil odam bo'lganimda jonimga albatta qasd qilgan bo'larmidim.

Qish qattiq keldi; yoqadigan narsa yo'q. Ba'zan o'ringa yotish oldidan ichimga bir parcha non kirsa kiradi, ko'pincha esa och-nahor yotib qolaman. Shunchalik „tejab-tergasam“ ham, oyni oyga ulash qiyin. Umid qiladigan joyim yo'q. Bo'lib o'tgan voqealardan keyin ko'chada odamlarga ko'ringim kelmaydi. Mabodo birorta tanishni ko'rib qolsam, ko'chaning narigi betiga o'tib ketaman.

Agar Jalol Istanbulda bo'lganida menga yordam bergan bo'lardi, buni bilaman. Har holda undan o'zim yordam so'ragan bo'lardim. Vaholanki, u bir oydan beri Konyada. Ba'zan Muzaffar sadaqa berganday uch-to'rt tanga tashlab ketadi, ammo bergan puli ijara haqiga zo'rg'a yetadi.

Kunduzlari ko'chaga chiqqani yuragim yo'q. Nazarimda hamma meni otning qashqasiday yaxshi biladi. Ikki odam gaplashib turganini ko'rsam, „Xalq farovonligi“da urilgan kallakesar shu bo'ladi“ deb bir-biriga meni ko'rsatayotganday tuyuladi.

Asabim ishdan chiqib, har narsani o'ziga oladigan, ko'ngli yarimta va injiq odamga o'xshab qoldim. Ilgarilari boshimga tushgan savdolar uchun faqat o'zimni aybdor deb bilardim; endi esa butun aybni boshqalarga to'nkaydigan bo'lib qoldim. Mening nazarimda bu dunyoda halol, vijdoni pok odam qolmagan. Ko'chadan o'tib ketayotgan to'da to'da odamlarning hammasi muttaham va qaroqchi. Qonimga tashna dushmanlar uya qurgan shaharni ko'rib, meni vahm bosadi, xolos...

\* \* \*

Yanvar oyining sovuq oqshomlaridan birida sabrim tugadi: endi uyda o'tirishga imkon yo'q.

Ko'cha zimiston. Maydalab qor yog'yapti. Ahyon-ahyonda ko'chadan avtomobil o'tib qoladi va yo'lkada ketayotgan tanho yo'lovchilarni ko'lankaday bir zum yoritib o'tadi...

Muyulishga yetganimda allaqanday bir mashina shartta burilib, ust-boshimni qor aralash loyga chaplab ketdi.

Hozirgina ajal sharpasi meni bir urib, asfalasofiliniga jo'natishiga sal qolganini o'ylab, taqqa to'xtadim. Es-hushimni yig'ib, atrofimga mundoq qaragam, tanish chorrahada turibman. Bundan o'n besh yilcha oldin xuddi shunaqa mahalda shu joydan o'tib ketgan edim. O'shanda pochcham Muzaffar akam bilan meni Beyo'g'lidagi teatrqa olib bordi. Biz posho dadamga sulton hadya qilgan izvoshta

ketayotgan edik. Xuddi shu yerga yetganda burilganimiz hali-hali esimda...

Unkoppon ko'prigiga yetib olguncha to'g'ri ketaverdim. Ko'prik boshiga kelgach, qalqib turgan panjaraga tirsagimni qo'yib, pastdagi suv betiga tikilib qoldim. Qor yog'ib turgani uchun dengizni tuman qoplab olganga o'xshaydi. Suv zim-ziyo bo'lib qorayib ko'rinadi. Uzoqlarda suzib yurgan kema chiroqlari xuddi qabristondagi shamlarni eslatadi.

Boya ko'prikka tushib kelayotganimda miyamga, o'zimni dengizga tashlasammikin, degan fikr keluvdi... Mana endi bo'lsa bu fikrdan qo'rqaman, esimga tushsa, qatto g'azabdan titrab ketaman. Shu alfozda qancha turganim esimda yo'q. Bir mahal ko'prikdan ikki kishi o'tib qoldi.

– Nima qilib turibsan, birodar? – dedi bittasi menga qarab.

Javob bermadim.

– Uyingga borib, tinchgina yotmaysanmi, yigit! Xayol suradigan vaqtni hozir! – dedi u menga pand berib.

Yonimdan o'tib ketishdi. Qaysi biriniyam sherigiga:

– Rosa tortganga o'xshaydi... Yo ko'prikdan yiqiladi, yo ertalabgacha qotib qoladi, – deganini eshitdim.

Ikkovi ham ko'rinmay qoldi. Men ham izimga qaytdim. Rosa sovqotgan ko'rinaman. Dag'-dag' titray boshladim. A'zoyi badanim qaqshab og'riydi.

Qaytishda bir qancha qovoqxonaga duch keldim. Hammasiyam isqirt, g'aribona. Birortasiga kirib, ozroq konyak olib, sal isinib olmoqchi bo'ldim.

Eshikni ochishim bilan issiq havo betga tegdi, may hidi dimog'ga urildi. Qovoqxonaga to'la odam ekan. Ust-boshimni choqib, peshtaxta tomonga yurdim va bir qadah konyak iltimos qildim.

Narigi chekkadan mast-alast ovozlari, o'lda-jo'lda kuy bilan yer depsashlar eshilib turibdi. Tanam orom olganday bo'ldi. Yana bir qadah konyak ichgach, hisob-kitob qilmoqchi bo'lgan edim, qovoqxonaning egasi qo'li bilan e'tiroz bildirib, mendan pul olmadi.

– Sizdan pul olmaymiz, – dedi u ma'nodor jilmayib.

– Nega endi? – hayron bo'lib so'radim.

– Sizni ular mehmon qilishyapti,– dedi u burchakdagi stolni koʻrsatib.

Oʻsha tomonga oʻgirilib qaradim. Bundoq qarasam, sochlari paxmoq bir yigit meni imlab chaqiryapti. Uni tanidim. Karapet degan armani yigit, qamoqda birga yotuvdik. Jundayam qiltiriq odam ekan, bir qop suyakning oʻzi. Rahmim kelib, oʻshanda unga eski paltomni beruvdim, non-nasibani ham baham koʻrishuvdik.

Karapet otimni unutmagan ekan.

– Iffatbey, qani bu yoqqa, bir oʻtirishaylik!– dedi u baqirib. Keyin yonidagi sheriklariga meni tanishtirdi: – Zoʻr yigit, oʻzimiz qatori!

Men ikkilanib turgan edim, buni u boshqacha tushundi.

– Narigi xonaga oʻta qolaylik, oʻsha yer tinchroq.

Oshnalari ham meni oʻtirishga zoʻrladi. Noiloj koʻndim. Boshqa joyga borib oʻtirdik. Sal tinchroq ekan. Ofitsiant birpasda oldimizga ikki-uch shisha araq bilan taqsimchada gazak keltirib qoʻydi.

Araq ichmasligimni aytdim.

– Rosa sovqotgan boʻlsangiz kerak-a? – mehribonlik qildi Karapet. – Hozir aytaman, iliq vino olib kelishadi. Darrov isinib olasiz.

Karapetning oshnalaridan biri yoshi qirq beshlarga borgan Yorgo degan yunon ekan. Ikkinchisi bolgariyalik musulmonlardan. Uchovi ham qiladigan ishining tayini yoʻq, kattami-kichikmi, ishqilib oʻgʻirlik orqasida kun koʻradigan odamlarga oʻxshaydi. Garchi meni yaxshi tanishmasayam, darrov hariflari qatoriga qoʻshib qoʻyishdi.

Karapet qamoqxonadagi hayotimizni eslab ketdi, keyin oʻzicha kulimsirab, qoʻshib qoʻydi:

– Yoʻq, zinhor unga til tegizmaylik: baribir ertami-kechmi yana oʻsha dargohga boramiz!

Karapet men bilan xuddi qalin doʻstlarday dildan gaplashib oʻtirdi, turish-turmushidan hikoya qilib berdi. Gapiga qaraganda, uchovlari ham ishlashar ekan: Karapet duradgorga shogird tushibdi, bolgariyalik qochoq gʻisht zavodiga ishga kiribdi. Yorgo esa baliq sotish bilan ovora ekan. Ammo faqat maosh bilan tirikchilik oʻtkazib boʻlarmidi. Shunga

ko'ra bular ba'zan o'g'irlik qilib hamyonni to'ldirib turisharkan.

Vino bilan issiq uy ta'sir qildi shekilli, badanim bo'shashib, meni mudroq bosdi. Endi ketish kerak, bo'lmasa noqulay bo'ladi, buni bilaman-u, ammo turishga majolim yo'q. Qovoqxonada ikki soatdan mo'lroq o'tirib qoldim, ko'chaga chiqqanimda shamol tinchib, havo ancha bo'shashib qolgan, ko'k yuziga yakkam-dukkan yulduzlar qalqib chiqqan edi.

Qabristonga o'xshab huvullab yotgan kimsasiz shahar bo'ylab uyga ketyapman-u, o'zimcha o'ylayman: „Qonun menga tamg'a bosdi, or-nomusli odamlar jamiyatidan meni chetga uloqtirdi. Suygan odamlarimning hammasi mendan yuz o'girdi. Mana bugun kechqurun men o'g'rilar bilan ulfatchilik qildim, ularning davrasida o'zimga keldim, yana qaddimni tiklab olganday bo'ldim. Bundan chiqdi, men ashaddiy jinoyatchi ekanman-da? Yo'q, albatta, unchalik emas... Ammo bir narsa ayon bo'ldi: sen kimning oldida qizarib, xijolatdan yer chizib o'tirmasang, boshqalardan ko'ra o'sha odam senga yaqinroq emasmi, axir?..“

### 39

Gazetadan bo'shab ketganimga to'rt yarim oy bo'ldi... Yolg'izlik va tirikchilik tashvishi bilan o'tgan to'rt yarim oy... Qanchalik nochor ahvolga tushib qolganimni Istanbulda biror kimsa bilmaydi.

Juda og'ir kunlarga qoldim. Akamning sadaqa pullari zo'rg'a nonga yetadi. Ko'pincha och-nahor yotib qolaman.

Ruhim cho'kkan, odam bolasiga ham o'xshamayman. Xuddi och bo'riday fikr-xayolim ovqatda - bir nima yeb olsam, o'lmayman, deyman. Ish qidirib, kirmagan ko'cham qolmadi. Yalinib-yolvordim, o'tindim, xokisorlik qildim... Do'q-po'pisalar, ta'na va haqoratlar menga zarracha ta' sir qilmay qo'ygan.

Mana shu to'rt yarim oy ichida men yana bir achchiq haqiqatni bilib oldim: pul topish, ishga kirish ilinjida yurgan

jamiki baxtiqaro odamlar har qanday haqorat eshitsu ham, bo'ynini egib turaverarkan. Qanday bema'nilik bu!.. Ko'ngilga tugib qo'yilgan murodga yetmoqlik uchun itoat qilish, bo'yin egib turishning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun hamisha qo'l qovushtirib turish, kimning tovonini yalash kerakligini bilish kerak... Birov seni haqorat qilsa, churq etib og'iz ochmaysan. Odam bolasi o'zining qadr-qimmatini oyoqosti qiladigan bo'lsa, beixtiyor u mushtipar, ayanchli bo'lib ko'rinadi, natijada u sodiq qulga emas, balki kuragi yerga teggan raqibga o'xshab qoladi. Xuddi shuning uchun ham sen biror eshikka yordam so'rab boradigan bo'lsang, yo seni nazarlari ilmaydi yoki albatta jinoyatchi bo'lsa kerak, deb o'ylashadi...

Yashirib nima qilaman. Ba'zan boshqa xayollarga ham boraman: „Meni nohaq jazolashdi – bir umrga yomonotliq bo'lib qoldim. Jamiyat menga shubha bilan qaraydi. Binobarin, jinoyat qilishga to'la haqqim bor...“

Qalbimda g'azab va nafrat tug'yon urgan holda kechalari tanho ko'chalarni ko'p kezdim; qovoqxonada Karapet bilan sheriklarini uchratib qolarmikinman degan umidda to'g'ri Unkopponi ko'prigiga yo'l solgan paytlarim ham ko'p bo'ldi. Lekin har gal eng so'nggi daqiqalarda nimadir meni to'xtatib qolardi.

Xor-u zorlikda kechgan to'rt yarim oy meni adoyi tamom qildi, ammo baribir jinoyat ko'chasiga kirganim yo'q. Aniqroq qilib aytganda, kirolmadim, qurbim yetmadi. Bunaqa ishlarga men ojizlik qilarkanman, ha, ilojim qancha...

\* \* \*

Devonyo'li ko'chasidan tushib kelayotgan edim, to'satdan Jalolning tanish ovozi eshitildi:

– Iffat!

U yurib ketayotgan tramvay maydonchasida turgan ekan.

Nazarimda Xizrning ovozini eshitganday bo'ldim. Taqqa to'xtadim. Ko'zimdan tirqirab yosh oqdi.

Jalol tramvaydan sakrab tushdi. Quchoqlashib ko'rishdik.

– Qayoqlarda yuribsan? – dedi u koyib. – Bir haftadan beri seni qidiraman. Bormagan joyim qolmadi! Jahongirdagi pansionga kirsam, ko'chib ketgan, deyishdi. Akangdan so'rasam, o'zim ham bilmayman, deydi. Qani, nima qilib turibmiz? Yur, biror joyga kirib, ozroq o'tiramiz. Senga aytadigan gaplarim bor.

Shu atrofdaqi qahvaxonaga kirdik. Jalol mendan juda xavotir olganini aytib, xat yozmaganim uchun koyib berdi.

– Ochig'ini aytsam, juda qiynalib ketdim, hatto konvertgayam pulim yo'q edi... Kechirasani-u, lekin o'ylashga ham imkon qolmagandi...

Boshimga tushgan uqubatlarning hammasini do'stinga gapirib berdim. Hech narsani yashirmay, ochig'ini aytdim. Kechalari och-nahor yotganlarimni, bir burda nonga zor bo'lib, ko'chalarda tentirab yurganlarimni, ne-ne haqoratlar eshitganimni – hammasini oqizmay-tomizmay hikoya qilib berdim.

Jalol bu gaplarimni ko'zida yosh bilan eshitib o'tirdi.

– Voy boyoqish... Bechoraginam Iffat, – deb qo'yardi u o'qtin-o'qtin.

Dilimdagi butun gaplarni to'kib solgach, zo'raki kuldim:

– Mana, ko'rdingmi, boshqacha bo'lib qoldim. Ilgarilari dardlarimni sendan yashirib yurardim. Nafsoniyat degan narsa bor edi. Endi menda o'shayam yo'q. Xuddi darbadar tilanchiga o'xshayman – na uyatni bilaman, na or-nomusni.

Boshimga tushgan savdolarni ezilib eshitib o'tirgach Jalol nima deb ko'ngil olishni bilmay jim edi.

– Yaxshisi, endi sendan eshitaylik, – dedim oxiri. – Xo'sh ishlaring qalay gapir.

Bir zumda Jalolning yuzi yorishib ketdi.

– Senga aytsam, kasbni o'zgartirdim. Advokatlikni tashladim. Oilam katta, boqish qiyin bo'ldi. Savdoga o'tdim.

Nima derkin, degan fikrda ko'zimga tik qaradi. Nima-dandir andisha qilayotganga o'xshaydi-yu, lekin sababini bilmay turibman.

– Nima ham derdim, tabriklayman, – deb javob berdim.  
– Ishing yaxshimi ishqilib?

– Ha, Iffat, yomon emas. Topishim ham chakki emas-ku, lekin...

Yana gapi chala qoldi. Hatto qizarib ketdi.

– Buni sen yuzimga solishing ham mumkin, – davom etdi u ovozini pasaytirib, – lekin o'zga ilojim yo'q edi. Afsuski, hayot biz maktab oynasidan tomosha qilgandek emas. Ha, kasbni o'zgartirdim. Orzu-umidlarim chippakka chiqdi. Axir men ham insonman, mening ham o'zimga yarasha niyatlarim bor... Dastlab Konyada ilgarigiday advokatlik qilib yurdim; tamaki va af'yun bilan tijorat qiladigan bir firmaning ishlari mening qo'limda edi. Hozirgi paytda savdo ishi qanaqaligini o'zing yaxshi bilasan. O'z ixtiyorim bilanmi yoki g'aflat bosibmi anig'ini bilolmadim-u, lekin, har qalay men ham har xil lo'ttibozliklarga qo'l uradigan bo'ldim. Hujjatlar bilan yuklarni qalbakilashtirish, vagon-vagon va hatto butun-butun sostav molni ko'tara pullash kabi ishlar. Xullas, botqoqqa botib qoldim, firma giribonimdan qattiq bo'g'ib oldi... Bola-chaqa och qolmasligi uchun har narsaga ko'nishga majbur bo'ldim. O'zingdan qoladigan gap yo'q, mening orqamdan boshqalar rosa mol-dunyo to'plab olishdi. Har kim ham butun orzu-umidlari puchga chiqqanini bilganidan keyin tamom bo'larkan, o'zini tubanlikdan hecham saqlab qololmas ekan. Gapning qisqasi shuki, Iffat, men havoyilikka berilib ketdim, o'zimni to'xtatolmadim... Sekin-asta, imi-jimida chayqov ko'chasiga kirdim; buni oldiniga mayda-chuydadan boshladim, albatta. Keyinchalik bir vagon molni gumdon qildim. Buning uchun ba'zi kimsalarga mening ham yordamim tegdi-yu, lekin butun foydasi tanimga qoldi. Bilasanmi, mashinaga sal qo'lingni tiqsang, hammasini yamlab ketadi... Ochig'ini aytsam, Iffat, hozir men urushdan naf ko'rayotgan chayqovchilar bilan birgaman... Buni bemalol yuzimga solishing mumkin. Boshqa nima ham qila olardim?..

– Ikki-uch yil oldin shu gapni eshitganimda balki yuzingga solgan ham bo'lardim, biroq hozir... Sen ham tirik jonsan, albatta...



Jalol ish bilan ikki haftaga Istanbulga kelgan ekan. Meni firmalariga ishga taklif qildi. Nima ish ekanligini ham surishtirmay, taklifini bajon-u dil qabul qildim. Shu gapdan keyin undan ajralmadim, Beyo'g'lidagi mehmonxonalardan birida turdik, keyin esa birgalikda jo'nab ketdik.

## 40

Asosiy qiladigan ishim Istanbulga jo'natiladigan yuklarni nazorat qilib turish edi. Ta'minot va transport bo'yicha xizmatchiman. Yaxshigina maosh belgilashdi. Endi tirikchilikni o'ylamasam ham bo'ladi.

Firmaning ishi bilan ko'pincha yo'lda bo'laman: goh Konyadan Istanbulga, goh esa Istanbuldan Konyaga qatnayman. Yo'lda yurish menga yoqadi. Hamisha yangi odamlarni uchrataman. Ko'pincha meni hech kim tanimaydigan boshqa shaharlarda bir necha kunlab qolib ketaman. Qalbi toza, oriyatli odamlar bilan tanishib oldim. Halollik, oliyanoblik, insoniylik xususida ular bilan bemalol gaplashaveraman. Peshanamga o'g'ri degan tamg'a bosilganini bular qayoqdan bilsin, axir.

Anatoliyaning hamma yo'llarida urush nafasi sezilib turadi. Poyezdlar ham, bekatlar ham harbiylar oilalari, uy-joyini tashlab qochayotgan odamlar, jang maydonidan omon chiqib, ajalini uyidan izlab ketayotgan yaradorlar bilan liq to'la. Xullas, birovga yaxshilik qilaman degan odam uchun cheksiz imkoniyatlar bor.

Allaqaysi bir bekatda qishloqi kampir bilan gaplashib qoldim. Poyezd kutib o'tirgan ekan. Kampirning o'g'li Kavkaz tomonda urushda ekan, bir yildan beri undan xat-xabar yo'qmish. Biror daragini toparman degan umidda Istanbulga ketayotgan ekan. Qo'limdan kelgancha unga yordam berdim.

Boshqa bir safar vagonda ketayotib, ko'zdan ajragan yoshgina bir leytenant bilan tanishib qoldim. Dunyodan umidini uzib qo'yan ekan. Ikkovimiz anchagacha gapla-

shib o'tirdik, qo'limdan kelganicha uni yupatishga harakat qildim.

Odamlarga nisbatan g'azab va nafrat bilan to'lgan siy-  
nam sekin-asta yumshay bordi. Yana asli holimga qaytayot-  
ganimni, oqko'ngil, mushfiq va mehribon bo'lib borayotga-  
nimni o'zim ham sezib turibman...

\* \* \*

Bir gal safarda yurganimda Eskishaharda bir poyezddan tushib, ikkinchisiga o'tiradigan bo'lib qoldim. Namozshom payti edi. Vokzal yaqinidagi ochiq qahvaxonada o'tirgandim. Ko'chaning narigi betidagi fonus tagida odamlar uymalashib qolishdi. Yo'l o'rtasiga o'tirib olgan bir kishiga hamma allanimalarni uqtiryapti. Kimligini uzoqdan taniyolmadim.

– Bekorga ovora bo'lmanglar! – deb baqirdi ularga qari qahvaxonachi, – juda o'jar ekan, eshakdan battar... Qulog'i-ga gap kirmaydi-ya... Bunaqasini endi ko'rishim.

Nima gapligini bilmoqchi bo'lib, ularning oldiga bordim. Ko'cha fonusi tagidagi xarsang ustida juldur kiyingan, olti yoshlar chamasida bir bola o'tiribdi.

– Tur degandan keyin turmaysanmi axir! – bolaning yelkasiga turtib o'shqirdi sallali bir kishi. – Onang o'ldi degandan keyin bo'ldi-da... O'lganini o'zim ko'rdim. Poyezd bosib ketdi. Huv anavi mozorga ko'mishdi. Go'ridan tirilib chiqarmidi endi. Nega yana o'tiribsan? Tur o'rningdan!

Bola churq etmay o'tiribdi. Qo'lidan tortib, turg'izmoqchi bo'lishsa, dodlab yig'laydi.

– Onasi rostdan ham o'lganmi? – deb so'radim sallali kishidan.

– Qayoqda deysiz. O'rnidan turarmikin, deb shunchaki aytdim-da.

Bu odamning gapini eshitib, hayron bo'ldim. Onang namoz o'qigani Makkaga ketdi, deb yetim qolgan bolalarni ovutishardi, buni bilardim, har holda bolani yupatish uchun aytilgan bu yolg'on gapni kechirsa bo'ladi. Ammo onasi tirik bo'la turib, bola boyoqishni: „Onangni poyezd bosib ketdi,

o'z qo'limiz bilan ko'mdik. Endi u qaytab kelmaydi, ovora bo'lma" – deb aldayotgan bag'ritosh odamlarni ko'rib, g'azabim qaynab ketdi.

– Nega unaqa deysiz, afandim? – shartta so'radim.

– Bo'lmasa nima qilish kerak? Boshqa iloj yo'q. Bola Xudo bergan kuni kechqurun shu xarsangda mo'ltirab o'tiradi, odamning yurak-bag'ri ezilib ketadi uni ko'rib. Bu tomonlarga qochib kelishgan bo'lsa kerak. Ikki haftacha burun onasi uni shu yerga tashlab ketibdi. „Meni shu yerda kutib tur! Hozir kelib, olib ketaman“, degan bo'lsa kerak, o'zi ketvorgan... Bolasi kutib o'tiribdi... Ona degan shunaqayam bag'ritosh bo'ladimi... Darvoqe, turmushda bo'lib turarkan. Balki onasini ayblasak gunoh bo'lar... Har holda bola bechoraning bir o'zi qoldi... Kunduz kunlari ko'cha-ko'yda tilanchilik qiladi. Kechasi omborga kirib yotadi. Onasining: „Meni shu yerda kutib tur. Hozir kelib, olib ketaman“, degan gapi esida. Har kuni kechqurun shu yerga kelib, yarim kechagacha onasini poylab o'tiradi. Bekorga kutib nima qiladi, umidini uzsiz degan maqsadda: „Oyingni poyezd bosib ketdi“, deb aytdim. Lekin gapimga quloq solmayapti...

– Nega politsiya indamaydi?

– Politsiyaning ishi boshidan oshib yotibdi...

– Yetimxonaga yo'qmi bu yerda?

Fonusning xira yorug'ida sallali odamning kulimsirab qo'rganini sezdim.

– Janoblari bu tomonlarga endi qadam ranjida qilgan bo'lsalar kerak, – deb javob berdi u.

Olomon tarqab ketayotgan edi, yana gapga tutdim.

– Bolani ko'rib ezilib ketdim, unga nima yordam berishim mumkin?

– Xo'p desangiz, qo'lga besh-o'n qurush bering.

– Yo'q durustroq yordamim tegarmikin devdim.

– Agar joy bermalol bo'lsa, uyingizga olib keting. Yoki bo'lmasa Istanbuldami, boshqa yerdami – biror yetimxonaga joylab qo'ying. Ancha rahm-shafqatli odam ko'rinasiz. Qo'lingizdan kelsa, bolapaqirga yordam qiling... Savobiga qolasiz.

Hamma tarqab ketdi; bolaning yoniga cho'kdim. Sochlari tim qora, ko'hlikkina bola ekan-u, lekin ochlikdan ozib-

to'zib ketibdi. Oldiniga mendan yotsirab, gapimga javob bermay o'tirdi. Men uni erkaladim. Ko'nglini ko'tarib nasihat qilgan bo'ldim, oxiri ancha elakishib qoldi. Politsiya bo'limiga borishga uni ko'ndirdim. U yerga borgach, kim bilan gaplashayotganini bilib qo'ysin, degan maqsadda komissarga yonimdan hujjatlarimni olib ko'rsatdim.

– Ertangi poyezd bilan Istanbulga ketyapman. Manavi boqimsiz bolani yetimxonaga joylashtirib ketsam devdim. Agar iloji bo'lmasa, o'z hisobimdan maktabga beraman. Shunga siz ruxsatnoma bersangiz.

Komissar mushfiq odam ko'rinadi.

– Juda oliyjanob ish bo'пти, afandim. Hech qanday ruxsatnomaning keragi yo'q... Bularda hujjat nima qilsin... Hatto hayvonniyam hisobi bo'ladi, bunga o'xshaganlarning bizda shu hayvonchalik qadri yo'q, bularning bor-yo'qligi bilan birov qiziqmaydi. Olloyi taoloning bandalari bular, rizqini ham o'zi beradi. Har ehtimolga qarshi sizga qog'oz qilib beray, yo'lda biror mojaro chiqmasin...

\*\*\*

Firmaning ishi bilan yurib, Istanbuldagi katta-katta amaldorlar bilan yaxshigina tanishib olgan edim. Shularga ishonib, Sabrini yetimxonaga joylab qo'ymoqchi bo'ldim. Ammo bulardan biror ish chiqmadi. Ehtimol, yordam bergilari kelmagandir. Xullas, uni xususiy internat-maktabga kiritib qo'yishga to'g'ri keldi.

Maktab direktori hujjatlarni rasmiylashtira turib, ismini so'radi. To'g'risini aytishga yuragim dov bermadi: bordi-yu, otimni gazetadan bilib olgan bo'lsa, bu o'g'ri va muttaham odam nega bunchalik saxovat qilyapti, deb ko'ngliga har xil gaplar kelishi mumkin edi-da.

Bolani Jalol Ziyobey degan odam qaramog'iga olyapti, u hozir Konyada, – dedim. – Pulni men o'sha kishining nomidan to'layman.

Izmirdan Istanbulga qarab ketayotgan edim. Dekabr oyi, havo sovuq, osmonni bulut qoplagan. Menemen vodiysiga yetib kelganimizda qattiq shamol turib, gupullab qor yog'ib berdi.

– Havo aynib turibdi, – deb qoldi hamrohim keksa mayor. Bo'ron turib bersa, ish pachava bo'ladi!

Poyezd harbiylar, doktorlarning tavsiyasi bilan havo almashtirish uchun ketayotgan bemor va yaradorlar, armiya xizmatidan ozod qilingan nogironlar, tug'ilib o'sgan joyini tashlab, bola-chaqasi bilan o'zga yurtlardan boshpana izlab ketayotgan beva-bechoralar bilan liq to'la. Manisadan keyin shamol zo'raydi. Qattiq quyun ko'tarilib, hech narsa ko'rinmay qoldi... Bir tomondan qor ham yo'lni ko'mib tashlayapti.

Kech kirguncha Ushoqqa yetib olib, o'sha yerda tunash kerak. Qosh qoraymasdan bir amallab yetib olsak bas. Lekin parovoz toshbaqadan battar imillaydi; unga o'tin qalab turishgani uchun deyarli har muyulishda bir to'xtab oladi.

Bekatga yetishga ikki soatcha vaqt qolganida poyezd qorda yurolmay taqqa to'xtab qoldi.

Qiy-chuv, arosat boshlanib ketdi. Hali qosh qoraygani yo'g'u, atrof naq zimiston! Bolalar dodlagan, xotin-xalaj uvvos ko'targan... Erkaklar esa vagonlarning oldida to'dalashib, goh talashib-tortishadi, goh baqirib-chaqirishadi. Ba'zi birovlar shu yerda tunab qolishga to'g'ri keladi, binobarin, hozirdanoq buning taraddudini ko'rib o'tin topish, gulxan yoqish kerak, deyishsa, boshqalari vaqt g'animatida yaqinroq qishloqqa yetib olmasak bo'lmaydi, uncha olis emas, nari borsa yarim soatlik yo'l, deb e'tiroz qiladi.

Mayor hamrohim boshqa bir taklif kiritdi:

– Bemorlar bilan ayollarni bitta vagonga joylasak-chi? Ushoqqacha bitta vagonga parovozning kuchi yetar.

Lekin temiryo'lchilar buning imkoni yo'q, deb turib olishdi.

O'zimdanda mutlaqo xavotirda emasman: paltoga burkalanib, bir amallab tong ottirarman. Lekin bemorlar bilan ayollar bor-ku, ularning holi nima kechadi?

Qor kechib, poyezd yoqalab ketyapman-u, xayolim o'shalarda. Shu payt nogahon qora chodraga o'ralgan bir qizga ko'zim tushdi. Oxirgi vagonning oldida bir o'zi shumshayib turgan ekan. Ko'zlari bejo, rangi quv o'chgan. Bir nimanisi so'ramoqchi-yu, lekin tortinayotganga o'xshaydi. Oxiri u qisilib-qimtinib oldimga keldi.

Kechirasiz, bey afandim!– dedi qiz ovozi titrab.

– Marhamat!

– Vagonda oyim bor, kasal yotibdi. Ahvoli juda og'ir. Agar tuni bilan shu yerda yotsa, ertalabga yetmaydi. Nima qilishga hayronman, boshim qotib qoldi. Xudo xayringizni bersin, menga yo'l-yo'riq ko'rsating...

Yuragim bir orziqib tushdi. Istanbul lahjasida so'zlardi. Unga nima deb javob berishim mumkin? „Nima ahvoldaligimizni o'zingiz ko'rib turibsiz. Shu tobda men qandoq qilib sizga yo'l-yo'riq ko'rsatishim mumkin?“ – desam ham bo'ldi. Eng oson yo'li ham shu.

Rang-ro'yidan, ovozidan bilib turibmanki, qiz boyoqishning ahvoli tang. Boshqa iloji qolmaganidan biror najot toparman degan umidda menga murojaat qilishga majbur bo'lgan ko'rinadi.

– Oyingiz poyezdda og'rib qoldilarmi?

– Yo'q. Ammo keyingi kunlarda ancha tuzalib qolgan edilar. Havo biroz yurishib ketgani uchun yo'lga chiquvdik. Aksiga olib bunaqa voqea bo'ldi.

Qiz alamiga chidayolmay yig'lab yubordi.

– Izmirdan kelyapsizlarmi?

– Ha. Izmirdan. Istanbulga qaytib ketyapmiz.

Vagonga chiqdik, o'rta yoshlardagi bir ayol qalin ko'rpagaga o'ralib yotibdi.

– Oyi... Oyijon, – sekin onasini chaqirdi qiz.

Bemor zo'rg'a ko'zini ochib, qiziga qaradi, unga bir nima demoqchi bo'ldi-yu, yana hushidan ketdi.

Qo'rqmang, singlim, bir ilojini toparmiz. Meni shu yerda kutib turing-chi.

Yugurib vagondan tushdim-da, Ibrohimni qidirib ketdim. Ibrohim deganim bizning firmamizda sayyor vakil bo'lib ishlardi. Asli o'zi Oydin degan joydan, dehqon oilasidan chiqqan, bama'ni yigit. Bir yil burun Chanoqqal'a<sup>1</sup>da bir qo'lidan ajragan. Ibrohim baquvvat, dovyurak, juda harakatchan yigit bo'lgani uchun bizga ko'p nafi tegardi. Tabiatan o'zim dimog'dor odam bo'lmaganim uchun hurmatini joyiga qo'yib yurardim. Ayniqsa, birga safarga chiqib qolgunday bo'lsak, ulfatchiligimiz zo'r bo'lardi. Shu sababdan bo'lsa kerak, meni u boshiga ko'tarib yurardi.

Unga bo'lgan voqeani gapirib berdim. Nima qilib bo'lsa ham bemorga yordam berish kerak, dedim.

– Bajaramiz, bey afandim! – dedi Ibrohim hech ikkilanmay. – Qoyillatvoramiz!

Ibrohimki, „qoyillatvoramiz“ degandan keyin, bilingki, yo'qni yo'ndirib tashlaydi.

– Yaqin atrofda qishloq bor, – dedi u. – Yarim soatlik yo'l. Qarang, hamma o'sha yoqqa ketyapti. Qishloqdan bemorga biror issiq joy topamiz. Qolaversa, o'zimizgayam boshpana kerak.

– Yaxshiku-ya, lekin bemorni u yerga qandoq olib boramiz?

– Yo'li oson, afandim! O'n qurush bersak, birortasi qarashvoradi, ikkita tayoq topib, zambil yasaymiz, bemorni shu zambilga solib ko'tarib ketamiz.

– Tezroq bo'la qol, Ibrohim, qancha pul kerak bo'lsa, hammasini to'layman.

– Xudo xayringni bersin, men pulini gaplashayotganimda sen aralashmay tur, nima, puling oshib-toshib ket-yaptimi?.. Men hozir..

Ibrohim birinchi vagonga qarab yugurib ketdi va bir zumda odamlar orasida g'oyib bo'ldi.

Ibrohim bilan nuqul bir masalada jiqillashib qolamiz: bo'lar-bo'lmasga ziqnalik qilib, hamisha arzonni ko'zlaydi. Namuncha sodda bo'lmasa! Xuddi o'n-yigirma qurush or-

<sup>1</sup> Chanoqqal'a – Dardanell bo'g'oziga kiraverishda qurilgan qal'a-shahar. Birinchi Jahon urushida bu yerda ingliz va turk qo'shinlari o'rtasida qattiq janglar bo'lgan.

tiqcha ketsa, o'n ming, yuz ming lirani ko'rdim demaydigan firma egalarining biror joyi kamayib qoladiganday. Tezroq ish bita qolsin degan maqsadda ba'zan savdolashib o'tirmay, so'ralgan pulni bersam, u nuqul jig'imga tegib, ham-mol bormi, amaldor-u bojxona xodimi bormi – hammasi bilan talashib, tortishgani-tortishgan. Mabodo uni, tartibga chaqiradigan bo'lsam:

– Nima, puling oshib-toshib yotibdimi?– deb mendan ranjiydi.

Oradan ko'p o'tmay, Ibrohim yupun kiyingan bir odam bilan yetib keldi. Ikkovi birgalashib birpasda zambil yasashdi, keyin bemorni zambilga solib, ko'rpaga o'rashdi, ustidan yana kamzul yopishdi. Ibrohim hatto plashini ham yechib berdi.

– Shamollab qolmagin tag'in, – dedim undan xavotirlanib.

– Yo'g'-e, yo'l ancha olis-ku. Ter quysa battar bo'laman. har holda yakka qo'l bilan qiyin-da.

Nihoyat, kichik karvonimiz yo'lga chiqdi. Mening qo'lim-da chamadon, qiz esa chog'roq bovu ko'tarib olgan.

Shamol yuzga uradi, yurish qiyin. Dam-badam u to'xtab, nafasini rostlab oladi. Boshidagi chodrasini oppoq qirov bo-sibdi.

– Siz qiynalyapsiz, yukingizni menga bera qoling.

U minnatdor bo'lib menga qaradi.

– Aslo, afandim. Qurbim kelganida sizning yukingizni o'zim ko'tarib olgan bo'lardim. Sizdan shunchalik minnat-dormanki...

– Qo'ying bu gapni... Har kimning burchi bu...

Qishloqqa yetib olgunga qadar u bilan boshqa gaplash-madik, hatto durustroq tanishib ham olmadik.

Yo'lda Ibrohim bilan sherigi atigi ikki marta zambilni yerga qo'yib, dam olgan bo'lishdi.

– Qattiq charchading, Ibrohim. Menga ber, ozroq ko'ta-rishay.

– O'zingni ko'tarib borsang ham katta gap, bey! – deya hazilga oladi har gal Ibrohim. Keyin jiddiy qilib qo'shib qo'yadi:



– Hecham charchaganim yo‘q, shunchaki noqulay menga, bir qo‘l bilan qiyin-da, axir. Sherigimni ko‘r, zipillab ket-yapti!

Ibrohim boyoqishning qo‘l-oyog‘i but sherigiga havasi kelayotgan edi.

Yo‘lda to‘xtab qolgan poyezdni tomosha qilishga ketayotgan qishloq o‘spirinlarini uchratdik. Ibrohim ulardan kerakli narsalarni so‘rab bilib oldi. Qishloqqa yetib olgach, chorak soatlardan keyin bemorni joylashtirib, o‘zimizga ham boshpana topdik. Ayollar yolg‘iz bir kampirning uyiga joylashishdi. O‘g‘li urushga ketgan ekan.

– Agar bemor yo‘lga chiqolmaydigan bo‘lsa, shu yerda istagancha turaveringlar, – dedi qishloq oqsoqoli tasalli berib. – Kampirga ozroq pul bersalaring bo‘ldi. Bir umr duongizni qilib yuradi.

Kampir bir quchoq xas-cho‘p keltirib, o‘t yoqib yuborgach, bemorga toza ko‘rpacha solib joy qilib berdi.

Qizcha bovuini ochib, dori-darmon oldi.

– Oyim tez-tez og‘rib turadilar. Shuning uchun yo‘lga chiqadigan bo‘lsak, albatta dori olvolamiz, – dedi u, izoh berib.

Qizdan oyisining kasalini so‘radim.

– Ko‘pdan beri toblari yo‘q, darmonlari ketgan, asab ham chatoq. Akamning o‘limidan keyin butunlay yotib qoldilar.

Bemor o‘tning yonida isinib, ancha o‘ziga kelib qoldi. Ko‘zini ochib, atrofga javdirab qaradi, bir nima deganday ham bo‘ldi. Qizi sopol piyolaga bir chimdim arg‘uvon gulidan tashlab, ustiga qumg‘ondan qaynoq suv quydi-yu, yosh bolaga tutganday, onasiga ichira boshladi uni.

– Ancha durustmisiz endi, oyi! – dedi u onasining qo‘lini silab. – Agar manavi afandim bo‘lmaganlarida holimiz xarob bo‘lardi... Hech qayeringiz og‘rimayaptimi, oyi?..

– Kechasi tinch uxlasalar kerak, – dedim xayrlashish uchun o‘rnimdan turib. – Mabodo ul-bul kerak bo‘lib qolsa, bizga xabar qiling, sira tortinmang. Erta bilan o‘zim kelib xabar olaman.

Qiz meni eshikkacha kuzatib chiqdi.

– Sizdan juda-juda minnatdorman, bey afandim. Shu darajadagi, buni ifodalashga hatto tilim o'jiz...

## 42

Bizlarni o'z bag'riga olgan omonatgina qishloq kulbasi tuni bilan shamoldan silkinib chiqdi. Goh pol taxta qarsillab, pechkaning shuvog'i ko'chsa, goh mo'rida shamol uvulldi. Xullas, tuni bilan mijja qoqmay chiqdim.

Ertalab Ibrohimdan bu yog'i nima bo'ladi, deb so'radim.

– Bu yog'i bemalolgarchilik, – dedi u – hozir o'choqqa olov qalaymiz, bemalol isinib o'tiraver. Yo'lni qor bosibdi. Hatto qishloq yo'lidagi ko'prik ham qulab tushganmish... Qishloqning o'zidayam yurib bo'lmaydi, kamida besh kun o'tiramiz shu yerda.

– Bir amallab Ushoqqa yetib olsak bo'lardi...

– Namuncha endi, bey! Yo'l azobi – go'r azobi, deyi-shadi. Tag'inam issiq joydamiz, ming qatla shukur. Boshqalarning holi nima kechdiykin. Sal turib poyezddan xabar olib kelaman, hamrohlarga nima bo'ldiykin, ko'raman.

– Bemorning ahvoli qalay?

– Hozir borib keldim... Ancha durustga o'xshaydi. Ozroq ul-bul topib berdim. Kampir nonushta tayyorlayapti. Ularning duosiga qoladigan bo'lding.

Aslida bir qo'li bo'lmasa ham, Ibrohim juda pazanda yigit. Birpasda qoyil qilib bo'tqa pishirib keldi, ikkovimiz yeb oldik. Shundan keyin kiyinib, bemorni ko'rgani bordim.

Aslida hol-ahvol so'rab, darrov izimga qaytmoqchi edim. Lekin qizi meni ko'rib suyunib ketdi, keyin, oyimning sizda gaplari bor ekan, deb qoldi.

Gurullab yonayotgan pechka oldida bir soatcha gaplashib o'tirdik. Qarag'ay o'tinning taftidan xona ichi issiq edi.

Bemor asli istanbullik bo'lib, yoshi qirq beshlarga chiqqan, asabi chatoq, injiq bir xotin ekan. Garchi kechagidan ancha tuzalib qolgan bo'lsa ham, hamon behol, xuddi hushdan ketgan odamday dam-badam ko'zini yumib oladi.

Polkovnik eri iste'foga chiqqan bo'lib, hozir Beylerbey<sup>1</sup>-da turisharkan. Bir oycha burun qattiq yaralangan o'g'lini ko'rib kelish uchun qizi bilan Izmirga borgan ekan. O'g'li to'pchi leytenant ekan. Chashma<sup>2</sup> bo'sag'asidagi jangda ko'ksidan qattiq yaralanibdi. Keyin uni Izmirdagi gospitalga jo'natishibdi. Ikki marta operatsiya qilishibdi, ammo hayotini saqlab qolisholmabdi...

O'g'li esiga tushishi bilan bemor ko'ziga yosh oldi.

– Oh, bey afandim, Hikmat shunaqayam ajoyib bola ediki, ko'rsangiz havasingiz kelardi. Farishtaday beg'ubor edi... Meni adoyi tamom qilib ketdi...

Onasining yonida o'ychangina olovga tikilib o'tirgan qizi bo'lmaganida mehribon o'g'li haqida u yana ko'p gapirishi mumkin edi. Ammo qizi birdan seskanib, onasiga qarab yolvordi:

– Qo'ying, oyijon, yig'lamang, sizga mumkin emas!..

Bemor jim bo'lib, ko'zini yumdi. Kipriklari jiqqa ho'l edi. Gapni darrov ob-havoga burdim.

– Bu yerdan qachon ketarkinmiz?– deb so'radi qizi. Ismini ham bilib oldim – Ra'no ekan.

– Agar Ibrohimning gapi to'g'ri chiqsa, uch-to'rt kun shu yerda qolishga to'g'ri keladi. Poyezdga yetib olish qiyin. Yo'lni qor bosgan, yurib bo'lmaydi...

Buni eshitib, Ra'no juda xafa bo'ldi. Men qo'limdan kelganicha uni yupatgan bo'ldim.

– Shuniyam o'ylaysizmi? Omadimiz bor ekan. Yaxshi qishloqqa tushdik, odamlari mehmondo'st ekan. Uch-to'rt kundan keyin qorlar erib, yo'l ochiladi, xonim afandim ham ungacha ancha o'zlariga kelib qoladilar. Kechagi mashmashalardan keyin u kishi yotib dam olishlari kerak, menga qolsa, poyezd jo'nab ketsa ham bu yerdan jilmaslik kerak. Agar biror narsa lozim bo'lsa, menga aytavering, xizimatingizga tayyorman.

Shu payt bexosdan ona-bola bir-birlariga qarab olishdi, bular yordam bermoqchi bo'lganimni boshqa ma'noda tushunishlari mumkin, degan xayoldan o'zim qo'rqib ketdim.

<sup>1</sup> **Beylerbey** – Istanbul yaqinidagi joy, Bosforning Osiyo tomonidagi sohilida.

<sup>2</sup> **Chashma** – Egey dengizidagi shahar.

– Mening dadam ham harbiy boʻlganlar. Bir-birimizga yordam bersak, savob boʻladi, – dedim oʻzimni oqlamoqchi boʻlganday.

Ona-bolaning yurish-turishi va gap-soʻzidan koʻrinib turibdiki, bular ancha tag-taxtli, oʻziga toʻq oiladan. Raʼno yigirmaga, nari borsa yigirma ikkilarga chiqqan boʻlishi kerak. Lekin u shu qadar nozik-nihol, moviy koʻzlari shu qadar begʻubor ediki, koʻrgan odam uni bemalol yosh bola deb oʻylardi.

Gaplashib oʻtirganimizda Ibrohim kelib qoldi. Poyezdda qorovullardan boʻlak hech kim qolmabdi. Yoʻlovchilarning koʻpi ot-ulov topib, Ushoqqa ketibdi, qolganlari esa biz turgan qishloqqa tushishibdi...

### 43

Mana shu kichkinagina qishloqchada oʻn bir kun qolib ketdik. Qishloq xuddi bepoyon okean bagʻriga singib ketgan, kimsasiz orolga oʻxshab butun olamdan ajralib qolgan deysiz. Oʻsha kungi qorboʻrondan keyin shunaqayam kuchgʻayratga toʻlib ketdimki, nazarimda, bunaqa bahorni umrimda hech koʻrmaganman. Mana sharmanda, deb peshanasiga tamgʻa bosilgan Iffat emasman endi. Bu qishloqda hamma meni hurmat qiladi, yaratgandan, halollik va rostgoʻylikdan soʻz ochadigan boʻlsam, meni endi hech kim kalaka qilmaydi.

Raʼno bilan onasining nazarida men Xizrga oʻxshagan odamman. Dastlabki paytlari imkon boricha oʻzimni ulardan olib qochib yurdim. Ammo nariroq borib, ikkovi menga ishonadigan, hurmatimni joyiga qoʻyadigan boʻlganlaridan keyin oʻzim ularga oʻrganib qoldim.

Qolaversa, ona-bola xuddi tugʻishganday, meni koʻrmasa turolmaydigan boʻlib qoldi.

Bir kuni ertalab odatim bo'yicha ulardan xabar olgani kirdim. Ra'noga ko'zim tushishi bilan yana bir nimadan xafa bo'lganini sezdim: rangi quv o'chgan, yig'idan ko'zi qizargan.

Onasi mudrab yotgan ekan. Ra'no onasining boshidagi ro'molni to'g'rilab, to'zib yotgan sochlarini berkitdi. Keyin meni pechkaga yaqinroq o'tirishga taklif qildi.

– Oyim tuni bilan mijja qoqqanlari yo'q, – dedi u zorlanib. – Biram qo'rqib ketdimki, yig'lamay desam kuchim yetmaydi, yosh qurg'ur o'zi oqib kelaveradi.

Odatdagidek tasalli berdim:

– Xudo xohlasa, shifo topib ketadilar... Uyqusizlik bo'ladigan gap, buning xatarli joyi yo'q... Oyingizning asablari chatoq... Ko'pincha hushdan ketib qoladilar, deb o'zingiz aytdingiz-ku...

– Ha, shunaqa, – dedi Ra'no hamon onasidan ko'zini uzmay. – Lekin o'zimga kuchim yetmasa, nima qilay axir?.. Kechasi bilan chiyabo'rilar uvullab chiqdi, biram o'takamni yorishdiki...

– Iya, yosh bola ekansiz-ku,– dedim jilmayib. – Chiyabo'ridan qo'rqib o'tiribsizmi hali?

Ra'no kulimsirab qo'ydi.

– Unchalik qo'rqqanim yo'g'-u, lekin, Xudo ko'rsatmasin, oyim og'irlashib qolsalar, yolg'iz tashlab ketamanmi, deb vahm qildim...– Axir dunyoning bir chekkasida bo'lsak... Bu yerdan na doktor, na dori topib bo'ladi...

– Shungayam shunchalik tashvishmi, – dedim vazminlik bilan. – Xudo ko'rsatmasin-u, lekin, mabodo bir nima bo'lsa, ot topib, Ushoqqa o'zim borib kelaman. Ko'nglim xotirjam bo'lsin desangiz hoziroq borib kelishim mumkin. Xo'sh, nima deysiz, Ibrohim bilan bugun shaharga tushib chiqaylikmi?

Ra'noning ko'zi yashnab ketdi.

– Rahmat... Hozir bunga ehtiyoj yo'q. Umuman ehtiyoj bo'lmasa kerak... Siz menga dalda bo'lyapsiz, ruhimni

ko'taryapsiz...Bu qilgan yaxshiliklaringizni qandoq qaytaraman, bilmadim.

– Agar shu gapingiz rost bo'lsa, oldin o'zingizni qo'lga oling, endi hecham yig'lamayman, deb menga so'z bering.

– Endi yig'lamayman, deb o'zinga so'z berganman, afandim. Oyimni eson-omon Istanbulga olib borgunga qadar sabr-qanoatli, og'ir bo'lishga qarakat qilaman. Bir amallab Istanbulga yetib olsak bo'ldiydi!.. Oyimni dadam bilan xolamga topshirib, xonani ichidan berkitib olaman-da, to'yib-to'yib yig'layman... Bir haftaligini bitta qilib...

Ra'no tizzaga qo'ygan qo'llarini bir-biriga chandigan holda pechka yonida olovga tiqilib o'tirgan edi. Kipriklarida beixtiyor yosh miltilladi. Gapini to'xtatib, yalt etib menga o'girilib qaradi. Dilida bor gaplarni menga to'kib solmoqchi bo'lganini sezdim.

U bir me'yorda nafas olayotgan onasiga quloq tutdi, uxlab qolganiga qanoat hosil qilgach, hikoyasini boshladi:

– Hikmat akamni men oyimdan ham yaxshi ko'rardim. Ukam qizamiq chiqib o'lganidan keyin oyimning halovati buzildi. Oyim juda-juda mehribon edi, bizlarni yer-u ko'kka ishonmasdi. Hikmatni sira-sira askarlikka o'qitmoqchi emas edilar. Lekin dadamizning fikri boshqacha edi. „Askar odamning farzandi uchun yagona kasb – harbiy xizmat“, – derdi dadam. Hikmatga ham ma'qul tushdi bu gap. Urushdan oldin u Anadolukavak<sup>1</sup>da to'pchi ofitser bo'lib xizmat qilardi, urush boshlanganidan keyin Chashma atrofidagi dala batareyasiga jo'nadi. Oyim halovatini yo'qotib qo'ydi. Na dadamning gapi ta'sir qiladi unga, na meniki. Men ham kecha-kunduz akamni o'ylayman-u, ammo oyim boyoqish ich-ichidan kuyib ketdi. Oradan bir yilcha o'tdi. Akamdan xat-xabar kelmay qo'ydi. Oyim kechalari yig'lab chiqdi. Bir kuni oxiri: „Harbiy vazirlikka borib uchrayman, o'g'linga nima bo'lganini bilib kelaman“, deb qoldi. Dadam rozilik bermadi. Oyimni uch kungacha yubormay turdik. To'rtinchi kuni o'zim ham chiday olmadim. „Meniyam yuragim g'ash bo'lyapti. Borib, nima gapligini bilib kelsak bo'lar axir... Bu-

<sup>1</sup> **Anadolukavak** – Bosfordagi joyning nomi, Qora dengizga chiqave-rishdagi qal'a.

ning noqulay joyi yo'q-ku", - dedim dadamga. Dadam g'a-latiroq bo'lib menga bir qarab qo'ydi-da, ko'zini chetga oldi. „Hikmatdan xat kelgan, Ra'no, lekin...“

Dadamning gapi chala qoldi - chinqirib yubordim. Xayriyat, dadam darhol qo'li bilan og'zimni yumdi.

„Qo'rqma! Vahima qiladigan joyi yo'q... Aks holda o'zi xat yozmagan bo'lardi... Oxirgi jangda yengil yaralanibdi, hozir Izmiridagi gospitalda yotganmish... Yarasi yengilga o'xshaydi, xatniyam o'zi yozibdi-ku...“

Dadamning gapiga ishonmay, hamon yig'lab turibman. Shundan keyin u ikkita konvert olib, menga uzatdi. Birinchi xatida Hikmat yarasi yengil ekanini aytgan bo'lsa, ikkinchisida shifokorlar kichikroq operatsiya qilmasa bo'lmaydi, deyishyapti, deb yozibdi. „Oyim bilan Ra'noga buni aytmay qo'ya qoling, - debdi u xatining oxirida. - Tag'in xavotir olib o'tirishmasin...“

Dadam, „Hikmat yarador bo'lganini oyingga aytmayсан“, deb turib oldi. Lekin men yotig'i bilan tushuntirdim. „Aytmay bo'ladimi, dada? Axir unga nima bo'lganini durustroq bilmaymiz-ku. Oyim hamma gapni bilishlari kerak. Xudo ko'rsatmasin-u, mabodo akamga bir nima bo'lsa, oyimning ikki qo'li yoqamizda bo'ladi“, - dedim. Dadam ikkovimiz bir amallab oyimga xat kelganini aytdik.

„Agar o'g'limni ko'rmasam, jinni bo'lib qolaman. Hoziroq Izmirga jo'nashim kerak!“ - oyim shunday deb turib oldi. Dadam ham noiloj rozi bo'ldi. Yaqinda dadamning bod kasali tutib qolgan edi, shuning uchun u biz bilan borolmadi. Oyim bilan Izmirga jo'nadik. Tanish bir ofitser bizga hamroh bo'ldi.

Borganimiz juda yaxshi bo'ldi-da! Akam ko'ksidan og'ir yaralangan ekan. Ikki marta operatsiya qilishibdi-yu, lekin ahvoli yengillashmabdi. Biz borsak, Hikmat og'ir yotgan ekan. Bizni zo'rg'a tanidi. Ikki kecha-yu ikki kunduz tepasida o'tirib chiqdik. Xudoning o'zi bizga sabr-qanoat berdi: ko'z yoshi qilsak palatadan haydab chiqarishadi, degan andishada hatto yig'lamadik ham. Uchinchi kuni ertalab bizni baribir chiqarib yuborishdi. Hikmatni uchinchi marta operatsiya qilamiz, deyishdi. Keyin uni qaytib ko'rmadik.

Bir ofitserning uyida turdik. Bizni qo'yarda-qo'ymay o'sha yerga joylab qo'yishdi... Akamning o'limi meni ezib yubordi, buning ustiga oyim ham qattiq yotib qoldi, mendan boshqa qaraydigan hech kim yo'q. Ahvolini o'zingiz ko'rib turibsiz. Qoqsuyak bo'lib qolgan. Oyim bir hafta shiftga qarab yotdi. Gap-so'z yo'q. Keyin ancha o'ziga kelib qolgan edi, tezroq yo'lga chiqa qolaylik, dedik. Kutilmaganda bu falokat yuz berdi. Agar siz bo'lmaganingizda, bilmadim, holimiz nima kechardi.

Ra'no gap orasida o'pkasini bosolmay, bir-ikki marta ko'z yoshi ham qilib oldi. Hozir-chi, hozir uning mehr to'la moviy ko'zlari pechkadagi cho'g'ning qip-qizil yo'lqinidan sho'x-sho'x boqqanday, qarashini aytmaysizmi, qanchalik latif va beg'ubor-a! Men ko'pdan beri xuddi shunaqa musaffo, xuddi shunaqa fidoyi muhabbatga mushtoq edim. Bolalik yillarimdan beri men uni dilimda avaylab keldim, rosa orziqib kutdim...

Darvoqe, xayol kishini qayerlarga olib qochmaydi deysiz... Ra'noning aslida onasidan boshqa tashvishi yo'q. Unga onasi sog'ayib ketsa bas.

O'rnimizdan turgan edik, u chuqur xo'rsinib, ko'nglini ochdi:

- Yo'q, bu alamga men chiday olmasam kerak. Akamning dog'i kun sayin zo'rayadi. Bu yoqda dadam qarib qolgan, oyim kasal. Yaqin orada ikkovidan ajrab qolmasam deb qo'rqaman... Dunyo bevafo degani shu ekan-da!.. Eng mehribon odamlarning birin-ketin seni tashlab ketaversa, bundan bu yog'iga yashashning nima hojati bor?..

Bu sodda va sofdil qiz boshiga qanchalik og'ir musibat tushganini endi fahmlab, to o'la-o'lguncha akamga motam tutib yuraman, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak. Har qanday jarohatga o'xshab yurakdagi bu yara ham bora-bora batamom bitib ketishidan u boyoqishning xabari yo'q.

Qiz bechoraning o'rtanib yotgan yuragiga qo'limdan kelganicha taskin berishga harakat qildim. Uning ko'nglini ko'tarish uchun nimalar qilmadim deysiz: hamisha shodon bo'lishga urinib ko'rdim, unga shunaqayam to'lib-toshib nasihatlar qildimki, ba'zan o'zimning gapimga o'zim ishonib ketardim.



Tez orada u bilan do'stlashib ketdim. Ra'no menga tug'ishgan singilday bo'lib qoldi. Unga mehrim tovlanib, o'rganib qoldim. Onasi ancha tuzalib qolgach, uy oldidagi bog'da birgalashib sayr qiladigan bo'ldik.

Bemor kundan kunga sog'aya bordi. Havo ham yurishib ketdi. Bir kuni erta bilan aravaga ho'kizni qo'shib, qishloqdan chiqdik va bekatga yetib oldik.

\* \* \*

Istanbulga kelgach, ona-bolani uylarigacha kuzatib qo'ydim. Ikkovi meni qo'yarda-qo'ymay olib qolishdi. Ra'noning otasi bag'rikeng, juda shinavanda odam ekan. Men bilan xuddi qadrdonlarday ko'rishdi.

Bu oilaga, aniqrog'i Ra'noga qanchalik o'rganib qolganimni ketayotib bildim. Ertalab Ra'no bilan anchagacha gaplashib o'tirdik. Vidolashuvdan u ham xafa, sezib turibman. Tez-tez kelib turing, deb iltimos qildi. Lekin hamma-sidan ham ko'ziga sizib chiqqan yosh menga ko'p narsani aytganday bo'ldi. Yo'q, kim bo'lishidan qat'i nazar – xoh yo'lda tanishib qolgan hamrohí bo'lsin, xoh yaqin biror odami bo'lsin – unga nisbatan yuragida uyg'ongan xayrixohlik yoki fikriy mushtaraklikning ifodasi bunaqa bo'lmaydi. Bundan atigi uch- to'rt kun oldin qalbimda uyg'ongan umid uchquni endi ishonchga aylandi: Ra'noning menda ko'ngli bor. Buni o'zi ham hali unchalik bilmasa kerak.

Mening haqimda esa gap ham bo'lishi mumkin emas. O'sha qishloqda, uning boshiga tushgan tashvishlarni og'zidan tinglab, pechkadagi o'tning yolqinidan sehrga to'lgan moviy ko'zlariga tikilib o'tirganimdayoq bu qizni sevib qolganimni sezgan edim...

Har qancha urinmay, Vodiyaga bo'lgan muhabbatimni asrab qololmadim. Shu yillar ichida boshimga tushgan qiyinchilik va ruhiy azoblar meni undan sovitib yubordi – bir vaqtlari menga aziz bo'lgan ayolning siymosi butkul xira tortdi. O'sha olis qishloqdayoq bir orzum bor edi. Qani endi shu nozik-nihol qizning ko'nglini olsam. Unga butun hayo-

timni bag'ishlashga tayyor edim. Endi bitta oilani boqishga qurbim yetadi, binobarin, tag-taxtli oiladan qiz olishim mumkin, deb o'ylardim. Ammo bularning hammasi puch xayollar edi... Yana Istanbulga kelishim bilanoq ular sarobday tarqab ketdi. Istanbul degan joyda men otning qashqasiday ma'lum ekanim, peshanamda o'g'ri degan tamg'a borligi nahot esimdan chiqqan bo'lsa?..

Ra'noga o'xshagan qizga og'iz solish u yoqda tursin, hatto uni xayol qilishga ham haqqim yo'q. U bilan uchrashish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Unga nisbatan insofsizlik qilgan bo'laman. Qanday odam bo'lganimni bir kunmas bir kun tasodifan eshitib qolishi mumkin-ku, axir... Shunday og'ir paytda yordam qo'lini cho'zgan saxovatli odam aslida o'g'ri ekanini bilib qolishsa, bu oila a'zolari hayratdan yoqa ushlab qolishini oldindan bilaman!

Garchi Ra'noga kelib turaman, deb va'da qilgan bo'lsam ham otasining shu gapi sira-sira qulog'imdan ketmaydi. „Endigina hayot ostonasiga qadam bosgan o'g'limning qazosi belimni bukib qo'ydi, Iffatbey. Ammo bundan yomon kulfat ham bo'larkan. Yon qo'shnimizning bir o'g'li bor. Yoshi o'ttizda-yu, ikki marta qamalib chiqqan. Sho'ring qurg'ur otasiga rahmim keladi, mendan ham baxtiqaro ekan...“

Ra'no meni eshikkacha kuzatib chiqdi.

– Demak, sizni kutamiz-a! Uch kundan keyin kelasiz!.. Konyaga jo'nashdan oldin biznikiga albatta kelasiz. Kutaman!..

Garchi u bilan endi hecham ko'risholmasligimni aniq bilsam ham:

– Albatta!.. Uch kundan keyin kelaman! – deb javob berdim.

## 44

Uzoq qishloqchada ro'y bergan voqea qalbidam bir umr o'chmas iz qoldirib ketgan ekan. Oradan qancha kun, qancha oy o'tgan bo'lsa ham, Ra'no sira xayolimdan ketmadi. Aksincha, ishqim kun sayin zo'rayib bordi. Birinchi muhabbatim hatto esimga ham kelmaydi. Hamisha fikr-xayo-

limda Ra'no. Safarda yurgan kezlarimda nuqul o'shani o'ylayman, shu bilan tirikman. Uni qayta ko'rish menga endi nasib qilmasligini bilsam-da, turli xayollarga berilib ketaman. Orzu qanotida tug'ilgan muhabbatim shu tariqa chinakam romanga aylana bordi - o'zim poyezdda chayqalib ketayotgan bo'lsam ham, goh xuddi yozuvchilarga o'xshab muhabbatnomaning yangi-yangi boblarini yarataman, goh yangi-yangi tafsilotlar to'qib, qahramonlarimni g'aroyib ishlarga undayman...

Ra'noga bo'lgan his-tuyg'ularimning o'zi kifoya qilganida bunchalik alam qilmasdi. Mening romanim fojia bilan tugaydi: biror kimsa meni sevib qolishiga ishonmay qo'ydim, orzu-umidlarimdan butunlay voz kechdim. Shunga imonim komilki, muhabbat zamirida dastlab insonga ishonch yotadi, sevgan odaming har jihatdan pokiza bo'lishi kerak. Xo'sh, men-chi, men kimman? Mening nimamdan ibrat olish mumkin? Bir paqirga arzimaydigan, pastkash bir odamman, xolos... Yo'ltosar qaroqchilarga havas qilsa bo'ladi - har holda ularning hunarida bir fayz bor!.. Xo'sh, kechasi birovlarning uyiga biqinib kirib, politsiyaning qo'liga tushgan o'g'rivoy-chi? Hamma uni masxara qiladi, ustidan kuladi, xolos. O'shanaqa odamni birov sevishi mumkinmi? Yo'q, men muhabbatimdan, oila qurib, bola-chaqali bo'larman degan orzularimdan butkul voz kechishim kerak. Shundoq ekan, endi har qadamda ishq daftarini ochib, istagancha kayf-safo qilib o'zimni ovutib yurishdan bo'lak ilojim yo'q...

\*\*\*

Bir safar Istanbulga yana yo'lim tushganda, Mahmud afandini ko'rib ketmoqchi bo'ldim. Keksa ustozimning ahvoli yomon ekan: kasal oyoqlari shalvirab, qo'li ishlamay qolibdi, tili ham zo'rg'a aylanardi. Kampiri olamdan o'tganiga yarim yilcha bo'lgan ekan, hozir kelini bilan turarkan. Holi juda xarob. Kelini boyoqish bo'ydoqlarning kir-chiriga qarab, kiyimini yamab, topgan puliga ro'zg'or tebratar-kan. Yosh bolasini yetimxonaga beribdi, erta-yu kech xayoli o'shandamish. O'zi menga ko'nglini ochgan bo'ldi:

– Agar muhtojlik sillamni quritmaganda o‘z farzandimni bag‘rimdan yulib berarmidim. Bir amallab o‘zim katta qilardim. Ilojim bo‘lmasa nima qilay? Dadam yosh bolaga o‘xshab qolganlar. Hecham yolg‘iz qoldirib bo‘lmaydi. Eslari kirdi-chiqdi bo‘lib qolgan, qo‘ni- qo‘shni chiqsa, tanimaydilar...

Mahmud afandi meni tanidi. Lekin ko‘zlariga ishonmaganday, titroq bosgan nimjon barmoqlari bilan soch-betimni paypaslab ko‘rdi, keyin yosh boladay ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Quvvatdan qolgan, dardmand cholning kundalik hayot bilan ishi yo‘q. U boshqa olamga hijrat qilibdi-yu, ammo o‘tmishni juda yaxshi eslaydi. Chol oftobda charaqlab yotgan olis ufqlarga nigoh tashlamoqchi bo‘lganday ko‘zlarini qisib, mayda-chuyda tafsilotlari bilan eski voqealardan gapirib berdi.

Kechgacha yonidan jilmay o‘tirdim. Menga sira javob bergisi kelmadi. Ochig‘i, o‘zimning ham ketgim yo‘q edi.

Bundan ancha yillar burun – o‘shanda o‘n olti yoshlarda edim chamasi – qish paytida Domlajiqdagi ammamnikiga bir borgan edim. Hamma yoqni qor bosgan. Men bu joylarni nuqul oftobda charaqlab yotgan holatda ko‘rishga odatlanib qolganim uchunmi, har holda o‘shanda bu manzara yuragimni siqib yuborgan edi. Mana hozir ham Mahmud afandi bilan o‘tgan kunlarni eslashib o‘tirib, yana yuragimni hazin tuyg‘ular chulg‘ab oldi. Mahmud afandi olamdan o‘tsa, o‘tmishning so‘nggi xotirotlari ham abadiy yo‘qoladi...

Ko‘chaga chiqqanimda qorong‘i tushib qolgan edi. Bugun dam olish kuni, fayzli oqshom. Tramvayning Fotih bekatingacha yayov bordim. Nimagadir to‘satdan Oqsaroyda o‘t tushib yonib ketgan ko‘shkimizni, umuman o‘sha joylarni ko‘rgim kelib qoldi. Mana shunaqa sokin paytlarda tanish xarobazorni borib ko‘rsang, xuddi yaqin odamingning qalbinini ziyorat qilganday bo‘lasan. Men tor ko‘chaga burildim-da, bosib qolgan va yonib kul bo‘lgan xarobalarni yoqalab Oqsaroy tomonga yurdim. Yarim vayrona machitning oldidan o‘tib ketayotgan edim, qulog‘imga shovqin-suron eshitildi.

– Soat bilan uzukni topib bermaguningcha qo‘ymayman! – deb baqirardi mendan qirq qadamcha narida turgan

bir kishi. – Hozir politsiyani chaqirib, qo'liga tutqazaman, ana unda kuningni ko'rasan, o'g'rivachcha!..

Ularga yaqinroq bordim. Qandaydir bir juvonne o'g'ri deb ushlab olishibdi. Bu boyoqishning nima deganini aniq eshitolmadim-u, lekin yig'lamsirab yalinib-yolvorishidan najot tilayotganga o'xshadi.

Qadamimni sekinlatdim. Boyagi kishi yana do'q ura ketdi:

– Qani, bo'l tezroq, mochag'ar! Bo'lmasa naq sochingdan sudrab politsiyaga olib boraman! G'arlik kamlik qilib, endi o'g'rilikka o'tdingmi. Obi diydangga qarab o'tirmayman, ovora bo'lasan.

Meni ko'rib, juvonga jon kirdi, bir siltov bilan uning qo'lidan chiqib, men tomonga yugurdi. Ammo erkak bir hamlada unga yetib oldi, yelkasiga chang solib, yana qattiq siltab tortdi.

Ayol kishini himoya qilishim kerak – bu mening insonlik burchim edi, shuning uchun o'rta tushishga majbur bo'ldim.

– Nima gap o'zi, og'ayni? – deb so'radim erkakdan.

U og'i keng chalvor bilan kalta kamzul kiyib olgan, qirq yoshlardagi bir kishi ekan. Sochimdan tirnog'imgacha bir tikilib chiqqach, zarda qildi:

– Nima bo'lardi?! Manavi mochag'ar ko'zimni baqraytirib turib meni shilib ketmoqchi...

Bu odam ko'zimga ancha beg'araz va sodda ko'rindi, shuning uchun men tavakkal dildim.

– To'xta, oshnam, to'xta-chi, gapingga tushunolmay qoldim.

Shunda juvonga ham jon kirib qoldi.

– Xudo haqqi, bey afandim, men hech narsasini olganim yo'q, tuhmat qilyapti, – dedi u yig'lamsirab.

Erkak buqanikiday yo'g'on bo'ynini cho'zib, dag'dag'a qildi:

– Politsiyada oqlaysan o'zingni! Qani yur tezroq! Bo'l, qonimni qaynatma!..

Undan qutulishning iloji yo'qligiga ko'zi yetgan juvon zor-zor yig'lab, tappa oyog'imizga yiqildi. Uning yerda titrab-qaqshab yotgan nimjon gavdasini ko'rib, yuragim battar ezilib ketdi.

–Menga qara, oshnam, – dedim yana oraga tushib, – balki aybi unchalik katta emasdir, qo‘yib yubora qol endi!..

–Nega qo‘yib yuborarkanman? Yo‘q, oshnam, bunaqalarni turmada chiritib yuborish kerak! Boplab ta‘zirini berish kerak, bo‘lmasa bu mochag‘ar yana birorta odamni shilib ketadi!.. Nima bo‘ldi degin?! Do‘konimda o‘tirgan edim, bir mahal o‘zi kelib, ko‘zini suzib qoldi. Bunaqaligini men qayoqdan bilay?! Ko‘rinishi binoyiday... Kechqurun yong‘oq olish bahonasi bilan do‘konimga kirdi. O‘zi gap tashlab, qichiq qildi. Men nima qilay?! O‘zi suykalganidan keyin yo‘q deb bo‘ladimi?.. Do‘konning orqasida, hovlida omborcha bor, mollarim o‘sha yerda turadi. „Omborga kirib tur, hozir do‘konni yopib boraman“, dedim. Ochiq qoldirsam, bitta-yarimtasi kelib qolishi mumkin-da. Xullas, do‘konni yopib, omborga kirdim. Kirdim-u, tokchadagi soat bilan uzugim yo‘q bo‘lib qolganini sezdim. Darrov o‘marganda mochag‘ar... Xayriyatki, boshqa narsa yo‘q edi...

Juvon alamiga chidayolmay, ho‘ngrab yubordi.

– Men o‘g‘irlik qilganim yo‘d! Hech narsa yo‘q edi. U yana bir nima demoqchi bo‘lgan edi, do‘kondor to‘qmoqday mushtini ko‘tarib, o‘shqirib berdi:

– Ovozingni o‘chir, fohisha!.. Qo‘limni bulg‘agim yo‘q, bo‘lmasa hozir dabdala qilib tashlardim! Qani, qamoqda besh-o‘n kun o‘tirib chiqqin, ko‘zing moshday ochiladi, shaltoq o‘g‘ri!..

Juvon qo‘rqib ketganidan qo‘llari bilan yuzini berkitgan-cha, bo‘ynini xam qilib, unga ergashdi. Hayvonsifat do‘kondor bu boyoqishni qanchalik xor-zor qilayotganini, juvonning eski ro‘mol yopgan nimjon yelkari yig‘idan qanchalik titrab-qaqshayotganini ko‘rish ham og‘ir, ham ayanchli edi.

Do‘kondor bilan uning bandisi borgan sari mendan yiroqlashyapti. Juvon bechora tosh yo‘ldan qoqila-suqila, bo‘ynini egib, uning ortidan ketyapti. Juvonning orqasidan qarab turdim. Oyog‘idagi eski tuflisiga, qiyshayib ketgan poshnasiga ko‘zim tushdi. Shunda beixtiyor xayolga cho‘mdim:

„Bu juvon boyoqish nari borsa yigirma beshlarga chiqqan bo‘lsa kerak. Hali yosh. Ammo bunaqa turmush yoshni ham

yarim yilda qarimsiq qilib qo'yadi. Ra'noga o'xshab bu juvon ham durustgina oilaning qizidir balki? Kim biladi, balki akasi urushda halok bo'lgandir, qari, dardmand onasi bilan jajji ukalari, opam qachon non olib keladi, deb mo'ltirab o'tirishgandir. Muhtojlik uni yomon yo'lga boshlagan. Sho'rlik qiz! Tanlagan hunarining sir-asrorini hali o'rganib olmagan bo'lsa kerak? Ko'zga surma qo'yib, ikki betini qizartirib, labga surtadiganini surtib, muyulishga chiqib tursam bo'ldi, qo'li ochiq, puldor amakilar kelaveradi, deb o'ylagan bo'lsa kerak-da... Voy laqma-yey! Shubhasiz, u ablah odamlarga uchragan, mana endi ovloq joylarda, pastqam ko'chalarda tentirashga majbur. Qanchalik tuban ketganini o'zi tushunarmikin? U boyoqish nega faryod qilyapti? O'sha hayvondan qo'rqqani uchunmi? Yoki politsiyadan yurak oldirib qo'rganmikini? Balki u osuda bolalik yillarini qo'msayotgandir-a?.. Yoki bo'lmasa mamlakatining, oilasining baxt-saodati yo'lida urushda qurbon bo'lgan akalari esiga tushdimikin? Kim biladi deysiz, bunday xatarli yo'lga kirishining balki boshda sababi ham bordir. Ehtimol, u biror yigit bilan don olishib yurgan, ikkovi shirin turmush quramiz, deb ahd-paymon qilishgan, ammo yigit boyoqish kutilmaganda halok bo'lgan yoki o'lgandir..."

Birpasda katta bir roman to'qib tashladim, buning rostligiga o'zim ham ishonдим. Do'kondor bilan juvon muyulishga yetganida miyamga yarq etib bir fikr keldi. Shuni hoziroq amalga oshirmasam aynib qolishim mumkin, degan xayolda ularning orqasidan yugurdim. Ikkovini quvib yetgach, shartta do'kondorning yengidan tortdim.

- Menga qara, oshnam, qanchaga zarari tegdi buning? - dedim dabdurustdan.

- Kamida besh pattaga...

- Shu arzimagan besh pattani deb sho'ring qurg'urni politsiyaga olib ketyapsanmi? O'zing o'ylab ko'rgin axir, insofdanmi shu? Olib borsang, qamashadi, qora ro'yxatga tirkab qo'yishadi, keyin bu boyoqish umr bo'yi yomonotliq bo'lib yuradi!..

Do'kondor menga g'ijinib qarab qo'ydi. Vajohatidan sezdimki, hozir: „Bor, oshnam, yo'lingdan qolma. Sen birov-

ning ishiga aralashma“, deb qoladi. Shuning uchun shosha-pisha:

– O‘sha pulingni men bera qolay, Xudo xayringni bersin, qo‘yib yubor buni, – dedim,

Do‘kondor baqrayib qoldi.

– Sening kiming bo‘ladi?

– Hech kimim. Faqat savob uchun qilyapman. Shunisi ham borki, uni politsiyaga tutib berganing bilan pulingni undirib ololmaysan.

– Bu gaping to‘g‘ri. Lekin judayam qonimni qaynatib yubordi-da...

– Gunohidan o‘taqol endi, og‘ayni... Seni duo qilib yuradi... Ikkovimiz savobga qolamiz...

Do‘kondor o‘ylanib qoldi. Har holda mendan pul olishga andisha qilayotganga o‘xshadi. Men unga dalda bergan bo‘ldim. Shundan keyingina u ko‘zini chetga olib: – Ha, mayli!.. Seni o‘la-o‘lguncha duo qiladigan bo‘ldi! – deb g‘o‘ldiradi.

Do‘kondor shosha-pisha pulni olib, ko‘zimga tik qarashga ham botinolmay, jo‘nab qoldi.

## 45

Juvon iymanibroq menga minnatdorchilik bildirdi, keyin orqasiga qayrilib, tramvay yo‘lidan Boyazid maydoniga qarab yurib ketdi.

Negadir men ham Boyazid tomonga burildim va undan o‘ttiz qadamcha orqada, qorama-qora ketaverdim. Yonimizdan fabrika ishchilari, chorbozorchi savdogarlar o‘tib turishibdi. Lekin hammalari ham tirsagi bilan uni turtib yoki gap tashlab, tegajog‘lik qilmoqchi bo‘lishadi. Ko‘k kamzul kiygan bir yigit juvonning yuzidagi ro‘molni tortib ham ko‘rdi...

O‘zim qorama-qora ketyapman-u, ichimda yana boyagi romanimni to‘qib boryapman. Romanimning qahramoni yana shu juvonning o‘zi.

„Qiz boyoqishning boshiga tushgan ta‘na va malomatlarning cheki bormikin? Hammadan nafrat qilsa kerak u!.. Endigina boshi bir tashvishdan qutulganida yana yo‘ldan



urmoqchi bo'lishadi. Uy-joyi bormikin o'zi? Balki yotadigan joyi ham yo'qdir? Yoki bir burda non topib yeyish uchun yangi mijozga, boshqa bir do'kondorga yalinarmikin?.. Shu topda ko'ngliga hech narsa sig'masa kerak! Yomon yo'lga kirib ketgan xotinning insoniy tuyg'ular bilan ishi yo'q, balki bunaqa narsalarni u butunlay unutib yuborgandir ham... Lekin, nima bo'lsa ham, u muhabbat gadosi, baxt gadosi emas-mikin?! Mana shunaqa sokin oqshom paytlarida yolg'izlik, ayolmandlik ayniqsa bilinadi. Shu topda birov uning oldiga borib: „Men seni o'z bag'ringa olaman. Bunday tirikchilikdan qutulasan“, deb aytsa, rosa hayron bo'lsa kerak. Xo'sh, shu ishni men qilsam-chi?..“

Shu fikr boshqa payt xayolimga kelganida buni bolalik yoki tentaklik deb bilgan bo'lardim, albatta. Ammo kechki havo, birin-ketin yoqilgan fonuslar, sukunat hamda oldinda lipillab ketayotgan ayol sharpasi butkul xayolimni olib qochdi. Shu fikr endi menga tinchlik bermay qo'ydi.

„Bu telbalik bo'ladi, albatta, – o'zimcha o'yladim, – lekin oliyjanob telbalik!! Shubhasiz, buni eshitib u hayron bo'ladi, meni Xudoning o'zi yuborgan najotkorim deb o'ylaydi. Baxti chopgan odamga yaxshilik qilish har kimning ham qo'lidan kelaveradi! Ammo kulfatda qolgan biror kimsaning boshini silab, unga yordam berishlik – bu boshqa gap, har qanday tahsinga loyiq oliyjanoblik bu!.. Bundan faqat o'zimga foyda. Hamma o'g'ri deb menga ola qarab yurgan bir paytda bu juvon meni boshiga ko'tarib, izzat qiladi. Uning o'zi ham o'g'irlik ko'chasiga kirib chiqqan bo'lsa kerak, binobarin, bir marta qoqilgan odamni sen undoqsan, sen bundoqsan, deb yuziga solavermay, ba'zan suyab, hadeb urib-so'kavermay, iloji boricha uning ko'nglini olish kerakligini o'zi bir necha marta sinab ko'rgan bo'lishi kerak. Bu ayolni men o'z qanotimga olaman, biror tinchroq mahalladan kichikroq uy topaman, ana o'shanda u menga sirdosh do'st va mahbuba bo'lib qoladi...“

Agar shu topda u biror ko'chaga burilganida yoki ko'cha yuzida odam ko'p bo'lganida bu niyatim odatdagiday ichimda qolib ketaverardi. Lekin kutilmaganda u simyog'och tagida to'xtab, tufllisini bog'lab olish maqsadida engashdi.

Boshqa ilojim qolmagan edi – unga yetib olgach, qadamimni sekinlatdim. Xira fonus nurida ko'zimga u chiroyli ko'rinib ketdi: istarasi issiqqina, beozor juvonga o'xshaydi.

– Qaysi tomonga borasiz? – dedim jo'rttaga salmoqlanib.

– Boyazid maydoniga, – javob berdi u o'ylab o'tirmay.

– Nima, o'sha yerda turasizmi?

– Yo'q, dugonam turadi... Agar u uyida bo'lsa, yotib qolaman.

Yonma-yon ketyapmiz. Gapga gap qovushmadi, nima deyish kerakligini o'zim ham bilmayman.

– Menga qarang, ketdik biznikiga! – deb yubordim qo'q-qisdan. Bu gapim unga ham, o'zimga ham tomdan tarasha tushganday bo'ldi.

Bu taklifim unga qattiq botadi yoki cho'chitib yuboradi, deb o'ylovdim. Biroq u zarracha parvo ham qilgani yo'q.

– Joyingiz bormi o'zi?

– Beyo'g'lida mehmonxonada turaman. Hozir izvosh olamiz.

– Qanaqa joy o'zi, musulmon xotinlarni kiritishadimi?

– Ajnabiylarnikiga o'xshamaydi har holda.

– Unday bo'lsa yaxshi. Tag'in qo'lga tushib o'tirmaylik. Yomg'irdan qutulib qorga uchraganday...

Har holda mendan xijolat tortib, biroz andisha qilsa kerak, deb o'ylab turgandim. Bu behayoligi darrov nafsoniyatimga tegdi. Ammo izvoshga o'tirishimiz bilan kutilmagan bu sarguzasht davosi meni mast qildi va shu ondayoq ko'ngil g'ashligi tarqab ketdi.

Boyazid maydonini kesib o'tayotgan edik, o'zi gap boshlab qoldi.

– Doim aksiga oladi. Esiz, esiz, bugun kechqurun Beyo'g'luga borishimni bilganimda yangiroq chodra yopinib, amirkon tufligimni kiyib chiqqan bo'lardim-a.

Hayron bo'lib unga qaradim.

– Fotih tomonda oqsoch kampirimiz turadi. Ko'rgani boruvdim. Yo'lda tinchroq ketay deb eski-tuskilarni kiyib oldim. Shunday qilmasam, begona kishilar o'z holimga qo'yishmaydi. Sal durustroq kiyinib chiqsang pashshaday xira bo'lishadi... Faqat gap otib ketadigan bo'lsa go'rga-ya...

Nuqul menga suykali, shu tarzda goh bidirlab, goh xandon tashlab kulib ketyapti. Bu rasvolikni ko'ring! Hozirgina sochini yulib yig'lab turgan odam birdan sharaqlab kulib o'tirsa-ya... Men uni bir chekkaga chiqib olib, falokatdan qutulganimga shukur, deya yum-yum yig'laydi, deb o'ylagan edim... Qayoqda deysiz! Buning o'rniga u menga oqsoch kampiri bilan yangi chodراسi haqida cho'pchak aytib o'tiribdi-ku... Balki u meni shunchaki mijozlardan biri deb o'ylayotganmikin? Agar shu gumonim to'g'ri bo'lsa, u holda yig'lab turgan bo'lsa-da, mijozni kulib qarshi olishga majbur. Kasbi undan shuni talab qiladi...

– Nima balo bo'lib men shu g'alvaga uchradi, o'zim ham hayronman, – dedi bidirlab juvon. – Bu sassiq to'ng'iz ustimdagi eski kiyimni ko'rib, ko'chada yotgan fohisha deb o'ylabdi-da? Bu yaramas eshakni boplab ta'zirini berardim-u, lekin, itga bas kelib nima qilaman, dedim... Soatimni o'g'irladi, deydi-ya... Voy ko'zing oqib tushgur-ey, sendaqa-larning o'ntasini boqishim mumkin axir... Soatimni o'g'irladi emish... Narsa olgani kiruvdim... Aslida, sassiq do'koniga qadam bosishgayam odam hazar qiladi... Borganimizda bu itga kunini ko'rsatib qo'yardim-u, lekin bizda politsiya qanaqaligi o'zingizga ma'lum. Biror ishak chiqarishadi-da, keyin baloga qolib yurasan... Hatto malaylikkayam yaramaydi bu iflos, Sho'xzoda boshida G'afforbey degan savdogar bor, eshitganmisiz?

– Yo'q.

– Juda badavlat odam. Kelishgan, ham yosh o'zi. Meni desa o'lib qoladi. Nuqul oyog'imga yiqilib: „Shu do'konim, butun bor-yo'g'im seniki, Nomiyaxonim!“ – deydi. Endi kunim o'sha sassiq sabzavotfurushga qoluvmidu? Do'konidagi sasigan moli yarim qadoq chiqadimi-yo'qmi, do'qi olamni buzadi-ya...

Bu gaplarini eshitib badanim jimirlab ketdi. Yana nimalar deb valdiragani ortiq qulog'imga kirmadi.

„Aslida bu hali go'dak, – deyman o'zimga o'zim dalda berib. – Hozir u tubanlashib ketgan, shunaqa gap-so'zlar-ga o'rganib qolgan. Men o'z fikrimdan qaytmayman aslo.

Uning qalbida sof his-tuyg'ularni uyg'otish kerak... Ijodkorning orzu-o'ylari shu juvonda qaror topsin..."

## 46

Urush yillari Taqsim maydonida bir mehmonxona bo'lguchi edi. Bu mehmonxona asli karamanlik Eftod afandi degan bir mo'ysafidga qarashli bo'lib, bu yerda, odatda, ish bilan Anatoliyadan Istanbulga kelgan savdogarlar yotib yurishardi.

Eftod afandining mehmonxonasida xuddi bozordagiga o'xshab ko'p oldi-sotdi ishlar bo'lib turardi. Ammo bu dargoh dallolchilikdan ko'ra ko'proq o'zining xufiya maishatlari bilan nom chiqargan edi. Uzoq-yaqindan poytaxtga kelib, bir aysh qilmoqchi bo'lgan noshudroq musofirlar uchun bu yerda hamisha hamma narsa muhayyo edi. Boshida salla, oppoq soqoli ko'ksiga tushgan avliyonamo adanlik savdogarning qo'yniga bugun tunda imi-jimida ikkita qizni solib qo'yishsa, qarabsizki, ertasiga kechqurun konyalik baobro' musofir sharafiga zo'r ziyofat berilardi. Bu ziyofat xonimlar ishtirokida katta o'yin-kulgi bilan o'tardi.

Eftod afandining mehmonxonasida eskidan Ligor og'a degan bir xizmatkor bo'lardi. Yoshi ellikdan oshib qolgan bu odam jamiki xufiya ishlarning mutasaddisi edi.

Ligor og'a mening bunaqa ishlarga unchalik hushim yo'qligini bilardi, shuning uchun ko'chadan allakimni boshlab kelganimni ko'rib, rosa hayron bo'ldi. Men xijolatpazlikni sezdirmaslikka harakat qilib, har xil farmoyishlar berib turibman-u, u bo'lsa ora-sira yonimdagi juvonga ko'z qirini tashlab, miyig'ida kulib qo'yadi.

Ovqat kelguncha xonaning oldidagi balkonga chiqib, Bosforni tomosha qilib o'tirishni taklif qildim.

Boyagi shavd-zavqdan endi asar ham qolmagan. Ko'nglinga gap sig'may, uning beahdisha savollariga sovuqqina qilib, til uchida javob berib o'tiribman.

– Namuncha qovog'ingdan qor yog'masa, yaxshi yigit? – deb qoldi u dabdurustdan. – O'zing boshlab kelib, yana...

Qilgan ishidan endi o'zi pushaymon bo'lyapti, degan andishaga bormasligi uchun darhol gapni burdim:

– Charchaganga o'xshayman, innankeyin, haligi mash-mashani ko'rib, ezilib ketdim. Senga achinyapman, bildingmi? Xo'sh, oting nima?

– Nomiya. Seniki-chi?

– Iffat.

– O'g'il bolaning otiyam Iffat bo'ladimi? Birinchi eshitishim.

– Menga qara, Nomiya-xonim, bunaqa turmush rosa joningga tekkan bo'lsa kerak-a?

– Nima desamikin?.. Odam har narsaga ko'nikib ketarkan.

– Hech kiming yo'qmi?

– Nega yo'q bo'larkan? Dadam viloyatda mutasarrif bo'lib ishlaydi... Xah, oti nimaydi? Esimdan chiqibdi. Izmitmi<sup>1</sup>, nima balo edi. Amakim ham bor. Juda katta savdogar, puli achib-bijib yotibdi.

Boya izvoshdagiga o'xshab yana og'iz ko'pirtirib aldasha tushib ketdi. Millioner amakisi, boy-badavlat amma-xolalari bormish.

Qo'limni yelkasiga tashlab, ko'zlariga tik qaradim-da:

– Nomiya, jonim, men sen aytgan odamlardan emasman, – dedim. – Men ham boshimdan ko'p qora kunlarni kechirganman. Och qolganman, xor-zor bo'lganman. Aybingni yuzingga solmoqchi emasman. Tortinmay gapiraver. Bilaman, sening boshingga ham ko'p kulfatlar tushgan. Shundoq emasmi axir?

Buni eshitib Nomiya sharaqlab kulib yubordi.

– Nima deb valdirayapsan o'zi, yaxshi yigit! Nima muhtojlikdan shu ko'chaga kiribmanmi? Sirayamda. O'z xohishim bilan boshlaganman, bildingmi? Dunyoga bir marta kelamiz... O'ynab qolish kerak, jonidan!

Beixtiyor kulib yubordim.

– Yana qaytarib aytaman, Nomiya, meni aldama. Ko'p qiy-nalgansan, bilaman. Masalan aytaylik, o'sha soat bilan uzukni boshingga urarmiding? Qo'ling bormasdi bu ishga, agar...

– Iye, hali shunaqami! – tutaqib ketdi u. – Bundan chiqdi, men o'g'ri ekanman-da? Qoyil-e! Shuni bilib qo'ying, agar o'g'rilik qiladigan bo'lsam, kamida bir millionni o'ma-

<sup>1</sup> Izmit – Marmar dengizidagi shahar.

rib ketardim! Ha, shunaqa! Bunaqa temir-tersak o'zimd-  
yam to'lib yotibdi...

– Yuzingga solmayman, deb aytdim-ku boya. Gapimga tushunmaganga o'xshaysan. Bunga mening haqqim yo'q, demoqchiydim. O'zim ham o'g'ri o'tganman. Men ham birovlarining molini o'g'irlaganman. Olti oy qamoqda o'tirib chiqqanman. Keyin ish qidirib rosa sarson bo'ldim, qayerga bormay, tars etib eshikni yopib qo'yishdi... Mana shunaqa gaplar, qizcha... Mendan qo'rqmasang bo'ladi, aslo tortin-  
ma...

Nomiya ko'zini shokosa qilib, hayrat bilan gapimni ting-  
lab o'tirardi.

– Sen bilan men yo'ldan adashgan, baxtiqaro odamlar-  
miz. Biz ikkovimiz ham dilimizga taskin berib, ko'nglimizni ko'taradigan shirin so'z gadosimiz. Binobarin men seni o'z himoyamga olmoqchiman. Senga biror kichikroq uy olib be-  
raman, o'sha yerda oshib-toshib bo'lmasa ham, lekin halol yashashing mumkin. Har xil qabih va beandisha odamlardan haqoratlar eshitib, ko'cha-qo'yda sanqib yurmaysan endi...

– Menga qara, jonginam, – gapimni bo'ldi qo'qqisdan u xuddi aqldan ozgan odamga tikilganday menga tikilib, – Xudo haqqi, to'g'risini ayt, kayfing oshib qoldimi o'zi?

Shu gapidan keyin yetti qavat osmonda yurgan odam tap etib yerga tushdim. Qilmoqchi bo'lgan ishim qanchalik kulgili, gap-so'zlarim qanchalik bema'ni ekanini shundagi-  
na tushundim.

„Xo'sh, nima qipti? – dedim o'zimga o'zim. – Shuncha-  
lik kallavaram ekansan, bas, bu yog'iga endi fursatni qo'l-  
dan berma, boshqalarga o'xshab aysh qilib yuraver!..“

\*\*\*

Nomiya, mendan achchig'i chiqmasin, deb qo'rqdi shekilli, goh suykilib, goh bo'ynimdan achomlab, goh iya-  
gimni silab-siypalab, butun hunarini ishga sola ketdi.

– Qani, jonginam, bundoq yozilib o'tirsang-chi. Araq olib kelishsin, ayt. Bo'lmasa qovog'ing ochilmaydiganga o'xshaydi. O'sha baqlajon burunga ayt, tezroq olib kelsin.

Baqlajon burun deb Ligor og'ani aytyapti – chindan ham uning burni xuddi baqlajonga o'xshaydi: o'zi bir qarich, rangi ko'kimtir.

Yigirma daqiqadan keyin dasturxon tuzaldi.

Birinchi qadahni Nomiya menga zo'rlab ichirdi desam bo'ladi. Shundan keyin noz qilib o'tirmadim. Nomiya o'zini ham unutmagan holda, vilkaga gazakdan olib, tez- tez menga tutib turdi.

Uchinchi qadahdan keyin boshim gir-gir aylana boshladi. Nomiya menga yaqinroq surilib, bo'ynimdan quchib oldi-da, o'zi ichirishga tushdi.

– Menga qara, ud yo'qmi bu yerda, bir o'ynab berardim.

– Iloji yo'q. Noqulay.

– Nega noqulay bo'larkan? Biz bilan nima ishlari bor! – hayron bo'ldi u.

Nomiyani bir amallab gapga ko'ndirdim. Ammo Ligor og'a patnis ko'tarib kirganda yana o'sha gapni boshladi:

– Xo'jayin zerikib qoldi-ku, hozir tars yoriladi. O't-betdan ud top, azamat, bir mazza qilib o'ynaylik!

Xizmatkor uni jerkib berdi:

– Kuchala yegan joyingga borib o'yna... Hunaringni boshqa yerda ko'rsatasan.

Bu gap Nomiyaning nafsoniyatiga botdi-yu, ammo nima deb qattiqroq uzib olishini bilmagani uchun o'zicha askiya qilmoqchi bo'ldi:

– Ha, to'ram, bu deyman, burun deb baqlajonni ko'tarib yuribsanmi? Rosa go'ng ketgandir o'ziyam?

Ligor og'a unga xo'mrayib bir qarab qo'ygach:

– Agar bu afandimning hurmati bo'lmaganida qancha go'ng ketganini hozir ko'rsatib qo'yardim! – dedi zarda bilan.

Uning bu gapi g'ashimga tegdi.

– Og'zingga qarab gapir, Ligor og'a, – dedim uni qayirib. – Bor, ishingdan qolma, bizga keraging yo'q!

U iflos taqsimchalarni yig'ishtirib olgach, shoshilmay chiqib ketdi. Chakki ish qilding, deganday Nomiya ga ters qarab qo'ydim.

– Shu ishing chakki bo‘ldi, – dedim unga dashnom berib.  
– Bunaqa odamlar bilan aytishib nima qilasan?

– Og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadi. Seni haqorat qilsa yana men malomatga qolaman.

– Tag‘in o‘sha gapmi, jonidan!.. Agar hozir ud topsak, rosa qiyomat bo‘lardi-da! Kecha Shahzoda orolida biram miriqdikki, asti qo‘yaver. Ud ham topildi, kamon ham, yana haligi asbob bor-ku, sibizg‘aga o‘xshagan, o‘shaniyam topdik. Oqsaroy tomonda Ehson naynov degan bir yigit bor, qorin o‘yinini shunaqayam qotirib tashladiki, kulaverib ichagimiz uzildi! Tong otguncha bazm qilib chiqdik. Faqat Trabzondan kelgan temirchilar ishni buzishdi-da.

Nomiya trabzonlik temirchilar nima g‘alva ko‘targanini istanbullik ko‘cha bezorilari tilida hikoya qilib berdi. So‘zlariga tushunmay qolsam, imo-ishora bilan ko‘rsatib turdi. Kayfim oshib borayotganini sezsam ham, oldi-qochdi gapini huzur qilib eshitdim, rosa miriqib kuldim.

– Namuncha uy issiq, lovullab ketyapman! – deb qoldi birdan Nomiya.

Nomiya oyog‘idagi tuflisi bilan ustidagi ko‘k ko‘ylagini yechib tashlagach, unniqib ketgan ichki kiyimida qoldi. U zo‘r berib menga araq tutar, bir qo‘li bilan hadeb stakanni tiqishtirsa, ikkinchi qo‘li bilan kastum va ko‘ylagimga oqizib-tomizib ovqat bermoqchi bo‘lardi. Keyin u birdan xirgoyiga tushib qoldi. Yana ikkala qo‘li ishlab ketdi: bir qo‘li bilan yelkamni, bo‘ynim va bilagimni chimchilaydi, ikkinchisini xuddi ketvorgan raqqosalarga o‘xshab likillatadi, ba‘zan barmoqlarini shaqillatib ham qo‘yadi.

Garchi kayfim taraq bo‘lsa ham, u haddidan oshib ketayotganini sezdim, bir amallab ovozin o‘chirdim. Ko‘nglim g‘ash bo‘lib ketdi. Nimadir sabab bo‘lib yana jiqillashib qoldik, keyin havo yetishmayotganday nafasim tiqilib, yugurib balkonga chiqdim-u, tepaliklar ortidan mo‘ralab turgan hilol oyga qo‘limni cho‘zdim va... u yog‘i nima bo‘lgani esimda yo‘q...



Ko'zimni ochib qarasam, tong yorishib qolgan ekan. Yonverimga alangladim: tanam xonaning ichida, boshim esa balkonning ostonasida yotibdi. Rosa sovqotibman, buning ustiga boshim, g'uvullab, a'zoyi badanim qaqshab og'riydi, labim quruqshab ketibdi.

Zo'rg'a o'rnimdan turib, gandigraklay-gandiraklay uyga kirdim. Chiroq o'chmagan ekan. Stolda bo'sh shishalar bilan yuvuqsiz taqsimchalar qalashib yotibdi... Divanning bir chekkasida Nomiya cho'zilib yotibdi. Egilib betiga tikilib qaradim. Xuddi olabo'jining o'zi-ya! Yuziga surtgan bo'yoqlari erib, chaplashib ketibdi. Lang ochiq og'zidan xirillagan ovoz chiqadi. Tagi qora, uchi malla bir tutam iflos soch bo'yniga yopishib qolgan. Yotgan joyida o'qtin-o'qtin yo'tal tutadi, shunda uning chillakday o'mrov suyaklari xuddi qafasdan qutulmoqchi bo'lganday irg'ib chiqadi...

Eng og'ir kunlarda ham dunyo menga bunchalik mudhish bo'lib ko'rinmagan desam bo'ladi!.. Kechqurun tramvay yo'lidan unga ergashib kelayotganimda men shunaqa kechani havas qilganmidim... Men yaxshigina oilaning yo'lidan adashgan farzandini jar yoqasidan qutqarib qolmoqchi bo'lgandim... o'zimning dard-alamlarimni unga to'kib-solmoqchi edim... Istanbulning tinchroq mahallasidan joy olib, shirin turmush qurarmiz degandim... Men insonlik qiyofasini yo'qotgan bu maxluqni qayta odam qilmoqchi, unga yana hayot bag'ishlamoqchi, haqorat va ta'na-dashnom eshitib, ko'chama-ko'cha sanqib yurgan qora kunlarini yodidan chiqarmoqchi, eng og'ir jarohatdan boshqa yuragidagi hamma yara izlarini butkul sidirib tashlamoqchi bo'ldim.... Bir mo'jiza ko'rsatay devdim. Istanbul peshanasiga tamg'a bosgan ikki baxtiqaro odam barcha illatlardan qutulib, ruhan pok bo'lib yangi hayotga qadam qo'yadilar, deb o'ylagan edim... Sho'rlik xayolparast! Mana, o'sha xayollarining natijasini ko'rib qo'y-endi!..

G'ira-shira tong pallasida cho'zilib yotgan bu juvonga yana bir tikilib qaradim. Shunda bildimki, qarshimda tirik

jon emas, jasad yotibdi – yuragimda saqlab yurgan orzu-umidlarimning, shirin-shirin xayollarimning jasadi edi bu...

Yarim yalang'och ayolning ustiga choyshabni tortib, egnimdagi kiyimim bilan o'zimni karavotga otdim. Boshim g'uvullab, a'zoyi badanimni titroq bosdi. Alam yoshlari bosgan ko'zimni chirt yumib, yana tubsiz jarga quladim.

\* \* \*

Meni Ligor og'a kelib uyg'otdi. Qo'lida kattakon tovoq.

– Sho'rvangizni olib keldim, Iffatbey. Sovib qolmasin.

Alang-jalang bo'lib betiga tikildim.

– Qanaqa sho'rva?

– Kalla sho'rva buyurgan ekansiz-ku? Anavi xotin hozirgina oldimga kelib: „Janob ko'proq tortvoribdi, darrov kalla sho'rva olib borarkansan“, deb aytdi.

– Unga hech narsa deganim yo'q, o'zi qani?

– Men qayerdan bilay. Ketdi. Sizga hech narsa demadimi?

– Yo'q, uxlab yotuvdim.

– Voy manjalaqi-yey! Bir nimani o'marib ketgan bo'lmasin tag'in. Tashqariga chiqarmasdim-u, „janob sho'rva buyurdi“ deganidan keyin laqqa ishonibman. Hamyonni olib ko'ring, bey!

Hamyon joyida ekan, lekin ichida hech vaqo yo'q, o'n yetti lira g'oyib bo'libdi. Aftidan, nimchaning cho'ntagidagi soatni olishga yuragi dov bermapti.

–Eh, afandim, afandim, – dedi Ligor og'a achinib. – Bu-naqa shilta xotinni boshingizga urarmidingiz. Rasvoligini birinchi ko'rishdayoq bilgandim. Politsiyaga borib aytsa ham bo'ladi-yu, lekin keyin ishkali chiqadi-da. Har holda bu yer mehmonxona!.. Ha, mayli, iloj qancha endi!

Firmaga ishga kirganimga ikki yilcha bo'lib qolgan edi, bir payt chin arafa kuni kechqurun to'satdan Muzaffardan telegramma oldim: „Biz yutib chiqdik. Darhol Istanbulga yetib kel“.

Esankirab qoldim. Ko'zlarimga ishonmay, telegrammaga qayta-qayta tikilaman. Sud bir necha yildan beri cho'zilib kelayotgani uchun butunlay umidni uzib qo'ygan edim. To'g'ri, akam keyingi oylarda menga tez-tez xat yozib, ish oxirlab qolganini xabar qilib turgan edi. Bundan bir oy burun Istanbulga borganimda akam meni uyiga olib ketib, sudda nima gaplar bo'layotganini batafsil gapirib bergan edi.

Muzaffar bu haqda quvonchi ichiga sig'may, to'lib-toshib gapirgani uchun sirdan ro'yixush berib o'tirgan bo'lsam ham, aslida bu ishning biror kun yaxshilik bilan tugashiga sira ishonmovdim. Qolaversa, akamning gapini o'zim ham jon qulog'im bilan eshitganim yo'q, shunchaki og'ziga qarab mo'ltirab o'tiraverdim, nihoyat, qog'ozi bormi, tilxati bormi – nima tutqazgan bo'lsa, hammasiga bir ko'z yugurtirib, qo'l qo'yib beraverdim.

Telegrammani ko'rib Jalol tanasiga sig'may ketdi, meni bag'riga bosib o'pdi.

– Mana endi peshanang yaraqlabdi, Iffat... Qizini yaxshi joyga uzatgan ota singari ko'nglim joyiga tushdi.

Ertaga erta bilan poyezdda Istanbulga jo'naydigan bo'ldim. Allamahalgacha gaplashib o'tirdik. Jalol shuncha yil savdoga aralashib yurgani uchun juda usta bo'lib ketgan ekan. Birpasda u hisob-kitobni to'g'rilab, hovli-joyimiz bilan yer-suvimiz hozir qancha turishini, shundan menga qancha tegishini hisoblab berdi.

Ammo kutganimizdan ortiq bo'lib chiqdi. Yer-suv biz o'ylagandan ham ko'proq pulga sotildi. Mendek bir odam uchun bu juda katta boyluk edi. O'zim yoshligimdan beri pulga hirs qo'ymaganman, ochko'zlik nimaligini bilmayman. Qolaversa, och-yalang'och yurishlik, qashshoqlik qanaqa bo'lishini sinab ko'rganman, bir burda noni bor odam

qanchalik baxtli bo'lishini yaxshi bilaman. Xuddi osmondan tushganday qo'limga birdan shuncha pul tushib qolgani uchun dastlab esankirab qoldim, bunaqa boy bo'lib ketaman deb kim o'ylabdi deysiz.

Yana o'sha mash'um kunlardagidek jonimga ora kirgan Jalol bo'ldi.

– Ishning ko'zini biladigan odam biror serdaromad joyni topib, shu pul bilan ham boyib ketishi mumkin, – dedi u. – Ammo sen bilan biz pulini gardkam tikadiganlardan emas-miz. Bu gap ko'proq senga tegishli bo'lsa kerak – xuddi yangi kasaldan turgan odamga o'xshaysan. Senga aytaman-ku hamisha: turmush seni obdan bezillatib qo'yan, o'zingga kelishingga hali ancha bor... Bas, shunday ekan, o'sha topgan pulingni bir narsaga tikaylik. Unchalik serdaromad emas-u, ammo arziydigan ish.

\* \* \*

Jalolning aytganini qildim. Lekin bir masalada gapi yerda qoldi.

„Durustroq bir qiz topib, uylanib ol, – degan edi u menga necha bor. – Sen oila uchun tug'ilgansan. Bola-chaqali bo'lganingdan keyin yomon kunlaring esingdan chiqib ketadi“. – „Oldin men o'zimni topib olay, derdim miyig'imda kulib. – Keyin bir gap qilarmiz“, Jalol esa meni tushungisi kelmasdi.

Hayotdan hali umidlarim ko'p edi, ammo ota bo'lishni sira o'ylamasdim. Zotan oilani men boshqacharoq tasavvur qilardim. Ota, ona, bolalar o'rtasida sof muhabbat bo'lishi kerak. O'zim isnodga qolgan odam bo'lganimdan keyin qandoq qilib ulardan mehr-oqibat talab qila olaman. Ochig'i, bu tamg'aga o'zim ham ko'nikib ketdim, endi undan ilgarigiday qo'rqmayman. Tanish-bilishlarimga ilgari kim bo'lganim ma'lum, bunga parvo qilmay qo'yanman. Ammo xotining bilan farzandlaring bundan boxabar bo'lsa, dodingni kimga aytasan, axir...

Ko'nglimga tugib qo'ygan bu gaplarimni hatto Jalolga ham aytganim yo'q. Mayli, meni jar yoqasidan qaytib keldi, deb o'ylab yura qolsin. Yana vasvasa kasaliga uchraganimni eshitib qolsa, menga o'xshab ich-ichidan ezilib yurishi turgan gap.

\* \* \*

Changalko'y tomondan kattaroq bog'i bilan bir joy topdim. Mahmud afandidan keyin kelini yolg'iz o'zi qolgan ekan, chaqirtirib keldim. Butun ro'zg'or yumushi bog'bon chol bilan ikkovining bo'yniga tushdi.

Dastlabki kezlari xuddi dalasi bo'ronda qolib, endi shuni ko'zdan kechirgani chiqqan dehqonga o'xshab yurdim. Hamma yoq yer bilan yakson bo'lganini ko'rib dod deb yuborgim keladi – shafqatsiz bo'ron qalbidamda o'sgan nihollarni payhon qilib, ezib-yanchib, majaqlab ketibdi. Yoshligimda sho'x va quvnoq bola edim, endi bo'lsa har narsadan cho'chiyman, salga dilim ranjiydi. Bir paytlari notanish odamlar bilan ham istagancha o'ynab-kulib, yayrab-yashnab yurardim, endi esa ko'nglim tortgan yaqin kishilarimdan ham qochaman, yozilib gaplashishga iymanam, o'zim bilan o'zim bo'lib, hammasini ichimga yutaman. Ilgarilari ko'zimga hamma narsa yaxshi ko'rinardi, endi bo'lsa menga hech narsa yoqmaydi, hatto odamlar ham. Ilgarilari odamlarga qattiq ishonardim, hamisha shularga orqa qilib yurardim. Hozir men ularga ishonmay qo'yganman, har kimdan shubha qilaman. Ba'zan, odamlar dilimga ozor berish uchun ataylab til biriktirib olgan, degan xayollarga ham boraman. Endi men hatto g'arib va baxtiqaro odamlarga ham achinmay qo'yganman. Ko'cha-ko'yda yursam, qayrilib qaramayman ham...

Hozir butun mehrimni bog'ga va kitoblarga to'kkanman. Yana kitob jinnisi bo'lib qoldim. Shunisi ham borki, ilgarilari men qaynoq his-tuyg'ular, ishonch va orzu-umidlar haqida bitilgan kitoblarni xush ko'rgan bo'lsam, endi g'am-g'us-

sadan, noumidlikdan soʻz ochgan asarlarni koʻproq oʻqisam deyman...

\* \* \*

Shu zaylda vaqt oʻtib borardi. Yangi tanish-bilishlar, yangi oshna-ogʻaynilar orttirdim. Oshna-ogʻayni deganimda dilingdagi gapni sezib turadigan qadrdon doʻstni emas, balki koʻrganda soʻrashib-suhbatlashadigan, biror joyga borib baqamti oʻtirsang boʻladigan ulfatlarni koʻzda tutyapman, albatta. Bunaqa ulfatlar bilan boʻlib qolsang, huzur qilib dam olganday boʻlasan, ammo xayr-maʼzur qilgach, uni darrov esdan chiqarasan, yana boshqasini topib, u bilan ham apoq-chapoq boʻlib ketaverasan.

Choʻntakka pul tushganidan keyin qarindoshlar va eski yor-doʻstlar bilan ham aloqalar tiklanib ketdi. Uyimiz bilan yer-suvning qaytib berilishi mendan tamgʻani sidirib tashlaganday boʻldi. Tanish-bilishlarimning nazarida men yana halol odamman. Biroq goh-gohida shunday voqealar va anglashilmovchiliklar ham boʻlib turadiki, natijada yana oʻtmishimni eslashga majbur boʻlaman. Misol uchun bir voqeani aytib berishim mumkin.

Bir kuni Muzaffarning quda tomondan bir qarindoshi ikkovimizni mehmonga chaqirdi. Oʻzi Nishontoshi taraflarda turarkan. Uyiga borsak, begona odamlar ham oʻtiribdi. Davrada yaqinda qazo qilgan bir badavlat kishi haqida gap qoʻzgʻalib qoldi.

– Kecha rahmatlining mol-mulkini kim oshdiga sotishayotgan ekan. Yaxshi-yaxshi narsalar arzon-garovga sotilib ketdi-da. Men ham besh liraga ikkita ajoyib noyob buyum sotib oldim. Koʻrgan odam yigirma liradan kam demaydi, – dedi uy bekasi.

Oʻtirgan mehmonlardan biri – shunaqa osori-atiqalarga juda ham ishqiboz boʻlgan keksaroq bir ayol uy bekasi olgan narsani koʻraman deb turib oldi. Biroq aksiga olib, oʻsha buyumlar turgan shkafning kaliti topilmadi.

– Hechqisi yo‘q qulfini buzib ochamiz, – deb qoldi mezb-on iltifot ko‘rsatib.

Darrov qaychi topib kelishdi. Mezb-on qaychi tiqib och-moqchi bo‘lgan edi, uddasidan chiqolmadi. Yoshroq bir mehmon ham kuchiga ishonib ancha unnab ko‘rdi-yu, lekin eplolmadi.

Birpasda hamma sovidi-qoldi. Ammo shu payt tashqi ishlar vazirligida ishlaydigan bir tanishim to‘satdan:

– O‘zingiz bir urinib ko‘rmaysizmi, Iffatbey? – deb qoldi.

Bir paytlar o‘g‘ri bo‘lganim uchun albatta qo‘lidan kelsa kerak, deb o‘yladimi yoki ketini o‘ylamay gapirib yubordi-mi, bunisini bilmadim. Ammo shu gapdan keyin mehmonlar jim bo‘lib qolishdi.

Saldan keyin g‘ala-g‘ovur yana boshlanib ketdi-yu, le-kin men adoyi tamom bo‘lgan edim...

## 48

Konyadagi firmada xizmat qilib yurganimda Fozilbey ismli bir buxgalter bilan qadrdon bo‘lib qolgan edik. Fo-zilbey juda shinavanda odam edi. Konyada ekan paytimda nuqul xizmatimda bo‘lar, keyin qo‘yarda-qo‘ymay uyiga olib ketardi. Agar bu ishidan o‘ng‘aysizlanib, ra‘yini qayta-radigan bo‘lsam: „Sen aslo xijolat bo‘lma... Mehmon degan noming bor... Xudo xohlasa, Istanbulga bir boraman... Ana o‘shanda meni yaxshilab o‘ynatasan“, deb yurardi.

Fozilbey gapining ustidan chiqdi: bir oylik ta‘til olib, it-tifoqo bir kuni Istanbulga kelib qoldi. Mendan boshqa ta-nish-bilishi bo‘lmagani uchun poyezddan tushib, to‘g‘ri biz-nikiga kelibdi. O‘zi yaxshi odam, kelganiga xursand bo‘lishim kerak. Ammo Fozilbey tushmagur Istanbulga faqat ko‘ngil ochish, aysh qilish uchun keladigan odamlar toifasidan ekan. Qayerda hordiq chiqaradigan joy ko‘rsa, o‘sha yerga albatta kiraman, deb turib oladi. Uyda qanchalik ko‘nglini olib, ziyofat qilmay, baribir yozilib o‘tirolmadi. Noiloj unga hamroh bo‘lib, Beyo‘g‘lidagi hamma qovoqxona va teatrlar-

ga birma-bir kirib chiqdik. Vaholanki bunaqa joylarda ko'rish berishga sira toqatim yo'q edi.

Bir kuni ikkovimiz diniy nazoratga qarashli machitlarni, keyin muzeyni borib ko'rdik. Ko'chaga chiqqanimizda qosh qorayib qolgan edi.

– Bugun ko'p yurvorganga o'xshaymiz, – deb qoldi Fozilbey. – Bir Tepaboshidagi bog'ga kirib, pivo ichmaymizmi? Jinday musiqa eshitib, dam olib qaytardik...

Koshki musiqaga tushunsa o'zi. Bilib turibman, asl maqsadi xotinlarni tomosha qilish. Izvosh qidirib topolmagach, Vafo ko'chasidan yayov tushib kelaverdik. Unqoponi ko'prigiga yetay deb qolqanimizda, nihoyat, bitta izvosh uchradi. Izvoshchi qamchisini ushlagancha mudrab o'tirgan ekan.

– Tepaboshiga! – dedi Fozilbey tayog'i bilan uni sekin turtib.

Izvoshchi erinibgina yerga tushdi, bir nima deb to'ng'ilangan holda zo'rg'a izvoshning eshigini ochdi. Oldin Fozilbey chiqib oldi. Men endi zinasiga oyoq qo'ygan edim, izvoshchi birdan qiyqirib yubordi.

– Voy, buni qara-ya! O'zingmisan?! Meni tanidingmi? Hov, avaxtada birgina Oqsoqol boriydi-ku, ha...

Hayron bo'lib, orqamga qayrilib qaradim. Darrov tanidim – qamoqdagi taniqli zotlardan biri edi. O'zi ancha yosh bo'lsa ham hamma uni Hidoyat oqsoqol, derdi. Bugun qamoqdan chiqsa, ertasiga o'g'irlik qilib yoki qoradori bilan qo'lga tushib, yana qaytib kelaverardi. Hatto qamoqda ham tinch o'tirmasdi: sigaretga nasha tiqib, mahbuslarga nayaki qilib pullardi.

Noqulay ahvolda qoldim; nima qilishimniyam, nima deyishimniyam bilmay, gangib turdim. Hidoyat oqsoqol bir umr yo'qotib yurgan qalin do'stini topib olgan odamday, qo'limga mahkam yopishib, hadeb siltab yotibdi.

– Ha, mayli. Keyin gaplasharmiz, – deb qoldi u bir payt.

Kulfatdosh og'aynim o'shandan beri ancha cho'kibdi, soch-soqoli oppoq oqarib ketibdi. Ko'prikdan o'tyapmiz-u, xijolatpazlikdan yerga kirib ketay deb o'tiribman. Boshimga tushgan savdolardan Fozilbeyning xabari bor. „Oqsoqol“



kim ekanini darrov payqagan bo'lsa kerakki, mendan uni surishtirmay, bir burchakka tiqilib olib, churq etmay ketyapti.

O'sha kuni Oqsoqolning kayfi bor ekan. Dam-badam izvoshni to'xtatib, mendan bo'lmag'ur narsalarni so'raydi, duch kelgan izvoshchilarga gap otib, qamchi o'ynatadi, og'zidan bodi kirib, shodi chiqadi.

Ko'prikdan o'tib, endi tepalikka chiqa boshlagan ham edikki, yunonlarning qovoqxonasiga yetganda Oqsoqol shartta izvoshni to'xtatdi.

– Qo'limdan bitta araq ichib ketmasang bo'lmaydi! Afandim ham buyursinlar! Yo'q demaysan! Senga o'xshagan yor-do'stlarga jonim qurbon!

Yana biror g'alva chiqarib o'tirmasin degan andishada ra'yini qaytarmadik, ammo izvoshdan tushmadik ham. Buni ko'rib, Oqsoqol qovoqxonachini chaqirdi va stakanchada uchta araq buyurdi. Patnisni ko'tarib, oldimizga garson keldi; qovoqxonada esa, sharmanka chiyillab turibdi – bundan ortiq rasvogarchilik bo'lmasa kerak.

Oqsoqol bizga zo'rlab ichirgach, yana shovqin ko'tardi?

– Gazagi qani? Darrov non bilan zaytundan olib kel!..

Boyoqish Fozilbey! Bizlarni ko'rgan odam bozor- o'char-dan qaytishda har qadamda bir qovoqxonaga kirib, araq ichib, musiqa eshitadigan chapani yunonlar deb o'ylashi turgan gap. Yaxshiyam kech kirib, ko'chalar huvullab qolgandi.

Bog' darvozasiga yetib kelgach, mehmondo'st Oqsoqol bilan xayr-ma'zur qilgandan keyingina yengil nafas oldik. Ammo bizni boshqa bir baxtsizlik kutib turgan ekan.

## 49

Anchadan keyin Oqsoqol yana paydo bo'lib qoldi. Zo'rg'a oyoqda turardi. Yo'lda uchragan stullarni ag'angatib, stollar orasidan biz tomonga gandarab kelaverdi.

Fozilbey ikkovimiz qotib qoldik. Oqsoqol kalta kamzuli-ni yelkasiga tashlab, qizil ko'ylagining yenglarini bilakkacha shimarib olgan. Oldimizga kelgach, bir qo'lini stolga tirab,

ikkinchi qo'lidagi uzun qamchisiga yonboshlab oldi-da, chayqala-chayqala gap boshladi.

– Voy azamat-ey! Mana, ko'rdingmi, yana uchrashdik! Seni qidirmagan joyim qolmadi. Hamma yoqni titvordim... Baribir topdim! Taqdirda bor ekan yana ko'rishish! Taqdir-dan qochib qutulib bo'lmaydi! Tan bergan ma'qul. Bir kambag'al bechorani hurmat qilib, qittay-qittay otsalaring bo'l-masmidi?.. Meni nazarlaring ilmadi! Xo'sh, nimaga? Chunki men oddiy bir aravakashman-da. Odamni shunchalik yerga urasizlarmi?! Xudoga shukur, biz ham pulsiz yurmaymiz, oshna-og'aynini xursand qilishga qurbimiz yetadi.

Atrofdagilarning ikki ko'zi bizda. Mendan bir ish chiq-masligini sezib, Fozilbeyning o'zi uni aldasha tushdi:

– Unchalik emas, og'ayni, ertaga kechqurun bir ko'ri-shaylik, mazza qilib otamlashamiz.

Oqsoqol labini jiyirdi.

– Voy afandijonim, tilingdan bol tomadi-yu, odamni xafa qilasan-a! Bizni nazaringiz ilmaydi-da, sizlarga o'xsha-gan madaniyatli emasmiz-da, a! Hov, menga qara, biz kambag'al bo'lsak ham, qo'limiz ochiq, ha, doim besh-o'n tanga yonda yuradi...

U cho'ntagidan bir talay yog' bosib, g'ijimlangan qog'oz pul olib, bizga ko'rsatdi.

– Hammaning omadini bersin. Bugun besh-o'n lira ish-ladim, bir o'tirishamiz, hammamizga yetadi... Ertaga Xudo poshsho. Yaratganning o'zi hech bir bandasini och qo'y-maydi. Oqsoqolgayam tuz-nasibasini berib turadi. Manavi pulga esa bugun bir to'yib ichamiz.

Endi aralashmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi. Oqso-qolni jo'natmoqchi bo'lib rosa aldab-suldasam ham bo'lma-di. Qulog'iga gap kiradigan emas, aftidan, bog'ning oldida xayrlashganimizdan keyin uch-to'rt marta qovoqxonaga ki-rib chiqqanga o'xshaydi. Yana vaysay ketdi:

– Shu pulni albatta ichib tamomlaymiz! Ertaga qolsa bo'lmaydi. Nega deganda bugun Azroil kelib, omonatini olib ketishi mumkin. Unda men nima qilaman, do'stlarim? Loaqal sizlar menga rahm qilinglar! Shu bugun kecha-si to'satdan qazo qilib qolsam, pulcham Komil mullaning

qo'liga tushadi. Taqsim kamining jasadini yuvayotganida bor narsamni shilib oladilar...

Oqsoqolning og'zi qiyshayib, afti burishib ketdi. Yum-yum yig'lay boshladi, lekin ko'zida qatra yosh yo'q.

– Xudo ko'rsatmasin! – dedi Fozilbey sarosimaga tushib. – Xudo o'z panohida asrasin. Xudo xohlasa ertaga yana diydor ko'rishamiz.

– Voy qudratingdan o'rgilay! – deb bo'kirdi Oqsoqol. – Shakkoklik qilgan bo'lsam yaratganning o'zi kechirsin. Xo'sh, sen nima, Xudomisan? Ertaga nima bo'lishini sen qayoqdan bilasan?.. – Shunday deb qo'lidagi pullarini mayda-mayda qilib, yerga otdi. – Mullaning qorniga kirganidan ko'ra yirtib tashlaganim ma'qul... Ha, o'sha Komil mullaning...

Qo'shni stoldagilar xaxolab kulib o'tiribdi-yu, ammo ba'zi birovlarning jahli chiqqanini bilib turibman.

Pulni yirtib tashlagach, ancha hovuridan tushdi. Endi chiqib ketadi, bizni tinch qo'yadi, deb o'tirgan edik, birdan orkestr o'ynab, ishni rasvo qildi. Hozirgina o'ziga janoza o'qib turgan Oqsoqol kutilmaganda hiringlashga tushdi.

– Pulni ham qiya qildik! O'zidan ko'rsin... Qani, og'ayni-lar, endi men sizlarga mehmonman.

Stul olmoqchi bo'lib, atrofiga alangladi.

– Garson! Qayoqqa yo'qolding, nomard?! Yugur tezroq! – bo'kirib berdi u.

Qo'shni stolda o'tirgan bir gala armani shlapa va palto-larini yonidagi stulga yig'ib qo'ygan ekan.

– Qani, lash-lushingizni ko'taring-chi, madam va mus-yular! – dedi po'pisa qilib Oqsoqol. – O'tirishga joy yo'g'-u, bular...

– Bu yerda yayrab o'tirolmaymiz, Oqsoqol. Yaxshisi, ro'paradagi restoranlardan biriga bora qolaylik, – dedim. Mo'ljalim chiqib ketayotganda ko'zini shamg'alat qilib, bir amallab qochib qolish edi.

Shu nayt bir barzangi politsiyachini yetaklab, garson ke-lib qoldi. Oqsoqol unga otning qashqasiday tanish ekan.

– Qani, Oqsoqol, darrov tuyog'ingni shiqillatib qol-chi! – dedi politsiyachi o'shqirib.

– Bu yoqqa men o‘zimcha kirganim yo‘q! – darrov yuvosh tortdi. Oqsoqol. – Manavi og‘aynilarim chaqirishdi!  
– Gapni cho‘zma!– yana do‘q urdi politsiyachi. – Jo‘na hozir!

Oqsoqol menga o‘girilib qaradi.

– O‘zing ayt, jigar, men kimga yomonlik qildim? Birovga malol keladigan ish qildimmi? Qittay otmoqchi edim, xolos. To‘g‘rimi? Gapirsang-chi, axir! Oqibatimiz shu bo‘ldimi hali?!

Gangib qolganimdan olazarak bo‘lib yon-verimga qaradim. Araq miyasiga urgan Oqsoqol buni boshqacha tushunib, darhol shubhaga bordi:

– Politsiyani chaqirtirib kelgan o‘zing bo‘lmagin tag‘in! Ha, sendan boshqa kim qiladi? Meni olib ketsin, deb shipshitiq qo‘yibsanda! Voy moxag‘ar-ey!

Oqsoqol menga tashlanmoqchi bo‘lib xezlangan edi, politsiyachi kiftidan mahkam ushlab, darvoza tomonga sudrab ketdi. Hamma o‘rnidan turib, uni o‘rab oldi.

– O‘g‘ri, muttaham! Bo‘yningga bir parcha latta osgan bilan darrov odam bo‘lib qopsanda?! Qamoqda yotib chiqqaning esingdan chiqdimi, ablah! – deb bo‘kirdi u ovo-zining boricha.

Fozilbey meni bog‘dan zo‘rg‘a olib chiqdi. Shu voqeadan keyin bir oy ko‘rpa-to‘shak qilib yotib oldim.

## 50

Payshanba kunlaridan birida bir o‘rtog‘im bilan Boyazid maydonida uchrashishga kelishib qo‘ygan edik. Galata ko‘prigi yaqinida kemadan tushayotib, ko‘zoynagimni sindirib qo‘ydim. Tayinlangan vaqtga hali ancha bor, shuning uchun Beyo‘g‘liga borib, ko‘zoynakni yangilab kelmoqchi bo‘ldim.

Oftob charaqlab yotgan ko‘chadan o‘tib, funikulyor yuradigan qop-qorong‘i tunnelga kirganimda ko‘zim jimirlab, hech narsani ko‘rmay qoldim. Xuddi ko‘zdan qolgan odam-

ga o'xshab, qoqila-suqila olomonga ergashib ketaverdim. Bir payt ayol kishining:

– Iffatbey! – deb sekingina chaqirganini eshitib qoldim.

Yuragim shig'illab ketdi. Vodiya darhol ovozdin ta-  
nidim.

Bir shaharda turganimizdan keyin ertami-kechmi al-  
batta, uchrashishimiz aniq edi. Lekin shunga qaramay, uni  
yana ko'raman, deb hech o'ylamagan edim...

Vodiya o'ta xotirjamlik bilan mendan hol-ahvol so'ragan  
bo'ldi, ko'rishganimizdan xursand ekanini aytdi. Men ham  
savollariga bemalol javob berdim, ba'zi narsalarni surish-  
tirdim. Bundoq qaraganda men ozmuncha yil uni boshimga  
ko'tarib yurdimmi? Mana endi u bilan bunchalik bamay-  
lixotir gaplashib turibman. Xo'sh, buning boisi nimada?

Nazarimda, ikkovimiz ham o'tmishdan gap ochgani  
cho'chib turibmiz. Ikki-uch og'iz safsatabozlik qilib, begona  
odamlarday yana ajralishib ketadiganga o'xshaymiz. Ammo  
kutilmaganda mavzu o'zgarib qoldi. Beixtiyor, qayoqqa ket-  
yapsiz, deb so'radim.

– Galatasaroy<sup>1</sup>ga o'g'ilchani olgani ketyapman. Bu yil  
uni internatga beruvdim. Bir-birimizga judayam suyanib  
qoluvdik, noilojlikdan berdim... Meni albatta o'zingiz olib borib,  
o'zingiz olib kelasiz, deb turib oldi... Qolaversa, ishim  
oshib-toshib yotgani ham yo'q...

Vodiya yengilgina kulimsirab qo'ydi.

– Kattalari qalay yurishibdi? – deb so'radim iymanib.

– Durust bo'lsa kerak.

– Qizingiz kap-katta bo'lib qolgandir-a?

– Qaydam, anchadan beri ko'rganim yo'q.

– Nega endi?

Vodiya ko'zini yerdan olib, menga qaradi.

– Jalil Karimbey boshqa xotin olgan. Bordi-keldimiz  
yo'q...

– Demak, ajralishibsiz-da?

– Ilgarilariyam murosamiz kelishmay yurardi, o'zingiz  
xabardorsiz. Bir yil bo'ldi. Erenko'yda turaman, akamnikida.

---

<sup>1</sup>Galatasaroy – Istanbuldagi litseyning nomi. Bu litsey 1869-yilda tashkil  
etilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya fransuz tilida olib boriladi.

Odamlar vagonga chiqa boshlashdi.

– Xo‘p, meni ma‘zur tutasiz, – dedi Vodiya qora qo‘lqop kiygan jajji qo‘lini viqor bilan uzatib ...

\* \* \*

Beyo‘g‘liga borib ko‘zoynak olishga oldim-u, lekin og‘aynim bilan uchrasholmadim. Qattiq hayajonda edim, binobarin, o‘sha topda Vodiyaga aloqador bo‘lmagan mavzuda gapirishga baribir holim kelmasdi.

„Uni ko‘rishga ko‘rdim-u, ammo yuragimda tariqcha alam ham, nadomat ham sezmadim... Juda g‘alati ish bo‘ldi! – deyman o‘zimga o‘zim o‘sha damni eslab. – Lekin bu hali holva, bilaman, qalbimda qolgan yara izlari yallig‘lanadi, yana azob chekaman, qiynalaman... Qayoqdan ham unga duch keldim-a? ..“

Qosh qoraygunga qadar ko‘chama-ko‘cha tentirab yurdim, oqshom cho‘kkach, bog‘dagi ochiq restoranga kirib pivo buyurdim. Goh musiqa tinglab, goh zulmat qo‘ynidagi osmonga tikilib, pivo simirib o‘tiribman. Meni yana xayol olib qochdi, uning og‘ushida yana osmon-u falakka parvoz qila ketdim.

„Vodiyani esdan chiqardim, hatto boshqa bir qizni Ra‘noni sevib qoldim, deb o‘zimni o‘zim aldab yurgan ekanman... Hammasi yolg‘on ekan. Ko‘z ochib ko‘rganim shu Vodiya, xolos, buni endi yaxshi bilaman. Binobarin, u ham meni unutmagan. Unutolmaydi ham. U meni sevadi. Mana shu ayriliq yillari ichida uning sevgisi battar o‘t olgan. Uni deb boshimga ne-ne kulfatlar tushganini o‘zi yaxshi biladi. Boshqalar uchun men o‘g‘riman, tamg‘a bosilgan o‘g‘riman, uning nazarida esa Domlajiqdagi tegirmonchi Ismoilman... Endi Vodiyaning boshi ochiq. Shunday ekan, ikkovimiz bir yostiqqa bosh qo‘ysak bo‘ladi, buning qiyin joyi yo‘q. Endi men yosh bola emasman, o‘zimga yarasha izzat-obro‘yim, davlatim bor, birovlariga xor bo‘lmaymiz. Bemalol turmush qursak bo‘ladi. Bir-birimizni to o‘lguncha sevamiz. Mening haqimda kim nima desa deyaversin, mayli. Buning endi

mutlaqo ahamiyati yo'q, chunki dunyoda eng yaxshi ko'rgan odamim mening to'g'rimdagi hamma gapdan xabardor, aslida nima bo'lganini yaxshi biladi. Ehtimol, bir kunmas bir kun odamlar nechuk bunchalik sharmanda bo'lganimdan, nechuk menga bunday tamg'a bosilganidan xabar topishar. O'shanda Domlajiqdagi tegirmonchi Ismoilga o'xshab meni ham ba'zi birovlar o'kinch bilan eslashar balki"...

Orkestr qandaydir sokin va g'ussali rumincha kuyni chalayotgan edi. Yuzimni kaftim bilan to'sib, qorong'iroq joyga bordim va yosh bolalarday ho'ngrab yig'lab yubordim.

Ko'nglim tog'day ko'tarilib, orzu-havaslarim qaynab toshgan, ertangi kun menga cheksiz in'omlar va'da qilgan so'nggi kecha edi u; erta bilan uyg'onib qaragam, tuni bilan bu orzu-havaslarimning ancha qirovi to'kilibdi. Baribir qalbimga tugib qo'ygan fikrimdan voz kecholmasdim. Vodiya bilan shirin turmush qurishimiz mumkin.

O'sha kuniyoq Erenko'ydagi adresini topib, qisqagina xat yozib yubordim. Xatda juda muhim bir masala yuzasidan uchrashishimiz kerakligini aytdim.

Ikki kundan keyin undan javob oldim. Xatida, juma kuni o'g'limni olgani litseyga boraman, o'shanda Haydarposho vokzalida siz bilan uchrashishim mumkin, o'n-o'n besh daqiqa ortiqcha vaqtim bor, debdi.

Vodiya aytgan vaqtida keldi. Vokzal zali bo'm-bo'sh ekan, bir chekkaga borib o'tirdik. Unga aytadigan gaplarim ko'p edi. Ammo ko'nglimga tugib kelgan gaplarim boshqa ayolga, ilgari Vodiya aytiladigan gaplar ekan, oldimda o'tirgan bu juvonga hech qanday aloqasi yo'q. U sira pinagini buzmay, nima gapligini so'radi-da, soatiga qarab qo'ydi.

O'shanda tunnelning g'ira-shira yorug'ida yuziga yaxshiroq razm solib qaramagan ekanman. Endi bilsam, Vodiya ancha qarib qolibdi. Ko'zining atrofiga, lablarining yoniga horg'in ajinlar tushibdi, yonib turgan ko'zlari hamon o'ziga yarashadi-yu, lekin endi bu ko'zlarda sovuq o't chaqnaydi. Yo'q, men sevgan Vodiya bu emas! Shunga qaramay, menga turmushga chiqishini astoydil taklif qildim.

– Bir vaqtlar bir-birimizni sevardik, – dedim unga yalib, – yaxshi kunlarimiz ko‘p bo‘lgan. Endi boshingiz ochiq ekan. Turmush qursak, ikkovimiz baxtli bo‘larmidik...

Vodiya bu gapimni jon qulog‘i bilan eshitib turdi, keyin qo‘lidagi sumkasini o‘ynab, xayolga botdi va:

– Men sizdan kattaman. O‘ttiz beshga borib qoldim. Bir yostiqa bosh qo‘yishimizdan sizga nima manfaat, tushunolmadim, – deb javob berdi.

Uning bu tuturiqsiz gapini eshitib, hayron bo‘ldim.

– Bir-birimizni sevardik-ku, axir, Vodiya xonim?

– To‘g‘ri-ku-ya, lekin sizni ilgarigidek yaxshi ko‘raman, deb aytolmasangiz kerak. Bir vaqtlari oramizda nimaiki bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, hammasi tentaklik edi. Agar to‘g‘risini bilmoqchi bo‘lsangiz, o‘shanda ikkovimiz ham baxtiyor edik. Lekin buning evaziga ozmuncha jaf o chekdikmi? Boya aytganimday, endi yoshim o‘tib qoldi. Siz ham ilgarigi Ifatbey emassiz... Agar turmush quradigan bo‘lsak, yana bir tentaklik qilgan bo‘lamiz.

– Undoq emas!

– O‘g‘lim katta bo‘lib qoldi. Hademay voyaga yetadi. Uning oldida o‘zimga yarasha burchlarim bor...

Vodiya shunga o‘xshagan bahonalarni qatorlashtirib tashladi. Bularning birontasi ham asl sabab emasligiga mening ishonchim komil edi. Nihoyat, dilidagi gapni aytishga majbur qildim.

– Siz bir kulfat ko‘rgansiz, – dedi u, – bordi-yu, ikkovimiz turmush qilsak, odamlar nima deb o‘ylashi mumkin?

Miyig‘imda kulib qo‘ydim.

– Nima deb o‘ylardi? Vodiya xonim erining tortmasini buzib ochgan o‘g‘riga tegibdi, deydi. Shundaymi? Hamma gapdan o‘zingiz xabardorsiz-ku, axir ...

Vodiya kalovlanib menga qaradi.

– Shundoq-ku-ya, lekin... – U gap topolmay qoldi. – Men-ku aslida nima bo‘lganini bilaman-a, ammo bu bilan ish bitmaydi... Jalil Karimbeyning yaxshi ko‘rgan bir gapi bo‘lardi: „Eshitgan quloqqa yomon“. Turmush quradigan bo‘lsak, ikkovimiz ham noqulay ahvolda qolamiz ... Qo-



lavarsa, ishq-muhabbat o'tida, qovurilmayotgan bo'lsak, o'ramizda shunchaki... Nima keragi bor?..

Boyadan beri nima demoqchiligini endi tushundim. Oyoq-qo'limni titroq bosib, sapchib o'rnimdan turdim...

– Meni kechirasiz, Vodiya xonim, sizni bezovta qilibman. Sizga aytadigan boshqa gapim yo'q...

– Xayr!

– Xayr!

Yuzimga tik qarashga yuragi betlamay, sekingina jo'nab qoldi.

\* \* \*

Puch orzuga uchib, umrimni bekorga qurbon qilgan ekanman.

# **XAZONREZGI**

– „Oltin yaproq“ shirkatida tuppa-tuzuk ishlab turuvdi, nimaga endi ketib qoldi, deb menga hayron bo‘layotgandirsiz. Buning hayron qoladigan joyi yo‘q... O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: kasalmand oyim bilan ikkita churvaqa ukam qo‘limga qarab qolgan bo‘lsa, qandoq qilib oltmish ikki liralı oylik bilan tirikchilik qilay... Onam sovuqdan dod deydi, ukalarim ochlikdan. Xo‘sh, yana nima qilishim mumkin? Uzatay desam, qo‘lim qisqa... Boshqalarga o‘xshab topganimni ichib, kayf-safo qilib yurgan, bilganingni qil, deb jigarlarimni o‘z holiga tashlab qo‘ygan bo‘lsam alam qilmasdi! Ana o‘shanda mendan norizo bo‘lishsa, g‘ing demasdim. Topgan pulimni changallab to‘g‘ri uyga olib kelaman-a. Baribir kam deb nolishadi. E, noshukurchilik ham evi bilan-da, har narsaning chegarasi bo‘ladi axir. Oxiri toqatim toq bo‘ldi. „Hoy yaxshilar, agar biz yozgan dasturxon bilan turgan uyingiz sizlarga yoqmayotgan bo‘lsa, marhamat, aqchadan cho‘zing, hoziroq bitta quling o‘rgilsin saroyga ko‘chib o‘tamiz!“ – dedim. Ularga gap uqtirib bo‘ladimi? Onam munkillab qolgan, bir tomondan ukalarim sag‘ir bo‘lsa...

Bir ilojini topish kerak... O‘zingni o‘tga-suvga ursang ham... Ammo-lekin odam o‘zini o‘zi idora qilishi qiyin bo‘larkan. Bo‘lmasa yoshim o‘ttizda, salomatligim joyida, avji kuchga to‘lgan paytim... Gapning ochig‘i, qiziq bir odatim bor: ko‘zimga nima ilinsa, shuni ko‘nglim tusaydi... Tuzukroq ovqat ko‘rsam, yegim keladi!.. Yaxshiroq kastummi yoki ko‘ylakmi uchrab qolsa, sira begona qilmayman! Menimcha, buning hecham aybi yo‘q. Nima, boshqalardan kam joyim bormi?! Nima uchun men izg‘irin sovuqda ishdan qaytayotib loy kechishim, magazinlarni chetlab o‘tishim kerak ekan? Ko‘chama-ko‘cha diydirab yursam maylimi? Tag‘in har qadamda ust-boshingizga loy sachratib o‘tadigan shohona limuzinlarni aytmaysizmi. Mana shunaqa

mashinalarda gerdayib o'tib qoladigan oliftalarning ba'zilarini taniyman ham. Bularning oshig'i olchi. Kayf-safodan sira boshlari chiqmaydi, pulni xazondek sovurib yurishadi. Xo'sh, ularning mendan nimasi ortiq? Nima uchun ularning tagida mashinasi bor, nima uchun ular aysh-ishrat qilib yuradi-yu, men bo'lsam adashgan it kabi ko'chama-ko'cha loy kechib, tentirab yurishim kerak? To'yib ovqat yeyolmasam, tuzukroq kiyinolmasam! Birovni yaxshi ko'rsam-u, ko'nglini ololmasam! Shu ham insofdanmi axir? Haqiqat degan narsa bormi o'zi?..

O'zimni qo'yarga joy topolmay, ko'p qiynaldim, azob chekdim va, nihoyat, kalavanning uchini topdim: otam had-dan tashqari halol odam bo'lgan ekan. Tushunchalari eskirib qolganini o'zi payqamagandir. Otam bu dunyodan yaxshi ot qoldirib o'tsang, bas, bola-chaqang uchun eng katta boylik shu bo'ladi, deb o'ylagan bo'lsa kerak... Ming halol bo'lganing bilan qorin o'z-o'zidan to'yib qolmaydi-ku, axir... O'sha yaxshi otning yoniga ozroq aqcha ham qo'shilganida ancha durust bo'lardi. Sariq chaqasiz qolgan avlod ko'pga bormaydi. Birinchi, nari borsa, ikkinchi bo'g'in bir amallab chidashi mumkin-u, lekin uchinchisi albatta asfalasofilinga ketadi... Darvoqe, dadamning shu qilgan ishi yaxshimi yoki yomonmi - bu haqda men bir nima deyolmayman... Qo-laversa, boyvachchalarning hammasi ham onasining qornidan pul changallab tushmagan-ku, axir. Mutlaqo! Vijdonini yutgan bu odamlar qo'liga nimaiki tushsa, shuni pullagan, oshirib sotgan, binobarin, o'z manfaatini ko'zlab boylik to'plagan!.. Xo'sh, men o'zimni lapashang deb hisoblamayman, bas, shundoq ekan, nima uchun men ham shu yo'ldan bormasligim kerak? Hadeb ko'z yoshi qilib, sho'r peshanadan noligandan ko'ra omadni bir sinab ko'rsam bo'lmaydimi? Qoyil qilsam, juda soz! Bordi-yu, eplay olmasam, har holda o'zimni o'zim koyishdan qutulaman-ku. Ana undan keyin peshanadan nolib yursa ham bo'laveradi!..

Qoramag'izdan kelgan, sochlari tim qora bir yigit shu alfozda hasrat qilib turardi. Xuddi sassiq ko'zanga o'xshab basharasi sovuq, oppoq va o'tkir tishlari turtib chiqqan yigit bir oy burun buxgalteriyada xat tashuvchi bo'lib ishlardi:

shirkatdagi bu ishidan ketganidan keyin bugun ba'zi qolgan narsalarini olish va shu bahonada hamkasb o'rtog'larini ko'rib chiqish uchun idoraga kelgan ekan.

Tushlik tanaffus payti edi. Kattalar, odatdagidek, ro'paradagi oshxonaga kirib, tuxumli salatni yoxud loviya bilan yaxna mol go'shtini paqqos tushirayotgan bo'lsalar kerak. Yaxna go'shtni karmoni ko'tarmaydigan mayda-chuyda xizmatchilar esa bir burda non bilan pishloq yoki zaytunni chaynab, sobiq hamkasblarining gapini eshitib o'tirishibdi.

Idora stoliga uzala tushib olgan yigit betartib sochilib yotgan rasmiy qog'ozlarni poshnasi bilan titib qorishtirgan-cha, yana gapni ulab ketdi:

– Shundan keyin omadni bir sinab ko'rmoqchi bo'ldim... Bu yerdagi hayot shunaqayam jonimga tegdiki, asti qo'yaverasiz! Soqoli chiqqan kap-katta odamlar maktab bolasiga o'xshab kun bo'yi mukkasidan sho'ng'ib o'tirsa-ya, Hammasi tuzlangan baliqqa o'xshab bitta hujraga tiqilib olgan-u, tag'in ishlari joyida emish... Bu la'nati qog'ozbozlikdan hech naf yo'q... Joningni jabborga berib ishlaganingdayam zo'r kelsa o'n-o'n besh yildan keyin oyligingga bir-ikki qurush qo'shiladi, xolos. Yoki bo'lmasa, zora birovnini ishdan haydashsa, zora birortasi olamdan o'tsa, deb ikki ko'zing to'rt bo'lib yuradi. Chunki yuqoriroq mansabga minish uchun bundan bo'lak iloj yo'q. Shularni o'ylab: „Tavakkal!“ – dedim. „Oltin yaproq“ shirkati bilan xayr-ma'zur qildim. Mana, oradan bir oy o'tdi, balki kamroqdir, ammo orqaga qaytish yo'q. Agar chorig'imni sudrab yurmayman desang, shartta jo'navorgan ma'qul ekan. To'g'rimi gapim?..

U yangi olgan ust-boshini rosa ta'riflab ketdi, g'alati gulli ipak paypog'ini, yangi ko'ylagini, hammaga birma-bir ko'rsatib chiqqach, mayig'ida kuldi:

– Sizlar hoynahoy meni yomon ko'chaga kirib ketgan bo'lsa kerak, birovlarni shilib yoki o'ldirib yurgandir, deb o'ylayotgandirsizlar-a? Yo'q, Xudo asrasin! Qiladigan ishim shuki, bir odamga qarashib yuraman, xolos. Bojxonadan bir amallab unga mol undirib beraman... Chang yutish yo'q. Hozircha maoshim unchalik ko'p emas-u, lekin o't-betdan

tomib ham turadi. Oz bo'lsayam, har holda yetib turibdi. Xudoga shukur, kamchilik joyimiz yo'q!

Bu omadi yurishgan yigitga hamkasblari zo'r sportchini ko'rib angrayib qolgan yosh bolalarga o'xshab, havas bilan tikilishardi. Oralarida yoshi ulug'roq bir kishi chuqur xo'rsinib olgach: „Ha endi bizdaqalarga yo'l bo'lsin, sen bilan tenglashib bo'larmidi.“ – deb qo'ydi. Bularning orasida faqat bir kishining – yuzi kuygan qirq yoshlar chamasidagi kotibning parvoyi falak edi. Boshini kaftiga qo'yib, ko'zini chirt yumib olgan bu odam xayol surib o'tirar, o'qtin-o'qtin nasibasidan tishlab, erinibgina tamshanib qo'yardi...

Sassiq ko'zanga o'xshagan yigit stoldan tushib, temir pechkaga yaqinlashdi-da, sigaretini tutatib oldi. Keyin xonaning ichida u yoqdan bu yoqqa yurib, ishlayotgan joyini, bojxonani, savdodagi hiylalarni, cho'ntakka o'zi oqib keladigan dasta-dasta pullarni ta'riflay ketdi. Hamma gapi g'irt yolg'on bo'lishi ham mumkin. Biroq tinglab o'tirgan odamlar o'z turmushlaridan norizo bo'lganlari uchun ham uning gaplariga laqqa ishonishardi. Bular zax xonada kun bo'yi ko'milib ishlab, evaziga olinadigan besh-o'n chaqa bilan qo'l uchida tirikchilik o'tkazib kelayotgan bir paytda boshqalarning qop-qop pul topayotganini eshitib, taqdirga la'natlar o'qiyotgan bo'lishlari ham mumkin...

Yigit baland peshtaxta orqasida, qorong'i bir burchakda qisilib o'tirgan cholga qo'qqisidan ko'zi tushdi-yu, mulzam bo'lib labini tishlab qoldi.

Xo'sh, bu chol kim o'zi, boyadan beri javrab turgan mehmon nega uni ko'rishi bilan jimib qoldi? Uning ism-sharifi Ali Rizobey. U oltmishlarga chiqqan bo'lib, ilgari katta lavozimlarda ishlab kelgan, hatto butun bir viloyatni tebratib, yurgan. Tabiatan kamgap, sipo ko'rinishli bu odam, odatda, gap-so'zga aralashmay, bir burchakda jimgina o'tirardi. „Lekin shunga qaramay shirkatdagilar uni hurmat qilishar, o'zi o'qimishli, nozikta'b va muloyim odam bo'lgani uchun hatto boshlariga ko'tarib yurishardi.

Ali Rizobey ham oshxonaga qadam bosmasdi. Shu topda u alumin tog'orachasidagi ko'kimtir zaytun bilan kotletini yeb o'tirgan edi. Mehmonning boyagi gapi uning izzat-naf-

sig tegdi. Ishtahaning beliga tepding, deganday qo'lidagi vilkani bir chekkaga qo'yib, boshini ko'tardi. Yigit xijolat bo'lganini yashirish uchun arang jilmayib, yana gap otdi:

– Bu gapim sizga yoqmadimi, bey afandim? Ha, nima ham qilardik, gap kelganda otangni ham ayama, deydilar.

– Men sizga aytsam, birovlarining ishiga aralashishni yomon ko'raman, – dedi Ali Rizobey biror gunoh ish qilib qo'ygan maktab bolasiday xijolat tortib. – Siz ko'nglingiz nimani tusasa, shuni qilishingiz mumkin. Lekin bitta e'tirozim bor, ijozat bersangiz, shuni aytmoqchiman. Xo'sh, odamlarni g'ulg'ulaga solishning nima keragi bor: hamma tinchgina ishlab o'tiribdi, ehtimol ishi va turmushidan rozidir hammalari, siz bo'lsangiz bekorga bularni g'ulg'ulaga solyapsiz... Bu ishni yaxshi niyatda qilyapsiz, bilaman, lekin imonim komilki, chuqur o'ylab ko'rsangiz, mening bu gapimga albatta qo'shilasiz...

Ali Rizobey mehmon bilan bahslashib o'tirishni o'ziga ep bilmay turgan edi, lekin yigit ham bo'sh kelmadi.

– Gapingizga qo'shilishim mumkin edi, bey afandim, – dedi yotig'i bilan yigit, – ammo odamlarning ko'zini ochmoqchi bo'lgan yolg'iz men emasman. Gap shundaki, hozir zamon boshqa, odamlar bor haqiqatni faqat bir-birlaridan eshitib bilayotganlari yo'q. Bizni o'rab olgan voqelik yoki, gazetalarning tili bilan aytganda, „iqtisodiy turmush shartlari“ bizni o'sha haqiqatdan ogoh qilmoqda!.. Jahon urushidan keyin odamlar juda o'zgarib ketdi: hammaning aqli oshib, quvuroq bo'lib qoldi... Siz tengilarni hozirgi avlod bilan solishtirib bo'lmaydi. Boriga shukur qilib, g'aflatda yashashni endi hech kim xohlamaydi. Odamlar mol-dunyoga hirs qo'yishgan... Oqibatda nima bo'lyapti: eski axloq tag-tagidan yemirilyapti, binobarin, bu jarayonni to'xtatib qoladigan kuch dunyoda yo'q. Balki siz boshqacha fikrdadirsiz?

Ali Rizobeyning rangi oqarib, lablari pирpirab ketdi.

– Men keksa bir odamman, albatta, – deb javob berdi u titrog'ini yashirish uchun soxta kulimsirab. – Bizga o'xshagan keksalarning gapiga tushunish qiyin bo'lar-u, ammo men umrim bo'yi mol-dunyo bilan baxtga erishib bo'lmay-

di, deb kelganman. To o'lgunimcha shu fikrimdan qaytmayman.

– Ba'zi gaplaringizga qo'shilsa ham bo'ladi, – iltifot qilganday bo'ldi mehmon. – Lekin sizga dalil keltirish uchun bitta misol aytishim mumkin. Odam bolasi duo o'qisa yoki kuy eshitsa, dili taskin topadi, bog'ga qarasa, gul o'stirsa yoki o'g'il-qizini katta qilsa, ovunib yurishi mumkin. Ammo bu bilan uning qorni to'yib qolmaydi, hammasiga pul kerak. Aytaylik, siz gulchilikni yaxshi ko'rasiz-u, lekin hamyonda sariq chaqayam yo'q. Har qancha urinib ko'rmang, o'g'it solmasangiz, quruq yerda gul yaxshi unmaydi... Siz oila boshlig'isiz, bola-chaqalisiz, lekin puldan qiynalib qolgansiz. O'ylashimcha, pul bo'lmagandan keyin farzand quvonchi ham yurakka sig'maydi. Oqibatda yosh qaytgandan keyin bog'ingizni faqat xazon bosib ketadi, xolos. O, turgan-bitgani g'amxona bo'ladi!..

Ali Rizobey tovoqchadan boshini ko'tarmay, tamad-dini tezroq tugatmoqchi edi-yu, lekin ishtahasi bo'g'ilib, tomog'idan ovqat o'tmay qoldi. Yigitning oxirgi gapi unga qattiq botdi. Ha, u besh farzandning otasi, hali birortasini ham oyoqqa turg'azgani yo'q. „Iqtisodiy turmush shartlari“ degan narsa ertami-kechmi uning farzandlari ko'zini moshdek ochadi, ana o'shanda ular ham bu achchiq haqiqatdan ogoh bo'lishadi – buni eshitishlik Ali Rizobey uchun og'ir edi, albatta.

Umr bo'yi u bolalarini halol va insofli bo'lishga da'vat etib keldi. Nahotki yangi zamon ularni ham buzsa? Nahotki shunchalik mehr qo'yib katta qilgan bog'i umrining oxiriga kelib xazon bo'lsa?

Ali Rizobey ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lib yuradiganlardan emas. Ilgarilari ham ko'ngli ko'p xijil bo'lardi. Ammo vaziyat unga hech qachon bunchalik xatarli bo'lib tuyulmagan edi. Umrida Xudodan najot so'ramagan bu odam ham beixtiyor: „Bolalarimni o'z panohingda asra, Parvardigor!“ – deb pichirlab qo'ydi...



Usmonli imperiyasidagi mansabdorlar tabaqasining ayni vakili, Bobi oliyda<sup>1</sup> suyagi qotgan Ali Rizobey o'ttiz yoshga qadar tashqi ishlar vazirligi devonida halol xizmat qildi, umrining oxirigacha shu mansabda qolib ketgan bo'lar-di-yu, lekin oilaviy sharoiti tufayli ishi o'zgardi. To'satdan otasi qazo qildi, ikki oy o'tar-o'tmas onasi ham olamdan o'tdi. Istanbul ko'ziga tor ko'rinib ketdi. Xuddi shu orada uni Suriyaga uyezd hokimi qilib tayinlashdi. Shundan keyin uning musofirlik yillari boshlandi.

Ali Rizobey Istanbuldan jo'nab ketayotganiga xursand edi. Meni yotgan o'rnim – g'amguzor to'shagim yoki uyda-gi buyumlarim battar kasal qilyapti, deb yuruvchi ko'pchilik laqma bemorlarga o'xshab, Ali Rizobey ham, bu yerdan boshimni olib ketsam, dilim taskin topar, deb o'ylardi...

U rappa-raso yig'irma besh yil Istanbuldan uzoqda yashadi, Anatoliyada ko'rmagan joyi qolmadi, shu vaqt ichida bir necha bor xizmatini o'zgartirdi.

Ali Rizobey mehnatdan qochmaydigan, o'qimishli odam edi-yu, lekin bilimi va tirishqoqligining ishga nafi tegmasdi. U talay tillarni bilardi: arab va fors tillaridan tashqari inglizcha va fransuzchani ham o'rganib olgan edi. Yoshligida adabiyotga havasi baland bo'lib, uch-to'rtta she'ri taxallus bilan jurnallarda bosilib ham chiqqan. Falsafa bilan tarixga juda qiziqardi, bo'sh vaqtlarida uydagina emas, hatto ish paytida ham mutolaa qilardi. Uzoq yillar davlat xizmatida ishlab, yo'l qo'ygan birdan bir noma'qulchiligi ham shu edi – ish vaqtini davlatga to'la bag'ishlash kerak-da, axir...

Ali Rizobey sirkasi suv ko'tarmaydigan darajada oriyatli, haddan ziyod kamtar va xushmuomala odam edi. Mansabini suiiste'mol qiladigan yoxud qonun-qoidani buzadigan amaldor davlat oldida, o'z vijdoni oldida qattiq gunohga botadi, deb hisoblardi u. Hammadan ko'p u o'zini tejab-tergardi: zero, uning fikricha, odam bolasining har bir xatti-harakati faqat qonunga emas, balki axloq qoidalariga ham mos tushmog'i kerak. Xullas, uning shiori bitta edi: vijdon va

<sup>1</sup> **Bobi oliy** („oliy eshik, dargoh“) – Usmonli imlariyasining hukumati shunday deb atalardi.

insof bilan ish tut! Biroq shu xislatlariga qaramay u kuyib-pishib ishlamasdi. Ali Rizobeyni yaxshi bilgan odamlar uning to'g'risida shunday deyishardi: „Tillo odam, naq avliyoning o'zi... Birov uchun jonini ham ayamaydi: uni duo qiladi, kerak bo'lsa she'r o'qib beradi, ilmdan bahs ochadi. Ammo bitta kamchiligi bor – oyog'iga yiqilib yalinsang ham, ishingni ko'ngildagidek qilib bitirib berolmaydi!..“

Ali Rizobey kech uylandi, yoshi qirqqa chiqib qolganda ro'zg'or qildi. Oila qurish uning nazarida yangi davlat barpo qilish degan gap edi. Bir kuni uning yaqin do'sti, qarindoshimning qizi bor, shuni senga olib beraman, deb qolmaganida, ehtimol, u bu xatarli ishga umuman qo'l urmagan bo'lardi. Ali Rizobey do'stining gapini ikkita qilgisi kelmay, bunga rozilik berdi.

Uning baxtiga xotini mulohazali, andisha bilan ish tutadigan ayol chiqib qoldi. Ochig'i, kelinbola yigirmaga chiqqan deyishgan bo'lsa-da, kamida yigirma beshni urib qo'rgan ekan-u, lekin ikkovi totuv yashab ketishdi.

To'ydan keyin Ali Rizobey zurriyot masalasiga e'tibor bera boshladi. Qolaversa, xizmatda sarf qilinmagan hafsala bu sohada unga qo'l keldi. Nari-berisi bilan yetti yil deganda oila besh kishiga yetdi. Oradan to'rt yil o'tar-o'tmas xotini yana bir qiz tug'ib berdi. Endi u olti jonni boqishi kerak.

Ali Rizobey ilgarilari she'r bitib yurgan paytlarida: „Ko'rmoq kerak uzoqdan voqealar girdobin“ degan gapni ko'p qaytarardi. Mana hozir ham u amali katta bo'lishiga qaramay, dunyo tashvishlaridan nariroqda, bir chekkada qo'l qovushtirib turishni ma'qul ko'radi. Hayot oqimini si-rayam o'zgartirib yoki boshqa yo'lga solib bo'lmaydi- azaldan shunday bo'lib kelyapti va shunday bo'lib qoladi. Bunga uning imoni komil edi.

Biroq turmush uni o'z bilgisicha ish tutishiga qo'ymadi. Birin-ketin dunyoga kelib turgan farzandlari uni bu ahddan qaytishga majbur qildi. Beshta bolani boqish va ayni paytda hayot oqimiga chetdan qarab turish aslo mumkin emas. Ishda kamhafsala va loqayd bu amaldor bola-chaqasining halovati uchun hech narsadan tap tortmaydigan mehribon otaga aylandi. Kecha-yu kunduz jigargo'shalarining g'amini

yeb yurishlik unga malol kelmadi. Aksincha, o'zini u baxtli deb yurardi. Ishdan charchab kelgan kezlari faqat bir narsa uning ko'nglini g'ash qilardi. „Boshimga bevaqt o'lim kelsa, unda nima bo'ladi?“ Lekin, shu zahotiyoyq u o'ziga o'zi tasalli berardi: „Bo'lmagan gap, hali tetikman, kuch-quvvatim joyida. Xudo xohlasa, kamida yana yigirma yilcha umr ko'raman, oilamni boqishgayam qurbim yetadi...“

Yana yigirma yil umr ko'rsa jon derdi, albatta. Loaqal o'n yil turib bersa ham mayliydi. Attang, kichkintoyi Oysha hali juda yosh-da, ha, mayli, dunyoga kelganidan keyin noshukurlik bo'lmasin, bir iloji topilar. Issiq jon, agar bir nima bo'ladigan bo'lsa, kattalarga omonat topshirib ketadi. Qizchani yolg'izlatib qo'yishmas, axir. Buning uchun ularga yaxshilab tarbiya berish kerak, xolos.

Biroq kutilmaganda Ali Rizobeyning tuzib qo'ygan rejaları chippakka chiqdi. Ellikka chiqqanida u davlat xizmatini tark etishga majbur bo'ldi. O'sha kezlari u Trabzon<sup>1</sup> viloyatida mutasarriflik lavozimida edi. Bir kuni uning qo'l ostidagi sanjoqlardan birida xunuk voqea ro'y beradi: bir yigit boshqa birovning xotini olib qochmoqchi bo'ladi. Ikki o'rtada pichoqbozlik bo'lib, er ham, yigit ham qattiq jarohatlanadi. O'sha ayolning eri – kambag'al bir dehqon, uni olib qochmoqchi bo'lgan yigit esa hammani o'z izmiga qaratib olgan badavlat bir odamning o'g'li. Natijada o'zining or-nomusini himoya qilgan kambag'al dehqon qamoqqa tushadi, jino-yatchi esa hech nima ko'rmaganday yallo qilib yuraveradi. Odatda, birovlarining ishiga aralashishni yoqtirmaydigan Ali Rizobey bu voqeadan xabar topgach, g'azabi qaynab, adolatni tiklamoqchi bo'ladi. U ko'p urinib ko'radi, oxiri o'zini iste'foga chiqishga majbur qilishadi. Uning boshqa iloji yo'q edi. Nima, vijdoniga xilof ish qilsinmi! Bu uning burchi edi axir, agar shunday qilmaganida katta gunohga botardi, keyin o'zi bo'lmasa, avlod-ajdodi Xudoning g'azabiga duchor bo'lardi...

Ishdan bo'shagan mutasarrif Istanbulda ancha vaqt bekor yurdi. Yonida sariq chaqa ham yo'q. Darvoqe, besh

---

<sup>1</sup>Trabzon – Turkiyaning Qora dengiz sohilidagi shahar, viloyat markazi.

bolani faqat maosh hisobiga boqib yurgan odamda pul nima qilsin ham. Bo'g'ozning naryog'ida, Uskudardan yuqoriroqdagi Bog'larboshi degan joyda otasidan eski bir hovli qolgan edi, jonlariga shu ora kirdi. Bola-chaqaga, avvalo, boshpana kerak, shuning uchun u xotining bisotidan ba'zi narsalarni sotib, uyni tuzatib oldi.

Ali Rizobey ishdan bo'shayman deb o'ylamagan edi sira. Agar yolg'iz o'zi bo'lganida ochlikdan tirishib o'lsa ham ikkinchi bor davlat ostonasiga qadam bosmasdi-ya. Lekin iloj qancha, bola-chaqani o'ylash kerak. Mana shuning uchun ham biror amal berisharmikan degan maqsadda uning yalinib-yolvormagan vazirligi qolmadi.

Bir kuni u ichki ishlar vazirining kabinetini oldida baland bo'yli, yosh bir yigit bilan uchrashib qoldi. Yigit yugurib kelib, uning qo'lini o'pa ketdi.

– Meni tanimadingizmi, ustoz? Men Muzaffarman, Qo'lingizda o'qiganman.

Ali Rizobey tikilib qarab, uni tanidi. Ancha yil burun qaysi bir viloyatdayam u yarim yilcha dars bergan edi. Ha, o'shanda shahar gimnaziyasining tarix o'qituvchisi betob bo'lib qolgandi. Muzaffar o'sha yerda o'qirdi. Idroki baland, tirishqoq bola edi. Mana endi vazirning xonasidan vaqti chog' chiqib, koridorda kerilib yurishiga qaraganda katta odam bo'lib ketganga o'xshaydi. Ali Rizobey yanglishmagan ekan: Muzaffar ikkita katta shirkatda kengash a'zosi-yu „Oltin yaproq“ shirkatida esa bosh direktor ekan. Muzaffar keksa ustozini nochor ahvolga tushib qolganini eshitgach, qo'lidan kelgan yordamini ayamastligini aytdi.

U keksayib qolgan odam uchun tupkaning tagiga borib ishlash og'irlik qilishini, shirkat Angliya va Misr bilan savdo aloqalari o'rnatgani uchun hozir ingliz hamda arab tillarini yaxshi biladigan odamga muhtoj ekanini yotig'i bilan tushuntirdi. Gap orasida u: „Siz bizga katta yordam berishingiz mumkin, maoshdan ham yutqazmaysiz, hatto ilgarigidan ham ko'proq topasiz“, – deb qistirib qo'ydi...

Ali Rizobey bu taklifni jon deb qabul qildi. Zotan u har qanday ishga ham rozi edi. Ishqilib, Istanbulda qolsa bo'ldi:

bola-chaqa katta bo'lib qolgan, ularni ilgarigiday ergashtirib yurishning iloji yo'q endi.

Shunday qilib, iste'fodagi mutasarrif „Oltin yaproq“ deb atalmish xususiy shirkatga ishga kirdi. Besh yilgacha u dam olish nimaligini bilmay, ertadan kechgacha jonini jabborga berib ishladi, bir o'zi uch odamning ishini qilib yurdi. Uning bunchalik ter to'kib ishlashining ikkita sababi bor edi: birinchidan, Muzaffar qilgan savob ishi uchun pushaymon bo'lib yurmasin, ikkinchidan esa, tarjimonlik ishi o'ziga juda ma'qul kelgan edi. Nega deganda bu lavozimda ishlagan odam faqat „halol vositachilik“ qilib, so'zlarni to'g'ri tarjima qilib tursa bas, birovlarining taqdiri uchun u mutlaqo javobgar emas...

### 3

Ichkariga kirgan mulozim chol Ali Rizobeyga yuzlandi:

– Bir xotin seni so'rayapti, bey. Leman xonimning onasi emish.

Leman shu idorada mashinistka bo'lib ishlaydi. Bundan o'n-o'n ikki yilcha burun Ali Rizobey qaysi bir viloyatdayam ishlab yurgan kezlari uning otasi bilan tanishib qolgandi. U kishi o'rmon qorovuli edi. O'shanda Leman sakkiz yashar qizaloq edi. U ko'pincha bolalar bilan o'ynagani bularning uyiga kelib yurardi.

O'tgan yili Uskudardagi sohilda go'zal bir qiz Ali Rizobeyning oldiga kelib, qo'lini olib o'pdi-da, sira tortinmasdan: „Tanimayapsizmi, Ali amaki? Men Lemanman, qizlaringiz bilan o'rtoq edim“, – deb qoldi.

Leman besh yilcha burun otasi qazo qilganini, hozir onasi bilan Findiqlida turishini oqizmay-tomizmay gapirib berdi. Shu yillar ichida ona-bola rosa qiynalgan ko'rinadi. Qiz yuragini ochib gapirgani uchun Ali Rizobey ta'sirlanib ketdi.

Garchi u otasi bilan quyuq munosabatda bo'lmagan bo'lsa ham, qizi qatori bo'lib qolgan Lemanning boshiga tushgan qiyinchiliklarni eshitib, qattiq ezildi. Qiz biror

yerda qoyil qilib o'qimagan bo'lsa ham, xat-savodi durust edi, mashinkada yozishni bilardi. Ali Rizobey bir amallab uni idorasiga – oyiga qirq besh lira oladigan mashinistkalik ishiga kiritib qo'ydi.

Lekin bu bilan uning ko'ngli tinchimadi. Birov ko'z-quloq bo'lib turmasa, qiz bola ming baloga giriftor bo'lishi mumkinligini bilgani uchun Lemanga qo'ldan kelganicha otalik qilmoqchi bo'ldi. Axir bir kunmas bir kun o'zining qizlari ham shu holga tushishi mumkin-da.

Ali Rizobey bu ishga jiddiy kirishdi. Ammo oradan bir-ikki hafta o'tgandan keyin hafsalasi pir bo'ldi – allaqachon g'isht qolipdan ko'chgan ekan. Ehtimol, Leman es-hushli qizdir, lekin tarbiyasi chatoq bo'lgani uchun nuqul idoradagilarga bachkana qiliqlar qilib, odob doirasidan chetga chiqib yurardi.

Ali Rizobey bir-ikki marta unga tanbeh bergan ham bo'ldi. Leman itoat bilan gapiga quloq solib turar, hatto qilmishidan xijolat chekkanday ham bo'lar, lekin yarim soat o'tar-o'tmas yana eski holiga qaytardi.

Bir kuni Ali Rizobey g'azabi qaynab uni qattiq koyib tashladi. Leman birpasda povullab, menga o'rgatmang, deb jerkib berdi. Keyin u ishga kiritib qo'ygani uchun Ali Rizobeydan g'oyat minnatdor ekanini aytib, shu qilgan yaxshiligini pesh qilgan holda hadeb birovning turmushiga aralashaverish, bo'lar-bo'lmasga aql o'rgataverish yaramaydi, deb qo'shib qo'ydi...

Chol boshini chayqab, miyig'ida kulib qo'ydi. „Mayli, bolar, bilganingni qil! – dedi u Lemanga. – Qattiq gapirgan bo'lsam, menday keksa odamni kechir!“

O'sha kundan keyin Ali Rizobey unga chap berib yurdi, uchrashib qolguday bo'lishsa, churq etib og'iz ochmadi. U qilgan suyuqliklarini eshitib qolgan kezlarida esa „Hamma ayb o'zimda, shu yoqqa o'zim boshlab kelganman...“ – deb o'zini o'zi koyib tashlardi..

O'n kundan beri Leman ko'rinmay qolgan edi. Balki betobmikin?.. Birovdan so'ragani Ali Rizobeyning tili bormadi.

U koridorga chiqqach, eski bir qora chodra yopingan, jussasi kichikroq notanish ayolga ko'zi tushdi.

– Keling, singlim! Menda nima xizmatlari bor? – dedi Ali Rizobey uning betiga ham qaramay.

Ayol churq etmay turaverdi. Shundagina Ali Rizobey uning ozib ketgan za'faron yuziga, yig'idan shishgan qovoqlariga tikilib qaradi. Boyoqish bezgak tutganday dag'dag' titrardi.

– Qizingizga bir nima bo'ldimi?– jon holatda so'radi u kechagina Lemanga achchiq qilib yurganini ham unutilib.

– Lemanga hech nima bo'lgani yo'g'-u, lekin o'limiga roziydim! – dedi onasi va alamiga chiday olmay ho'ngrab yig'lab yubordi.

Ali Rizobey nima voqea yuz berganini kampirdan eshitgach, o'zi ham ichida shu xulosaga keldi: ha, bunaqa isnodni ko'tarib yurgandan ko'ra Lemanning o'lib ketgani ming marta afzal edi...

Qizni shirkat direktori Muzaffarbey yo'ldan uribdi... Bundan o'n kuncha oldin Leman, Shahzodalar orollarida turadigan o'rtog'im turmushga chiqyapti, bir o'ynab kelaman, degan bahonani qilib, onasidan uch-to'rt kunga ruxsat olibdi... Keyin bilsa, u shuncha kun kasalxonada yotib, bolasini oldirgan ekan!.. Kecha uni bir holatda uyiga tashlab ketishibdi. Onasi bo'la turib, kampir bu gaplarni begona odamlardan eshitibdi.

Ali Rizobeyning yuragi shuv etib, tizzasi qaltirab ketdi. Rangi quv o'chdi, ichini vahm bosdi, bechoraning boshiga tushgan musibatda aybi borday, hatto xijolat ham bo'ldi.

– Eh, chakki bo'пти, – dedi u kalovlanib.

– Sizdan boshqa hech kimimiz yo'q, o'rgilay! – yolvordi kampir uning oyog'iga o'zini tashlamoqchi bo'lib. – Endi nima qilaman? Yo'l-yo'riq ko'rsating, yordam bering! Ilohim bola-chaqangizning orzusini ko'ring...

Ochig'ini aytganda, shu topda Ali Rizobey qizchani yo'ldan urgan o'sha muttahamni emas, o'zini qattiq koyib turgan edi: Lemanni bu yoqqa boshlab kelmaganida shu ish yuz bermagan bo'lardi-da, axir! Kampir najot so'rab kelganining ham sababi bor. Har qalay eskidan tanish, bundan boshqa yaqin odamlari yo'q. O'sha gumrohning ta'zirini berib qo'yish uning burchi emasmi axir?

Ali Rizobey o'zini bosib, kampirga taskin bermoqchi bo'ldi.

– Singlim, qo'yingizni puch yong'oqqa to'ldirib, sizga quruq tasalli bermoqchi emasman, albatta. Men qat'iy bir va'da berolmayman, ammo qo'limdan kelganicha urinib ko'raman. Aminmanki, Muzaffarbey Lemanga uylanaman, deb va'da qilgan. Aybini yuvadi... Ko'p ham kuymang... Odamzod aslida pokiza narsa, gapimga ishonimg!..

Ali Rizobeyning sochi davlat xizmatida oqargan, odamlarni u besh qo'liday yaxshi biladi, albatta. Ammo bu o'qimagan kampir uning gapiga ishonmadi, undan bir og'iz iliq so'z eshitmay, yig'lab-siqtab orqasiga qaytdi.

#### 4

Shu tashvish o'zi kamlik qilib turuvdi!.. Vaqtini o'tkazmay tezroq borib, Muzaffarbey bilan gaplashib qo'yish kerak. Ishga kiritib qo'yib, keyin shuncha vaqt holidan xabar olib yurgan qizini shirkat direktori nomusiga tekkan ekan, demak, o'zi beixtiyor qo'shmachilik qilgan bo'lib chiqadi. Muzaffar aybini bo'yniga olgan taqdirdagina Ali Rizobey bu isnoddan qutulib, dili ravshan tortishi mumkin.

Bundan bir-ikki oy burun uning oyligini, o'n lira oshirishgan edi. O'sha kezlari u o'zi bilan birga ishlaydigan bir muttaham araqxor; „Hammaning ham qiblagohi bo'lsin ekan, oyligi o'z-o'zidan oshaverarkan!“ – deb orqasidan chalpigani tasodifan eshitib qolgan edi. O'shanda Ali Rizobey bunga e'tibor bermagan edi, mana endi kosa tagidagi nim kosani tushunib turibdi! Bunga qandoq chidab bo'ladi?.. To'g'ri hamma ham unga o'xshagan sodda emas. Muzaffar bilan Leman don olishib yurganini ko'pchilik allaqachon sezgan. Bu – Ali Rizobeyning ishi, deb o'ylab yurishgan bo'lsa kerak... Hamkasabalari rosa chalpi yurishgandir. Yuz amri shirin, deganday, faqat ko'rganda mulozamat qilishsa kerak, xolos...

Nahotki kelib-kelib sochi oqarganda isnodga qolib o'tirsa? Shu payt Ali Rizobey beixtiyor: „Muzaffar bilan gaplashib



o'tiramanmi, etagimni silkib bu yerdan chiqib ketaversam bo'lmaydimi?" degan xayolga bordi. Lekin darhol bu fikridan qaytdi. „Vayrona kulbada yor-birodar, jigarpora zor-intizor“<sup>1</sup> bo'lgan odam ko'rpasiga qarab oyoq uzatishi kerak. Qolaversa, hamma ish to'g'ri bo'lib ketadi, direktor nomardlik qilmaydi – bunga uning imoni komil edi...

Aksiga olib o'sha kuni juda to'polon bo'ldi. Xuddi ari uyasi buzilganday, direktorning xonasidan odam arimadi. Ali Rizobey Muzaffar bilan issig'ida gaplashib olmasa, keyin yurak yutib uning oldiga kirolmasligini bilardi. Agar shu bugun direktorning oldiga kirmasa, kechasi bilan uxlamay, ko'ngli g'ash bo'lib chiqishi mumkinligini o'ylab, qanday bo'lmasin bugun albatta uchrashib ketaman, degan qarorga keldi.

Kun bo'yi qo'li ishga bormay o'tirdi. Muzaffarga aytadigan gaplarini ko'ngliga tugib qo'ydi. Kechgacha chol bo'yoqish necha marta ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh oldi. Shunda u boshqalarga sezdirmaslik uchun shosha-pisha ro'molchasini olib, sekingina ko'zini artib qo'yardi.

\* \* \*

Ali Rizobey zarur yumushi bormi yoki yo'qmi – bundan qat'i nazar, qishin-yozin ishxonaga har kuni ertalab soat to'qqizga qolmay yetib kelardi. Kechqurunlari esa odamlarga o'xshab uyiga ketmasdan, ko'pincha idorada allama-halgacha o'tirib qolardi. Shuning uchun ham uning bunday paytda kirib kelganiga direktor hayron bo'lmadi.

– Yana ishlab qolibsiz-da, ustoz, – dedi u sobiq o'qituvchisini koyigan bo'lib. – Ko'pam toliqtirmang o'zingizni... Ish bo'lsa qochmas.

Keksa odamning izzatini joyiga qo'yib, qanchalik hurmat qilma, baribir u aynimaydi, boshqalarga o'xshab bosar-tusarini bilmay qolib, ertaga boshingga chiqib olmaydi, buni Muzaffarbey yaxshi bilardi. Shunga ko'ra u Ali Rizobeyni boshqa xizmatchilaridan yuqori ko'rib, hamisha iltifot

<sup>1</sup>Bu misra mashhur hajvchi shoir Qo'ja Rog'ib posho (1698–1762) ning bir she'ridan olingan.

ko'rsatardi. Mana bugun ham u eshikdan kirib kelayotgan cholni ko'rishi bilan hurmati uchun odatdagiday o'rnidan turdi-da, nazokat-la uni yumshoq kursiga o'tqazib, sigaret tutdi.

Sho'ring qurg'ur Ali Rizobey kun bo'yi o'ylab qo'ygan gaplarini birdan unutdi-qo'ydi. Miyasi shishib, tiliga bir og'iz so'z ham kelmay qoldi. Yo'q, u bor gapni aytishi kerak! Shundan keyin Ali Rizobey bir nimalar deb chuldirab ketdi.

Oldiniga Muzaffarbey uning nima deyayotganiga tushunmadi. Oldidagi konvert betiga allanimalar chizib, o'qituvchisining gaplarini muloyimgina eshitib o'tirdi. Lekin saldan keyin bu tumtaroq gaplarning zamirida nima yotganini tushungach, birdan avzoyi o'zgardi.

Ali Rizobey direktorning aybini bo'yniga qo'yib, tavbasiga tayantiraman deb o'ylagan edi, lekin aksi bo'lib chiqdi. Bir payt bundoq qarasa, Muzaffar unga ko'zini qadab, xuddi yeb qo'yguday bo'lib tikilib o'tiribdi. Buni ko'rib, Ali Rizobey battar dovdirab qoldi... Yuragi po'killab, boshi gangidi. Shu payt miyasiga kelgan bir fikrdan o'zi ham qo'rqib ketdi: Muzaffar u o'ylaganchalik anoyi emas. Sobiq o'qituvchisini u shunchaki hurmat qiladi. Direktor uni durustgina xizmatchim deb biladi, xolos; sobiq o'quvchisining nazarida u shunchaki bir beozor chol. Ikki og'iz gap bilan uni insofga chaqirmoqchi bo'ldi-ya! Voy qarib quyulmagan chol-ey! Unga gapirding nima-yu, devorga gapirding nima, shuni bilmasmiding axir. Mana, ishonmasang chertib ko'r, qanaqa tosh devorligini bilasan!!. Rasvo bo'ldi!..

Muzaffar sirkasi suv ko'tarmaydigan, kajbahs odam, bo'lar-bo'lmasga tumshug'ini tiqib, shaxsiy ishiga aralashib yuradiganlarni u sira yoqtirmaydi. Ali Rizobey buni endi yaxshi tushunib oldi, lekin kech tushundi. U orqa-o'ngiga qaramay o'zini tuturiqsiz nasihatlar girdobiga otdi, girdob uni chirpirak qilib tashladi, qirg'oqqa chiqib, jon saqlashga majoli yo'q endi...

Direktor yana birpas qo'yib berdi-da, keyin birdan uning gapini bo'ldi:

- Hammasi ravshan! Endi mendan ham bir-ikki og'iz gap eshiting. Sizni qanchalik izzat-hurmat qilishimni yaxshi bil-

sangiz kerak. Siz kamdan kam uchraydigan, hatto aytishim mumkinki, noyob odamsiz, hozir sizga o'xshaganlarni topib bo'lmaydi. Men sizga yolg'on gapirmoqchi emasman: to'g'ri, Leman bilan uchrashib yurgandim, bu aybimni bo'ynimga olaman. Sira ko'nglim yo'q edi, lekin nima jin urib ham unga elakishib qoldim. Innaykeyin, siz o'ylaganchalik vahimali joyi yo'q buning. Gapingizga qaraganda men unga uylanishim kerak, maqsadingiz ham shu. Sizga aytib qo'ya qolay: buning sira iloji yo'q! Ochig'ini aytsam, bu o'taketgan ahmoqlik bo'ladi, nega deganda, Leman xonimning qo'yniga kirib chiqqan bitta men emasman...

Ali Rizobeyning boshiga to'qmoq tushganday bo'ldi.

– Bey afandim! – dedi u jon holatda. – Uyalmaysizmi shunday degani!.. Leman– pokiza qiz... xayoli qiz... Hali go'dak... Beg'ubor go'dak.

– Gapingga ishonavering, bey afandim, – gapini bo'ldi Muzaffar, – sizni aldab nima qilaman. – Cholning laqmali-gini ko'rib, u jilmayib qo'ydi. – Leman siz o'ylaganchalik xayoli qiz emas... Erkak zotini ko'rsa, unga o'zini otadi. Pardali qilib aytganda, uning qo'li ochiqligini ko'plar sinab ko'rgan. Agar lozim bo'lsa, isbot qilib berishim mumkin. Hatto bola ham mendan bo'lmasa kerak. Shuncha odam turganda bolasi-ni nimaga menga yopishtirganiga o'zim ham hayronman, ehtimol, u amalimni o'ylab, shunday qilgandir, Ali Rizobey! Bu dunyoning ishlari siz o'ylaganchalik oson emas!..

Direktorning qo'li bilan „o'tiring!“ deb qistashiga qaramay Ali Rizobey tizzasi qaltirab, o'rnidan turdi.

– Demak, siz bechora qizning oldida zarracha javobgar emassiz, shundaymi? Men sizni hamon or-nomusli odam deb bilganim uchun ham bu haqda so'rayapman.

– Men unga yordam berishim mumkin... Faqat pul bilan... o'zigayam aytdim.

– Faqat shumi?

– Nima, hozirgi paytda odamlarga boshqacha yordam berish ham mumkin, deb o'ylaysizmi?

Ovozida kinoya va hatto o'kinch sezildi. Muzaffarbey darhol jiddiy tortib, tilyog'lamalikka o'tdi:

– Siz men uchun faqat ustoz emassiz, otam qatori odam-siz. Shuning uchun sizdan bir narsani so‘ramoqchiman. Xo‘sh, o‘zingiz nima deysiz, mana shunaqa juvonne xotin qilib olsam bo‘ladimi? Buning ustiga qornidagi bolasi bilan-a? Sizni ham men halol va or-nomusli odam deb bilganim uchun shu savolni beryapman. Faraz qilingki, bu ishni men emas, o‘g‘lingiz qildi. Xo‘sh, unga ham shu maslahatlar-ingizni ravo ko‘rarmidingiz? Lemanga o‘xshagan shilta bir xotinni uyingizga boshlab kirsam, rozi bo‘larmidingiz?

Bu savol Ali Rizobeyni gangitib qo‘ydi, ko‘zini yumgan ko‘yi xayolga cho‘mdi. Darhaqiqat, o‘zining o‘g‘li biror bu-zuq xotinni boshlab kelsa, uni uyiga kiritib, kelin qilgan bo‘larmidi?.. Agar, yo‘q desa, yengilganini bo‘yniga olgan bo‘ladi. Ha, mayli, shu muhim, lekin befoyda jangda yutib chiqish uchun bir marta yolg‘on gapirsa gapiribdi-da...

Ammo xunobi oshgan Ali Rizobey beixtiyor:

– Gapingiz to‘g‘ri, har holda, rozi bo‘lmasam kerak, – deb yubordi.

Muzaffarbey raqibining zaif joyini topib olganidan xur-sand bo‘lib, temirni qizig‘ida bosa qoldi:

– Unday bo‘lsa meni faqat shogird deb emas, o‘g‘lim ham deb biling...

Bunga nima derkin, degan ma‘noda u ustoziga qaradi. Lekin Ali Rizobey ham bo‘sh kelmadi.

– Agar shu noma‘qulchilikni mening o‘g‘lim qilganida, – dedi u asabiy holatda boshini egib, – ish oson ko‘chardi: uni oq qilib, ostonamga ikkinchi qadam bostirmasdim...

– Ali Rizobey, keling, buni chuqurroq o‘ylab ko‘raylik! – yangi hamlaga o‘tdi Muzaffar. – Bu qiz durustroq erga tegib olmoqchi, shuning uchun nima qilib bo‘lsa ham meni qo‘ldan chiqargisi kelmayapti. Lekin men unga uylanmoq-chi emasman, nima yordam kerak bo‘lsa, beraman: oyligini oshirishim, bundan tashqari, ma‘lum miqdorda pul berishim mumkin. Turmushini ancha yaxshilab oladi...

U Ali Rizobeyning kiftini silab, hovridan tushirmoqchi bo‘lganday yupatishga o‘tdi:

– Judayam ko‘ngli yumshoq odamsiz-da, hamma narsani o‘zingizga olaverasizmi... Bekorga yuragingizni siqib nima qilasiz...

Ali Rizobey ko‘zini yerga qadagancha, alam bilan miyig‘ida kulib qo‘ydi:

– Nima dedingiz? Ha, yuragim siqilib turibdi. Juda to‘g‘ri aytdingiz... Lekin shu topda undan ko‘ra ko‘proq bolalarimga yuragim achishib ketyapti...

– Sabab? Bolalaringizga nima qildi?

– Sababi shuki, bu hodisadan keyin ishdan ketishga majburman, binobarin, bola-chaqa och qolishi mumkin...

Muzaffarbey chol bu gapni o‘z narxini oshirish yoki po‘pisa qilish uchun aytmaganini yaxshi bilib turgan bo‘lsa ham, o‘zini go‘llikka soldi.

– Nimalar deyapsiz o‘zi, mendan xafa bo‘ldingizmi? Sizga nima yomonlik qildim?

– Yo‘q, gap bunda emas, – bosiq ovoz bilan dedi Ali Rizobey so‘nggi umidi puchga chiqayotganini sezib. – Aksincha, men sizdan faqat yaxshilik ko‘rdim: boshimga mushkul ish tushganida yordam berdingiz, hamisha hurmatimni joyiga qo‘yib yurdingiz. Men sizdan juda-juda minnatdorman. Lekin, nafsilamrini aytganda, shuncha to‘polondan keyin mening bu yerda qolishim o‘rinlimi? Agar o‘g‘lim shu nomaqul ishni qilganda uni oq qilib haydardim, deb bekorga aytganim yo‘q. Sizni men o‘g‘lim qatori ko‘raman. Demak, men sizdan yuz o‘girishim kerak. Siz mening iltimosim bilan shu dargohga ishga kirgan qizni badnom qildingiz, bundan chiqadiki, men qo‘shmachilik qilganman... Xo‘p, aytaylik, men oshirib yubordim. Lekin odamlar nima deb o‘ylashi mumkin? Mening qat‘iy fikrim shu – o‘ylaymanki, oilam ham, Lemanning onasi ham bu fikrimga qo‘shiladi: bu yerda ishlab topgan nonim menga harom endi... Teshib chiqadi...

Muzaffarbey chol to‘nini bunchalik teskari kiyib oladi deb o‘ylamagan edi, shuning uchun kayfi uchib ketdi.

– Ruxsat eting, ustoz, ikki og‘iz gapiray... – dedi u bu qaysar cholni shashtidan qaytarmoqchi bo‘lib.

– Qo‘ying endi! – Ali Rizobey unga gap bermadi. – Nima demoqchisiz, bilaman. Qoidasini keltirib gapirasiz ham. Le-

kin men qarib qolgan odamman, o'z bilganimdan qolmayman...

– Sizga yana biror yordamim tegishi mumkinmi, ustoz?  
– cho'chinqirab so'radi Muzaffarbey cholni endi qaytarib bo'lmasligiga ko'zi yetgach.

– Yo'q, menga hech qanaqa yordamingiz kerak emas, – dedi Ali Rizobey yosh boladay qizishib ketib. – Meni o'ylamay qo'ya qoling! Ochdan o'lasmiz. Bir ilojini toparmiz.

– Yana ko'rishamiz, deb ishonsam bo'ladimi?

– Albatta, bo'tam!

Biroq endi bu dunyo u yoqda tursin, narigi dunyoda ham ikkovi bir-biriga ro'para kelmasligiga Ali Rizobeyning imoni komil edi...

## 5

O'sha kuni Ali Rizobey oxirgi kemaga zo'rg'a ilinib qoldi. Ko'pincha u ishdan kech qaytgan kunlari izvoshga tushib kelardi, iloj qancha, ishlagan odam ba'zan ortiqcha xarajat ham qiladi-da.

Kemadan tushgach, odati bo'yicha u sohilda qatorlashib turgan faytonlarga qarab yurdi. Lekin shu zahotiyoyq ishdan bo'shagani, bundan buyon hech qayerdan maosh olmasligi esiga tushgach, qadamini sekinlatdi. Ha, darvoqe, bunaqa boyvachchalik ketmaydi endi, hamyon ko'tarmaydi...

Ko'chadagi sabzavotfuruslar qolgan molini tezroq sotib tugatish niyatida zo'r berib baqirib-chaqirishardi.

Ali Rizobey savatlardagi sabzavot va ho'l mevalarni ko'rib, bir zum to'xtab qoldi. Mol ancha yotib, urinib qopti, lekin shunisi ham borki, hozir ertalabkidan ikki hissa arzon. Bundan buyon bilib qo'yish kerak. Ro'zg'orga xuddi shu mahalda xarid qilgan ma'qul ekan. Yaxshi topdi buni. Nega bu fikr ilgariroq xayoliga kelmabdi-a?

Uskudarning tanho ko'chalaridan bir-bir yurib, o'zi ham sezmaganda u Koraja Ahmad qabristoni oldidan chiqib qoldi. Shu yerga kelsa, uni hamisha vahm bosib, yuragi gu-

pullab o'ynab ketardi. Ammo bugun har qachongidan ham ko'proq toliqqan bo'lishiga qaramay, negadir a'zoyi badani jo'shib turibdi. U yana ozroq yurgach, bir chekkada yotgan xarsangga borib o'tirmoqchi bo'ldi-yu, lekin yuragi betlamadi. Uni cho'chitgan narsa na tungi sukunat edi va na yonidagi qabriston. Hozir shu toshga o'tirib, iztiroblarga erk bersam, mana shu qabristondagi sarv daraxtlari ostida, shu zulmat qo'ynida, alam va sitamlar og'ushida bir umr qolib ketaman, deb hayiqardi...

Uyiga kelsa, hamma yoq charaqlab yotibdi. Yoki qorong'idan yorug'ga chiqqani uchun ko'ziga shunday ko'rinyap-timikin? Yo'q, chindan ham uy bilan hovlida chiroq borgan o'xshaydi. Biror marosim bormi bugun?.. Darvoza lang ochiq daraxt shoxlariga esa anvoyi fonuslar osilgan.

Uzoqdan qizi Oyshaning: „Dadam keldila-a-a-a-r!“ degan ovozi jaranglab eshitildi. Uydagilarning hammasi – o'g'li, qizlari va hatto umrida ostona hatlab ko'chaga chiqmaydigan xotini ham yugurib eshikka chiqishdi. Tinchlikmi o'zi? Aslida bugun to'ydan ko'ra aza bo'lgani ma'qul emasmi... Biroq Ali Rizobey churq etmadi. Ular ham nima gapligini aytishmadi.

O'zida yo'q xursand Oysha dadasini qo'lidan ushlab, bog' tomonga tortqiladi. U yerda yana bir yangilikning ustidan chiqdi. Shiyponga joy qilib, dasturxon yozishibdi. Oxiri hammasi ravshan bo'ldi!.. O'g'li Shavkat bankka ishga kiribdi. Oyligi yuz lira ekan.

Ali Rizobey beixtiyor boshini ko'tarib, osmonga qaradi: „Yo qudratingdan! Shunaqayam omad keladimi? Oyiga yuz lira-ya!.. Shu bugunga qadar olib kelgan maoshim bilan baravar hisob... Haqiqat bor ekan-da demak. Bitta askar safdan chiqsa, o'rmini ikkinchisi egallaydi, jang-u jadal sirayam to'xtab qolmaydi...“

„Mendan keyin ro'zg'or sening bo'yningga tushadi. O'lganimdan keyin oilaga bosh bo'lib qolasan“, – deb yoshligidan to'ng'ich o'g'lining qulog'iga quyardi u.

Ali Rizobey o'g'lining malla boshini bag'riga bosdi, keyin ko'ngli buzilib yig'lab yubordi. Bolalari shu vaqtgacha otalarini bu ahvolda ko'rishmagan edi, shuning uchun ular,

dadamiz Shavkat katta yigit bo'lib qolganiga suyunib, ko'z yoshi qilyapti, deb o'ylashdi.

## 6

Shavkat yaqinda yigirma bir yoshga to'ldi. Bolaligida yaxshi o'qidi; ayniqsa chet tillarga qobiliyati zo'r chiqdi. Aslida u maktabdan ko'ra ko'proq otasidan ilm-saboq oldi. Umr bo'yi bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradigan ko'pchilik davlat amaldorlarining bolasiga o'xshab u ham bir maktabda ikki-uch yildan ortiq o'qimasdi.

Yaxshi niholini avaylab parvarish qilgan bog'bonga o'xshab, Ali Rizobey ham to'ng'ich farzandiga girgittan bo'ldi, yolg'iz o'g'li ko'ngliga tugib qo'ygan orzu-havasiga mos bo'lib yetishishini istadi.

Darhaqiqat, Shavkat ancha bilimdon bo'lib yetishdi, ammo turmushda buning biror nafi tegishi gumon edi. Ali Rizobey, o'g'lim biror oliy o'quv yurtini bitirib chiqsa, deb orzu qilardi. Lekin iloj qancha, nasib qilmagan ekan! Qo-laversa, Shavkat oliy ma'lumot olmay turib ham binoyiday yigit bo'ldi, u Istanbulda va hatto Yevropada tahsil olgan tengqurlaridan qolishmasdi. Mana endi qari otasining boshiga tashvish tushgan bir paytda u yaxshi joydan ish topib, qo'ltig'iga kirdi – mo'jiza emasmi bu axir?

Ali Rizobey Shavkatning axloqiy tarbiyasiga yana ham ko'proq e'tibor berdi. U o'g'li or-nomusli, halol yigit bo'lib o'sganiga zarracha shubha qilmasdi. O'g'lidan ko'ngli to'q edi; farzandi billurday toza, olmosday mustahkam ekani-ni, dunyoda hech narsa bu olmos toshga bas kelolmasligini yaxshi bilardi.

O'g'liga shunchalik ishonmaganida, otasini yolg'iz qoldirmasligiga imoni komil bo'lmaganida, Ali Rizobey boya „Oltin yaproq“ shirkatining direktori bilan aytishib qolgani-da bunchalik quyushqondan chiqib, haqiqat uchun bunchalik talashib-tortishmagan bo'lardi... O'shanda u faqat bir narsada yanglishgan ekan– o'g'lining bunchalik tez madadga kelishini bilmagan ekan.



Otasiga o'xshab Shavkatda ham nafsoniyat va g'urur zo'r edi. Konkursdan o'tmay qolsam sharmanda bo'laman degan andishada u omadini sinamoqchi bo'lganini hech kimga aytmadi. Bog'ga anvoyi chiroqlar yoqib, shiyponga joy qilishni Shavkat ilgari o'ylab qo'ygani edi. U endi maktabga qatnay boshlaganida, bir kuni dadasi hazillashib: „Maktabni bitirib ishga kirganingda meni boplab kurka bilan ziyofat qilasan, Shavkat...“ – degan edi. Shavkat bu gapni ko'ngliga tugib qo'ygandi. Shuning uchun ham bugun gazetada ism-sharifini topib, ishga olinganini eshitishi bilanoq darhol kurka olgani bozorga qarab yugurgan edi.

Hamma dasturxon tuzashga kirishib ketdi. Xayriya xonim katta qizi Fikrat bilan oshxonada uymalashdi, Laylo bilan Najlo stolga qaradi, Oysha esa bog'dan gul uzib, dasta-dasta qilib terib qo'ydi.

To'kin dasturxon, oila a'zolarining chehrasidagi shod-xurramlik sabab bo'lib, Ali Rizobey o'z tashvishini unutdi. Hamma dasturxon atrofiga yig'ilgach, o'zi to'rga o'tmoqchi bo'lgandagina u bir zum o'ylanib qoldi, o'g'liga bir qarab qo'ydi-da, so'ng:

– Endi sen bilan biz joyimizni almashtirishimiz kerak, Shavkat, – dedi ma'yus jilmayib. – Bundan keyin sen oila boshlig'isan, men shu oilaning kattasiman, xolos...

Hammalari hayron bo'lib Ali Rizobeyga qarashdi. Lekin cholning gapi jiddiy edi; u o'g'lini qo'lidan tutib, yana gap boshladi:

– Men shuni xohlayman... Gapimga quloq solishing kerak... – Shundan keyin u valiahdiga taxtini bo'shatib berayotgan shahanshohlarga o'xshab imo bilan Shavkatni to'rga o'tqazdi-da, o'zi uning chap yoniga, xotining qarshisiga o'tirdi. – Bundan keyin uning joyi shu... Hamma eshitdimi? – dedi Ali Rizobey ovozi chiqarib. – Vaqt-soati yetganda o'g'lim otasining o'rniga qoladi. U nima desa, shunga quloq soling, hurmatini joyiga qo'ying.

O'zini qanchalik qo'lga olishga qarakat qilmasin, baribir ovozi titrab ketdi. Lekin darhol o'zini o'nglab oldi. Uyda shunday shod-xurramlik bo'lib turgan bir paytda boshqalarning ta'bini xira qilgisi kelmad. Ayniqsa, Shavkatni

ko'zi qiymadi. Bola bechora yelkasiga tog'dek yuk ag'darilib tushganini bilmaydi, loaqal shu kecha tinch uxlay qolsin...

## 7

Ali Rizobey xotini va o'g'li bilan hamisha barvaqt turishga odatlanib qolgan. Uchovining ham ishi tig'iz. Bu xonadonda faqat qizlarning g'am-tashvishi yo'q. Shuning uchun ham o'rinda bir-ikki soat kerishib yotishsa bo'laveradi.

Ali Rizobey ana shu satang qizlari qatoriga qo'shilib qolgan bo'lsa ham, ertasi kuni odatdagidan ham barvaqtroq turdi. Kundagi kuymanchig'ini qilib, qo'liga kitob oldi-da, deraza yoniga borib o'tirdi, lekin yuragiga kitob sig'madi. Xotini nonushta tayyorlab kelgunga qadar kitobni ochgani-cha qimir etmay o'tirdi.

Nonushtadan keyin Xayriya xonim odati bo'yicha eriga tamaddi o'rab bermoqchi edi, Ali Rizobey uni to'xtatdi:

– Keragi yo'q! Ovora bo'lma!

Xayriya xonim eri tartib-qoidaga qattiq rioya qiladigan odam ekanini, havo aynib, kemalar yurmay qo'ygan paytlarda ham hech qachon ishdan qolmaganini yaxshi bilardi, shuning uchun bu gapni eshitib, yuragiga g'ulg'ula tushdi:

– Ha, o't-beting og'riyaptimi?

– Yo'q... Bormayman, vassalom...

Shu topda u o'qituvchisiga achchiq qilib, maktabiga bormagan o'jar bolaga o'xshab ketdi.

– Nega bormaysan, tinchlikmi o'zi?

Chol indamadi, keyin yonida o'tirgan Shavkatni betidan silab qo'ydi.

– Jiddiy bir masala yuzasidan Shavkat bilan maslahatlashib olishim kerak, – dedi u hayajonini yashirish uchun o'zini bosishga harakat qilib. – Istagim shuki, o'g'lim gapimni yaxshilab eshitsin, keyin fikrini aytsin... u nima desa, shu bo'ladi.

Ona-bola bu gap qanchalik hazil yoki chin ekanini bilolmay, hayron bo'lib bir-birlariga qarab qo'yishdi.

Shundan keyin Ali Rizobey bo'lgan voqeani oqizmay- to-mizmay gapirib berdi. Shu vaqtgacha u o'g'li bilan ayol zoti haqida sira gaplashmagan edi. Shuning uchun bu mungli voqeaning nozik tafsilotlariga kelganda beixtiyor ko'zini chetga olib, ovozi o'zgartirdi. Bu gapni eshitib, Xayriya xonim taajjubga tushdi, xolos, ammo Shavkatning qoni qaynab, tim qora ko'zlari g'azabdan chaqnaq ketdi.

– Shu gap-so'zdan keyin ishing o'zingga buyursin dedim, boshqa ilojim yo'q edi... Xo'sh, nima deysan, ishdan ketib to'g'ri qilibmanmi? – dedi Ali Rizobey savol nazari bilan o'g'liga tikilib...

– To'g'ri bo'lganda qandoq! – deb yubordi Shavkat sira ikkilanmay.

Bu gapni u shunchalik dilidan chiqarib, shunchalik g'azab bilan aytdiki, Ali Rizobey ko'ziga yosh olib, o'g'lini mahkam quchoqlab olishiga sal qoldi.

– Buning boshqa tomoni ham bor, o'g'lim... – dedi u o'ng'aysizlanib va bu yog'iga nima deyishni bilmay, o'tirgan joyida beixtiyor seskanib tushdi. – Eshikni taraqlatib yopib ketish qiyin emas-u, lekin buning oqibati nima bo'larkin? Boshqa ish topa olarmikinman?.. O'zing yaxshi bilasan, men bekor o'tirolmayman. Ammo biror yerdan menga ish topilarmikan?.. Singillaring hali go'dak... Nafaqa pulim tirikchilikka yetmaydi. Hamma og'irlik senga tushadigan ko'rinadi... Bir o'zing toliqib qolmasmikinman?..

– Shu gapni aytishga qandoq tilingiz bordi, dada? Nahotki menga ishonmasangiz? – deb yubordi Shavkat yigirmaga to'lgan yigitlarga xos viqor bilan ko'ksini mushtlab. – Zo'r kelsa, kechasi-yu kunduzi ishlayman... Sira xavotir olmang, ro'zg'or bir gap bo'lar.

Kecha dadasi joyini bo'shatib bergani bejiz emas ekan-da! Boshiga og'ir sinovlar tushadiganga o'xshaydi, mayli, buning qo'rqadigan joyi yo'q, qolaversa, shu yoshda oilaga bosh bo'lishning o'zi katta gap, bu bilan har qancha faxrlansa arziydi!..

Ali Rizobey o'g'lining dilidagi gaplarni sezib, uni bag'riga bosdi va mehr bilan o'pib qo'ydi...

– Kiroyi o'g'ling bo'lsa, shunaqa bo'ladi-da! – dedi dimog'i chog' bo'lib Ali Rizobey chol-kampir yolg'iz qolishgach.

– Ha... nimasini aytasan, – deb qo'ydi stolni artayotgan Xayriya xonim loqaydgina qilib.

– Nega durustroq javob bermaysan? – so'radi ta'bi xira bo'lib Ali Rizobey.

– Bundan ortiq yana nima deyay? Ha, dedim, bo'ldi-da. Shungayam ota go'ri, qozixonami? – bobillab berdi xotini zahrini sochib.

– Menga bir nima demoqchisan shekilli?

Xotini qo'lidagi lattani bir chetga irg'itib, eriga o'girildi.

– Ko'nglingga kelmasin-u, qariganda g'alati-g'alati qilqlar chiqaradigan bo'lib qolyapsan.

– Ochig'ini aytaver, yosh bolaga o'xshab ketyapsan, demoqchimisan...

Xotinim ko'nglimni ko'tarar, deb o'ylagan edi, yo'q, bo'lmadi, u orqasini o'girib olib, churq etmadi. Ha, munosabatlar tarang tortib boryapti. Shuni o'ylab Ali Rizobeyning yuragini vahm bosdi.

Ali Rizobey ilgarilari ba'zan rahmi kelib yoki saxiyligi tutib ketganida birovlariga pul berar, yoki bo'lmasa uyga keraksiz narsalarni ko'tarib kelardi. Shunaqa paytlarda unga xotini: „Hay, mayli, bo'lar ish bo'пти... Ko'p xafa bo'lavermama...“ – deb qo'ymasa, ich-ichidan kuyunib, o'zini qo'yarga joy topolmay yurardi.

Xayriya xonim ro'zg'or masalasida ancha qattiqqo'l bo'lib, pul bilan „hazillashgan“ odamni jini yoqtirmasdi. Binobarin, eri aybini bo'yniga olib, gunohiga o'zi pushaymon bo'lmagunga qadar taskin berish u yoqda tursin, hatto betiga qayrilib qaramasdi ham. Shu vajdan er-xotin ko'pincha jiqillashib, hatto urishib ham olishardi. Hamisha o'zini tiyib yuradigan bu beozor odam yolg'iz xotini bilan tikka-tikka tashlashardi. Bunday paytlarda u xuddi jo'jaxo'rozga o'xshab xezlanib ketardi. „Ha-ha! Shunaqamisan hali?! – derdi u xotiniga o'dag'aylab. – Menga hech ham joning achi-

maydi... Bir kunmas bir kun o'lib ketsam, o'shanda qadrimga yetasan!.. Erini obdan qiynab, tinkasini quritganidan keyin Xayriya xonimning o'zi ham ancha yengil tortib, jahlidan tushardi.

Ammo Ali Rizobeyning nazarida xotini bugun o'zgarib qolganga o'xshaydi: xatti-harakati sal boshqacharoq ko'rinadi. Qolaversa, qilgan ishi to'g'rimi yo noto'g'rimi – buni Ali Rizobeyning o'zi ham aniq bilmaydi. Qani endi shu topda u xotinidan bir og'iz shirin so'z eshitsa. Boshi osmonga yetardi. Lekin bu qaysar xotin shunday og'ir paytda ham to'nini teskari kiyib olib o'tiribdi-ya. Qovog'idan qor yog'adi, qo'yib bersang, saldan keyin bobillashga tushadi...

– Menga qara, xotin, – dedi nihoyat Ali Rizobey toqati toq bo'lib, – shu gaping esingda tursin... O'la o'lguncha unutmayman bu yaxshiligingni... Meni xafa qilding!.. Sendan shu gapni eshitaman deb o'ylamagan edim.

Xayriya xonim yana eriga o'girildi.

– Ha, arpangni xom o'rdimmi? – dedi qattiq gapdan shu ko'proq ta'sir qilishini bilgani uchun ovozi muloyimlashtirib. – Xuddi martabang oshganday xursand bo'lasan... Oladiganing yuz ellik lira pul edi, zo'rg'a tirikchilik qilib turuvdik, endi buniyam Xudo ko'p ko'ribdi. Shunga xursand bo'lishim kerakmi? Soyangga salom beraymi?.. Bundoq tanangga o'ylab ko'rsang bo'lardi!..

Ali Rizobey nima deb javob berishini bilmay yutib qo'ydi. Shu zahotiyiq xuddi achchiq dori ichgan odamday afti burishib ketdi.

– Bu gaping to'g'ri-ya... Lekin or-nomus degan narsa o'rtaga tushdi!.. Bizning or-nomusimiz, bildingmi?..

Tabiatan sodda va xudojo'y bo'lgan xotini ilgarilari or-nomus so'zini eshitsa bir sapchib tushguvchi edi. Ammo oilasiga ochlik tahdid qilib turgan bir paytda bu so'z unga zarracha ham ta'sir qilmadi.

– O'zing o'ylab ko'r, sen meni bugun ko'rib turganing yo'q, shuncha yil birga turdik, bevafoqlik qilding yoki yomon yo'lga boshlading, deb aytolmasang kerak menga, buni bilaman. Senga o'xshab men ham halol odamman... Ammo sening o'rningda bo'lganimda arzimagan narsa uchun ta-

lashib-tortishib yurmasdim. Bola-chaqani o'ylagan bo'lar-dim...

– Nima deding? Yana qaytar-chi! Gapir!.. Hali bu senga arzimagan narsa bo'ldimi? Suf senga-ey!.. – O'dag'aylashga tushdi Ali Rizobey battar xunobi oshib.

– Sekinroq, bolalarni uyg'otasan, – dedi pinagini buz-may Xayriya xonim va ko'zini shiftga qadab qo'shib qo'y-di: – Shundoq, dadasi, sen og'zingga sig'ganicha gapiraver, lekin takror aytaman: bola-chaqa uchun hamma narsadan voz kechish kerak! Agar ular ochdan tirishib o'ladigan bo'lsa, nomusi ham qo'shilib go'rga kiradi.

Bu gap Ali Rizobeyning suyak-suyagidan o'tib ketdi. Kuni kecha idorada bir odam: „Quruq nomus qorin to'ydir-maydi“ degan edi, darhol shuni esladi. Qiziq, bir-birini sira ko'rmagan ikki xil toifadagi odamning gapi qandoq qilib bir joydan chiqdiykin-a?..

Ali Rizobeyning yuragiga g'ulg'ula tushdi, xotiniga nima deb javob qaytarishni bilmay turgan edi, gapni yana o'zi ilib ketdi:

– Ali senga bor gapni aytyapman, xafa bo'lsang ham shu, bo'lmasang ham. Sen hamisha bola-chaqani o'ylamay kajbahslik qilasan. Bolalaring o'n besh yoki yigirmaga chiqqan bo'lsa, otalik burchimni o'tadim, deb o'ylasang kerak-da. Yo'q, azizim! Mas'uliyatning asili endi boshlanyapti. Yosh bolaning ishi oson: o'tir desang o'tiradi, manavini yeb ol desang indamay yeyaveradi. Ikki chaqalik hushtak yoki qo'g'irchoq olib bersang, boshi osmonga yetadi. Endi ular katta bo'lib qolishdi, har baloga aqlari yetadi. Har qaysisi-ning o'ziga yarasha orzu-havasi bor... Ko'nglida nima borli-gini bilmayman, bilsam aytardim... Menga qolsa bularning boshvog'ini sal bo'shroq qo'yib yuborganga o'xshaymiz...

– Nima deb aljirayapsan o'zi, kampir. Mening farzandla-rim misoli farishta-ku.

– Men bir nima deyayotganim yo'q... Farishta bo'lsa bor-dir, lekin havoyiroq bo'lib o'sishyapti... Hammasining o'ziga yarasha ko'zi bor, uni ko'radi, buni ko'radi, natijada, boya aytganimday, ko'ngillari har xil narsalarni tusab qoladi. Bu-lar qachongacha shunaqa mo'min- qobil bo'lib yurisharkin,

bilmadim... Bundoq o'ylab qarasang, ulargayam jabr. Sen erta ketib, kech kelasan, uyda nima gap bo'layotganini bilmaysan. Bularni shu vaqtgacha senga oppoq qilib ko'rsatib keldim. Endi ochig'ini aytishga majburman, dadasi: bolalarimiz jar yoqasida turibdi. Balki hammasiga o'zim aybdordirman...

Ali Rizobey po'pisa yoki dag'dag'a bilan xotiniga gap uqtirib bo'lmasligini bilib, yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'ldi.

– Meni hech narsani bilmaydi deb o'ylayapsanmi, xotinjon? Hammasidan xabarim bor. Boya o'zing eshitding, o'g'limiz oila uchun, singillarim uchun hamma narsaga tayyorman, deb aytdi... Nahotki uning gapiga ishonmasang?

– Ochig'ini aytsam, sirayam ishonmayman, dadasi. Shavkat o'g'limiz qanchalik tantilik qilmasin, u hali yosh. Bugun bo'lmasa ertaga uniyam o'ziga yarasha orzu-havasi chiqib qoladi. Har holda yosh bolaga tog'day og'ir yukni ko'tartirib qo'yish insofdan emas...

Xayriya xonim bilan gap talashib o'tirishning foydasi yo'q: unga ming uqtirganing bilan o'zinikidan qolmaydi.

Ali Rizobey bola-chaqasiga zarracha ozor berishni istamaydi, albatta. Lekin Shavkatni o'rniga o'tqazib, oila boshlig'i qilib tayinlaganida bola bechoraning boshi osmonga yetib, terisiga sig'may ketdi, buni yaxshi biladi. Yo'q, o'g'lining bundan noliydigan joyi yo'q, binobarin, ro'zg'or tebratishni tog'day og'ir yuk deb bo'lmaydi, bu – aqlga sig'magan gap, bu – boshiga baxt qushi qo'ngan odam, toji og'ir ekan, deb podsholikdan aynib ketganday bir gap...

Xayriya xonim soddaligiga borib kalta o'ylagan bo'lsa kerak: erining yuragida yotgan bu chuqur gaplarni tushunmay, yana xuruj qila ketdi:

– Men ahmoq bo'lmasam senga ishonarmidim! Erim ko'pni ko'rgan, o'qigan, hamma narsaga aqli yetadi, deb yuribman-a. Nima desang, xo'p deb keldim... Bas endi! Agar vijdonging ko'tarsa, ishingga borma, uyda o'tir. Lekin shuni ham aytib qo'yayki, narx-navo kundan kunga oshib ketyapti. Sendan yashiradigan joyim yo'q: boyagina o'zing farishta degan nuridiydalarimiz och-yalang'och qolib ketishi mumkin. Shuni bilib qo'yki, agar ular oldinma-keyin yelkasiga to'rva osib, gadoychilik qiladigan bo'lsa, shu qo'llarim bilan

o'zim yoqangga yopishaman. Seni u dunyo-bu dunyo tinch qo'ymayman!..

Uxlab yotgan bolalari ham ko'ziga ko'rinmasdan ovozi-ning boricha rosa shang'illab baqirgach, qars etib eshikni yopdi-da, uv solganicha oshxonaga chiqib ketdi.

Ali Rizobey toshday qotib qoldi. Umrida g'ing deb ovoz chiqarmagan, hamisha nima desa xo'p deb turadigan xotini bugun qiliq chiqarib qolganiga hayron bo'ldi. Qachon qaramasin, xotini hovlidami-uydami ishi boshidan oshib yurgan yoki ko'chaga chiqib, qo'shnilari bilan adi-badi aytishib turgan bo'lardi. Nafsilamrini aytganda, uning bola-chaqadan bo'lak tashvishi yo'q. O'ziyam o'lguday laqma xotin, farosati ham kamroq. Lekin Xayriya xonim bekorga bunchalik kuyib-pishmayotganga o'xshaydi. Buning tagida biror gap bo'lsa kerak. Bola-chaqamiz jar yoqasida turibdi degan gapi rostmikin? Tag'in ularga yomon tarbiya bergan bo'lishmasin? Bunisi undan ham xatarli... Xotining gapiga qaraganda bir xatolik o'tganmish. Ali Rizobey darhol katta qizi Fikratni o'yladi.

Fikrat o'n to'qqizga chiqqan bo'lsa-da, ko'rinishi juda nozik, ushoqqina qiz. Shunga qaramay u o'zini kattalarday sipo tutadi, ishiga puxta, es-hushi ham joyida.

Ro'zgor ishlarida onasining og'irini yengil qiladigan ham shu. O'zidan sal kichikroq singillariga esa xuddi onaday hamisha girgitton. Fikratga chiroy ato qilmagan. Ko'rgan odam uni xunuk deyishi ham mumkin. Buning ustiga boyoqishning o'ng ko'ziga oq tushgan. Bir paytlari Anatoliyaning uzoq bir qishlog'ida turishganida ko'zi og'rib qolgan edi, o'shandan xotira bu. Agar o'shanda Ali Rizobey qizini darhol Istanbulga olib kelganida ko'zi tuzalib ketarmidi. Aksiga olib, Fikrat ko'z og'rig'i kasaliga chalingan kunlari shunaqayam ishi ko'payib ketgan ediki...

Fikrat xunuk bo'lsa bordir, mayli, lekin qanchalik ko'ngli oq uning! Ruhiy go'zallik husndagi kamchiliklarni yopib ketolmaydimi axir? Qizining ko'zidagi dog' masalasiga kelganda Ali Rizobeyning fikri boshqacha! Bu oq dog' unga juda ham yarashib tushgan, ko'zini suzib, iymanib turishlari har qanday odamni ham eritib yuboradi. Afsuski boshqalar



shuni tushunmaydi. Qayliq izlab yurgan bo'yoq yigitlar uning qadriga yetmayapti.

Ali Rizobey qizini ham o'g'li qatori ko'rib, yaxshi tarbiya berdi. Qiz bola ko'p o'qimagani ma'qul, albatta. Shuning uchun ham u Fikratga ko'proq chevarlik hunarini o'rgatdi. Mukkasidan ketib kitob o'qisa o'ziga biror shikast yetmasmikin, deb xavotirlanib yurdi. Fikrat mashhur san'atkorlar haqida yoki o'zi o'qigan ajoyib kitoblar to'g'risida gapirib berganida Ali Rizobey terisiga sig'may ketar, qizining turmush masalasidagi o'tkir mulohazalariga qoyil qolib o'tirardi. Binobarin, qiziga yaxshi tarbiya berib, uni ilmga o'rgatib, bu bilan husnidagi kamchiliklarni yuvib ketmoqchi bo'lgan ota o'z maqsadiga erishgan edi. Qolaversa, ro'zg'or tutishda ham Fikrat onasidan qolishmasdi. Xullas, u har qanday ku-yovga mos qiz.

Lekin keyingi paytlarda Ali Rizobey sal tashvishga tushib qolgandi. To'g'ri, qizi keng uyning kelinchagi bo'lishga arziydi, ammo buni tushunadigan yigitning o'zi qani? Buning ustiga tirikchilik endilikda qiyinlashib ketadi - uni yaxshi joyga uzatish masalasi battar mushkullashadi.

Bu zamonning yigitlari qanaqaligini Ali Rizobey yaxshi biladi. Ko'pchiligi uylanishdan yurak oldirib qo'ygan yoki shu mavzudan gap ochilsa, piching qilishadi. Yana bir talay yigitlar xuddi bozor aylanganday badavlatroq qizni mo'ljal-lab yurishadi. Demak, Xayriya xonimning gapida ham jon bor ekan-da. Balki chindan dam Fikratga noto'g'riroq tarbiya berishdimikin? Xunuk qizni o'qitish zarurmidi? Ilmni boshiga uradimi u? Nima, xunuk qizlarning bozori kasod ekanini tushunib yetishi uchun o'qidimi? Xunuk og'izdan chiqqan chiroyli gaplarning kimga ham keragi bor? O'zi zo'rg'a oyoqqa turgan qarimsiq cholning mushtidan hech kim qo'rqmaganday gap bu!

Shu vajdan ham Ali Rizobey o'ylagan sari ko'ngli g'ash bo'lib boraverdi. Ha, qizga boshqacha tarbiya berish lozim ekan. Odamning ilm-ma'rifati oshgan sari orzu-havasi ham ko'payadi. Ushalmagan orzu-havaslar esa uni qattiq qiy-nab tashlaydi. Xotin kishiga husn ato qilmagan ekan, ha-deb kitob o'qiyverganidan foyda yo'q, u irodasi mustahkam,

sabr-toqatli, mug'ambir, erkaklarga o'xshagan abjir va ud-daburron bo'lishi kerak. Ammo shunisi ham borki, Fikrat boshqacha bo'lib o'sganida Ali Rizobey bunchalik kerilib yurmasdi. Lekin bundan nima foyda!

Shundan keyin otaning xayoliga yana ikki qizi keldi. Laylo bilan Najlo aql bobida opalariga tenglasholmasa ham, lekin husnda ularga yetadigani yo'q.

Laylo o'n sakkizga chiqqan bo'lsa, Najlo endigina o'n ol-tiga to'ldi. Ikkovini ham issig'ida yaxshi joyga uzatib, tin-chib olgan ma'qul. Bu unchalik qiyin bo'lmasa kerak. Agar hozirgi yigitlar ruhan go'zal Fikratning qadriga yetmayot-gan bo'lsa, husni barkamol singillarini ko'rib, og'zilar ochi-lib qoladi. Ha, bu turgan gap. Eng muhimi, hali pokiza bu gulg'unchalarni ehtiyot qilish, yomonlar ta'siridan asrash kerak, nega deganda ular hali yosh, oq-qorani tanimaydi.

Oyshadan Ali Rizobeyning ko'ngli to'q. Akasi bilan opa-lari uni yo'lga solib yuborishadi. O'zi bo'lmasa, Shavkat bor-ku, axir... Ali Rizobey ko'nglini xijil qilib turgan ana shu xa-yollar og'ushida hovlida aylanib yurgan edi.

## 8

Mana, Ali Rizobey nafaqaga ham chiqib oldi... Dastlabki kunlari shunaqayam yuragi siqilib yurdiki...

Vaqt-soati kelganida ishdan bo'shab, istirohatga chiqishini bilardi, albatta... Nafaqa degani bu mehnatkash odam uchun halovatli qabristonday bir gap... Ammo u, xud-di shunaqa bo'ladi, deb o'ylamagan edi. U, avval farzand-larim oldidagi otalik burchimni bajaraman, hammasini tinchitib, ko'nglini to'q qilganimdan keyin nafaqaga chiqa-man, deb yurardi. Agar ko'zini chirt yumib, kelajagini o'ylab ketadigan bo'lsa, qiziq manzaraga uchrardi: ketma-ket ne-vara ko'radi, ularni boqib katta qilish kerak ota-onalari bo'l-sa hali yosh, faqat o'zlarining huzur-halovatlarini o'ylasha-di, bolaga qayrilib qarashmaydi, hamma tashvish buva bilan buvilarining yelkasida bo'ladi. „Endi meni odam qatoridan chiqarib qo'yishdi, qiladigan ish-kuchim yo'q, deb noligan

senmiding? Mana senga ermak, nevaralaringni boqib katta qil!“ Buvasi ham soqolini selkillatib ularni o‘ynatib yuradi yoki pechkaga yaqinroq o‘tqazib, cho‘pchak aytib beradi, innaykeyin, bir paytlari o‘zining bolalarini qandoq tarbiyalagan bo‘lsa, bu shumtaka nevaralarini ham shundoq aqlodobga o‘rgatib, odam qiladi. Pirovardida, vaqt-soati kelgach esa, nevaralarining to‘s-to‘polonidan changi chiqib, hush-tak bilan nog‘ora o‘yinidan qomatga kelgan uyida jimgina jon beradi... Shuning o‘zi katta baxt emasmi, axir?..

Ilgarilari Ali Rizobey, kitob o‘qishga ham vaqtim yo‘q, deb nolib yurardi. Endi qiziq joyiga kelganda hamisha bir ishkal chiqib qolardi. „Kitobingni yig‘ishtir, dadasi, kemaga kech qolasan!“ – deb shang‘illab qolardi xotini xuddi Azroyilday tepasiga kelib. Shunaqa paytlarda Ali Rizobeyning xunobi oshib ketardi. „Uf, qani endi tezroq nafaqaga chiqsam!“ – derdi u kitobini yig‘ishtirar ekan, chuqur uh tortib. Orziqib kutgan kuni ham keldi. Endi xotini unga tiqilinch qilmaydi, kitobingni yig‘ishtir, deb qistamaydi. Lekin shunisi g‘alatiki, ilgarilari u mutolaa qilganida lazzat olardi, hozir bundan asar ham yo‘q!..

\* \* \*

Xotining hanz qosh-qovog‘i ochilgani yo‘q. Oldiniga Ali Rizobey ham to‘nini teskari kiyib yurdi-yu, lekin bundan biror ish chiqmasligiga ko‘zi yetgach, xotini bilan yarashmoqchi bo‘ldi. Ilgarilari ham u Xayriya xonimning qosh-qovog‘ini ko‘rsa yuragi siqilib ketardi. Shuning uchun qulay fursatni topib, sekin gap boshladi:

– Afsus, men bilmagan, ekanman, xotin, senga ishga borib, pul topib kelsam, bo‘ldi ekan...

Hozir Xayriya xonimning jon-poni chiqib ketadi deb o‘ylagan edi, yo‘q, unday bo‘lmadi, u hatto javob bergisi ham kelmay, labini jiyirib qo‘ya qoldi.

– Sen bilan biz yelkama-yelka urush qilgan ikki askarga o‘xshab, turmushning hamma achiq-chuchugini birga tot-dik, – gapida davom etdi u o‘kinch bilan. – Qo‘lidagi quro-

lini oldirib qo'yg'an sherikning orqasidan kelib pichoq urish insofdanmi axir?..

Ali Rizobey bu gapini obdan o'ylab, taroziga solib ko'rgan, binobarin, xotini buni eshitishi bilan gina-kuduratini yig'ishtirib, darhol bag'rimga otiladi, deb yurgan edi. Biroq bu gapdan faqat o'zi ta'sirlanib, ko'ziga g'ilt-g'ilt yosh keldi. Xayriya xonim pinagini ham buzmadi. Eriga bir o'qrayib qarab qo'yg'ach;

– Iloj qancha... O'zing pishirgan oshni o'zing yeysan endi! – deb yelkasini qisib qo'ydi xolos.

## 9

Oradan biror oy o'tgach, Ali Rizobeyning iste'foga chiqqan boshqa hamkasblaridan farqi bo'lmay qoldi..

Arava yurib turganda g'ildiragi ishdan chiqqanini darrov bilib bo'lmaydi. Odam yoshi qaytganidan keyin ham shunaqa bo'larkan: ishlab turganingda beling baquvvatga o'xshab tuyuladi. Nafaqaga chiqishing bilan qarib qolganing har qadamda sezilaveradi. Qo'l jonivor biror ishga unnamagani-dan keyin og'irligi darrov yelkaga tushadi – odamning kiftlari cho'kib, beli chiqib qoladi.

Ali Rizobeyning ko'rinishi ham o'zgarib qoldi. Egnidagi shimi shalvirab, kastumining yenglari titilib ketdi. Ilgarilari yaxshi kiyinib, o'ziga ancha oro berib yurgan odam endi unniqib ketgan ust-boshiga ham qaramay qo'ydi.

Ali Rizobey hamon tong yorishishi bilan o'rnidan tura-di. Lekin ilgarigiday tabiati ravshan bo'lib, yayrab turmaydi. Endi uning odati o'zgargan: oftob bir kunda rosa mo'l yo'l bosishini o'ylab qoladi-da, butun a'zoyi badani zirqirab og'riydi. Kitob o'qisa ham, bog'ga chiqib ishlasa ham, ilgari-giday ko'ngli to'lmaydi, ruhi yengil tortmaydi.

Lekin shunga qaramay u kundagi kuymanchig'ini qilib, hamon kitob titkilaydi, tomorqaga chiqib, o'toq qiladi, gullarga suv quyadi. Shunday paytlarda u, vaqt peshindan og'gan bo'lsa kerak, deb horib-charchab osmonga qarasa,

quyosh hamon joyidan jilmagan bo'ladi. Buni ko'rib u bo-yoqish hayron bo'ladi. Kechgacha yana bir dunyo vaqt bor, endi bu yog'iga nima qilaman, deb tashvishga tushadi.

Ali Rizobey yangi odat chiqarib oldi: har kuni erta bilan va kechqurunlari uyidan chiqib, ko'cha aylanadi, kemaga shoshayotgan yoki ishdan qaytayotgan odamlarning orqasidan mo'ltirab qarab qoladi. Bunday paytlarda u gala-gala bo'lib osmonda uchib ketayotgan sheriklariga pastdan havas bilan qarab turgan cho'loq laylakka o'xshab ketadi.

Ali Rizobey qahvaxonalarni va har xil qimor o'yinlari bo'ladigan joylarni azaldan yomon ko'rardi. „Shunaqa joylarga har xil bekorxo'jalarni yig'ib o'tirishning nima keragi bor? – derdi u ishlab turgan kezlari tutaqib. Agar qo'limdan kelganida hammasini yopib tashlardim!“ Iste'foga chiqqan odamning uyidan halovat qochib, diqqinafas bo'lib ketishini u endi tushuna boshladi. Ba'zan esa uyingda ovqatsiz qolib, qahvaxonaga chiqishga majbur bo'lasan, qolaversa, odamlar bilan gaplashib, ancha yengil tortib qaytasan.

Oldiniga u Chamlijaga yoki Uskudar bozoriga keta turib, dam olish uchun yo'l bo'yidagi usti ochiq qahvaxonaga kirib yurdi. Keyin bozordagi yoki mahallasidagi qahvaxonaga ham kiradigan bo'ldi, bora-bora shunga o'rganib qoldi. Dastlabki paytlarda bir chekkaga borib, gazeta o'qib o'tirdi. Hanuz u ertadan kechgacha shu yerda qolib ketadigan qahvaxo'rlarni yoqtirmas, o'zini aslo ularga tenglashtirgisi kelmasdi. Ko'rgan odam uni bu yerga tasodifan kirib qolgan deb o'ylardi.

Qahvaxonada nimalarni ko'z ko'rib, quloq eshitmaydi deysiz! Savlatidan ot hurkadigan, kap-katta odamlar yetti yot begonaga uydagi sirlarini oqizmay-tomizmay gapirib berishadi, bekordan bekorga xotinlarini yanib, farzandlaridan nolib ketishadi, bir-biriga bugun nima yeb, nima ichganini oqlab-ko'klashadi, mabodo ertalabdan beri tuz totmagan bo'lsa, buni ham ochiq aytaverishadi. Yana bir toifa odamlar karta yoki narda ustida jiqillashib, bir-birini kurakda turmaydigan so'zlar bilan rosa haqorat qilishadi-da, keyin hech nima ko'rmaganday yana o'yinni davom ettiraverishadi.

Bir kuni Ali Rizobeyning oldida bir mo'ysafidni toza do'pposlab urishdi. Ilgari katta ishlarda yurgan bu odam hammaning oldida sharmanda bo'ldi, uyat o'limdan qattiq deganlaridek, endi u ostona hatlab ko'chaga chiqmasa kerak, deb o'yladi Ali Rizobey. Ertasiga yana o'sha joyda bemalol nardani o'ynab o'tirgan cholni ko'rib, Ali Rizobeyning hayratdan og'zi ochilib qoldi.

Keyinroq borib Ali Rizobey yoniga hasratidan chang chiqadigan jabrdiydalar yig'iladigan bo'ldi. Bularning dard-alamlarini u erinmay eshitib o'tirardi. Oradan ko'p o'tmay u o'ziga o'xshagan alamzadalarni topib olib, shular bilan kunni kech qilib yurdi. Ali Rizobey yangi ulfatlarining boshiga tushgan savdolarni maroq bilan eshitib o'tirardi-yu, lekin o'zining tashvishidan churq etib og'iz ochmas, hamon sipolikni qo'ldan bermay, yuragidagi gaplarni sir saqlab keldi.

Nimasini aytasiz, chindan ham qahvaxonaga kirgan odamning uydagi mashmashalardan qulog'i tinchiydi, ro'zg'orning og'ir tashvishidan qutulganday bo'ladi. Agar Xudo shuniyam ko'p ko'rguday bo'lsa, ish-kuchdan qolgan bu sho'ring qurg'urlarning holi nima kechadi? Jon taslim qiladigan kun qachon kelarkin, deb kutib yotishdan bo'lak iloj qolmasdi, xolos.

## 10

Oxiri Ali Rizobey bitta qaqvaxonaga doimiy mijoz bo'lib qoldi. U o'ziga o'xshab iste'foga chiqqan bir to'da bekorchi ulfat ham topib oldi. Hayot undan zo'r chiqdi.

Yangi ulfatlarning hasratidan chang chiqardi. Turmush og'ir, nafaqa puli nihoyatda oz, narx-navo kundan kunga oshib ketyapti. Bularning ko'pchiligi umrida birovning tiyiniga ko'z olaytirmagan, halol odamlar. Lekin, shunga qaramay bir xillari imkon borida o'marib qolmaganlari uchun endi afsuslanishadi. „O'shanda ahmoqlik qilib mol-dunyo to'plamagan ekanmiz, mana endi jazosini tortyapmiz, – deb nolib ketishadi ular.

– Nima bo‘ldi oqibati? Jonimizni jabborga berib ishladik, kecha-yu kunduz tinim bilmadik. Butun kuchimizni so‘rib olib, oxiri ko‘chaga uloqtirishdi... Endi bizning birovga keragimiz yo‘q!..“ Ali Rizobey bularni ko‘rsa, yuragi achishib ketardi-yu, lekin shu mavzuda gap ochilib qolguday bo‘lsa, g‘azabi qaynab, ular bilan qattiq jiqillashib qolardi.

Ali Rizobey yangi ulfatlaridan katta bir san‘atni – arzon-garovga mol xarid qilish san‘atini o‘rganib oldi... Ko‘mir bilan nonni, yog‘ bilan sabzavotni qayerdan arzonroqqa olish mumkinligini endi u yaxshi biladi. Ammo bilgan bilan ish bitmas ekan. Odam degan sal tilyog‘lamaroq, surbetroq bo‘lishi ham kerak ekan. Ali Rizobey esa xuddi shu masalada no‘noqroq, tilyog‘lamalik qilishni bilmaydi, azaldan buni yomon ko‘radi.

Bir kuni u ilgari shahar mahkamasida hokim bo‘lib ishlagan yangi tanishi bilan sabzavot olgani bozorga tushib qoldi. Oshqovoq olmoqchi bo‘lib savdolashib turishganida egasi bilan jiqillashib qolishdi. Shunda do‘kondor sobiq hokimning qo‘lidan oshqovoqni shartta tortib oldi-da:

– Qani, tuyog‘ingni shiqillatib qolchi, miyasi aynigan chol!.. – deb bo‘kirib berdi. – Bu yerga narsa olgani keldingmi yoki gap sotganimi?.. Yoningda puling bo‘lmasa, nima qilasan valaqlashib, o‘t chaynab yuraver, tekinga o‘sib yotibdi!..

Ali Rizobey yer yorilmadi-yu, yerga kirmadi. Shundan keyin u ulfatlari bilan ikkinchi marta bozorga tushmaslikka ont ichdi.

\* \* \*

Ali Rizobey bundoq razm solib qarasa, sheriklarining hammasi xuddi gaplashib olganday nuqul uydagi mash-mashadan nolishadi. Demak, Ali Rizobey yolg‘iz emas ekan, hammaning boshida shu tashvish bor ekan. Qayoqqa qaramang, hamma joyda urish-janjal, to‘polon – xuddi vaboday tarqalib ketibdi. Endi uning bir narsaga imoni komil. Oiladagi janjallarning birdan bir sababi – „iqtisodiy turmush shartlari“ deb atalgan la‘nati narsa.

Nafaqaxo‘r chollar tong otishi bilanoq uylaridan qochib chiqib, yarim kechagacha qahvaxonada qolib ketishadi. Bu yerda ular bemalol chaqchaqlashishadi, goh bir-birlari bilan bahslashib, so‘kishib olishsa, goh o‘yin-kulgi qilishadi yoki mudrab o‘tirishadi. Aslini olganda hozir bularning uydan qulog‘i tinchib, bemalol yonboshlab yotadigan payti. Shu mahal gacha ular nima bo‘lsa shunga chidab, bardosh berib kelishdi, qariganimizda huzur-halovatda yasharmiz, degan umidda aslo nolimay, boriga baraka qilib yurishdi. Lekin bu shirin orzular pirovardida chilparchin bo‘ldi! Xayriyat, shu qahvaxona degan narsa bor ekan!. U ham bo‘lmaganida bularning holi nima kechardi? Nima kechishiga sirayam aql bovar qilmaydi...

Shunisi qiziqki, sobiq amaldorlarning ko‘pchiligi ilgari nimadan ko‘proq hayiqqan bo‘lsa, endi shunga o‘rganib, sira parvo qilmaydigan bo‘lib ketgan. Mana masalan, bularning orasida katta amallarda yurgan bir chol bor. Ilgarilari u birovdan qarz bo‘lib yurishdan qo‘rqardi. Hozir esa qulog‘igacha qarzga botgan. Hatto nafaqasiyam qo‘liga tegmaydi. Oladigan besh-o‘n tanga nafaqa puli nasiyaga mol berganlardan, sudxo‘rlardan ortmaydi. Dastlabki paytlarda u baqqol yoki qassob uyi tomonga kelayotganini ko‘rsa, qarzini o‘ylab, yuragi orqasiga tortib ketardi. Endi uning parvoyi falak, hatto qarzini uzolmay qamoqqa tushishdan ham qo‘rqmaydi. „Shunga ham ota go‘ri qozixonami, – deb ko‘nglidan o‘tkazadi u. – Zo‘r kelsa, qarzini so‘rab keladiganlardan qulog‘im tinchiydi. Hamyonda sariq chaqa bo‘lmagandan keyin odamlar qarzini unutguncha qamoqda yotib chiqqan ham ma‘qul“.

Bir vaqtlari xazinachi bo‘lib ishlagan yana bir mansabdor to‘ra tirnog‘iga gard yuqtirmaydigan, nihoyatda ozoda odam bo‘lgan ekan. Ilgarilari, o‘ziyam har kuni paypog‘ini yangilab turarkan. Endi bo‘lsa yoqasida bit o‘rmaalab qoladi. Ikki yilcha burun boyoqishning xotini falajga chalinib, qimirlayolmay qolibdi. Shu vajdan ro‘zg‘or ishlari ham o‘zining zimmasiga tushibdi. Kasal boqish kamlik qilganday, xotinining oh-vohi-yu achchiq-chuchuk gaplarini eshitishga ham majbur ekan...



Qariyalardan yana biri uyidan bezgan, doim gap eshitib, ozor chekadi. Deyarli har kuni qizi bilan kuyovidan ranjib chiqadi. „Yelkamning chuquri ko‘rsin shu uyni“, – deydi har kuni ertalab u bo‘xchasini qo‘ltiqlab qahvaxonaga chiqarkan. Ammo kech kirib, qaqvaxonada odamlar siyraklashib qolishi bilan boyoqishni uyqu bosib, suyaklari zirqiray boshlaydi, shunda ertalab aytgan gapi ham esidan chiqib, bo‘xchasini qo‘ltiqlaganicha yana shalvayib uyiga qaytadi. „Ilgari ko‘p hunar ko‘rsatgan, endi bola-chaqasidan qaytyapti“, – deb qo‘yishadi uni bilgan qahvaxo‘rlar. Bu gapning tagida jon bor: chol juda ko‘p yil harbiy maktabda tarbiyachi bo‘lib ishlagan, binobarin, uning dastidan qancha bola ko‘z yoshi to‘kib, dili xufton bo‘lgani yolg‘iz Parvardigorning o‘ziga ma‘lum.

Qahvaxo‘rlar orasida hatto sobiq gubernator ham chiqib qoldi. Sarmatbey degan bu janob boshqa tengqurlaridan tamoman ajralib turardi. Uni ko‘rgan, chertib-chertib gapirishini eshitgan odam darhol kimligini bilib olardi. Aytishlaricha, Sarmatbey xizmat vazifasida ko‘p yil ishlab, juda halol, bir so‘zli odam deb nom chiqargan ekan. O‘zi yetmishga borib qolgan bo‘lsa ham ko‘rinishi benuqson: ikki yuzi olmaday qip-qizil, hamisha ozoda kiyinib, g‘ozday kerilib yuradi, ovozi ham jaranglab chiqadi.

Oldiniga Ali Rizobey ham hamma qatori uning hurmatini joyiga qo‘yib, soyasiga salom berib yurdi. Keyinchalik esa bu odam haqida shunaqa gaplarni eshitdiki, asti qo‘yaversiz! Mish-mish gaplarga qaraganda, savlatidan ot hurkadi-gan bu janob bitlab ketgan yoki uyida o‘g‘il-qizidan musht yeydigan g‘arib va benavo chollardan ham xarob ekan. Sarmatbeyning qizlari yengiloyoq ekan, degan gap o‘ralashib qoldi. Qahvaxonada u axloq va odob haqida gap sotib o‘tiradi-yu, o‘zining uyida bo‘layotgan mashmashani ko‘rsangiz, tepa sochingiz tikka bo‘lib ketadi, deyishadi. Sobiq gubernator odamlarning ko‘zini bo‘yash uchun bunchalik olifta bo‘lib yurarkan-da?..

Ba‘zilar, uyida nima bo‘layotganidan Sarmatbeyning xabari yo‘q, deyishsa, boshqa birovlar buning aksini gapiradi: Sarmatbey tullak odam, uyiga qayerdan pul oqib kelayotganini juda yaxshi biladi-yu, lekin g‘ing demaydi.

Ali Rizobey, odatda, bunaqa gap-so'zlarga aralashmasdi, lekin bir kuni sabri chidamay:

– Kap-katta odam buni bilsa-yu, indamay yursa... Hecham ishongim kelmaydi, – deb qo'ydi.

Bu gapni eshitib, o'tirganlar: „Rosa laqma ekansan-u!.. Xudo bersa, bandasi yo'q deydimi?“ – degan ma'noda miyig'ida kulib qo'yishdi.

Dastlabki paytlari u bunaqa ig'vo gaplardan bezillab yurdi. Lekin nariroq borib ko'nikib ketdi. Kim nima desa desin-u, ammo qahvaxona har qalay yomon joy emas: kirgan odam loaqal bir nafas o'zining g'am-alamini unutib o'tiradi-ku...

## 11

Hayotda eng yaxshi saboq beradigan maktab kambag'allikdir. Nihoyat, Ali Rizobey hayot deganlari nima ekanini yaxshi bilib oldi. Endi u bilan hech kim hisoblashmay qo'ygani, hamma bir iloj qilib uning diliga ozor bergisi, sharti ketib parti qolgan, qashshoq chol ekanini yuziga solgisi keladi. Hatto o'z bolalari ham.

Ali Rizobey Fikrat o'zini olib qochib yurganini, gap-so'zi ham o'zgarib qolganini sezib qoldi. Qiziga bir gap bo'lganga o'xshaydi. Endi u ilgarigidek otasi bilan yozilishib gaplashmaydi, har qadamda uni uzib olmoqchi bo'ladi. Vaholanki ota boyoqish, boshimga biror ish tushsa, shu og'irtabiat, mehribon katta qizim Fikrat jonimga ora kiradi, deb yurgan edi. Singillari ham opasidan qolishmaydi. Garchi ular sirtidan otalarini behurmat qilishmasa-da, lekin ichida alami bor odamday nuqul o'zlarini olib qochishadi. Ota endi og'iz juftlab bir nima demoqchi bo'lsa, xuddi oldindan kelishib qo'yganday, qizlari baravariga teskari qarab, burunlarini jiyirishadi.

Ali Rizobey o'sha xatarli ishga jazm qilgan kezlarida uyda hamma unga quloq solishiga, bola-chaqasi chizgan chizig'idan chiqmasligiga imoni komil edi. Uning nazari-da, oilani ushlab turgan narsa ham shu, agar uning amriga

bo'ysunmay, bir gapini ikkita qiladigan bo'lishsa, oila al-laqachon to'zib ketardi...

Lekin shunga qaramay otaning boshiga tashvish tushishi bilanoq farzandlari undan yuz o'girib, yakkalab qo'yishdi. Oldiniga u buni Xayriya xonimdan ko'rib yurdi... „O'zi tumshayib yurgani yetmagandek, bolalarni ham yo'ldan urdi“, – deb o'ylardi u xotinidan o'pkalanib. Bora-bora xotini bo-yoqishga bekorga zarfa qilib yurganini sezib qoldi. Unda hech qanaqa ayb yo'q, bolalari shunchaki xarxasha qilyapti, o'zlari ham sezmagani holda otaga qattiq azob berishyapti...

Nafsilamrini aytganda, Xayriya xonim garchand eriga tumshayib yurgan bo'lsa ham, lekin ro'zg'orga aslo zarfa qilmasdi. Hamisha reja bilan ish tutadigan, saranjom-sarishtalikni o'rniga qo'yadigan bu xotin endi avvalgidan ham o'n chandon oshib tushgan edi. Eriga qayishadigan xotin bo'lsa shunchalik bo'ladi-da!..

\* \* \*

Ali Rizobeyning birdan bir ovunchog'i endi Shavkat bo'lib qoldi. Ko'zining oq-u qorasi Shavkat! Uning bosgan izini ko'ziga surtishga ham tayyor otasi.

Ali Rizobeyning holi nima kechayotganini faqat Shavkat tushunadi, xolos. Butun oila tashvishini ixtiyori bilan gardaniga yuklab olgan Shavkat ba'zan qoni qaynab, bosh-qalarga zahrini sochishi ham mumkin edi, albatta. Lekin u sira odob doirasidan chiqib birovgacha jahl qilmaydi, hamisha o'zini tutib yuradi.

Ba'zan u xuddi yosh bolalarday dadasining tizzasiga o'tirib oladi-da, soqolini siypab tasalli beradi:

– Siz hecham mendan xavotir olmang, dada, hammasi joyida bo'ladi. Mana ko'rasiz, ishlarimiz bir yurishib ketsa, yana baxt quchamiz... Eng avval singillarimni tinchitish kerak. Keyin o'zimiz bir amallaymiz. Siz bilan oyimni boqishga qurbim yetadi...

Shavkat hammani – ota-onasini ham, singillarini ham o'ylardi-yu, lekin o'zi bilan ishi bo'lmasdi.

– Menga qara, Shavkat, sening ham o'zingga yarasha orzu-havasing bo'lsa kerak, – dedi bir kuni Ali Rizobey o'g'lining diliga qo'l solib. – Agar boshimizga shu tashvish tushmaganida kim bo'lmoqchi eding?

Shavkat xayolga cho'mdi.

– Men me'mor bo'lmoqchiydim, dada. Me'morlikka o'qisam, yaxshi pul topsam, nomim mashhur bo'lsa, degan edim... Na chora, nasib qilmagan ekan...

Kim biladi, balki shu topda u butun ko'nglidagi armonini to'kib solgan bo'larmidi-yu, lekin dadasining ko'ziga cho'kkan mungni ko'rib, darhol hushyor tortdi.

– Yo'q, yo'q, siz darrov buni o'zingizga olmang. Men turmushimdan juda xursandman, – dedi zo'raki kulib Shavkat. – Qolaversa, hali yoshman. Oldin o'zimizning ishlarni to'g'rilab olaylik, bu yog'i bir gap bo'lar.

Ali Rizobey bu fikrga qo'shilganday bo'lib, gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

Ali Rizobeyning qahvaxonadagi nafaqaxo'r ulfatlari Xudodan najot tilab, o'zlariga taskin berib yurishadi. U bo'lsa o'g'liga sajda qiladi. Ali Rizobey g'amga botib, o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan kezlarida nuqul xayolan Shavkatga nola qiladi va lahza o'tmay, xuddi Arshi a'loga chiqib kelgan odamday ko'ngli taskin topib, dili ravshan tortadi.

Bir kuni u o'g'lini yoniga olib, ko'z yoshi qildi:

– Bilasanmi, o'g'lim, shu vaqtgacha men o'zimni or-nomusli va hatto muruvvatli odam deb bilardim, o'zimga o'zim tan berib yurardim. Bundoq qaragam, sening oldingda men hech narsa ekanman...

– Nima deyapsiz, dada?! Bu dunyoda sizga teng keladigan odam bormikin o'zi! Namuncha o'zingizni yerga urmasangiz?..

– Yo'q, bo'tam, sening oldingda men sariq chaqagayam arzimayman. Nimagaligini bilmoqchimisan? Gap shundaki, men shuncha yil yashab, biror narsaga zehn solib ko'rmabman, biror narsaga intilmabman. Mana sen butunlay boshqa odamsan. Sen hamma narsaga zehn solib, mag'zini chaqib ko'rasan. Hayotda sening o'z maqsading bor. Sen dilingga tugib qo'ygan orzu-havaslarindan o'z ixtiyoring bilan voz

kechyapsan, chunki burch degan narsa sen uchun hamma narsadan yuqori turadi. O'rtamizdagi tafovut ham xuddi mana shunda, o'g'lim...

## 12

Uyda tinchlik va halovat buzildi: bolalari tez-tez jiqil-lashib, pana-panada bir-biri bilan qirg'in qilib oladigan bo'lib qolishdi. Buni ko'rib, Ali Rizobeyning boshi qotdi. Bir kuni u Fikrat singillari bilan jiqillashib turganini ko'rib qoldi, keyinroq borib Layloning xonasidan yig'i ovozini eshitdi, boshqa bir kun esa Najlo dasturxonga chiqmadi...

Xayriya xonimning-ku umuman yoniga yaqinlashib bo'lmay qoldi. Ali Rizobey xotini to'g'ri gapni ham darrov egriga burishini bilgani uchun, uyda nima bo'lyapti, deb so'rashga yuragi betlamay yurdi.

Urish-janjal borgan sari avjiga mindi. Oilada totuvlik yo'qoldi. Qizlar ikki guruhga ajrab ketdi: Fikrat bir tomonda-yu, Laylo bilan Najlo boshqa tomonda. Ali Rizobeyning o'z uyida tizginni qo'lidan boy berib, obro'si ham bir pul bo'lganiga eng yaxshi dalil shu bo'lsa kerak.

Oiladagi tartib-qoida va intizom Laylo bilan Najloga yoqmay qo'ydi. Ikkovining fikr-xayoli kiyim-kechak, o'yin-kulgi va yigitlarda edi. Opasiga qaraganda ular tantiq, o'yinqaroq va yengiltak bo'lib o'sishdi. Otasi bularga o'z vaqtida yetarli e'tibor berolmadi. Holbuki, chiroyli qizlarga hamisha ko'z-quloq bo'lib turish kerak. Bularning turmushga chiqishiga hali ancha bor. Kamida uch-to'rt yil kutish lozim.

Ali Rizobeyning yakka-yu yagona maqsadi qizlarni odob-andishali, kamtar qilib tarbiyalash edi. Shuning uchun ham ularni ko'pam ko'chaga chiqaravermas, yaxshi oila bolalari bilan o'rtoq bo'linglar, deb qayta-qayta ta'kidlardi. Ishqilib, yomon ko'zdan asrasa bas!..

„Qiz bolaning husni dardisar bo'ladi! Qizlaringga ko'z-quloq bo'lib yur!“ Hadeb xotining qulog'iga quyardi Ali Rizobey. Ammo biridan qutulsang, ikkinchisiga tutilarkansan: qizlarining har bir bosgan qadamini tergab, tizginni

mahkam ushlab yurgan er-xotin ayni bir paytda bularning ko'ngli nima istasa, shuni bajo keltirib, haddan tashqari tal-taytirib yuborishdi. Qizlari katta bo'lib qolgach, Ali Rizobey xuddy shu masalada xotini bilan tez-tez jiqillashib oladigan bo'ldi. Xayriya xonim bir kuni gap orasida, Laylo bilan Najloning chiqimi ko'payib ketyapti, deb qoldi. Shunda Ali Rizobey:

– Shu oddiy narsani ham tushunmaysanmi, xotin? Bu bechoralar uydan ko'chaga chiqmasa. Bir kami endi ularni yeb-ichishdan, kiyim-kechakdan ham qisaylikmi... Axir bunaqada ularni uydan bezdirib, turmushdan nolitib qo'yamiz-ku. Qo'y, bizning davrimizda qizlarimiz hech narsadan kamchilik sezmay, bemalol o'ynab-kulib yurishaversin, – deb uning og'ziga urgan edi.

Otaning bilagida kuch-quvvati, eng muhimi, cho'ntagida puli bor ekan, hamma huzur-halovatda edi. Keyin esa uy ostin-ustun bo'lib ketdi. Hokimiyat Xayriya xonimga o'tdi. Ilgari qizlar qurumsoq onadan nolib, tez-tez otalariga yalinib kelishardi. Endi u ham yo'q. Sharti ketib, parti qolgan cholning qo'lidan nima ham kelardi! Xayriya xonim bilan o'rtancha qizlarining orasida katta janjal boshlandi. Bularning ko'z yoshi-yu baqirib-chaqirishlari Xayriya xonimga kor qilmadi, u sira bo'sh kelmadi. Sermulohaza, es-hushli Fikrat eng og'ir paytlarda onasining yonini olib turdi. Ammo bora-bora Xayriya xonimning ham bardoshi tugadi. O'zi boqib katta qilgan jigargo'shalari ko'z yoshini oqizib tursa, qaysi ona chidaydi axir?! Shundan keyin Xayriya xonim o'zini boshqa ko'chaga urdi: u Laylo bilan Najloni kiyintirish uchun ro'zg'ordan urib qoladigan odat chiqardi. Natijada tirikchilikdan putur ketdi. Qizlarining ko'ngliga qarab, shu ishni qilgani uchun Fikrat onasini koyiy boshladi.

– O'zidan boshqani o'ylamaydigan shu tantiqlaringizni deb biz och-yalang'och yuraylikmi? Bunga nima haqqingiz bor, oyi? – derdi u...

Xayriya xonim ham o'zini oqlash uchun ularning yonini olishga majbur bo'lardi.

– Ularning gapida ham jon bor-da, axir! Qiz bola degan yaxshi kiyingisi keladi...

Ilgarilari Fikrat singillarini yosh boladay ko'rib, hamisha ularning ko'ngliga qarab yurardi. Otasi uni shunga o'rgatgan edi. Fikrat aqlli qiz emasmi, onasi endi Laylo bilan Najloning tarafini olayotganini ko'rib, xunobi oshib ketdi:

– Juda soz! Xo'sh, bizga nima qil deysiz endi, oyi? Bizlarni kim tug'gan o'zi, sizmi? Yoki ko'chadan ergashtirib kelgan itvachchalarmizmi? Men-ku mayli-ya, Oyshani o'ylamaysizmi?.. Bola bechoraning aybi nima, uyalmayizmi, axir?

Kosa tagidagi nim kosa ochilib qoldi. Yig'i-sig'ilar, tumshayib yurishlar barham topdi. Uydagilar tarafma-taraf bo'lib jangga o'tlanishdi. Xayriya xonimdan ko'mak olgan Laylo bilan Najlo Fikrat bilan Oyshaga qarshi ochiq hujumga o'tdi.

Bu jangdagi kuchlar nisbati teng emas edi, albatta: Oysha hali yosh bo'lgani uchun Fikrat yolg'izlanib qoldi. U akasi bilan dadasini o'zining tomoniga og'dirib, ulardan madad olmoqchi bo'lib yurgan bo'lsa ham, lekin Shavkat bunga ro'yixushlik bermadi.

– To'g'risini aytsam, Fikrat, senlarning janjalingga aralashadigan holim yo'q, – dedi u. – O'zimning ishim boshimdan oshib, yotibdi, bo'ynimda ro'zg'or tashvishi. Qolaversa, bekordan bekorga jiqillashib yotibsanelar. Biror arzigulik gap bo'lganida ham boshqa edi...

Ali Rizobeyning holi esa ma'lum edi: endi hech kim unga quloq solmasligini o'zi ham yaxshi bilardi. Uyda uning soyasi qolgan, xolos. Har holda ota degan nomi bor, shuning uchun qittay hurmat qilib yurishibdi, bordi-yu, yana janjalga aralashadigan bo'lsa, shu tariqdek obro'dan ham ajrab qolishi hech gap emas.

Binobarin, Ali Rizobeyning havoga bulut chiqishi bilan shosha-pisha xonasiga kirib ketishi yoki bo'lmasa qahvaxonaga qochib qolishining sababi ham shunda edi.

Ali Rizobey uydagi voqeadan bexabar, nima gap bo'layotganini bilmaydi, deb o'ylashardi. Lekin unchalik emas edi. U hammasini sezib, uyda nima to'polon bo'layotganini bilib yurgan edi. Endi uning ko'zi moshdek ochilgandi. Odatda, og'ir kasalga chalinganda boshqa illatlar ham qo'zg'ab qoladi. Bu xonadonda ham xuddi shu narsa yuz berdi. Uydan qut-baraka ko'tarilishi bilan hammasining kamchiligi-yu zaif tomonlari ochiq ko'rindi-qo'ydi. U qizlarini mo'min-qobil, bir gapni ikkita qilmaydi, deb yurardi. Yanglishgan ekan! Fikratning o'zi ham, singillari ham u o'ylagandan butunlay boshqacha ekan.

Bu o'rtada uydagi urish harakatlari yangi pallaga ko'chdi. Laylo bilan Najlo endi ochiq hujumga o'tishdi. Xo'sh, nima sababdan ular uyga ko'milib o'tirishi kerak? Ular tengi qizlar ochilib-sochilib, mazza qilib o'ynab-kulib yurishibdi-ku, axir. Nimaga bu sho'ring qurg'urlarni do'zaxga qamab qo'yishadi? Ha, bu uy ular uchun chinakam do'zax! Avji o'ynab-kuladigan vaqti emasmi bularning? Ikkovining ham odamlarga qo'shilgisi, yayrab-yashnab, o'ynab-kulgisi keladi!.. Bu dunyoga kelib nima ko'rishdi axir? Umuman biror nima ko'risharmikin?.. Ha, shundoq! Bu xonadon cho'kib ketayotgan kemaga o'xshaydi. Uning butkul cho'kib ketishi aniq. Endi har kimning joni o'ziga shirin! Shunday bo'lgandan keyin bular ham o'zini o'ylashi kerak-ku, nega bunga imkon berishmaydi? Bular yosh bola emas-ku? Nimaga endi tergayverishadi? O'zlariga qo'yib berishsin, ko'ngillariga yoqqan erni topib olishadi. Hozir sovchilar uyma-uy yurib, kelin qidiradigan vaqt emas. U zamonlar allaqachon o'tib ketgan...

Ali Rizobey allaqachon qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urgan. Endi u ilgarigiday chuqur „tarbiyaviy“ mushohadalarga bormaydi, qizlarimga noto'g'ri tarbiya bergan ekanman, deb o'zini o'zi koyib ketmaydi. Xo'sh, masalan, Fikratning tarbiyasi yaxshi bo'ldi-yu, yomon bo'ldi nima... Odamzodning fe'l-atvori tug'ma bo'ladi, ertami-kechmi yuzaga chiqadi... Uni o'zgartirib bo'lmaydi...



Endi u ilm va tarbiyaning sehrli kuchiga ishonmay qo'yg-an. Garchi qo'lidan hech narsa kelmasligini yaxshi bil-sa ham, ba'zan qizlari bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi bo'ladi. Paytini poylab, Laylo bilan Najlo yotgan xonaga ki-radi-da, butun dilidagi gaplarni to'kib soladi.

Lekin, qani endi ularga gap uqtirib bo'lsa?! Qancha-lik oh urib, faryod chekmagin, ular eshitmaydi, eshitishni istamaydi ham!.. Mana uning qizlari, shundoqqina oldida, qo'lingni uzatsang yetadi-ku, lekin oradagi masofa qancha-lik uzoq-a! Ular butunlay boshqa dunyoga, eng olis yulduz-lardan ham uzoq turgan dunyoga mansub.

Bunday paytlarda qizlarini ko'rib Ali Rizobeyning rah-mi kelar, xuddi oyog'ining ostida qurbonlikka so'yiladigan qo'ylar yotganday yuragi ezilib ketardi.

## 14

Do'zax!.. Laylomi, Najlomi, har qalay ikkovidan biri-ning og'zidan chiqqan bu gap tez kunda ommalashib ketdi. Hamma o'zi tug'iilib o'sgan uyni do'zax deb ataydigan bo'lib qoldi. Hatto shumtaka Oysha ham!.. Hali ham qirg'in-barot davom etayotgan mana shu jahannamda har kuni kechki ovqat mahalida har qalay yarim soatga yarashib olishardi... Bunday paytlarda to'polon va janjallar to'xtab, yig'i-sig'i va oh-vohlar barham topar, binobarin, xuddi ilgarigi do-rulamon zamonlar qaytib kelgandek, yarim soat dasturxon atrofida halovat va totuvlik hukm surardi. Buning bosh sa-babchisi Shavkat edi. Uydagilarning hammasi uni boshiga qo'yib, hurmat qilardi. Ehtimol, bularning janjaliga aralash-may yurgani unga qo'l kelgandir. Shunisi ham borki, erta-labdan kechgacha jag'i tinmay, urishib-so'kishavergandan keyin har kim ham charchaydi, biroz nafasini rostlab olgisi keladi...

Kechki ovqat vaqti yetib kelishi bilan hammalari qovoq-dimog'ni yig'ishtirib, bir-birlari bilan apoq-chapoq bo'lib ketishardi.

Ammo bora-bora Shavkat o'zgarib qoldi. Endi u ilgari-giday dasturxon tepasida ochilib-sochilib o'tirmasdi. Shavkat boshini kaftiga qo'yib, tez-tez chuqur xayolga botadigan bo'lib qoldi. Bunday paytlarda nimadandir tashvishga tushayotgani sezilib turardi.

Oldiniga Ali Rizobey hamma aybni chiroqqa qo'yib yurdi, o'g'li qarimsib, ko'zlari kirtayib qolganini xira chiroqdan ko'rdi. Keyinchalik tuzukroq razm solib qaragan edi, o'g'lining gap-so'zlari ham o'zgarib qolganini sezdi.

Shavkat zavq-shavq bilan bir nimani gapirib turib, to'satdan jim bo'lib qolar va bo'ynini qisib, xomush o'tirardi. Balki o'g'li ishdan toliqib qolayotganmikin-a?

Ali Rizobey bir necha bor bu haqda xotini bilan sirlashmoqchi bo'ldi-yu, lekin botinolmadi. Xayriya xonimga biror gap aytgandan aytmagan ma'qul, agar bir nimadan ko'ngling xijil bo'lib yurganini sezib qolsa, jo'rttaga sassiq bir gap aytadi-da, ta'bingni battar namozshom qiladi. „Lekin bu safar Xayriya xonimning o'zi gap ochib qoldi.

\* \* \*

Ali Rizobey qo'lidagi kitobga ham qaramay, manqalning oldida mudrab o'tirgan edi. Vaqt ham allamahol bo'lgan. To'satdan eshik ochildi.

– Hali yotganing yo'qmi? – dedi Xayriya xonim o'zini ichkariga olarkan. – Juda sovuq-ku xona. Qandoq o'tiribsan bu sovuqda? – tilyog'lamalik qildi u.

Xotini manqalga o't qaladi, keyin deraza teshiklarini qog'oz bilan berkitib chiqqach, eriga o'girildi.

– Qani, chakmonni yech-chi, yamab beraman.

Xayriya xonim oldin ko'rpa olib, erining ustiga yopib qo'ydi-da, keyin chakmonni oldi.

Ammo xotining bu mehribonchiligini ko'rib, Ali Rizobey pinagini buzmadi. Buning tagida bir gap bo'lsa kerak! Xayriya xonim anoyilardan emas! Shu kunlarda kechalari uyda ivirsib qolgani, har qadamda choliga xushomad qila boshlagani bejizga o'xshamaydi. Beixtiyor u uyda oqsoch

tutgan eski paytlarini esladi. Xotini oqsoch ayollarga sira kun bermay, erta-yu kech qarg'ishdan jag'i tinmasdi. Qarabsizki, to'satdan u o'zgarib, ipakday muloyim bo'lib qolar, ularni xuddi boyvuchcha mehmonlarday siylab, aylanib-o'rgilardi. Ertasiga esa sir oshkor bo'lardi. Oqsochning kavushi to'g'rilab qo'yilardi.

Xotining fe'lini yaxshi bilgan Ali Rizobey u bekorga mehribonchilik ko'rsatmayotganiga, buning tagida biron gap borligiga imoni komil edi. Aytgani keldi ham. Xotini bir nafasda yamog'ini bitirib bo'ldi.

– Sen bilan gaplashib olmoqchi edim, dadasi. Bir ish chiqib qoldi, – dedi u arqonni uzun tashlab. – Nima qilishga boshim qotib qoldi... Hozir Shavkatning oldida edim, ancha gaplashib oldik...

Ali Rizobey operatsiya stolida yotgan odamday o'zini behol sezib, shumshayib o'tirardi.

Xotini uning jonini bitalab surug'ib olmoqchi bo'lganday rosa gapni aylantirgach, oxiri maqsadga ko'chdi.

– Men senga aytsam, o'g'limiz bittasiga ko'ngil qo'yibdi, endi uylanarmish...

Shavkat yosh bola-ku hali. Kimni ko'rsa, shuning etagiga yopishadigan vaqti... Darvoqe ishq-muhabbatdan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmaydi hozir! Ali Rizobey buni yaxshi biladi-yu, lekin xotining gapiga ishongisi kelmadi. Rost-da. Muhabbat deganlari koni zarar narsa, binobarin, yoshlar o'z ixtiyorlari bilan bo'yinlariga kishan solib olishadi-da, keyin bir umr qiynalib yurishadi. Shavkat mulohazali, es-hushi joyida yigit. Nahotki u ham o'ziga shuni ravo ko'rsa?

Shunday xayollarga borgan Ali Rizobey:

– Ko'ngil qo'ygan bo'lsa, uylanaversin... Haqqi bor... Hech kim uni ushlab turgani yo'q... Bizni deb dunyodan toq o'tishining hojati yo'q, – dedi oxiri bo'shshib.

– Juda to'g'ri gapirding, – uning og'ziga urdi shoshapisha Xayriya xonim. – Lekin buning nozik tomoni bor, shunisidan andisha qilib turibman. Qaydam, sen bunga nima derkinsan.

– Yana nimaykan?.. Namuncha imillaysan? Gapir tez-roq!

– Yoshing ham anchaga borib qolgan bo'lsa... Qattiq ozor chekarmikinsan, deb qo'rqaman.

Ali Rizobeyning yuragi shig' etib ketdi: aytishga xotini-ning ham tili bormayapti, biror yomon gap bo'ldimikin-a?.. Yoki jahlini chiqarish uchun jo'rttaga cho'zyaptimi?

– Gapiradigan bo'lsang gapirmaysanmi! – o'shqirib berdi u hovrini bosib. – Endi men hech narsadan qo'rqmayman. Bu quloqlar hammasiga tayyor!

Xayriya xonim qo'lidagi chakmonni yig'ishtirib, manqalning oldiga borib cho'qqaydi, keyin otashkurak bilan uning cho'g'ini kovlay turib, yotig'i bilan gap boshladi:

– Shavkat bitta mashinistka juvonne yaxshi ko'rib qolibdi. Bankda birga ishlasharkan... Eri bormish... Anchagacha pinhona uchrashib yurishibdi... Lekin elning og'ziga elak tutib bo'larmidi, oxiri eri buni bilib qolib, uyidan haydabdi. Hozir ishiga kelmayotganmish... Agar meni olmasang, o'zimni o'zim o'ldiraman, debdi Shavkatga...

Xayriya xonim bu gapni eshitib, Ali Rizobeyning qoni qaynab ketsa kerak, deb o'ylagan edi, aksi bo'lib chiqdi. Eri unga sovuqqina bir qarab qo'ydi-da, so'ng:

– Demak, Shavkat o'sha juvonga uyulanmoqchi ekan- da? – dedi zaharxanda kulib.

– Agar sen xo'p desang... Ikki kishining taqdiri sening qo'lingda... Ikkalasining savobiga qolasan...

– Shavkat yosh bola emas... Kap-katta yigit bo'lib qolgan... Nimani xohlasa, shuni qilishi mumkin, ixtiyori o'zida. Xo'sh, mening masalamga kelsak, men bunga rizolik bermayman.

– Esingni yedingmi, Ali Rizobey? Nimalar deyapsan o'zi?

– Nima deganimni o'zim bilaman. Qat'iy gapim shu... Agar o'g'lim ko'ngliga yoqqan ishini qiladigan bo'lsa, mening unaqa o'g'lim yo'q endi... o'lgan, deb yuraveraman... O'zi berib, o'zi oldi, deyman. Bunga ham chidayman... Qandoq qilay, boshqa ilojim yo'q.

Xayriya xonim erini besh qo'liday yaxshi biladi. U aytgan gapidan qaytmaydigan odam. Shuning uchun ham u erini ko'ndirishni xayoliga ham keltirmay, piqillab yig'lashga tushdi.

– Yig‘i-sig‘i qilmay qo‘ya qol, – dedi u sira pinagini buzmay. – Yana qaytarib aytamanki, bu juvonna men uyimga yaqin yo‘latmayman!.. Bordi-yu, Shavkat bu oilani tebratayotgan menman, mening aytganim bo‘ladi, deydigan bo‘lsa, nachora, men uydan boshimni olib chiqib ketaman. O‘g‘lingga aytib qo‘y shuni. Senga ham qiyin, ahvolingni tushunib turibman, lekin bo‘lak ilojim yo‘q. Men vijdoniga qarab ish ko‘radigan odamman.

Xayriya xonim piqillaganicha chiqib ketdi. Ali Rizobey endi ko‘ziga uyqu kelmasligini bilgani uchun joyiga borib yotmadi. U olovi o‘chgan manqal yonida ko‘rpaga burkanib olganicha ertalabga qadar og‘ir xayollarga berilib chiqdi.

## 15

Uydagi qirpichoq battar avjga mindi.

Fikrat akasining uylanishiga tish-tirnog‘i bilan qarshi chiqdi. Akasi topgan ayolni u firibgardan olib firibgarga soldi. Bunaqa xotin shumqadam bo‘ladi, hozir-ku chatog‘imiz chiqib turibdi, u keladigan bo‘lsa battar xarob bo‘lamiz, deb turib oldi...

Laylo bilan Najloga-ku Xudo berdi. Ikkovi ko‘pdan shuni kutib yurganday, bu gapni eshitib terisiga sig‘may ketdi. Akalari uylangandan keyin zora xonadonga fayz kirib, o‘yin-kulgi avjiga minsa. Shavkat ham dadamizga o‘xshab turmushdan orqada qolgan, mana endi xotini uni boplab tarbiyalaydi, odam qiladi, deb ich-ichidan quvonishardi ular...

Uydagi vaziyat kundan kunga keskinlasha bordi. Ali Rizobey aslo bo‘shashmadi, Fikrat unga dalda bo‘ldi. Ammo Xayriya xonim ham eri ertami-kechmi baribir taslim bo‘lishiga ko‘zi yetgani uchun umidini uzmay yuraverdi. Garchi u eriga qarshi yeng shimarib, ochiq-oydin jangga kirmagan bo‘lsa ham, zimdan ish ko‘rgan holda qo‘qqisdan nashtarini sanchib olardi. Ro‘zg‘or uning qo‘lida bo‘lgani uchun tili ham uzun edi. Xayriya xonim bir kunmas bir kun qaysar cholni qayirib olishiga ko‘zi yetardi-yu, ammo

Shavkatning lalayganini ko'rib xunob bo'lardi. Agar o'g'lida lab-dahan bo'lganida allaqachon ishi to'g'ri bo'lib ketardi. O'zi devdek yigit-u, xuddi oyimcha qizlarga o'xshab ho'ng-ho'ng yig'laydi, ohi ko'kka yetadi. Bechora shamday erib boryapti...

Ota-bolaning munosabati o'zgargani yo'q, zamon eski-cha. Shavkat dadasiga ozor berishni ko'ngliga ham keltirmaganday sermulozamatroq, sertakallufroq bo'lib qolgan. Buni ko'rib ba'zan Xayriya xonimning xunobi oshadi.

- Otagga gap qaytar yoki aytganini qilma, demayman, o'g'lim. Xudo saqlasin... Lekin sen ham bundoq qovog'ingni solib yursang-chi, noto'g'ri ish qilayotganini bilsin...

- Eh, dadamning ko'nglidan nima kechayotganini bilib turibman, oyi, siz buni tushunmaysiz. Men dadamni jonimdan ortiq ko'raman. Ko'nglingizga olmang... Sizni ham boshimga ko'tarib yuraman-u, ammo dadamga bo'lgan mehrim boshqacha... Mening nazarimda dadam odamlarning eng sarasi.

Buni eshitib, Xayriya xonim erini qo'lga olmoqchi bo'lardi. O'g'lini yaxshi ko'rishini bilgani uchun u har xil vahimali gaplardan qilib, cholini qo'rqitardi. Agar to'yga rozilik bermasangiz, o'g'lingiz ichikib nobud bo'ladi, o'zini o'zi o'ldirishdan ham toymaydi, deb uning yurak-bag'rini ezib yuborardi... Shundan keyin Ali Rizobeyning ko'ziga o'lim to'shagida yotgan o'g'li ko'rinib ketar va u qo'li bilan ko'zini pana qilib, yum-yum yig'lardi.

Biroq bu gaplar ham unga kor qilmadi. Chol aytgan gapida turib oldi. Uning fikri qat'iy edi: bunaqa sharmandalikdan ko'ra, o'g'lining o'lgani yaxshi.

Nihoyat, Xayriya xonimning sabri tugadi shekilli, bir kuni erining boshiga it kunini solib berdi. O'sha kuni u alamahalda Ali Rizobeyning xonasiga kirib keldi-da, o'zini yumdalab dodlashga tushdi.

- O'g'limni nobud qilmoqchimisan, yo'q, bunga yo'l qo'ymayman! - dedi u yoqasini yirtib.

- Bo'ldi, ko'p vaysama! Shavkat bilganini qilsin, roziman, - dedi holdan toygan Ali Rizobey ko'ziga yosh olib.  
- Meni o'ylamay qo'ya qolinglar... Senlarga endi og'irligim

tushmaydi. Qoramni ham ko'rmaysanlar. Bilganlaringcha yashayveringlar...

- Qandoq tiling bordi shu gapni aytgani, a, qani ayt? - battar bobillab ketdi Xayriya xonim erining yelkasiga turtib. - Qilar ishni qilib qo'yib, endi qochmoqchimisan? Qariganimda bir etak bolani menga tashlab-a? Nomardlik ham evi bilan-da!

Xayriya xonim bu yo'l bilan biror ish chiqarolmasligiga ko'zi yetdi. Urish-janjaldan foyda yo'q, choli o'lsa o'ladiki, aytganidan qaytmaydi. Demak, boshqacha yo'l tutish kerak: Ali Rizobey Shavkat o'sha xotinga uylansa, isnodga qolaman, deb o'ylayapti, a? Yaxshi. Demak, Shavkat undan yuz o'girib ketaveradigan bo'lsa, oilamiz battar gap-so'zga qoladi, bu undan ham yomon, deb cholning miyasiga quyishi lozim... Tikka hujum ish bermagandan keyin aylanma yo'l ham qo'l keladi-da!

- O'g'ling pokiza bir juvonne yo'ldan urib, uyini buzdi, boyoqish ko'chama-ko'cha sargardon bo'lib yuribdi. Bundoq sen ham tanangga o'ylab ko'r, uning ham senga o'xshagan otasi bordir axir! Sening ham oldingda qizlaring bor, o'sha boyoqish ham Fikratga yoki Laylo bilan Najloga o'xshab hali oq-qorani tanimagan bir mushtipardir... Bir kunmas bir kun qizlaring ham shu ko'yga tushib qolsa nima qilasan... Nima bo'lgandayam o'g'ling uni bu isnoddan qutqarishi kerak!..

Ali Rizobey bu gaplarni eshitmaganday bo'lib yuraverdi. Lekin hech qanday kuch bas kelolmaydi, deb yurilgan qoya o'zidan o'zi darz ketdi. Avvaliga buni hech kim payqamadi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tgani ham yo'q ediki, bir kuni Ali Rizobey to'satdan xotinini chaqirib qoldi.

- Menga qara, xotin, - dedi u taqdiriga tan bergan odamday o'zini xotirjam tutib. - Bundoq o'ylab qaragam, o'sha juvonga jabr bo'larkan, o'g'limiz yaxshi ish qilmagan bo'lib chiqarkan. Shavkatga borib aytishing mumkin: uyimizning eshigi ochiq unga, qizimiz to'rtta edi, endi beshta bo'ladi.

To'y... Mash'aladek porlagan chiroqlar... Charog'on uy... Deraza bilan eshiklar lang ochiq. Jaz-band orkestri yangraydi. U to'xtashi bilan hamma yoqni qiy-chuv ovozlari, xandon otib kulishlar, sho'x qiyqiriqlar tutib ketadi...

Butun ko'cha, hamma qo'ni-qo'shni to'yga yopirilib chiqqan. Xuddi parvonaga o'xshab, to'yxonaga mahalladan ham to'p-to'p odamlar yig'ildi. Xotin-xalaj, erkaklar, bolalar – hamma shu yerda. Ba'zilari to'yni ko'chadan turib tomosha qilayotgan bo'lsa, ichida botirroqlari bemalol hovliga kirib, uy egasi ne-ne mashaqqat bilan o'stirgan gulzorda chordana qurib o'tirib olgan.

Ali Rizobey sekingina to'yxonadan chiqib ketdi. U orqa eshikdan o'tib, ellik qadamcha naridagi baland tepalikka qarab yurdi. Tepalikka yetgach, xarsangga cho'kib, kallasini ikkala qo'li bilan changallab oldi-da, qorong'ilikka ko'z tikkanicha uzoq o'tirib qoldi.

Shu topda u uyiga o't tushib; boshpanasiz qolgan odamga o'xshardi. Tabiiy ofat insondan zo'r chiqdi. Endi undan qochib qutulishning iloji yo'q!.. Ko'zining oldida, uyi kuyib kul bo'ldi...

Yillar mobaynida u shu nuragan kulbasini bo'ron changalidan saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan urinib ko'rdi. U zo'r berib teshik kovaklarni berkitdi, eshik va derazalarni zichlab yopdi, ammo kuchi yetmadi. Bo'ron bilan shuncha yil olishib, faqat azob chekdi, xolos...

Xuddi yopirilib kelgan quyunga o'xshab bu to'y ham uydagi hamma eshik va derazalarni taraqlatib ochib yubordi, binobarin, umr bo'yi u daf qilmoqchi bo'lgan balolar o'zining boshiga yog'ildi.

Ha, butun umidlari endi puchga chiqdi! U o'zining suyangan tog'idan – Shavkatdan ajrab qoldi. Endi uning yaqin mehriboni yo'q, bu dunyoda bir o'zi sho'ppayib qoldi...

Keyingi ikki-uch hafta ichida rosa bo'ladigani bo'ldi uning. Mana endi vaqti bor, shularni bir eslab, tegishli xulosalar chiqarib olishi mumkin.



To'y ovozasi tarqashi bilan uydagilar esini yo'qotib qo'ydi. Hatto yetti o'lchab bir kesadigan, esi butun Fikrat ham. Qizlarining fikri-xayoli kiyimda – hali uni olib ber, hali buni...

Xotinidan sariq chaqalik naf yo'q. Shavkatning-ku holi ma'lum – bola boyoqish bo'ynidan tortsa yiqilgudek bo'lib yuribdi.

Ali Rizobeyning miyasi g'ovlab ketdi. Oldiniga u qizlariga yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'ldi: buning ayyuhannos soladigan joyi yo'q, to'y shunchaki bir narsa, birovning baxti qaro bo'lmasin, deb noilojlikdan qilinyapti, hamma yoqda karnay-surnay chalgandan ko'ra imi-jimida, shovqin-suron-siz o'tkazgan ma'qul. Qolaversa, senlarni yasantirish uchun ham, to'y qilish uchun ham pul kerak. Uni qayerdan olamiz? Qora qozonimiz zo'rg'a qaynab turgan bo'lsa. Agar qarz ko'taradigan bo'lsak bir-ikki oydan keyin och qolib, ham-maga sharmanda bo'lamiz!

Bir kuni u ketini o'ylamay Oyshani yoniga o'tqazib, toza nasihat qildi, ahvol chatoqligidan nolib, unga qarz daftari-ni, to'lanadigan pul qog'ozlarini birma-bir ko'rsatib chiqdi. Lekin uning qilgan harakatlari zoye ketdi. Bu ham yetma-gandek, qizlari uni behurmat qiladigan bo'lib qoldi. Otalari bilan gaplashayotganda xuddi onasiga o'xshab, peshana ti-rishtiradigan odat chiqarib olishdi. Ikki gapning birida uni ziqnadan olib ziqnaga solishadi. „Ko'p gapirmang! Nega bizlarni o'ylamaysiz! Nima, bizlar gadoyvachchamizmi? Boshqa otalar qizi nimani xohlasa, shuni olib beradi, aytga-nini qiladi. Nima, akamizning to'yida chuvrindilarga o'xshab yuraylikmi?“ – deb baland kelishadi.

Shu paytgacha Ali Rizobey hayotga faylasuflarcha mu-nosabatda bo'lib keldi. U hayotda inson bolasi ne-ne ko'y-larga tushmasligini bilardi-yu, ammo payti kelib o'zimning farzandlarim nomusimni to'kmay, halol yashaganimni yu-zimga soladi, deb sira-sira o'ylamagan edi.

Qolaversa, gap kiyim-kechakda emas. Bunisi holva ekan. Uydagi hamma narsalarni chiqarib tashlab, o'rniga yangila-rini olishdi. Eski karavot, stol va stullar sotilib ketdi. Devor-dagi yelim qog'ozlar ham yangilandi. Bularning hammasi

pulning zavoli, albatta. Ali Rizobey boshini changallab qoldi. Shavkat boyoqishga qiyin bo'ldi, shuncha pulni u qayerdan topadi... Bir-ikki marta o'g'li bilan shu haqda ochiq gaplashib olmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin u har gal ko'zini chetga olib: „To'g'ri aytasiz, dada... Lekin iloj qancha?“ – deb qo'yar va biron narsani bahona qilib qochib qolardi.

Xayriya xonimning saxiyligi tutib ketdi: necha zamonlardan beri sandiq bilan savatga yig'ilgan bisot yuzaga chiqdi. Qimmatbaho taqinchoqlar sotildi. Biroq bulardan tushgan pul yana yetmadi – uydagilarning qovoq-dimog'i ochilmadi. Kechqurun bo'ldi deguncha har kuni oh-vohlar, ming'ir-ming'ir ovozlari eshitiladi.

Garchi Xayriya xonim erini bir chaqaga olmay qo'ygan bo'lsa ham, to'yga atab biror narsa olayotganida qo'li yetmay qolsa, darhol unga yopishib, ta'na qilib ketardi.

– Erkak degan noming bor axir! Uyning egasisan! – deb shang'illardi u. – Men notavon bir kampir bo'lsam! Qo'limdan nima ham kelardi! Bu yog'ini endi o'zing to'g'rilashing kerak!..

Dard ustiga chiqqan chipqonday, kelini Farxunda boshidanoq Ali Rizobeyga yoqmadi. Birinchi ko'rishdayoq u Ali Rizobeyning ta'biga o'tirishmadi. Uni isnoddan qutqarib, qanotimga olganim uchun mendan mingdan ming rozi bo'lsa kerak, deb o'ylagan kelini birovga gap bermaydigan, takabbur va hatto surbet, yengiltak bir juvon bo'lib chiqdi.

Ali Rizobey endi bundan bu yoq o'g'limning baxti ham, oilamizning shon-sharafi ham sizning qo'lingizda, degan ma'noda ikki-uch og'iz iliq so'z aytmoqchi edi-yu, lekin uni ko'rishi bilan bu fikridan qaytdi: unga gap uqtirib bo'ladiganga o'xshamaydi, taqdir ekan, bo'lar ish bo'ldi endi...

Orkestr tinmay chalib yotibdi. Charog'on oynalardan tansa qilayotganlar ko'rinib turibdi. Mehmonlarning jaza-vasi tutgan: dam baqirib-chaqirishadi, dam gir aylanib sakrashadi.

Ali Rizobeyning xayoliga Xayriya xonim keldi. Shu topda u pastdagi qorong'i oshxonaga kirib olib, idish-tovoq yuvayotgan yoki mast-alast mehmonlarga biror yegulik tayyorlayotgan bo'lsa kerak. Ali Rizobey xotinidan har qan-

cha o'pka qilsa arziydi – boshiga mushkul ish tushganida yolg'izlatib qo'ydi. Lekin nima bo'lsa-da, xotiniga rahmi keldi. Besh bolani oyoqqa turg'azguncha ozmuncha qiynal-dimi u boyoqish?! Qarigan chog'ida endi bola-chaqaning rohatini ko'raman deganda yana qozon-tovoq boshiga tushib, oshxonada unnab yotibdi. Sho'riga sho'rva to'kilgani shu-da.

Bunday o'ylab qaraganda Xayriya xonim soddagina bir xotin. Umri bino bo'lib to'rt devor-u bola-chaqasini biladi, xolos. Shunga ko'ra qarigan chog'ida turish-turmushi o'zgarib, yangi qiliq chiqarishiga odamning ishongisi kelmaydi. Mabodo shu narsa ro'y bergan bo'lsa, buni uning bola-chaqasiga bo'lgan mehridan izlash kerak, keyingi paytlarda u bolalarini deb hech narsani ko'rmaydigan, oqibatini o'ylamaydigan bo'lib qoldi.

Umuman olganda Xayriya xonim uzoqni ko'rib ish tutadigan, ziyrak xotin emas. Uni hamisha onalik hissiyoti yo'lga solib turadi: bolalarining halovatini o'ylab, atrofida girgитton bo'lishi, buning uchun hech narsadan tap tortmasligi ham shundan... Binobarin, o'ziga malol kelsa ham, og'ir yumushni bo'yniga olgan ekan, bu ham bola-chaqasining halovati uchun! Uning nazarida shunday... Xuddi shuning uchun ham u, har qadamda Ali Rizobeyning payini qirqib, dilini xufton qiladi. Sirasini aytganda, Ali Rizobey ham farzandlarini yaxshi ko'radi. Kampiridan o'tsa o'tadiki, aslo kam emas. Lekin otalik mehri boshqacha bo'larkan...

Ali Rizobey Shavkatdan xafa edi. Ammo bugunchalik uni kechirdi. O'g'lini ko'rib, rahmi keldi... G'ala-g'ovurda bir-ikki marta Shavkatga ko'zi tushdi. Bola bechora o'zini ancha oldirib qo'yibdi, ko'rinishi ham juda parishon. Qora kastum kiyib olgani uchunmi, har holda chehrasidan hamisha nur yog'ilib turadigan, xushsurat o'g'li nazarida za'faronday sarg'ayib ketganga o'xshadi.

Boya dadasi xoli turganini ko'rib, bazo'r uning oldiga keldi.

– Dada... Sizga aytadigan bir gapim bor... – deyishi hamono ko'ziga tirqirab yosh chiqqan ham ediki, uni to'satdan chaqirib qolishdi, gapi bo'g'zida qoldi.

Jigarbandi o'shanda nima demoqchi bo'lganiykin-a? Agar ota-bola o'sha topda gaplashib olganlarida, hozir ikkovining yuragi shunchalik g'ash bo'lmasmidi...

## 17

Laylo bilan Najloning orziqib kutganicha bor ekan. Kelinposhsha chindan ham yangicha bo'lib chiqdi.

To'y bo'ladigan kuniyoq u burnini jiyirib, kesatishga tushdi:

- Namuncha uylaring sassiq, dimog'ni yoradi-ya. Oynani ochib, shamollatib tursalaring bo'lmaydimi. Yoki qo'lan-sa hidga o'rganib ketganmisizlar?..

„Bizning ilojimiz qancha?“ deganday, qayinsingillari shunchalik chuqur xo'rsinib, ojizona mo'ltirab qolishdiki, buni ko'rib, manaman degan kino yulduzi ham tan berrorardi. Farxunda ularni kim deb o'ylayapti? O'zlari ham buni bilishadi, lekin iloj qancha. Boyoqishlar qafasga tushgan qushday o'tirishadi, na toza havo olishadi, na yorug' dunyoni ko'rishadi. Qo'llaridan nima ham kelardi? Otalari eskicha odam. Oyilari ham undan qolishmaydi. Fikrat opalari endi yigirmaga chiqqan bo'lsa ham, o'yin-kulgini yoqtirmaydi, xuddi otasining o'zi. Shavkatni ham yangilikka o'ch, serzavq yigit deb bo'lmaydi. Qaniydi endi kelinoyilari Shavkat tushmagurni epaqaga keltirib, bundoq hozirgi yigitlarga o'xshatib qo'ysa. Rost-da, nuqul qiz bolaga o'xshab yig'lagani-yig'lagan...

Qayinsingillarining nola-yu oh-vohi Farxundani eritib yubordi. U ikkovini yupatib, dalda bergan bo'ldi:

- Voy boyoqishlar-ey, sizlarga rosa jabr bo'libdi-da! Bo'ldi, yig'lamanglar, yuragimni qon qilib yubordilaring... Bunaqa suluv qizlardan yosh aylansin. Bo'ldi, bas, uch kishi ekanmiz! Uchovimiz bir bo'lsak, tog'ni tolqon qilamiz...

Farxunda kamtarlik qilib o'zini „uch mushtipar“ ning biri, deb atadi. Aslida tizgin uning qo'lida bo'lishi kerak - bunga kelgan zahotiyoyq aqli yetgan edi. U, aqli bo'lish bilan birga makkor ham edi. Oradan bir hafta o'tar-o'tmas

ro'zg'orni izmiga olib, hech kimga gap bermay, birov bilan hisoblashmay qo'ydi.

Ilgarilari shundoq ham o'zini chetga olib yurgan Ali Rizobey endi mutlaqo ko'rinmay qo'ydi. U erta bilan uydan chiqib, yolg'iz o'zi qosh qorayguncha dalada tentirab yurar yoki qahvaxonada kunni kech qilib qaytardi.

Fikrat bilan uning orasiga sovuqchilik tushdi. Fikratning singillari hamda kelinoyisi bilan orasi buzuq edi. U hech kim bilan gaplashmay, ertadan kechgacha uyida qamalib o'tirar, shu gaplarning hammasiga otasini aybdor deb bilardi. Uning nazarida otasi o'z vazifasini bo'ynidan soqit qilmay, erkakchasiga qattiqqo'llik bilan oilani boshqarib turganida xonadon bu ko'ygga tushmagan bo'lardi.

Fikrat ko'nglidagi gapini dadasining betiga ochiq aytardi ham.

– Men o'zimni o'ylayotganim yo'q, dada, men endi qanoti singan qushman, – derdi u otasi bilan yolg'iz qolgan kezlarda. – Men Oyshaga achinaman. Hali norasida, u yomon ta'sirga berilib ketsa oxiri voy bo'ladi...

Qizining bu dashnomlarini eshitib, ota sho'rlik battar ezilib ketardi. Nima qilsin, Fikratning gapi to'g'ri. Hamma ayb o'zida. Avvalo, o'lguday bo'shang, kim nima desa, shunga yuradi. Qolaversa, qarigan chog'ida qo'lida besh tanga puli yo'q – eng katta gunohi ham mana shunda!.. „Nima, ishdan bo'shab, zo'r karomat ko'rsatdim, deb o'ylaysanmi? Birovning turmushiga aralashishni senga kim qo'yibdi?.. Buning o'rniga bola-chaqangni o'ylasang bo'lmasmidi!“ degan edi xotini ishdan bo'shagan kezlarda. Keyingi kunlarda negadir u shu gapni tez- tez eslaydigan bo'lib qoldi.

Bir kuni kechqurun u botinqiramay xotinidan kastumni dazmollab qo'yishni iltimos qildi. Ertasiga ertalab kastumni kiyib, ust-boshini tozalab turgan edi, xotini qayoqqa otlanganini so'rab qoldi.

– Shunday, o'zim... Bir og'aynimni ko'rib kelmoqchiman, – dedi Ali Rizobey mujmal qilib.

Aslida maqsadi „Oltin yaproq“ shirkatiga borib uchrashish edi. Shunchaki bir xabar olganday bo'lib boradi-yu, lekin

zora Muzaffarbey sobiq ustoziga biror yumushni taklif qilib qolsa...

Ali Rizobey buni ko'pdan ko'ngliga tugib yurgan edi.

O'g'liga kuchi yetmagan odam birovlarning ishiga aralashib, insofni o'rta qo'yib yurishi bo'lmag'ur gap-da o'zi...

Oldiniga Ali Rizobey kotiblar bo'limiga kirib chiqdi. Eski xizmatchilarning ko'pi bo'shab ketibdi, qolganlari esa uni zo'rg'a tanishdi. Bu yerdan chiqib, shoshilmay koridorni aylandi, keyin har qadamda to'xtab, devordagi e'lonlarni birma-bir o'qib chiqqach, oxiri bosh direktorning xonasiga yetdi. Xuddi biror nojo'ya ish qilib qo'ygan odamday ikki qo'li dag'-dag' titrardi. Ali Rizobey ichkari kirishga yuragi betlamay eshikning oldida ancha turib qoldi.

„Yana koridorni bir aylanib, e'lonlarni o'qib kelsam, hovurdan tusharmikinman“, – deb ikkilanib turgan edi, to'satdan eshik ochilib, ichkaridan semiz portfel ko'targan Muzaffarbey chiqib qoldi.

– Ana xolos! Qaysi shamol uchirdi, ustoz? Sog'-salomat yuribsizmi? Ishlar joyidami?

Aftidan, Muzaffarbey uni ostonasida ko'rib, sira taajjublanmaganga o'xshaydi. Ali Rizobeyni sovuq ter bosdi.

– Xudoga shukur, afandim, ming qatla shukur, – dedi u bo'shashib. – Sizni bir ko'rib o'tay dedim... Shu tomonlarda ishim bor edi...

– Demak, ko'rmay ketgani ko'nglingiz bo'lmabdi-da, – uning gapini bo'ldi Muzaffar. – Rahmat, bizni unutmabsiz! Xo'sh, o'zingiz qalaysiz? Deyarli o'zgarmabsiz? O'g'ilcha qalay?.. Qizlar omonmi?.. Kap-katta bo'lib qolishgandir...

Muzaffarbey manziratni qo'ldan bermay, shunaqa savollarga ko'mib tashladi. Og'zi gap bilan ovora-yu, o'zi hadeb portfelini titkilaydi. Oxiri shlapasini ushlab turgan mulozimga o'girildi:

– Stolni borib qara, konvert esdan chiqibdi. Darrov olib chiq! – keyin Ali Rizobeyga qo'lini cho'zib, ishdan kech qolayotgan odamday shosha-pisha uzrga o'tdi: Aybga buyurmaysiz, ustoz! Shoshib turibman... Boshqa bir kelasiz, albatta keling, bir otamlashamiz... Xo'p bo'lmasa!

Muzaffarbey tarvuzi qo'ltig'idan tushgan keksa ustozini sarosimada qoldirib, yo'rg'alaganicha tashqari chiqib ketdi. Ali Rizobeyning so'nggi umidi ham puchga chiqdi.

## 18

Mana, nihoyat, Laylo bilan Najlo ham armoniga yetdi. Ikkovi bir umr o'yin-kulgini orzu qilib yurgan edi, yetkazganiga shukur, deb mukkasidan sho'ng'ib ketishdi.

Ali Rizobeyning Bog'larboshidagi hovli-joyida sho'x va dorulomon hayot boshlandi. Egasiga o'xshab omonat bo'lib qolgan ko'rimsizgina bu xonadonda haftasiga ikki marta mehmon yig'ilib, ertalabgacha bazm qilib chiqishardi. Mezbonlar ham huzur-halovatini endi topib olgan odamlarday, tez-tez birovlarinikiga borib ko'ngil ochib kelishardi.

Ayvonni ikkiga bo'lib turgan oynaband pardani olib tashlab, taxta devorga zarhal yelim qog'oz yopishtirib chiqishdi. Mehmon keladigan kuni jom va boshqa anjomlar ayvondan oshxonaga ko'chadigan bo'ldi. Yuqoridan skameyka, stul, kat, chiroyli bolishlar olib tushilgach, ayvon ham binoyiday mehmonxonaga o'xshab qoldi.

Bunday paytlarda, odatda, kechqurun uyda issiq ovqat qilinmasdi. Ovqat bularning esiga ham kelmasdi. Har kim mehmonlarga atab stolga qo'yilgan noz-ne'matlardan olib, yo'l-yo'lakay qornini to'ydirib ketaverardi.

Oldi mehmon kelishi bilan Xayriya xonim o'zini oshxonaga urar va etagini lippasiga qistirib, yengini shimarganicha jiz-bizga unnab ketardi. Ali Rizobey esa kitob bilan shamchiroqni olib, boloxonaga chiqib ketardi. Eng tinch joy ham shu edi.

Tuni bilan grammofon bo'kirib, uy ichini baqiriq-chaqiriq ovozlari tutib ketar, bularning dupur-dupuriga azbaroyi pol qarsillab, xonalar larzaga kelar, shiftdagi suvoqlar ko'chib tushardi.

Ali Rizobey ko'pincha qo'lidagi kitob bilan o'chiq sham yonida uxlab qolar, ertalab xonaga shu'la tushishi bilan

uyg'onganida qiy-chuv va dupur-dupur hamon davom etayotgan bo'lardi.

Mehmonga borish navbati bularga kelganida uyda to's-to'polon ko'tarilib, yasan-tusandan ovqatga qo'llari bo'shamasdi. Qizlar kelin boshchiligida soatlab yasanishar, goh ko'ylakni qirqib bichib, goh har xil taqinchoqlarni o'ylab topishardi. Keyin esa suyuqoyoq xotinlarday o'zlarini rosa oynaga solib, oro berishar, yuz-ko'zlariga upa-elik chaplab, ustidan atir sepishardi...

Uydagi pala-partishlik, oyog'i kuygan tovuqday yugurib yurishlar beixtiyor odamning g'ashiga tegar, buni ko'rib Ali Rizobeyning xunobi oshardi. Bunday paytlarda u darg'azab bo'lar va bunaqa behalovat turmushning padariga la'nat, deb toza so'kinardi.

– Namuncha xunob bo'lmasang dadasi, – derdi Xayriya xonim uni yupatmoqchi bo'lib. – Iloj qancha, hozir zamon shunaqa... Qizlarni tezroq uzatish kerak. Uyga ko'milib o'tirgan bilan er qidirib kelmaydi. Shularning baxti ochilsin deymiz... Yoki qizlaringa deb qurib qo'ygan dang'illama saroying bormi?.. Shundoq bo'lgandan keyin tinch qo'y ularni, baxtlarini o'zlari topishsin!

Hatto Shavkatning ham aytadigan gapi shu:

– Hozirgi turmushning yo'rig'i boshqa, dada. Innaykeyin, siz o'ylaganchalik yomon narsa emas bu... Hozir zamon shunaqa. Zamonga boqmasang ham bo'lmaydi. Sizning davringiz boshqa edi, dada, shuning uchun ham yangi odatlar ko'zingizga g'alati ko'rinyapti...

Nahotki shu gap mehribon o'g'lidan chiqdi? Ali Rizobey qulog'iga ishonmadi. Lekin biroz o'ylanib turgach shu qarorga keldi: yo'q, Shavkat haliyam o'sha-o'sha, uning na fe'li, na odati o'zgargan. Uydagi girdikapalak turmush unga ham yoqmasa kerak. Ammo bola bechora gangib qolgan. Oqim uni ilib olib, o'zi bilan yo'rg'alatib ketyapti. Ehtimol xotinidan qo'rqqani uchun o'zini oqlamoqchi bo'lib shunday degandir. Yo'q, Shavkat o'sha-o'sha Shavkat. Sariq chaqaga arzimaydigan bunaqa yengil-yelpi hayotni u hayot deb bilmaydi... Hozir u suv betida qalqib turgan xasday bir narsa, nima deyayotganini o'zi ham bilmaydi...



Shu tariqa Ali Rizobey o'g'lining yonini olib, ich- ichidan unga rahmi kelar va battar ezilib ketardi.

Ko'zi oldida o'g'li mumday erib borardi. Ko'pincha u tuni bilan kayf-safo qilib chiqqach, bir nafas ham mijja qoqmay portfelini qo'ltiqlaganicha to'g'ri ishga jo'nardi. Kechqurun esa ishdan qaytishi bilan yoniga yosh xotini bilan singillarini olib, noiloj mehmondorchilikka jo'nardi. Na uyquda halovat bor, na ovqatda.

Bozor-o'charni hamon Xayriya xonimning o'zi qiladi.

Lekin u boyoqishga ham qiyin: pulning uchi uchiga yetmaydi. Xuddi ariqdagi suvga o'xshaydi: oqadi-ketadi. Sarf-xarajat katta, Shavkatning topgan puli urpoq ham bo'lmaydi. Allaqachon qarzga botgan bo'lsa kerak. Agar shu rost bo'lsa, unda bu o'pqondan qutulish qiyin! Demak, ishlar rasvo ekan!..

## 19

To'ydan keyin bir-ikki oy o'tar-o'tmas boshida orqa- o'ngiga qaramay sovurilgan pullar tugab qoldi. Uyda yana janjal-to'polon boshlandi.

Shavkat boyoqish o'zini qayoqqa urishini bilmay qoldi. Ba'zan, u xarajat uchun onasiga bir qurush ham berolmay kallayi sahardayoq ishiga jo'nab qolar, qarzini so'rab kelganlarga ayting, men uyda yo'qman va bo'lmayman ham, deb tayinlab ketardi. Uydagilar esa alamini bir-biridan olardi. Xudo bergan kuni uyda janjal-to'polon: goh Farxunda o'zini o'zi yulib, dod solsa, goh Najlo bilan Laylo o'zimni o'ldiraman, deb hammani qo'rqitadi, bu ham yetmaganidek, goh Oysha uyni boshiga ko'tarib uvvos torta- di... Xayriya xonimning bo'lsa qozilikdan boshi chiqmaydi, hammasiga yaxshi gapirib qo'lidan kelganicha bir-biri bilan yarashtirishga harakat qiladi. Oqibatda eriga qarashga vaqti ham bo'lmaydi.

Ro'zg'ordan baraka ketdi. Ba'zi kunlari pechkani yoqib suv isitishga ham qurblari yetmasdi. Ko'pincha arzongina pishloq bilan zaytun tamaddi qilib, och-nahor yotib

qolishardi. Bularning orasida faqat Farxunda ishiga pishiq edi: uning bufetida hamisha bir bankada murabbo, bir quti sardina balig'i va boshqa yeguliklar bo'lardi.

Lekin shunga qaramay mehmon keladigan kunlari xonadonni tanib bo'lmasdi. Uydagilarning hammasi bir-biri bilan apoq-chapoq bo'lib ketardi. Qarabsizki, yuzlaridan tabassum arimas, hammalari yeng shimarib, tadorikni boshlab yuborishardi. Bunday kunlari yana stol va stullar pastga tushirilib, ayvon mehmonxonaga aylanar, tag'in paypoq yamash, kiyim-kechakni tuzash, ko'ylak dazmollash, mehmonlarning ustidan sepiladigan rango-rang qog'ozchalar yasash ishlari boshlanib ketardi...

Xayriya xonim bo'lsa yana yeng shimarib qozon-tovoqqa unnab ketardi. U suvi qochgan nonni yupqagina tilib, ustiga margarin yog'idan surar, keyin bir bo'lak pishloq qo'yib, sendvich yasab tashlardi... Bu jihatdan u restorandagi bufetchilardan qolishmasdi. Shundan keyin u sardina bilan zaytunni qiymalab, qora ikraga aralashtirsa, yangi nav ikra hosil bo'lardi; mehmonlardan qolgan vino bilan shirinliklarni ham bir-biriga qorishtirib, qo'lbola o'tkir likor tayyorlab qo'yardi.

Hammalari bir yoqadan bosh chiqarib, o'ynab-kulib ishlashardi. Bularning jon deb bir-biriga yordam berishini, o'sma tortib, tirnoq bo'yagani-yu, birining kiyimini biri bichib-tikkanini ko'rgan odam hammalari kechagina jiqqamusht bo'lib, bir-birining sochini yulib yurganiga aslo ishonmasdi... Har kuni qovoq-tumshug'i osilib, bir-birini jerkib, achitib yuradigan bu odamlar nimaga birdan o'zgarib, hech narsa ko'rmaganday shod-xurram bo'lib ketishar-kin-a? Ali Rizobey o'ylab-o'ylab hecham buning tagiga yetolmasdi... Ichida kir yotmaydigan, sho'xtabiat lo'lining qoni bormi bularda, nima balo?

Ali Rizobey har qancha gapirmasin, nuqul:

– Yo'li shunaqa!.. Qo'l qovushtirib o'tirgan bilan bo'lmaydi: kuyov topish hozir oson emas! – degan javobni olardi.

Xayriya xonim xuddi shu vajdan Ali Rizobeyning o'zini ham mehmonlarning oldiga olib chiqadigan bo'ldi.

– O'rgimchakka o'xshab tepada pisib o'tirgandan ko'ra odamlarga ko'rinish bersang bo'lmaydimi! – derdi Xayriya

xonim uni koyib. – Mehmonlar orasida Laylo bilan Najloga ko‘z tikkan yigitlar bor. Qizlaringga otasan axir. Sen nima desang, shu bo‘ladi. Bundoq yigitlar bilan gaplashib ko‘r, ko‘nglida nima bor, shuni bilib ber. Qizlaringga yaxshi qaralayolmaganingdan keyin loqaqal shu ishni qil!..

Ochig‘ini aytganda, xotining gapida ham jon bor. Hozir bir chekkada qo‘l qovushtirib o‘tiradigan payt emas. Har holda Laylo bilan Najlo o‘z qizlari. Xotining aytishiga qaraganda, mehmonlar orasida bularni yoqtirib qolganlari ham bormish. Shunday ekan, durustrog‘ini tanlash kerak. Bu ishga ota-ona bosh qo‘shmasa, qizlari ko‘ngliga kelgan noma‘qulchilikni qilishi mumkin.

Ali Rizobey ham ziyofatlarga qatnashadigan bo‘ldi. Endi u sahnaga chiqayotgan aktyorday ziyofatdan oldin o‘ziga rosa oro berar, oyoq kiyimlarini tozalab, pochasi titilib ketgan shimini tekislar, ko‘ylagining yirtig‘ini bekitish uchun galstugini yaxshilab bog‘lab, soch-soqolini silliq qilib tarab olardi.

Ana shu tarzda Ali Rizobey xuddi eski paytlarda majlisga borganday, savlat to‘kib mehmonxonaga kirib kelganida yal-yal ko‘ylak ichida tovlanib turgan qizlari kiftigacha yalang‘och qo‘llarini silkitib, darhol uning oldiga yugurib kelishardi.

– Dada!.. Dadajon!.. Dadamdan o‘rgilay!..– deya baravariga chug‘urlashib, uni izzat-ikrom bilan yumshoq kursiga o‘tqazib qo‘yishgach, birpasda sendvich, biskvit va shirinliklardan oldiga to‘kib, zo‘rlab unga tiqishtirishardi.

Bamisoli teatrning yosh artistlari hozirgina o‘zlari urib-so‘kib, it kunini boshiga solib turgan qari aktyorni parda ochilishi bilan bag‘irlariga bosib, yuz-ko‘zidan cho‘lpillatib o‘pganday, bularning hammasi xo‘jako‘rsinga qilinardi. Bunday paytlarda Ali Rizobey qizlaridan, o‘zidan xijolat bo‘lib, qani endi yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsam, deb o‘tirardi... Ammo iloji qancha? Chidashga majbur u... Mayli, bu masxarabozlikka ham chidab beradi, ishqilib, qizlari joyini topib ketsa bas. Lekin chatog‘i shundaki, bu uyga pashshaxo‘rda bo‘lib qolgan mehmonlar orasida birorta odambasharasi ko‘rinmaydi. Hammasi tentaknamo, surbet

oliftalar yig'ilgan: ona suti og'zidan ketmagan yigitchalar-u qartaga, xotin zotiga, pulga mukkasidan berilgan ucharlar ham, chayqovchilik qilib bir dunyo pul ishlab olaman yoki falon qarindoshim olamdan o'tsa, mol-mulki menga qoladi, deb yurgan xayolparast qalloblar ham, birovlarining uyiga kirib, yosh-yosh qizlarni yo'ldan urishga o'rganib qolgan suyuqoyoq mo'ysafidlar ham shu yerda... Yuz-ko'zi shishgan, basharasi sovuq araqxo'rlar bilan nashavandlar... Tavba!..

Garchi Ali Rizobey birovga qo'shilmasdan, bir chekkada jimgina o'tirsa ham, mehmonlarni zimdan kuzatib, bularning faqat basharasini emas, balki qora yuraklarini ham aniq ko'rib turganday bo'lardi. Qizlari mana shunaqa odamlar bilan hiringlashib, hazil-mutoyiba gaplar qilib yurganini ko'rsa, beshbattar ezilib ketardi.

Shavkat bulardan mutlaqo ajralib turardi. Uni ko'rgan odam bu boyoqish qanchalik azob chekayotganini, vijdoni qanchalik qiynalayotganini darrov tushunardi... Bir marta qo'lga tushib, mana endi bu botqoqdan chiqolmayapti. Bu bema'ni lo'ttibozlikka uning ham toqati yo'q – mehmonlar orasida dadasiga nima bor!.. Dadasiga ko'zi tushishi bilanoq u: „Sizni sharmanda qildim, dada!.. Hamma ayb menda, kechiring meni!“ – demoqchi bo'lganday darhol yuzini o'girib oladi.

Bir kuni Shavkat dadasini mehmonxonadan tashqari hovliga olib chiqdi-da:

– Sizni ko'rib ezilib ketyapman, dadajon... Bularning orasida sirayam ko'rinmang!.. – deb uning qulog'iga shivirladi-da, javobini qam kutmay qochib ketdi.

## 20

Fikrat uzzukun yuqoridagi kichkinagina xonasiga qamali o'tiradi, raqiblariga javob berish lozim bo'lib qolganda pastga tushadi, xolos.

Bir kuni shomdan keyin u dadasini oldiga chaqirib oldi-da, tomdan tarasha tushganday qilib:

– Men turmushga chiqyapman, dada, – desa bo'ladimi.

Ali Rizobey oldiniga hang-mang bo'lib qoldi, lekin buni sezdirmaslik uchun:

– Rostdanmi, qizim? Muborak bo'lsin, – dedi suyungan bo'lib.

– Meni koyisangiz kerak, siz bilan maslahatlashmay shu ishni qildim.

– Men-a? Seni koyiymanmi? – dedi Ali Rizobey istehzoli kulimsirab. – Nega, undoq deysan, qizim? Men nima degan odammanki, seni koyisam...

– Namuncha o'zingizni yerga urmasangiz, dada? – bu gap yoqmaganday qoshini chimirdi Fikrat.

– Yerga urish emas bu, bor gapni aytyapman. Men qashshoq bir odamman. Bor-yo'g'imni boy berganman. Shu jumladan, birovni koyishga ham ojizlik qilaman. Haqqim yo'q. Seni o'z qo'lim bilan uzatolmas ekanman, bas, nimani xohlasang, shuni qilishing mumkin.

Bu gap Fikratning jon-jonidan o'tib ketdi. Otasiga rahmi keldi-yu, lekin buni bildirmaslik uchun qovog'ini uyib turaverdi.

– Bo'lmasa ochiq gaplashib olaylik, dada. O'zingiz yaxshi bilasiz, boshimizga tushgan bu nochor kunlar uchun men sizni mutlaqo ayblamayman. Har holda meni oyim bilan singillarimga tenglashtirmang... Sizdan birdan bir xafa bo'lgan joyim shuki, siz ko'ngilchanlik qildingiz, shularga bosh bo'lish o'rniga xotin va bola-chaqangizni o'z holiga tashlab qo'ydingiz. Men buni kechirmayman. Shavkat yomon odam emas, lekin aybi shuki, firibgar xotinini yelkasiga mindirib oldi. Laylo bilan Najlo-ku g'irt shallaqi, nima deb bo'kirayotganini o'zi ham bilmaydi... Oyim bo'lsa xuddi qo'yga o'xshaydi, qizlari qayoqqa bursa, o'sha yoqqa yuradi. „Dada, ko'zingizni oching! Bu ovsarlarga ehtiyot bo'ling, bo'lmasa hammamizni bir baloga giriftor qilishadi!“ – deb aytmovdimmi sizga. Lekin gapimga quloq solmadingiz, oilaviy ishlardan etak silkib ketaverdingiz. Ko'nglingiz og'rib, hammadan ranjib, jahl qilib yurdingiz... Agar siz erkak kishining ishini qilganingizda shu narsa sodir bo'lmasdi. Bilaman, mendan bu gapni eshitish og'ir sizga, ammo haqiqat bundan ham og'ir!.. Oilamiz hozir mushkul vaziyatda. Ochig'i,

jar yoqasida turibmiz. Birovdan umid qiladigan joyimiz yo'q. Shunga ko'ra vaqt g'animatida jon saqlab qolmoqchiman... Sizga shuni ilgariroq aytmaganim uchun mendan xafa bo'lmang.

Ali Rizobey oldida turgan sandiqqa omonatgina o'tirib, ikkala qo'li bilan qorday oppoq boshini changallab oldi.

– Gaplaring to'g'ri, Fikrat, – dedi u chuqur xo'rsinib. – Hamma ayb menda.

Ota-bola og'ir xayollarga cho'mib, anchagacha jim o'tirishdi.

– Xo'sh, kuyovbola durustroq odammi o'zi? – oxiri suku-natni buzdi Ali Rizobey.

– Yoshi ellikda, ism-sharifi Tahsinbey...

– Sendan ancha katta ekan-ku?

– Kattalikka katta... Judayam katta.

– Nima ish qilarkan?

Otapozorida<sup>1</sup> durustgina bog' bilan uzumzori bormish. O'ziga to'q, ko'pni ko'rgan odam, deyishyapti.

– Nima, seni olib ketarmishmi?

– Mening maqsadim ham shu...

– Ilgari uylangan ekanmi?

– O'tgan yili xotini qazo qilgan ekan... Uchta bolasi bilan qolibdi.

– Xo'sh, o'zi qalay, yaxshi odam ekanmi yoki...

– Hamma qatori emish... Hatto suratini ham ko'rganim yo'q...

– Keyin yoqmay qolsa-chi?

– Meni shu jahannamdan qutqargan odamning etagidan o'pishga tayyorman.

– Seni qayoqdan eshitibdi? Sovchi keldimi?

– Bo'lmasam-chi! Menga shu malikayi diloromni topib kelinglar, mol-dunyosi oshib-toshib yotganmish, deb maxsus chopar yo'llabdi, – dedi hazilga yo'yib Fikrat. – Qo'shni-miz Nayir xonimning qarindoshi ekan. Yaqinda Istanbulga kelganida: „Menga bir kelin topib bering. Bolalarimning boshini silab o'tiradigan, odobli qiz bo'lsin. Endi uylanma-

<sup>1</sup> **Otapozori** – Anatoliyaning g'arbi-shimolidagi shahar; Istanbul – Anqara temiryo'lining yoqasida joylashgan.

sam bo'lmay qoldi. Xotini o'lganidan keyin uyim to'zib ketdi", – debdi. Qo'shnimizga darrov rozilik berdim. Shu zahotiyiq ikkovimiz unga xat yozdik. Kecha undan javob keldi... Xullas, bir-ikki haftadan keyin Otapozoriga jo'nasam kerak.

Fikrat o'zini o'zi kalaka qilayotganday shu tarzda „muhabbat daftari“ni varaqlab o'tirarkan, Ali Rizobey noxush xayollarga cho'mdi. Axir Fikratni u ne-ne umidda katta qilgan edi-da...

– Sho'rpehana qizim, – dedi u pichirlab.

Bu gap uning ich-ichidan otilib chiqqanday bo'ldi.

Fikrat qaddini rostlab, otasiga bir o'qrayib qo'ydi-da, zarda bilan:

– Menga emas, anavi qizlaringizga achining, dada. Ularning holi nima kecharkin, ko'ramiz hali, – dedi.

Oradan ikki hafta o'tgach, Fikrat erinikiga jo'nab ketdi. Xayriya xonim qizini quruqdan quruq yubormaslik uchun hamma sandiq va shkaflarini titkilab chiqdi. Lekin Fikrat onasining topgan-tutganini o'ziga qaytarib berdi. Kuyovnikiga uzatib bormoqchi bo'lishgan edi, bunga ham ko'nmadi.

– Uyda bitta xizmatkor kamaydi, deb yuraveringlar... Rasm-rusumning nima keragi bor? Och qornim, tinch qulog'im.

Otasi bilan singlisi Oysha uni Haydarposho vokzaligacha kuzatib chiqishdi. U shunga rozi bo'ldi, xolos. Uydan chiqib ketayotganida singillariga qo'l berib xayrlashmadi ham, yig'i-sig'i qilib oldiga kelgan onasini yaqiniga yo'latmadi. Ammo poyezd jilishi bilan otasining chuqur mung to'la ko'zlari javdirab ketganini ko'rib, Fikrat aybdor odamday zo'r-bazo'r kulgan bo'ldi.

– Xafa bo'lmang, dada! – deb qichqirdi u vagon oynasidan boshini chiqarib. – Mabodo qiynalib qolsangiz, biznikiga kelavering, o'zim qarab turaman, ozor chekmaysiz...

Mana, daraxt shoxidan birinchi yaproq ham uzilib tushdi.

Endi Ali Rizobeyning bitta armoni qolgan – Laylo bilan Najloni tezroq uzatib, tinchib olish. Chiqqan qiz chig'iridan tashqari, degan gap bor-ku, axir...

Aks holda bu la'nati charxpalakni to'xtatish qiyin bo'ldi. Xotiniga gap uqtirib bo'lmaydi. Qizlarining baxti ochilsin, deb shunday qilishayotgan emish. Bo'lmagan gap... Bular Farxundaning childirmasiga o'ynashyapti, albatta. Ana o'shanda bu muttaham haybarakallachilardan ajrab, yolg'iz qolsa, ancha popugi pasayadi.

Ali Rizobeyning ko'ngliga tugib qo'ygan bir niyati bor. Bir kunmas bir kun Shavkatga shunday deydi: „Menga qara, o'g'lim. Ilgarigiday senga mehrim baland. Men qarib qoldim, ammo yosh bola emasman, binobarin, oilani o'ylashim kerak... Endi bunga chek qo'yish lozim... Sen sabr-qanoatli, bag'rikeng odamsan, o'ylaymanki, men buni nima maqsadda gapirayotganimni xotiningga tushuntirib bera olasan. Xo'sh, agar shu ish qo'lingdan kelmasa, bunga yuraging dov bermasa, issig'ida qozon-tovoqni boshqa qila qolaylik. Sendan ham hech narsa so'ramayman. Oladigan nafaqa pulim oying bilan Oyshani boqishga yetib qolar...“

O'g'liga shartta shu gapni aytganidan keyin u o'zining xonasiga kirib oladi-da, bu bema'ni bazmlarda ko'rinish bermaydi. Mabodo xotini g'iring deydigan bo'lsa, uning ham javobini beradi... Gapga kirmagandan keyin bolalaridan birortasi bilan turaversin-da.

Aslida-ku uning tamom bo'lgani shu-ya. Lekin butun bor-yo'g'idan ajragani bilan ikki zo'r narsani – erki va qad-rini qaytib oladi! Endi u ilgarigiday qo'rqib-pisib yurmaydi, har narsadan shubha qilib, hadiksiraydigan, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan odatini tashlaydi.

O'zi ham sezmagani holda Ali Rizobey uyda arziyas narsa uchun bolalari bilan jiqillashadigan, bozorga tushsa, bir-ikki qurush uchun yoqa yirtib savdolashadigan bo'lib qoldi. Ilgarilari u biror narsadan qattiq ranjisagina zardasi qaynar, o'zi haq ekaniga imoni komil bo'lgandagina birov bilan aytishib qolardi. Mana endi bo'lsa bekordan bekorga



odamlarning ta'bini xira qiladi, arzimagan, narsaga xafa bo'ladi, o'zining ham kundan kunga mazasi ketib boryapti.

Ha, Ali Rizobey o'zgarib qoldi. Lekin shunga qaramay u lozim bo'lib qolganida ilgarigiday o'zini va oilasini bировga xor qilib qo'ymasligiga hamon ishonadi – Xudo, ol qulim, deb qolsa ajab emas...

U hamon qizlariga munosibroq kuyov qidiradi. Nima balo, bundoq ochiqko'ngil, shinavanda yigitlarga qiron kelganmi o'zi? Ziyofat kunlari qizlariga yelimday yopishdigan bu takasaltanglar orasida birorta bama'nirog'i yo'g'-a!.. Garchi endi Ali Rizobeyni ilgarigiday zo'rlashmasa ham, ba'zan o'zi mehmonlarning oldiga tushadi-da, xuddi kupa-kunduz kuni shahar ko'chalarida chiroq yoqib, durustroq odam bolasini qidirib yurgan faylasuf Diogenga o'xshab, kelganlarga razm solib o'tiradi. Noumid shayton deydilar, bir kunmas bir kun uyiga ikkita xushxulq, avliyosifat odam kelib, uni shu azoblardan qutqarsa ajab emas.

Ali Rizobey odamshavandaroq ko'ringan mehmonlardan ikki-uchtasini mo'ljallab yurgan edi, bir kuni ilojini topib shular bilan gaplashib ko'rdi, keyin orqavorotdan surishtirdi. Bilsa, qizini bermoqchi bo'lgan bu kuyovchalari oyoq olishi bejo odamlar ekan. Qolaversa, tuzukroq razm solib qaragan odam bularning usti yaltiroq, ichi qaltiroq ekanini darrov bilib olishi mumkin. Bu po'rim qo'g'irchoqlarga sal tegib ketsang bormi, darhol ustidagi zari to'kilib, misi chiqib qoladi – axloqiy jihatdan qanchalik tuban ketganligi ma'lum bo'ladi. Ammo nafsilamrini aytganda, o'zining qizlari ham bulardan qolishmaydi-ku? Kun bo'yi qo'llaridan nina tushmaydi, eski-tuski narsalarni yamab, birini biriga ulab, ivirsib yurishadi-da, kech kirishi bilan ipakka burkanib, tovsunday tovlanib olishadi. Bulbulday sayrab, har qadamda bir iljayib yurgan bu huri paykarlarning og'zidan hozirgina bodi kirib, shodi chiqib turgan edi, desa bиров ishonadimi...Mehmonlar orasidan durustroq kuyov topishga ko'zi yetmay qolgan Ali Rizobey endi qizlarini kim og'iz solsa shunga uzatishga tayyor edi.

„Agar shundoq davom etaversa, bu ketishda qizlarim biror ucharning tuzog'iga ilinib, sharmanda bo'lishadi, keyin bularni hech kim olmay qo'yadi, – deb o'ylardi umidlari

puchga chiqqan ota. – Ochig’i, Laylo va Najlo ham farish-taday oppoq emas. Shundoq ekan, hadeb kuyovdan biror kamchilik topaverish bema’nilik bo’ladi. Uning xulq-odobi bilan kimning ishi bor, puli bo’lsa, oilasini boqishga qurbi yetsa bo’ldi-da...”

Ali Rizobey mehmonlardan birining Layloda ko’ngli borligini eshitib, bir iloj qilib u bilan gaplashib ko’rdi. Yoshi qirqlarga borgan bir savdogar ekan. Buning ismi ham Fik-ratning eriga o’xshab Tahsinbey ekan. O’zining aytishicha, ikki marta uylanibdi-yu, lekin ikkoviga ham chuv tushibdi. O’zi juda bolajon emish, ikkovini ham ko’ngliga qarab, nima desa, shuni bajo keltirib yurgan ekan-u, lekin bu nonko’rlar uning qadriga yetmay tashlab ketishibdi, oqibatda, hamma-ga sharmanda bo’libdi... Gap orasida Tahsinbey juda ko’p pul topishini, shu kunlarda kattaroq bir narsaga qo’l urgani-ni, agar ishi o’ngidan kelsa, Istanbulda unga yetadigan ba-davlat odam bo’lmasligini qistirib o’tdi.

Ali Rizobey uning shinavanda, himmati baland va ba-davlat odam ekaniga chippa ishondi, deb aytish qiyin. Lekin Tahsinbeyning o’nta gapidan bittasi to’g’ri bo’lsa-chi? Ali Rizobeyning ilinji ham shunda edi.

Agar Tahsinbeyning chindan ham mol-dunyosi ko’p-u o’zi firibgar bo’lmasa, nega kuyovlikka arzimasa ekan. Biroq ertasiga ertalab Xayriya xonim uyni supurayotib, yerdan bir parcha hisob qog’ozi bilan xat topib oldi. Xat Tahsin-beyning nomiga yozilgan bo’lib, bichinchi usta unga bultur ikkita kastum tikib berganini, agar yaqin orada shuning pu-lini olmasa, Tahsinbeyning ishini sudga oshirishini aytib, po’pisa qilibdi...

Najloning ham „omadi“ kelmadi. Uning „kuyovi“ni Ali Rizobey o’n kun sinab ko’rdi.

Yoshi yigirma sakkizlarga chiqqan, yurish-turishi bino-yidek yigit ekan. O’zi pochtada ishlarkan, maoshi uncha katta emas. Lekin shunisi ham borki, yaqinda Yevropa-da turadigan bir qarindoshi olamdan o’tib, unga bir talay mol-dunyo qoldirib ketibdi.

U Najloga uylanmoqchi bo’lib yurgani uchun Shavkat orqavorotdan surishtirib ko’rdi. Ma’lum bo’lishicha, bu yigit

amakisidan qolgan merosni emas, balki oltmish yashar boyvuchcha o'ynashi uzatgan pullarni sovurib yurgan ekan...

## 22

„Qandoq qilib bo'lsa ham Laylo bilan Najloni tezroq uzatish kerak?“ – Ali Rizobeyning fikr-xayoli mana shunda. Boshqa gap ko'ngliga sig'maydi ham...

Ilgarilari u qizlari notanish erkaklarning pinjiga kirib, ular bilan pichirlashib, hiringlashib yoki qo'ltiqlashib yurganini ko'rsa, qattiq g'ijinardi. Endi betiga charm qoplab olganday parvoyi falak. Qizlarim zora birortasini o'ziga og'dirib, turmushga chiqib olsa, degan ilinjda yurgani uchun ko'rsa ko'rmaslikka olib ketaveradi.

Najlo bilan Layloning xushtorlari orasida ancha-muncha baodob, es-hushli yigitlar ham uchrab turar, shuning uchun ham ziyofatda yangi mehmon ko'rinsa, Ali Rizobeyning yuragi jiz etib ketardi. Buni qarangki, qizlari birovlar bilan o'ynagani ketib, allamahalda uyga mashinada qaytishsa ham endi uning ishi yo'q. Lekin shunisi qiziqki, qizlarining jazmanlari xuddi gulga qo'ngan asalariga o'xshab, bir-ikki marta ularga aylanishadi-da, keyin darhol g'oyib bo'lishadi. Binobarin, ota sho'rlikning ko'ngliga tugib qo'ygan shirin orzulari dengiz betidagi subhidam tumaniday o'z-o'zidan yo'qqa chiqadi.

Ilgarilari Ali Rizobey amaldorlarga o'xshab salobat bilan mehmonxonaga kirib kelganida hamma jimib qolardi. Mehmonlar uning oldida andishaga borib, maynabozchilik qilmas, umuman, har qanaqa qaltis hazillar-u noz-karashmalar barham topardi. Endi bo'lsa birov uni pisand qilmaydi, sira tap tortmay, hammasi ko'ngliga kelgan noma'qulgarchiligini qilaveradi. Agar ilgari hurmatini joyiga qo'yib, ikki gapning birida „bey afandim“ deb turishgan bo'lsa, endi uni yuz-xotir ham qilmay, oldida suyuq-suyuq latifalar aytishadi, uyat nimaligini bilmagan takasaltang xotinlar esa qilpanglab uni o'yinga tortmoqchi bo'lishadi...

Baxti chopmagan Ali Rizobey kun sayin qartayib, adoyi tamom bo'lib boryapti. Garchi ko'ngli unchalik chopmasa-da, hamon qizlariga kuyov topishdan umidvor. Xuddi qiyomat-qoyim bo'layotganday, butun borlig'i talvasaga tushib, uning atrofida gir-gir aylanadi...

Nega uning ko'ngli g'ash, balki bunga ortiqcha bir sabab yo'qdir? Nega dunyo ko'ziga qorong'i ko'rinib ketyapti? Axir undan boshqalar shod, hamma xursand-ku! Ular goh o'rtaga tushib, uyning to's-to'polonini chiqarishsa, goh har xil bema'ni o'yinlar qilishar, kap-katta odamlarni kursiga chiqib xo'roz bo'lib qichqirishga yoki yerda emaklab eshak bo'lib hangrashga majbur etishadi. Buni ko'rib, mehmonlar qotib-qotib kulishadi. Lekin bu o'yin-kulgilar shunchaki bir niqob ekanini chol yaxshi biladi.

Sirtidan qaraganda maishatparast va yengiltak bo'lib ko'ringan bu odamlarning boshida ne-ne savdolar borligini, biri fisq-u fasodga uchrasa, ikkinchisi biror fojia yoki majaroga giriftor bo'lishini Ali Rizobey payqab qoldi. Ba'zilari bu muhabbatlarini pinhon tutishsa, boshqalari sharmandalarcha ochiq savdoga o'tishadi, har qadamda bir yo'ldan urish, aldov yoki rashkbozlik. Bir qarasang, allaqaysi bir xotinning ko'ngli ozib qoladi, yana bir ko'rsang, kayfi oshgan mehmonlardan ikkitasi orani ochiq qilish uchun tashqari chiqib ketayotgan bo'ladi...

Bularning ichida yolg'iz Xayriya xonim tinim bilmaydi. Hamisha oshxonada uymalashgani-uymalashgan, idish-tovoq yuvadi, uni-buni artib tozalaydi, supuradi-sidiradi. Ali Rizobey boloxonadagi joyiga chiqib ketayotganida xotining ko'ziga ko'rinmaslik uchun nuqul oshxonani chetlab o'tadi...

Bunday paytlarda kun bo'yi tinkasi qurigan kenjatoyi Oysha bir parcha ilma-teshik palos ustida mushuk bolasi-day mung'ayib yotgan bo'ladi.

Chol oyoq uchida qizchasining oldiga borib, cho'kka tushadi va uning bir parcha gavdasiga, ingichka bo'yniga, za'faron yuziga qarab termiladi.

„Loaqal shuni asrab qololmaymanmi-a?“ – degan fikrni ko'nglidan o'tkazadi Ali Rizobey. Qizchasiga termilgan sari

o'pkasi shishib, ko'zlaridan shashqator yosh oqadi. Otaning qaynoq ko'z yoshlari yuziga tushib, boyoqish uyg'onib ketadi...

## 23

Bir kuni kechga yaqin Xayriya xonim yana Ali Rizobeyning oldiga kirib keldi.

– Bugun Shavkat Istanbuldan yangi qahva olib kelibdi, – dedi u cholining oldiga kichkinagina idishda qahva qo'yarkan. Keyin xona ichiga bir ko'z yugurtirib chiqdi. – Choyshabing qop-qora bo'lib unniqib ketibdi-ku, dadasi. Ertaga ertalab aytsang, yuvib beraman. Yana yo'talyapsanmi? Dori olib, orqangga surtish kerak... Bitta ko'rpa yupqalik qilmayptimi? Agar xohlasang, o'zimning pochapo'stinimni beray, issiq yotasan...

Xayriya xonim namuncha mehribon bo'lib ketdiykin, tilidan bol tomadi-ya, bol! Ammo Ali Rizobey ko'pdan ko'ril-magan bu mehr-shafqat evaziga xotiniga ikki og'iz iliq so'z aytish o'rniga unga bir o'qrayib qarab qo'ydi-da, birov bekorga erkalamasligini, buning tagida biror gap bo'lishini bilgan jonivorday hurpayib oldi.

Xayriya xonim uy ichini obdan ko'zdan kechirib, erining hol-ahvolini surishtirib bo'lgandan keyingina uning yoniga borib o'tirdi.

– Dadasi, sen bilan gaplashib, yuragimni bo'shatmoqchi bo'lib turuvdim, – dedi u gapga tushib. – Bu yog'iga holimiz nima kechadi? Qilichini ko'tarib qish kelyapti. Uyda bir dona cho'p ham, ko'mir ham yo'q. Bolalarning usti yupun. Hozirning o'zidayoq diydirab yurishibdi... Bu yog'iga nima qilamiz endi?..

Ali Rizobey xotini qahvadonni patnisga qo'yib kirib kelganidayoq nimadan gap boshlashini sezgan edi. Lekin sir boy bermay indamay o'tiraverdi.

– Xo'sh, bunga nima deysan, dadasi? – eridan sado chiqmagandan keyin yana qaytarib so'radi u.

– Men bir nima deyolmayman, – dedi yelkasini qisib Ali Rizobey.

Xayriya xonim tutaqib ketdi.

– Bu nima deganing? Uyning erkagimisan o‘zi?

– To‘g‘ri, do‘ppi tor kelganda men uyning erkagi bo‘lib qolaman, – dedi Ali Rizobey miyig‘ida kulib. Keyingi paytlarda u shunday odat chiqargan edi. – Ammo qo‘llaringga besh-o‘n tanga pul tushib qolguday bo‘lsa, o‘zlaring xon, o‘zlaring bek bo‘lib ketasanlar. Men bilan sariq chaqalik ish-laring bo‘lmaydi...

Eridan bunaqa gapni eshitgan har qanday xotin alami-dan uni achchiq-achchiq uzib olishi, eshikni qars etib yopib, tashqari chiqib ketishi kerak edi, albatta. Ochig‘ini aytgan-da, Ali Rizobeyning maqsadi ham shu edi.

Xotini butun uyga ayyuhannos solib janjal ko‘targani ma‘qul edi, o‘shanda Ali Rizobey uning yana oila boshiga tashvish keltiradigan xom-xatala rejalarini eshitmagan bo‘lardi. Biroq xotini o‘zini tiyib qoldi.

– Ilgarilari bunaqa emas eding, dadasi, – dedi u o‘ksinib.

– Bu gaping to‘g‘ri, – dedi Ali Rizobey e‘tiroz bildir-may. – Ilgarilari men boshqa odam edim, endi ablah bo‘lib qoldim. Bor pulimni xotinlarga tikaman, qarta o‘ynayman, ichaman...

Xayriya xonim yana og‘irlik qilib, labini tishlab qoldi. Bugun uning janjalga toqati yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi.

– Gap ham evi bilan-da, dadasi, – yana yotig‘i bilan gap boshladi xotini. – Sendan boshqa mening maslahatlashadi-gan, yuragimni bo‘shatadigan kimim bor? Qizlarimiz katta bo‘lib qoldi, lekin yosh bola hali ular. Qarzi ikkovimizning bo‘ynimizda!.. Shu haqda bir gaplashib olmoqchi edim.

Chol bu ko‘ngilsiz gaplardan qochib qutulolmasligini sezib o‘tirgan edi. Ha mayli, gapirsa gapira qolsin, bu quloq-lar nimalarni eshitmagan.

– Qani, xonim, dilingga tugib yurgan gaplaringni eshi-taylik bo‘lmasa.

Xayriya xonim u kutganchalik katta ketvormadi.

Keyingi paytlarda Shavkat ancha qiynalib qolibdi. Bola bechoraning qarzi bormish. Buning ustiga yana bir tash-

vish chiqib, hozir o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan-mish. Shunday og'ir paytda bu boyoqishga yordam bermasa bo'lmaydi. Axir bir necha yildan beri jonini jabborga berib ro'zg'orni tebratib kelyapti-ku...

– Hammasi tushunarli, xonim afandim, – dedi uning asli muddaosi nima ekanini bilolmay xunob bo'lib o'tirgan Ali Rizobey. – Sen gapning po'stkallasini aytaver: pulni qayerdan olamiz?

Xayriya xonim ko'zini yerga oldi.

– Senga yoqmasligini bilaman-u, lekin mening bitta taklifim bor, – dedi u botinqiramay. – Bankdan uch- to'rt yuz lira qarz olib tursak. Shavkat yarim yilga qolmay, o'zim uzaman, deyapti.

– Bundan chiqdi, Shavkat bilan maslahatni bir joyga qo'yibsanlar-da?

– Yo'g'-e! – deb yubordi u shosha-pisha. – O'g'lim qanchalik qiynalib ketganini ko'rib turibman-ku. Yuragim qon bo'lib ketdi axir, dadasi!..

– Bo'ldi, bo'ldi, – dedi Ali Rizobey xotining og'ziga urib. – Hammasi ravshan. Lekin, bilishimcha, bir narsani garovga qo'ymasang, bank pul bermaydi-ku.

– Nima qipti? Uyimizni garovga qo'yamiz!..

Ali Rizobey hayron bo'lib xotiniga qaradi.

– Shavkat yarim yil, nari borsa bir yilga qolmay qarzini uzadi.

Chol indamadi.

– O'g'lingga ishonmayapsanmi, Shavkatning qanaqaligini bilmaysanmi?

Ali Rizobey xotiniga qarab baqrayib turardi.

– Gapir axir. Muncha tikilasan menga?

Ali Rizobey ko'zini qisib turib, miyig'ida kuldi.

– Dunyoning ishlari ko'p qiziq ekan-da. Bola-chaqaning yo'rig'i boshqa, bugun bundoq bo'lsa, ertaga undoq bo'lib ketaveradi. Lekin men senga tushunolmay turibman: senga nima bo'ldi, nega bunchalik o'zgarib qolding?

– Bu nima deganing, dadasi? – dedi Xayriya xonim zo'raki kulib. – Nega o'zgarib qolarkanman?.. Ilgari qanday bo'lsam, hozir ham shundayman...

Ali Rizobey zarda bilan xotining gapini bo'ldi:

– Xudo haqqi, ilgarigi oqila va mehribon, farishtaday beozor xotinim qani? Qayerda u? Javob ber!.. Sen uning tirnog'iga ham arzimaysan. Yashirib nima qilaman, Xayriya, ochig'i shuki, seni ko'rsam, meni vahm bosadi. Ha, vahm! Axir shu kulbayi vayronadan boshqa bizning nimamiz qoldi? Bundan ham ajralib qolsak, holimiz nima kechadi? O'ligimizni qo'shnilar chiqaradimi? Menga shu gapni aytgani qandoq tiling bordi axir?

Xayriya xonim ilon chaqqanday bir to'lg'anib, sapchib o'rnidan turdi.

– Bo'ldi, tushundim! Eskilarda: „Ota bolaga bog' bersa, bolasi unga tog' beradi“, degan gap bo'lardi. Endi buning aksini ko'rib turibmiz! O'g'li sho'ring qurg'ur otani bir etak bolasi bilan boqib kelayotgan bo'lsa-yu, noshukur ota o'z jigarbandidan shu eski matohini ayab o'tiribdi-ya. Sadqayi ota ket-e! Kelib-kelib kuching menga yetdimi? Agar uyning erkagi bo'lsang, yo'q deb aytaver, vassalom, cho'zib nima qilasan...

Xayriya xonim ko'z yoshini artib, eshikka qarab yurdi.

– To'xta! – dedi Ali Rizobey uning chiqib ketayotganini ko'rib. – Gapimga tushunsang-chi axir. Tanangga o'ylab ko'r o'zing. Boshpanasiz qolsak, holimiz nima kechadi? Shuni o'ylab ko'rdingmi? Mayli, sen aytgandek bo'la qolsin. Kallangga kelgan ishni qilmay qo'yarmiding. Bugun bo'lmasa ertaga baribir aytganingni qildirasan. Shunday bo'lgandan keyin bir-birimizni qiynab nima qilamiz?

Ali Rizobey shuni yaxshi biladiki, agar shu bugun u xotining gapiga ko'nmasa, ertasiga uydagilardan baloga qoladi, ular qiy-chuv va to'polon ko'tarib, har yoqdan talashadi, xo'p demagunicha unga kun berishmaydi. Shularni o'ylab, uning sabri chidamadi. Bekorga olishib nima qiladi? Xo'p, bugunchalik gapini o'tkazdi deylik, xo'sh, ertaga nima bo'ladi? Qish keladi, sovuq tushadi, bolalar yana och-yupun qoladi – qani, o'shanda yo'q deb ko'rsin-chi.

Uyni garovga qo'yish marosimini ikki-uch kunda bitirib, bankdan to'rt yuz liraga yaqin pul olishdi. Lekin Ali Rizobey o'ylagandek bo'lib chiqdi: bu pul oilaga urpoq ham bo'lma-



di, ikki-uch oy u yoqda tursin, hatto besh-o'n kunga ham yetmadi.

Zarur qarzlarni to'lashganidan keyin qolgan pulni qizlari musodara qildi. Oldiniga nima qilamiz, deb rosa talashib-tor-tishgach, keyin hammalari bir bo'lib do'konga qarab yugurishdi. Biri olib, bir qo'yib, xullas har xil ipakli mato bormi, taqinchoq bormi, qutilarda ko'zga, qoshga, yuzga, sochga surtadigan dorivor malham bormi, ko'zni qamashtiradigan paypoq-u, bitta yomg'irni ko'rsa top tashlaydigan olifta tufli bormi – hammasidan xarid qilishdi. Bundan tashqari mehmonlarning poyqadamiga atab guldor bolishlar, marmardan yasalgan haykalchalar, qo'g'irchoqlar olindi, og'izga tushgan charlston va tango plastinkalariga uy to'ldi.

Shundan keyin yaqin oshna-og'ayni va tanish-bilishlarini chaqirib, ikki marta ziyofat berishdi: biri shahardan tashqarida, Chamlijada, ikkinchisi esa uyda bo'ldi. Ali Rizobey shu o'rtada bir-ikki marta Uskudardagi bozorga tushib, uchto'rt bog'lam o'tin oldi, besh-o'n kunlik ro'zg'or xarajatini qilib chiqdi, xolos.

Bankdan pul olinganining o'n birinchi kuni uyda sariq chaqa ham qolmadi. O'sha kuni peshindan keyin boshlangan kuz yomg'iri kechga yaqin jalaga aylandi. Tomning mazasi ketgani shundagina ma'lum bo'ldi. Bo'g'otga, koridorga, boloxonaga – hamma joyga tos, kastrulka, konserva qutilarini qo'yib chiqishdi. Uyning hamma yeridan chakka ovozi eshitiladi va kimdir alamiga chidayolmay piq-piq yig'laydi. Bu – Oysha. Hammasi o'zini yasantirib oldi. Bu boyoqish hech kimning esiga kelgani ham yo'q, menga ipak ko'ylak bilan amirkon tufli olib berishadi, deb o'ylagan edi, bo'lmadi.

Bir yoqdan chakkani, ikkinchi tomondan Oyshaning piqillashini eshitib o'tirgan Ali Rizobey beixtiyor o'yg'a toldi: „Kenjatoy ikkalamiz quruq qolibmiz-da... Tom ham esimga kelmabdi-ya... O'n kunga qolmay to'rt yuz lirani sovurishibdi-yu, tomga bir qarab qo'yaylik, deb bittasi ham aytmabdi-ya!..“

Bu yil qish qattiq keldi. Yo'llarni qor bosdi. Bog'lar boshida bo'ri oralab qoldi.

Kuzda hovli-joyni garovga qo'yib olingan pul xazonday sovurildi. Qish hammani shoshirib qo'ydi – hatto bolalarga issiq kiyim olish ham esdan chiqqan ekan.

Yaxshi ham Xayriya xonim bor ekan, bularning joniga o'sha ora kirdi. Sandiqning bir chekkasida yoki shkaf kovagida yotgan eski-tuski narsalar ish berib qoldi.

Xayriya xonim ilgari karavotga yopib yurilgan eski matoni buzib, ichiga yirtiq to'shakdan chiqqan paxtani soldi va sovuqqa tobi yo'q nimjon Oyshaga issiq nimcha tikib berdi.

Najlo bo'lsa kuya tushgan dasturxondan yengi kalta ko'ylak tikib, etagiga jun gazlamadan chiqqan laxtak soldi. Qarabsizki, ko'zni qamashtiradigan ajib bir ko'ylak tayyor bo'ldi.

Bularni mana shunaqa g'aroyib kiyimda ko'rgan odamning esiga beixtiyor „Zolushka“ ertagi tushadi, uyga kirgan odam o'yin boshlanishi oldidan parda orqasiga o'tib qolganday bo'ladi...

Bamisoli to'shakda inqillab yotgan cholga o'xshab, bu, eski uyning ham yangi-yangi kasali chiqib qolardi. Ko'pincha bu ob-havoga bog'liq bo'lardi. Yomg'ir yog'ib, qor eriydigan bo'lsa, tomdan chakka o'tar, agar sovuq turib, shamol zo'rayib ketsa, uyning shifti bilan devorlari tob tashlar, kovaklardan sovuq kirib, xonalar muzlab qolardi.

Lekin, shunga qaramay, Ali Rizobeyning bola-chaqasi sira ham nolishmasdi. Hammalari sabr-bardosh bilan qiynchilikka chidab, bir-birlarini kalaka qilishar, yashab turgan uylaridan yangi-yangi kamchiliklar topib, mazza qilib kulishardi. Ali Rizobey farzandlarini beg'am lo'lilarga qiyos qilganida ming bor haq bo'lsa ham ajab emas.

Bir kuni anvoyi latta-puttalarni ilib olgan qizlari qo'l ushlab, tepadan tunuka tog'oraga tomib turgan chakka ovoziga hamohang ravishda dikir-dikir o'ynab turishgan edi, zinada kulimsirab Ali Rizobey ko'rindi. U o'tin qilish

uchun arra olib, bog'ga chiqib ketayotgan edi. Erining kulib turganini ko'rib Xayriya xonim tutaqib ketdi.

– Barakalla! Kulganga nima yetsin! Kulgining sababini bilsak bo'ladimi? Ekkan hosilingni ko'rib qo'y endi: sen aytgan or-nomus bilan haqiqatning natijasi mana shunaqa bo'ladi!..

Xotining bu ta'na toshi Ali Rizobeyning ko'ksiga nash-tarday botdi. Chol boyoqish bir chayqalib tushdi, arra qo'li-dan chiqib, o'zining yiqilishiga sal qoldi.

Mana shunday og'ir qish kunlarida Ali Rizobeyga arraning ko'p nafi tegdi. Qattiq sovuq turgan kezlari u issiqroq kiyinib olib bog'ga chiqar va mevali daraxtlarni kesib, o'tin qilardi. Iloj bo'lmaganidan keyin nima qilsin? Daraxt odam-dan aziz bo'ptimi! Yozga chiqib olishsa bas... Lekin nima bo'lganda ham uvol. Axir bularni u o'z qo'li bilan ekkan, parvarish qilgan... Bular ham bamisoli bir farzand. Darvoqe, daraxtni farzandga tenglashtirib bo'ladimi!..

Qish bo'yi uydagilarning boshi kasaldan chiqmadi. Biri tuzalsa, ikkinchisi yotib qoladi. Ali Rizobeyning o'zi ham kasalga chap berolmadi. Shamollab qolib, bir haftacha yotib oldi. Uydagilarning esiga ham kelgani yo'q. Xotini ba'zan issiq choy yoki yovg'on sho'rva keltirib, holidan xabar olib turdi.

– Xudoga shukur, bugun ancha durustga o'xshaysan. Ko'p urinmay yot, hademay tuzalib ketasan, – derdi u ming'irlab. – O'zim ham zo'rg'a qimirlab yuribman, sal qo'yib bersam o'rin-ko'rpa qilib yotvolaman. Lekin qandoq qilay, men yot-sam bo'lmaydi!

Erining issiq-sovug'idan xabar olib turolmagani uchun shunday deyayotganmikin – kim biladi, balki chindan ham tobi yo'qdir...

Ali Rizobey bolalarining parvoyi falak ekanini ko'rib, qattiq xafa bo'ldi. Shu vaqtgacha u odamzod boshimga mushkul ish tushganida meni yolg'izlatib qo'ymas, ko'zim-ga nur, belimga quvvat bo'lar, degan umidda oila qiladi, bo-la-chaqa orttiradi, deb o'ylab yurgan edi. Mana endi ko'rib turibdiki, boshi yostiqqa tegganida birortasi xabar olmadi,

xuddi musofirga o'xshab hujrasida o'lib ketsa ham, bularning ishi bo'lmas ekan.

Faqat Shavkat bir marta xabar olib ketdi, xolos. Bir kuni allamahalda iymanibgina ichkari kirdi-da, karavotga omonat o'tirib, dadasining issig'ini bilmoqchi bo'lganday peshanasini ushlab ko'rdi.

– Ilgariroq kelolmadim, dada,– dedi u chuqur xo'rsinib.

Buni u dildan chiqarib, samimiy gapirgani uchun ishonmay bo'lmasdi. U o'zini oqlash uchun shu topda bir nima desa, batar sharmanda bo'lishidan qo'rqqan odamday labini tishlab, jimgina mo'ltirab o'tirardi.

„Bola boyoqishning tobi qochgan ko'rinadi, – o'zicha xayolga botdi Ali Rizobey. – Men bo'lsam ko'ra-bila turib indamay yotibman. Ikki-uch kun uyda o'ralib yot, deb aytib qo'yishim kerak. Lekin bunga imkon qani unda. Kasal holiga qaramay ertadan kechgacha ishlashi kerak, aks holda uyning kuli ko'kka sovuriladi. Shavkat bechoraning holi menikidan ham abgor. Men-ku joyimda tinch yotibman, birov topsang ham non berasan, topmasang ham, deb yoqamdan olayotgani yo'q. Shunisiga ham shukur!..“

Sovuq, ochlik va kasallikka qaramay Ali Rizobeyning uyidan odam arimadi. Gupullab qor yog'ib, bo'ron turgan, kemalar yurmay, poyezdlar to'xtab qolgan kunlari ham bu xonadonda kechqurunlari hamon bazm-u jamshid davom etardi.

Bunday ziyofatlardan keyin uyda yoqishga o'tin, yeyishga ovqat qolmasdi. Lekin qo'li ochiq mezbonlar bunga zaracha parvo qilishmasdi. Ular ustlaridagi eski kamzullarini, yirtiq-yamoq xalat-u qo'lbola ko'ylaklarini darhol uloqtirib, yoqasi ochiq ipakli sarpolarga belanib olishar, sovuqdan yorilib, yara-chaqa bo'lib ketgan qo'llarini bug'ga toblab, ustidan vazelin surtishar, kun bo'yi oqaverib, qizarib ketgan burunlarini rosa krem bilan ishqashar, keyin esa sarimsoq hidi tutgan og'izlarini tish pastasi bilan tozalab, orqasidan atirli suvga chayishardi.

Bu orada so'nggi halokat kuni yaqinlashib kelmoqda edi. Odamlar qarzini so'rab eshik turmini buzadigan, do'q-po'pi-

sa qilib, bularni jon-holiga qo'ymaydigan bo'lib qoldi. Oxiri suddan qog'oz kela boshladi.

Shavkat bularga ko'rinmaslik uchun tong saharda uydan chiqib, yarim kechada qaytadigan bo'lib qoldi.

Uydagilar bir-biri bilan it-mushukday olishar, arzimaganga narsa uchun qirg'in qilishardi. Oilada uyat va andisha degan narsa qolmadi. Uydan buyumlar yo'qoladigan bo'lib qoldi. Nima yo'qolgani ma'lum bo'lgan kuni hamma yoqni qiy-chuv, dod-faryod, qarg'ishlar bosib ketardi.

Farxunda-ku beshbattar surbet bo'lib ketgan. Chap yog'i bilan turgan kuni uning ko'ziga ko'ringanning sho'ri qursin. Birov bir nima deb gap qaytarsa bormi, it kunini boshiga soladi.

– Dod bu yalangoyoqlarning dastidan! – deb chinqirishga tushadi u uyni boshiga ko'tarib. – Erimning ustiga minib olganlari yetmaganday, endi menga kun berishmaydi. Shu tirik tovonlar bo'lmaganida o'zimiz mazza qilib yashardik...

Ali Rizobey bunaqa paytlarda qulog'ini berkitib uydan nari qochsa, Xayriya xonim yig'i-sig'i qilib orqasidan yetib kelar va quyushqondan chiqqan kelinini jilovlab qo'yishni buyurardi...

Oiladagi bunday qirg'in-barot janjallarning oqibati ancha xunuk bo'lardi: goh Farxunda ketmoqchi bo'lib mayda-chuydasini yig'ishtirsa, goh Laylo, shu uyni yelkamning chuquri ko'rsin, borib oqsochlikka yo bo'lmasa ofitsiantkalikka kiraman, deb qo'rqitardi... Lekin nima bo'lsa ham bu janjallar beg'alva tugardi. Xayriya xonim bir-biridan arazlab yurganlarni yarashtirishga usta bo'lganidanmi yoki kichkina Oyshaning achchiq ko'z yoshlari sabab bo'libmi, yoxud har kuni bo'ladigan janglar hammaning joniga tekkanidanmi – har holda, oxiri tinchib qolishardi.

Ilgarilari Xayriya xonim nuqul inqillab yurguvchi edi. Endi bo'lsa undan sog'odam yo'q. Uydagi hamma yumushni bir o'zi eplaydi, binobarin, bu kasalmand va nimjon kampir shunchalik og'ir yukni bir o'zi ko'tarib kelayotganiga hamma hayron.

Har kuni ertalab Xayriya xonim uydan biror narsani tugib, bozorga tushadi. Bir qarasang, qarzini qistab keladigan xira pashshalarga berish uchun pul topgan yoki ro'zg'orga xarajat qilib kelayotgan bo'ladi.

\* \* \*

O'qtin-o'qtin Fikratdan ikki enlik, quruqqina xat kelib qoladi. Xatida dadasiga u baxt kulib boqmaganini, lekin, Xudoga shukur qilib, sog'-salomat yurganini xabar qiladi. Qarigan chog'ida Ali Rizobeyning diliga bir navi taskin bergan narsa ham shu xatlar edi.

Keyingi xatlaridan birida Fikrat o'ziga ortiqcha erk berib, otasini uzib oldi.

„Afsuski, bu tomonlarda uyimiz haqida eshitgan quloqqa yomon gaplar yuribdi. Ba'zan erimning oldida qattiq o'sal bo'lib ketaman. Uyda tartib o'rnatsangiz bo'lmaydimi endi, dada?..“ – debdi u xatida.

Fikratning gapida ham jon bor, albatta. Qolaversa, erining ra'yiga qarab shunday degan bo'lishi ham mumkin. Har holda bu maktub Ali Rizobeyga qattiq botdi, qiziga u darhol javob yozdi:

„Har kim o'zi uchun javob beradi. Sen bilan bizning turmushimiz boshqa-boshqa. Bunga ancha bo'ldi. Shunga ko'ra biz bilan sening ishing bo'lmasin. Qolaversa, uyda biz senga isnod keltiradigan ish qilayotganimiz yo'q. Har bir xatingni ko'zimizga surtib o'qiymiz. Lekin shu ikki enlik xat ham senga malol kelayotgan bo'lsa, mayli, bilganingni qil!..“

Jahl ustida yozgan bu javob xati uchun Ali Rizobey keyin o'zini rosa koyib yurdi. Lekin iloj qancha, bo'lar ish bo'ldi endi. Fikrat indamay ketdi, Ali Rizobey bo'lsa yurak yutib, yana qo'liga qalam ololmadi. Ro'zg'or yana ship-shiydam bo'lib, uyda sariq chaqa ham qolmagan kunlarning birida kechki payt Xayriya xonim tag'in erining oldiga kirib keldi.

– Quloqqacha qarzga botdik, dadasi, – dedi u dab-durustdan. – Shavkatdan umid yo'q... Bolalar och-yalang'och, Fikratga xat yozib, ahvoldan xabardor qilsangmikin. O'zi-

mizni o'nglab olganimizdan keyin uzilishib ketarmiz. Qur-bimiz yetmasa, yana ham yaxshi. Kuyovimizning davlati ka-mayib qolmaydi.

Xayriya xonim, erim ozroq qaysarlik qilib, keyin ko'na-di, deb o'ylagan edi. Lekin kutilmaganda Ali Rizobey birdan tutaqib ketdi.

– Sen uni xayolingga ham keltirma! Bildingmi?! – deb o'shqirdi u xotiniga musht o'qtalib. – Yana eshitsam xuddi bo'g'ib o'ldiraman! Shu uydan omon qutulgan bitta-yu bit-ta qizimizni ham oyog'idan tortmoqchimisani? Chuchvara-ni xom sanabsan!.. Fikratning yuzini yerga qaratib, eridan sadaqa so'raymizmi. Aslo! Yana shu gapni eshitsam, naq bo'g'ib o'ldiraman, bilib qo'y! Tushundingmi?!

Ali Rizobeyning bunchalik g'azabi qaynaganini ko'rib, Xayriya xonim qo'rqib ketdi va shundan keyin katta qizi to'g'risida churq etib og'iz ochmadi.

## 25

Fevral oyining boshlarida to'satdan Shavkat yo'qolib qoldi: ikki kungacha undan darak bo'lmadi. Keyingi bir haf-ta ichida eri bilan jiqillashib yurgan Farxundaning paytava-siga qurt tushdi.

– Menga o'chakishib kelmay yuribdi, bilaman, – derdi u har qadamda vaysab. – Men ham bir dodini bermasam, yur-gan ekanman. Agar ertagayam kelmasa, ketaman bu yerdan! Bir chirqillab qolsin!..

– O'g'lim qarzini so'rab keladiganlardan qochib, biror o'rtog'ining uyida yotib yurgandir, deb Xayriya xonim bu-ni boshqa narsaga yo'ydi. „Akajonimizga bir narsa bo'ldimi-kin? Boshiga biror tashvish tushgan bo'lsa-ya?“ degan fikr Laylo bilan Najloning yuragiga ham g'ulg'ula solar, ammo nav-batdagi ziyofatlardan biriga yasanish kerak bo'lgani uchun bu narsa birpasda eslaridan chiqib ketardi.

Ali Rizobey tagidagi stulni likillatib, allanimalarni pi-chirlagan holda xo'mrayib o'tirardi. Birovga churq etib og'iz ochmasdi. Hovlidan oyoq tovushi eshitilsa yoki eshik g'i-

jillab qolsa bormi, – darrov bir seskanib tushardi-da, uyni boshiga ko'tarib:

– Hov, borib qaranglar! Birov kelganga o'xshaydi! – deb baqirardi.

Uch kun deganda politsiyadan bir odam kelib, Shavkat qamoqqa olinganini, hozir ishi tergovda ekanini aytdi.

Bu shum xabar boshga tushgan to'qmoqday hammani gangitib qo'ydi. Farxunda hushdan ketib yiqildi. Singillari uvvos ko'tarishdi. Turgan joyida qotib qolgan Xayriya xonim nuqul: „Xudoga shukur, tirik ekan...“ deb pichirlardi. Yerdan sulayib yotgan kelini bilan jini qo'zigan qizlarini ko'rib, boyoqish o'ziga keldi va darrov yordamga yugurdi.

Yolg'iz Ali Rizobeygina o'zida yo'q xursand edi.

– Yaratganga shukur! O'g'lim sog'-salomat ekan. Shavkat tirik ekan! – deb yubordi u xushxabar eshitgan odamday terisiga sig'may; aslida u biror yomon gap eshitishdan qo'rqib yurgani uchun chinakamiga xursand edi.

Keyingi paytlarda ota boyoqishning ichini qurt kemirib, yuragi g'ash bo'lib yurgan edi. Shunday oliyjanob va pokiza o'g'li bir kunmas bir kun bunaqa turmushning bahridan o'tishi turgan gap. Ali Rizobey o'g'lining gap-so'ziga diqqat bilan quloq solar, uning har bir qadamini kuzatar, ko'nglida nima gap borligini, nima tashvishda yurganini bilgisi kelardi. Kechalari eshik taraqlab yopilsa, to'pponcha otildi, deb jon holatda tashqariga yugurardi. Hatto bir kuni u hovlidagi daraxt shoxiga osig'liq turgan kirni ko'rib, birov o'zini osib qo'yibdi degan xayolda qo'rqanidan bo'kirib yubordi.

Binobarin, Shavkat andishali va ziyrak bola, shundoq bo'lganidan keyin bir kunmas bir kun u bu o'ppondan qutulib chiqolmasligini sezib qoladi. Ana o'shanda bu sharmandali hayotdan bir yo'la qutulish uchun joniga qasd qilishi ham mumkin... Balki bola bechorani bu xatardan ogoh qilib, u bilan bir dardlashib, ko'nglini ko'tarib qo'yish lozimmi-kin?.. Shuni o'ylab turib, Ali Rizobey yana boshqa xayolga borardi: Shavkat hali g'ulg'ulaga tushmay, umidini katta qilib yurgan bo'lsa-chi? Unda dilidagi gapni aytib, bu boyoqishning umriga zomin bo'lib qolmasmikin?..



Xudoga shukur, Shavkat omon ekan! Ali Rizobey qaytadan dunyoga kelganday bo'ldi. U shosha-pisha kiyinib, hassasini qo'ltiqlaganicha ko'chaga otildi. Chol qamoqxonaga yetib kelganida qosh qorayib qolgan edi.

– Ko'rishish vaqti tugadi. Uyingga bor, ertalab kelasan, – dedi eshikda turgan odam chol bilan pachakilashgisi kelmay.

Lekin Ali Rizobey ham bo'sh kelmadi. Endi uning „gapiksam baloga qolaman, bundan tek turganim ma'qul“, deb bo'ynini egib turadigan vaqtlari o'tib ketgan. Chol ichkari kirmoqchi bo'lib xezlandi, do'q urib, rosa baqirdi. Uni endi ko'chaga uloqtirib tashlamoqchi bo'lishgan edi, xayriyat, baxtiga ichkaridan bir tanishi chiqib qoldi. Bu kishi bir paytlari viloyatda Ali Rizobeyning qo'lida kotib bo'lib ishlagan ekan. U sobiq mutassarrifni darhol tanidi. Ehtirom bilan Ali Rizobeyning qo'lidan o'pib, bu tomonlarga nima ish bilan kelganini so'radi.

– O'g'lim shu yerda ekan, qo'yishmayapti, – dedi chol. – Kech bo'lganmish. Bir og'iz aytib qo'yolmaysizmi?

Shunday muhtaram zotning o'g'li qamoqda yotganiga u unchalik ishonmadi. Lekin Ali Rizobeyning ahvoli tang ekanini ko'rib, ortiqcha surishtirib o'tirmadi-da, darhol yordam berdi. Bu yerda uning amali katta bo'lsa kerakki, bir oriz gapi bilan Ali Rizobeyni darhol ichkariga qo'yib yuborishdi.

Shavkat pastakkina karavotda dong qotib uxlab yotgan ekan. Garchi shu topda buning o'rni bo'lmasa ham, Ali Rizobey o'g'li yoshligidan uyquchi ekanini esladi. Shavkat maktabda o'qib yurganida otasi uni uyg'otmoqchi bo'lsa, semiz bir kitobni olib sekingina yoniga kelardi-da, gumburlatib polga tashlardi. Yoki bo'lmasa uni chapak chalib uyg'otardi. Bir kuni Shavkatning qulog'iga qattiq hushtak chalib uyg'otgani, bola boyoqish ilon chaqqanday sapchib turarkan, ko'zini uqalab: „Bunaqada duduq bo'lib qolish hech gap emas“, deb to'ng'illagani hali-hali esida.

O'shandan beri ozmuncha vaqt o'tib, ozmuncha qorlar erib ketmadi deysiz. Ajabo, Shavkat bilan manavi mahbusning nimasi bir-biriga o'xshaydi? O'ng qo'lini boshining tagiga qo'yib, oyog'ini yig'ishtirib yotishini-yu peshana-

sigatushgan bir tutam sochini aytmasa, bularning aslo o'xshashlik joyi yo'q.

Ammo otasi uchun u hamon o'sha Shavkat. Mana hozir o'g'lini ko'rishi bilan Ali Rizobey yengil nafas oldi...

U sekingina borib, o'g'lining sochini siladi.

– Shavkat, tur... Men keldim...

O'g'li bir seskanib tushdi, keyin ko'zini ochib otasini ko'rgach, o'rnidan turdi. Ko'rinishidan u sira ham abgor mahbusga o'xshamas, rang-ro'yi joyida, hatto otasiga o'xshab kayfiyati durustgina edi.

– Kelib qolarsiz deb kun bo'yi kutdim sizni, dada, dedi u mazza qilib kerishib olgach, esnog'ini qaytarmoqchi bo'lib.

– Qosh qoraygach, endi kelmassiz, deb o'yladim, yotib uxlab qolibman... Bu yerga tushishdan oldin ikki kun uxlaganim yo'q. Zo'rg'a chidadim...

Shavkat o'zini orqaga tashlab, boshini devorga suyadi-da, dadasiga qarab kulib qo'ydi.

– O'tiring, dada, – dedi u yonidan joy ko'rsatib.

Rangi siniqib, boshi tashvishdan chiqmay yuradigan Shavkat ancha o'ziga kelgan ko'rinadi. Og'ir kasaldan keyin oyoqqa turgan bemorga o'xshab, ikki yuzi ancha qizil tortibdi.

– Nima bo'ldi, o'g'lim? – dedi Ali Rizobey Shavkatning yoniga o'tirib, ikkala tizzasi o'rtasidagi hassaga suyanib olgach.

– Bugun bo'lmasa, ertaga shu ish bo'lardi-da, – dedi Shavkat yelkasini qisib. – O'zingiz ham buni sezgan bo'lsangiz kerak... Peshanam sho'r ekan... taqdir-da!

– Hammasiga Najlo o'lgur sababmi?

Shavkat seskanib tushdi. Avvaliga ikkilandi. O'rnidan turib, kamera ichini aylandi. Keyin bir qarorga keldi shekilli, dadasining yoniga o'tirib, qo'lini uning kaftiga bosdi va sekingina qisib qo'ydi.

– Mening ahvolim siz o'ylaganchalik emas, ancha og'ir, dada, – salmoqlab dedi u derazadagi temir panjaradan shiftga tushgan tasmaday chiroq nuriga tikilib. Men ancha-muncha pulni ishlatib qo'ydim, shuni to'lamagandim, taftish bosdi. Agar taftish bosmaganida ham baribir kamida

bash yilsiz bu pulni topib berolmasdim – katta pulda, axir... yo‘ldan adashgan odamning topilishi turgan gap!..

Shavkat otasiga dilida borini to‘kib-solmoqchi bo‘lib turgan edi-yu, lekin, to‘satdan gap topolmay izza bo‘lgan odamdek, tutilib qoldi. Otasining qo‘lini mahkam qisib turgan barmoqlari beixtiyor shalvirab tushdi.

– Xafa bo‘lma, o‘g‘lim, – dedi Ali Rizobey darrov uni yupatishga tushib. – Odamzodning boshiga ne-ne kunlar tushmaydi deysan...

Shundan keyin bu haqda ikkovi ham churq etib og‘iz ochmadi. Shavkat oldin onasini, singillarini va ayniqsa Oyshani ko‘p so‘radi. Keyin otasiga bo‘lgan izzat- hurmati haqida paydar-pay so‘zlab ketdi. Aftidan, buni u ko‘pdan beri ko‘ngliga tugib qo‘ygan-u, lekin botinolmay yurgan edi.

– Mendan umidingiz katta edi, dada, bilaman... Lekin men ishonchingizni oqlay olmadim. Boshingiz og‘ir tashvishda qoldi... Sho‘rlik dadaginam... qarigan chog‘ingizda sizni o‘zim suyab qolmoqchiydim. Qo‘limdan kelmadi. Bir marta qoqilganimdan keyin o‘zimni qayta o‘nglab ololmadim... Uylanib chakki qilgan ekanman, bel baquvvat bo‘lmagandan keyin uylanishni kim qo‘yibdi... Ojiz bandaning ishi og‘ir bo‘larkan! Hamma orzularing chilparchin bo‘lib, o‘zing jar yoqasiga borib qolganingda ming chiranganing bilan qo‘lingdan bir ish kelmasa, alam qilarkan... Odam xuddi bosinqirab yotganday bo‘larkan: kimdir tomog‘ingdan xippa bo‘g‘ib turibdi-yu, lekin qimirlashga majoling yo‘q, qo‘l-oyo-g‘ing ishlamaydi... Men sizga aytsam, dada, keyingi paytlarda shunaqa notavon bo‘lib qolgandim. Ehtimol, boshqalar meni ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘pti, deb o‘ylagandir, lekin men hammasini ko‘rib, hammasini payqab yurgandim... Qanchalik qiynalganimni, o‘zimni o‘zim qanchalik koyib, la‘natlab yurganimni aytsam, balki ishonmassiz...

– Ishonaman, Shavkat... Hammasiga ishonaman, – dedi Ali Rizobey mehr bilan o‘g‘lining qo‘lini silab. – Sen or-nomusli yigitsan, buni hamisha bilardim.

Kech bo‘lib qolgani uchun Ali Rizobey o‘rnidan turdi. Ertaga yana kelishini aytib, o‘g‘li bilan xayrlashdi.

Ko'chaga chiqqanida qosh qoraygan edi. Oshig'i olchi odamlar ham bunday paytlarda negadir ma'yus tortadi. Qorong'ida tanho o'zi ketayotgan Ali Rizobeyning xayoli Shavkatda edi. Bola boyoqish qamoqda qoldi. Jigarbandi-ya... Har qanday ota uchun og'ir narsa bu. Lekin, shunga qaramay, Ali Rizobey hozir qattiq iztirobda emas – keyingi oylar ichida u o'zini qo'yarga joy topolmay, qiynalib yurgan bo'lsa, endi dili ancha taskin topgandi.

Boya Shavkatni uyqu bosib, homuza tortib o'tirgan edi. Men chiqib ketganimdan keyin darrov yotgan bo'lsa kerak, hozir miriqib uxlayotgan bo'lishi mumkin, deb o'yladi Ali Rizobey. O'g'liga rahmi kelib, sekingina kulimsirab qo'ydi.

„Mayli, bola boyoqish loaqal uyquga to'yadi-ku, – ko'nglidan o'tkazdi Ali Rizobey. – Endi hech kim uning jig'iga tegmaydi, har kuni pul so'rab, o'tirishga borasan, deb tiqilinch qilmaydi har holda...“

## 26

Sud uzoqqa cho'zilmadi. Shavkatni bir yarim yilga kesib yuborishdi. Daraxt shoxidan yana bitta yaproq uzilib tushdi, shafqatsiz shamol uni chirpirak qilib oldi-ketdi...

– Yo Xudo, bir yarim yilga ham shunchami, ko'z ochib yumguncha o'tadi-ketadi, – derdi hayriya xonim ko'ngli ancha cho'kib qolgan eriga tasalli berib.

Ali Rizobey xotini ning bu gapiga qo'shilganday bo'lar-di-yu, lekin ko'ngli g'ash edi. Chindan ham bir yarim yil hademay o'tib ketadi. Ammo isnod degan narsa bor, uning dog'ini yuvish qiyin bo'ladi. Qamoqdan chiqqanidan keyin Shavkat o'zini hali-beri o'nglab ololmaydi. Bir marta isnodga qolgan odam turmushda ko'p xor bo'ladi. Yordam beradigan, dardiga darmon bo'ladigan kimi bor? Notavon bir majruhga o'xshab abgor bo'ladi... Ali Rizobey buni yaxshi bilar, o'ylagan sari battar ezilib ketardi-yu, lekin: „Bo'lar ish bo'ldi endi hammaning boshida bor bu savdo. Eng muhimi, Shavkat omon bo'lsa bas. Bu yog'i bir gap bo'lar“, – deb o'ziga o'zi dalda berardi.

Ali Rizobey eng yaxshi kastumini olib, changini qoqdi, dazmolladi, keyin botinkasini moylab, ikkovini shkafga tiqib qo'ydi. O'g'lining oldiga bisotidagi mana shu eng yaxshi kiyimini kiyib borishga ahd qildi. Chunki u qamoqxonada Shavkatga bir qadar hurmat bilan, loaqal boshqalardan sal o'zgacharoq qarashlarini sezgan edi. Binobarin, o'g'lining ana shu ozginagina hurmatiga putur yetkazmayman desa, qamoqxonaga juldurvoqi bo'lib kelmasligi kerak-da.

Shavkat qamalqandan keyin butun uy ichi bilan hammalari – bersang yeyman, deb turgan olti jon iste'fodagi amaldorning o'ttiz uch lira-yu ellik qurushdan iborat nafaqasiga qarab qoldi. Qizlardan birortasini uzatib, tinchib olishmoqchi bo'lishgan edi, bu ham chippakka chiqdi. Bularning atrofida parvona bo'lgan shaydo yigitlarning eng tasqarasi ham boshini bog'lab qo'ymoqchi ekanliklarini sezib qolguday bo'lsa, darrov o'zini go'likka solib juftakni rostlab qolardi. Birorta odam ham Ali Rizobeyga qizlaridan nolib gapirmasdi-yu, lekin ota boyoqish kuyovchalarning bunchalik chap berib qochishiga sabab, har holda, jigar-go'shalari o'ziga ortiqcha erk berib, yetti mahallaning og'ziga tushganida bo'lsa kerak, deb taxmin qilardi.

Shundan keyin alamini xotinidan olib, uni kalaka qilardi.

– Hozirgi zamonning qizlari odamlarga ko'rinishi, o'y-nab-kulishi kerak. Ha, albatta, busiz bo'larmidi!.. Uyda o'tirgan qizni kim olardi? Qani, xo'sh, ko'ngling joyiga tushdimi endi?

Shu o'rtada ittifoqo Layloning omadi keldi. Maydachuyda narsa olish uchun magazinga kirgan Laylo badavlat bir savdogar bilan tanishib qolibdi. Yoshi qirq beshlarga borgan, durustgina odam ekan. Boshqalar ham uni maqtashibdi.

Ali Rizobey qoidasini keltirib odamlardan uni surishtirib bilgach, to'yga rozilik berdi. Uy ichi bilan rosa suyunishdi. Biroq hamma ish endi bitay deb turganida to'satdan Laylo aynib qoldi.

– Voy sho'rginam qursin, – deb nolib ketdi u fig'oni oshib, – kelib-kelib endi otam tengi odamga chiqaman-

mi-a... Sizlarni deb men yosh jonimga jabr qilaymi? Yana biroz sabr qilsam, tengim chiqib qolar axir?..

Laylo faryod ko'tardi, uning yoniga Najlo qo'shildi, xullas, to'y buzildi. Hozir qo'l qisqa bo'lib turganida badavlat kuyovga uzatsalar zarar qilmasdi-yu, lekin Layloning yosh umriga zomin bo'lish ham insofdan emasdi. Keyingi bir-ikki yil ichida ota-bolalarning o'rtasiga sovuqchilik tushdi. Bu ham yetmagandek, Ali Rizobeyning qizlardan ko'ngli sovib, birortasining betiga qaragisi kelmay qoldi. Ammo shu hazin oqshom kechasi Ali Rizobey ho'ngrab yig'layotgan ikkala qizini bag'riga bosib, betiga uzoq tikilib qaradi. Laylo bilan Najloni endi ko'rib turganday edi. Shu tobda ikkovi ham ko'ziga biram chiroyli, biram odobli ko'rinib ketdiki, beixtiyor ichida: shular bilan janjallashib yurgan bo'lsam ahmoq ekanman, deb qo'ydi. Bu qo'zichoqlarning aybi nima axir-yosh bo'lgandan keyin oqimga qarab suzib ketaverishadida. Esiz, esiz! Shavkatga o'xshab bularning ham gunohidan o'tishi kerak...

- Bo'ldi, oppoq qizim, qo'y endi, - dedi u kutilmaganda Layloni erkalab. - Yig'idan nima foyda? Xohlamasang, tegma, birov seni zo'rlayotgani yo'q. Biroz sabr qilaylik-chi, keyin bir gap bo'lar...

Ali Rizobey hammasiga shumqadam Farxunda aybdor deb bilardi. Uning nazarida, agar Farxunda bo'lmaganda, oila boshiga bu savdolar tushmagan, qizlari ham odamlarning bolasiga o'xshab yurgan bo'lardi. Shavkatga ishxonasidan pulni oldiraverib, keyin turmaga tiqqan ham shu! Lekin shunga qaramay o'g'li qamalgandan keyin chol keliniga qayishadigan, biron gap bo'lsa, uning yonini oladigan bo'lib qoldi.

- Farxundaning ko'ngliga qarab yurmasak bo'lmaydi, xotin, - derdi u Xayriya xonimga nasihat qilib. - Shavkat uni bizga topshirib ketdi, bizdan boshqa bu boyoqishning hech kimi yo'q. Eriga kuyib ketganidan serzarda bo'lib qolgan... O'g'limiz shunga ko'ngil qo'ygan... Ishqilib, o'zi yo'g'ida bir gap chiqib qolmasin...

Xayriya xonim erining aytganini qilib yurdi. Biroq ish chappasiga ketdi: chol-kampir kelinni qanchalik siylashsa u

shunchalik bularning boshiga chiqib oldi. Xudoning bergan kuni Farxunda qildan qiyiq topib, uyni boshiga ko'taradi. Ilgarilari u Ali Rizobeydan sal hayiqib turardi, endi qaynotasiga ham gap bermaydi. Farxunda tez-tez uydan g'oyib bo'lib, yarim kechada qaytadigan odat chiqarib oldi, hatto bir kuni qarindoshimni ko'rib kelaman, deb ketganicha uyga qaytib kelmadi. Oradan bir hafta o'tgan ham ediki, undan quyidagi mazmunda bir xat keldi: „Tishimni tishimga qo'yib, ko'p chidab yurdim, endi toqatim toq bo'ldi, bunaqa achchiq turmushning menga keragi yo'q. Uyingizni tashlab ketishga ahd qildim. Shavkat meni kechirsin. Agar tantilik qilib, javobimni bersa, juda minnatdor bo'lardim, o'zimni o'zim boqishga qurbim yetadi...“

Shunisi g'alatiki, Farxundaning bu qilmishini eshitib eng ko'p tutaqqan Laylo bilan Najlo bo'ldi.

– Ketsa ketavermaydimi!– dedi zardasi qaynagan opa-singil.– Shavkat undan sirayam yaxshilik ko'rgani yo'q. Nima ishlar qilib yurganini yaxshi bilamiz, faqat aytmay yuruvdik-da... To'rt tomoni qibla, qayoqqa xohlasa, o'sha yoqqa, ketaversin...

Xayriya xonimning fikri qizlari bilan bir joydan chiqdi. Ammo Ali Rizobey boshqa tomonini o'ylab, ich- ichidan ezilardi.

Farxundaning qochib ketgani yaxshi bo'ldi, albatta – har holda ro'zg'orda bitta tiriktovon kamaydi. Lekin Shavkat nima derkin! Farxundani sevadi-ku u... Yo Rabbiiy, bularning o'rtasidagi ishq-muhabbat oilaga ozmuncha kulfat keltirmadimi!

Ali Rizobey, o'g'limga bu xabarni qandoq yetkazaman, deb qiynalardi... Taqdir yana bir zarba berganini o'z jigarbandiga yotig'i bilan tushuntirishga otadan boshqa kimning ham kuchi yetadi? Qonini chiqarmay, bo'g'izlash degan gapku bu axir... Ishqilib, qo'li qaltiramasa bo'lgani! Qolaversa, bu ishni cho'zib ham bo'lmaydi, aks holda begona odamlar bu gapni Shavkatga yetkazib, xotinini rosa chalplashadi, keyin bola bechoraga jabr bo'ladi.

Keyingi hafta borganida o'g'li ko'ziga tobi qochib, dili g'ashlanib turganday ko'rindi. Bundan tashvishga tushgan

Ali Rizobey, Farxundaning qilmishini aytsammikin yoki aytmasammikin, deb boshi qotdi. Tezroq aytgani ma'qul, bo'lmasa Shavkat xafa bo'ladi: Keyin: „Nega mendan yashirdinglar, shuni issig'ida aytsalaring bo'lmasmidi“, deb yuradi.

Ali Rizobey gapni uzoqdan boshlab, oldin uy ichiga o'tdi, shundan keyingina Farxundani tilga oldi.

– Tepamda Xudo turibdi, Shavkat, onang ikkovimiz nuqul Farxundani o'ylaymiz, shuning ko'nglini olsak deymiz, – chertib-chertib gap boshladi Ali Rizobey. – Hatto singillarindan ham uni ortiq ko'ramiz. Lekin xotining qildan qiyiq topadigan bo'lib qolgan. Bizni ham, uyni ham ko'rgani ko'zi yo'q, nuqul faqirligimizdan noligani-noligan. Mening javobimni beringlar, bir amallab kunimni ko'rib ketaman deyapti...

Bu gap o'g'liga qanchalik ta'sir qilganini bilish uchun Shavkatga bir qarab qo'ydi.

– Xo'sh, nimani kutayotganmish bo'lmasa? Ketsa ketaversin, birov uni ushlab turgani yo'q, – zarda bilan dedi Shavkat. – Loqaq bitta bosh og'rig'idan qutulganimiz qoladi.

Ali Rizobey ancha yengil tortdi. Shavkatning shu gapi rostmikin? Yoki bir narsani sezib qolib, gap olish ma'nosida ataylab shunday deyayotganmikin? Balki nafsoniyatiga qattiq tekkanidir?..

– Menga ochig'ini aytsang ham bo'ladi, o'g'lim. Boyagi gapni chin ko'ngildan aytdingmi? – botinqiramay so'radi yuragi hapriqib ketgan ota.

– Ha, dada, afsuski, gapim rost, – dedi o'g'li mayin jilmayib. – Agar o'shandan qutulsak, marra bizniki bo'ladi!..

Ali Rizobey gangib ketdi; tomirida qon gupullab, havo yetishmay qoldi. Qo'li qaltirab, cho'ntagidan Farxundaning xatini oldi-da, o'g'liga uzatdi.

Kamera ichi qorong'i bo'lgani uchun Shavkat oynaga yaqin keldi. Ali Rizobey jonini hovuchlaganicha o'g'lidan ko'zini uzmay turdi... Xotinida qanchalik ko'ngli borligi hozir ma'lum bo'ladi... Shavkat xatni diqqat bilan o'qib chiqdi, ba'zi joylariga yana bir ko'z yugurtirgach, dadasiga o'girildi. Rangi sal oqargan bo'lsa ham, lekin o'zi xotirjam edi.



– Bir kunmas bir kun shundoq bo‘lishini bilardim, – dedi u miyig‘ida kulib. – Lekin, ochig‘ini aytsam, bunchalik tez qutulaman deb o‘ylamagan edim. Shunisiga shukur, dada! Hammamiz... Bir tashvishdan qutulibmiz...

Shavkat dadasini quchib, o‘pdi. Ali Rizobeyning o‘pkasi to‘ldi.

– Shu gaping rostmi, o‘g‘lim? Yoki meni yupatish uchun aytyapsanmi? – dedi u yig‘lamsirab.

– Bu nima deganingiz, dada? Axir men endi erkin qushman-ku! Kishandan qutuldim. Bu yog‘ini so‘rasangiz, agar shu topda meni qamoqdan chiqarib, uyga olib ketsangiz ham bunchalik boshim osmonga yetmagan bo‘lardi!

Quvonchini yashirolmay jilmayib turgan Shavkat dadasi hamon gapiga unchalik ishonmayotganini ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi:

– Oldiniga bu juvonne chindan ham sevardim. Ammo uni yaqinroq taniy boshlaganimdan keyin ko‘nglim sovishga tushdi. Bora-bora, uni yomon ko‘rib qoldim. Bir achchiqning bir chuchugi bor deganlari to‘g‘ri ekan: uyimizdagi qirg‘in va janjallar ko‘zimni moshdek ochdi. Bilasizmi, dada, omadi kelganlarning... badavlat odamlarning turmushida mehr va halovat bo‘larkan... Uni uyda ko‘rsam, jinim qo‘ziydigan bo‘lib qoldi. Nafratim oshdi. „Unday bo‘lsa, o‘zingni qiynab nima qilarding, tentak? Bizga ham, o‘zingga ham jabr qilisan-da!“ deb aytishingiz mumkin. Boshqa odam bo‘lganida buni tushunmasdi, lekin siz meni yaxshi bilasiz, dada o‘zingizga ma‘lum, men o‘z burchidan kechvoradiganlardan emasman... Nima bo‘lsa ham sabr-toqat qilishga, azob chekishga majbur edim. Garchi zarracha umid qolmagan bo‘lsa-da, noumid bo‘lmadim... Bizga buni o‘zingiz o‘rgatgansiz. Binobarin, sal uquvliroq kapitan bo‘lganimda kemamizni halokatdan saqlab qolarmidim... Ko‘rib turibsizki, buning uddasidan chiqa olmadim... Endi tinchgina uyga borib yotavering, dada. Farxundaning ketgani juda soz bo‘libdi! „Eh, ayb bizdan o‘tdi!.. Bir odamning uvoliga qoldik!.. Oilasini barbod qildik!“ deb o‘zingizni o‘zingiz koyib yurmang, dada, Xudo haqqi, iltimos qilaman. Qolaversa, oila degan narsa bormidi o‘zi?

Siz bilan biz hamisha halol yashab keldik, dada, lekin ko'rganimiz faqat jafo bo'ldi... Qani, endi diyonatni yig'ishtirib qo'yaylik-chi! Bir ko'raylik, nima bo'larkin.

## 27

Farxunda qochib ketgandan keyin uyda yoshlar saltanati ham yiqildi. Serkadan ajragan Laylo bilan Najlo mo'min bo'lib qolishdi. Hokimiyat vaqtincha yana Ali Rizobeyning qo'liga o'tdi.

Shavkat qamalganidan keyin olag'ovur ziyofatlar ham barham topdi, ilgarilari eshikdan haydasa teshikdan kelib yurgan mehmonlar ko'rinmay qoldi. O'zining soyasidan qo'rqadigan ba'zi mehmonlar omonat pulni yeb qo'yib, qamoqqa tushgan odamning uyiga borishni o'zlariga ep ko'rmayotgan bo'lsa, boshqa birovlar: „Bizsiz ham bularning tashvishi ortib yotibdi, bezovta qilib nima qilamiz, deb o'ylashardi. Mehmonlarning yana bir toifasi Ali Rizobeyning sovuq muomalasini ko'rib, oyog'ini tortgan edi. Endi Ali Rizobeyning qizlari ilgarigiday bemalol yurib, xohlagan vaqtlarida uyga qaytolmay qolishdi. Buni u man qilib qo'ydi. Birortasi sal kechikadigan bo'lsa, otadan rosa so'kish eshiltardi. Bunga qandoq chidayotganiga Laylo bilan Najloning o'zi ham hayron.

Kutilmaganda yana Layloning omadi kelib qoldi. Qirq kungacha u osmon-u falakda yurdi.

O'sha yoz faslida Layloga baxt uch marta kulib boqdi! Uch kishi uning qo'lini so'radi. Nizomiybey degan bir yosh shifokor bularning orasida eng ma'quli edi. Hammalariga u yoqib tushdi. Laylo uning qaddi-bastiga besh ketgan bo'lsa, Xayriya xonim kuyov bolaning kasbini, obro'li oiladan ekani maqtab ketar, Ali Rizobey esa jiddiy, vazmin yigit ekan, deb xursand bo'lardi.

Xullas, bu ajoyib kuyov hammalariga ma'qul keldi, Layloning baxti ochilganiga xursand bo'lishdi. Ammo endi unashamiz deb turishganida to'satdan Ali Rizobeyning qo'liga ikki enlik xat kelib tushdi. Kuyov bola ushbu xatida

Layloga uylana olmasligini va ikki-uch kun ichida Izmirga jo'nab ketishini aytibdi.

Buning sababini bilolmay hammalari garang bo'lishdi. Oldiniga buni dushmanlarimiz qilgan, qiz boyoqishni rosa chalplashgan bo'lsa kerak, deb yurishdi. Keyin boshqa bir sabab topishdi: balki otasi jinoyatchining singlisini kelin qilamanmi, agar shuni oladigan bo'lsang, seni oq qilaman, deb turib olgandir. Bunisi har holda ehtimoldan uzoq emas edi.

Layloning ikkinchi xushtori moliya sohasida ishlaydigan bir amaldor bo'lib, ko'rinishidan ancha bama'ni, hatto doktordan ham xushro'yroq yigit edi. Lekin, shunga qaramay, Laylo uchinchi oshiq paydo bo'lishi bilan undan voz kechib yubordi. Bunisi qirq beshlarga chiqqan suriyalik bir arab bo'lib, qarindoshinikiga o'ynagani kelgan ekan. Qarindoshi har yozda Chamlijadagi bog'iga ko'chib chiqarkan. Bu arab bir kuni Layloni solda ko'rib qolib, oshiq-u beqaror bo'libdi-da, unga og'iz solibdi.

Ko'pgina qizlar Misr yoki Suriyadan kuyov topish orzusunda yonib yurishadi, shuning uchun ham badavlat bir arab muhabbat izhor qilganini ko'rib, Laylo o'zini yo'qotib qo'ydi. Bunaqa qalliq hammaning ham chekiga tushavermaydi-da, axir!

Laylo qattiq esankirab qolganidan kuyovning o'zi kimligini, kasb-kori nima ekanini surishtirib ham o'tirmadi. Xayolida u bir dunyo xazina yig'ib qo'ygan hind rojasiga turmushga chiqayotganday edi. Onasini, singillarini, hamma-hammani zarga ko'madi. Saxiyligini bir ko'rib qo'yishsin!.. Mana endi hammalari nochorlikdan qutulib, shoshona hayot kechirishadi. Boy arab kuyovning sharofati bu!..

Ana shunday xayollar qanotida yurgan Laylo oldin singillariga, keyin onasiga va eng oxirida Ali Rizobeyga ko'nglini ochdi. Nihoyat qizining boshiga baxt qushi qo'nganiga cholning ishongisi keldi... Uyda to'y taraddudi boshlanib ketdi...

Kuyov bo'lmish Abdulvahobbey davlatidan tashqari ko'pni ko'rgan, tabiatan pok odamga o'xshardi. Ali Rizobeyning qo'li qisqaligini u yuziga solmas, balki, aksincha, ikki gapning birida: „Men pul gadosi emasman, menga halol

xotin kerak. Agar Laylo xonim meni baxtiyor qilsa, boshidan tilla sochaman”, deb turardi.

U mehmon bo‘lib turgan chorbog‘da unashish marosimi bo‘ldi. Kelinning uyi ancha xarob bo‘lgani uchun bunga lozim ko‘rilmadi. Abdulvahobbey qallig‘iga shohona ko‘ylak, har xil qimmatbaho taqinchoqlar sovg‘a qildi. Ular sentabr oxirigacha Istanbulda turadigan, kichkinagina to‘y qilib berishgach, Suriyaga jo‘naydigan bo‘lishdi.

Abdulvahobbey qayinotasinikiga tez-tez kelib turardi.

– Sira ovora bo‘lmanglar, keragi yo‘q, Xudo haqqi, derdi u yumshoq kursiga o‘rnashib o‘tirarkan. – Tavba, urinib nima qilasizlar-a... Qahvaning ham keragi yo‘q, mehmon emasman-ku bu uyda axir...

Xayriya xonim jonini jabborga berib aziz kuyovini siylamoqchi bo‘lardi. Ilgarilari ziyofatga kelgan mehmonlarning ko‘zini o‘ynatish uchun stolga qo‘yiladigan serhasham idishlardan hozir asar ham qolmagan. Shuning uchun quruqqina dasturxon yozib, kuyovni mehmonxonaga olishar, ba‘zan choy, ba‘zan qahva quyib bergandan keyin uni ko‘chadan o‘tib qolgan muzqaymoq bilan siylashardi.

Xayriya xonim endi Abdulvahobbeyning ko‘ngliga qarab ish qiladigan bo‘lib qoldi. U bo‘lsa nuqul axloq-odobdan, imondan gap sotib, yangicha tarbiyani qoralab o‘tirardi. Shuning uchun ham qizlar sal chiziqdan chiqib, chug‘urlashib qolishsa yoki hiringlashadigan bo‘lsa, onasi darhol qovog‘ini uyib, bir o‘qrayib qo‘yadi. Xayriya xonim uyida bo‘lib turgan bazm-u jamshidlar kuyovning qulog‘iga yetib qolishidan juda-juda qo‘rqadi. Hatto Najlo boyoqish ham pochchasining oldiga ochiq chiqolmaydi, yuziga biror nima yopinib olishga majbur.

Layloga onasining bu ishi ma‘qul, shunga ko‘ra o‘zi ham orzu-havas nimaligini bilmay, uyda eskicha tarbiya ko‘rgan soddagina qiz bo‘lib ko‘rinishga harakat qiladi.

Shoshishning keragi yo‘q. Kuyov undan yigirma besh yosh katta, hali qo‘lga o‘rgatib oladi. Oldin turmush qurishsin-chi, keyin bir gap bo‘lar. Ana o‘shanda Laylo buning hissasini chiqarib oladi, ko‘ngli istaganicha o‘ynab-kuladi.

Abdulahobbey va'dani quyuq qilib yurdi. Layloning singillariga ham o'ziga o'xshagan badavlat er topib bermoqchi bo'ldi. Najlo bilan Oysha ikkovining baxti endi har ishga qodir pochchaning qo'lida bo'lgani uchun unga battar e'tiqodlari oshib ketdi...

Qolaversa, yaratganning o'zi mana shu labi do'rdoq, daroz arab qiyofasida najot qo'lini cho'zgani uchun Ali Rizobeyning boshi osmonda. Ali Rizobey uni halokat yoqasida turgan qizlarining najotkori deb biladi, soyasiga ko'rpacha soladi. Lekin shunga qaramay o'qtin-o'qtin cholning dili g'ash bo'lib, nazarida bu arab tilyog'lama, mug'ambir odamday tuyuladi. Bunday paytlarda chol boyoqish shu gap ko'ngliga kelgani uchun o'zini o'zi koyib ketadi. „Miyam aynib qolganga o'xshaydi, – deydi u o'zidan ranjib. – Hammadan shubha qiladigan, tuppa-tuzuk odamlarni yoqtirmaydigan bo'lib qolibman...“ Ali Rizobey oila boshiga baxt qushi qo'nganiga juda-juda ishongisi kelardi. Qolaversa, „axloq-odob“, „adolatparvarlik“, „odamgarchilik“ degan mubolag'ali gaplarni eshitsa, erib ketardi. Buni gapirgan odam kim va qanaqa o'zi – bu bilan sira ishi bo'lmasdi.

Laylo qallig'i bilan tez-tez ko'chaga chiqib, aylanib kelishardi. Boy arab bo'lsa kechikib qolgan kunlari uyga sira ham quruq qaytmas, qo'ltig'ida hamisha qog'ozga o'ralgan bir nima bo'lardi. Bir kuni Abdulvahobbey Layloga qora duxobadan tikilgan chiroyli po'stin olib keldi. Sovg'ani ko'rib Laylo chunonam xursand bo'ldiki! Agar Abdulvahobbeydan istihola qilmaganida rosa tomosha ko'rsatarmidi. Haytovur, kuyov tashqariga chiqdi-yu, joniga ora kirdi; yugurib borib oyisini, dadasini, singillarini cho'lpillatib o'pib oldi, keyin po'stin yoqasiga yuzini bosib, allaqanday vals kuyini xirgoyi qilgan holda ko'zini chirt yumganicha xona ichida gir aylana ketdi.

Buni ko'rib Ali Rizobey beixtiyor ko'ziga yosh oldi... yo Parvardigor, bu qizaloqlarning ko'nglini olish qanchalik oson-a! U bo'lsa shularni jonsiz suratga o'xshatib yuribdi-ya... Aslini olganda, bularning ko'nglida kiri yo'q, yosh boladay sodda, xuddi mo'rt niholga o'xshashadi, shamol qayoqqa essa, o'sha yoqqa og'ishadi... Mana, Laylo ham

shunday – orzu-havasi xiyol ushalganday bo‘luvdi, darrov o‘zgardi-qoldi...

Laylo aylanaverib charchagach, oxiri to‘xtadi, keyin singlisining oldiga kelib, yelkasiga qo‘l tashladi.

– Agar mo‘yna po‘stin olsam, buni senga beraman, xo‘pmi, Najlo? – dedi u.

Najlo bir seskanib, opasiga yeb qo‘yguday bo‘lib qaraganini Ali Rizobey sezib qoldi. Cholning yuragi orqasiga tortib ketdi: demak, Najloning alami ichida ekan-da.

Ali Rizobey yuqoridagi xonasiga chiqib ketdi. Uni hazin xayollar chulg‘ab oldi: „Bola-chaqaning rohatini ko‘raman, deb bo‘lmas ekan. Bo‘lmag‘ur gap ekan yo Rabbiy!. Iloj qancha, odamzodning holi shu ekan. Yana qizig‘i shundaki, bir karomat bo‘lib, bola-chaqangga baxt ulashishga holing kelganda ham hammasini rizo qilolmas ekansan: baxt degani biriga ko‘proq, boshqasiga kamroq tegib qolarkan. Buning jabrini esa biz tortamiz, omadi kelmagan, alamzada farzandimizga yon bosamiz, o‘zimiz yeb-ichmasak ham, shunga bo‘la qolsin deymiz... Ha, bola-chaqaning rohatini ko‘raman degan odam bekor aytibdi. Ovora bo‘ladi...“

## 28

Suriya safariga tadorik ishlari boshlanib ketdi. Abdulvahobbey kelinni yer-u ko‘kka ishonmaydi. Lekin kutilmaganida arzimagan bir sabab bilan ikkovining orasi buzildi.

Shu mahalgacha Laylo kuyov bilan ketayotganida kemandami yoki ko‘cha-ko‘ydami – xullas, qayerda bo‘lmasin, eski tanishlaridan birortasini uchratib qolsa, teskari qarab o‘tib ketguchi edi. Mabodo orqadan gap otib, kurakda turmaydigan so‘zlar bilan haqorat qilishsa ham sir boy bermay ketaverardi. Bir kuni kelin-kuyov ko‘chada sayr qilib yurishgan edi, ittifoqo oldilaridan bir gala odam chiqib qoldi. Bular Bog‘larboshidagi uyga kelib turadigan tanishlar ekan. Laylo noiloj bular bilan so‘rashishga majbur bo‘ldi, ikki-uch og‘iz valaqlashgach, Abdulvahobbeyni ham tanishtirdi. Laylo-

ning bu tanishlari kuyovga yoqmagani uchun rosa arosat ko'tardi.

Laylo ham bo'sh kelmay, og'zidan bodi kirib, shodi chiqdi. Xullas, o'sha kuni kechqurun kelin-kuyov sovuqqina xayrlashishdi.

Shu voqeadan keyin bir haftagacha Abdulvahobbeydan darak bo'lmadi. Uydagilar tashvishda qoldi. Ayniqsa Xayriya xonimning paytavasiga qurt tushdi. Oxiri Ali Rizobey yo'qolgan kuyovdan bir xat oldi. Xatning mazmuniga qaraganda Laylo ko'chada allaqanday betayin odamlar bilan gap sotishib turibdi. Abdulvahobbey shuni yuziga solgan ekan, Laylo o'shalarning yonini olib, kuyovni kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqorat qilibdi. Xatining oxirida u erkaklik g'ururi bo'lgan har qanday odam ham shu isnoddan keyin Layloni xotin qilib olishga rozi bo'lolmasligi, lekin muhtaram Ali Rizobeyning xonadoniga hurmati azbaroyi baland bo'lgani sababli, agar Ali Rizobeydek padari buzrukvori rizolik bersa, kichik qizi Najloni joriyalikka olishga tayyor ekanini aytibdi...

Ali Rizobey bilan Xayriya xonim ikkovi: „Noto'g'ri ish qilding... Kuyovni ranjitib qo'yding“, – deb bir haftadan beri Layloni ko'z ochirmay qo'yishgan edi. Mana endi shu xatdan keyin janjalning asl sababi ma'lum bo'ldi. Ali Rizobeyning ko'ngli g'ash bo'lib, bezovtalanib yurganicha bor ekan-da. Yog'liq go'shtni poylagan mushukday kuyov ham yoshroq va chiroyliroq singilni ko'rib, opasidan voz kechmoqchi bo'libdi-da... Demak, Layloda zarracha ayb yo'q. Layloni qo'yib, Najloga uylanish uchun u jo'rttaga janjal chiqargan. Ha, maqsadi shu ekan. Voy ablah-ey!..

Uyda to's-to'polon ko'tarildi. Ali Rizobey kuyovning hamma sovg'a-salomini yig'ishtirib, kelinga olib bergan uzugi bilan qo'shib jo'natish kerak, deb turib oldi. Uning maqsadi bularni xatni olib kelgan odamdan berib yuborish edi. Lekin kutilmaganda vaziyat butunlay boshqacha tus oldi. Abdulvahobbeyning beor xatidan ko'ra ham Ali Rizobeyga bu qattiqroq zarba bo'ldi.

– Esingizni yedingizmi, dada? – deb shang'illadi Najlo sharm-hayoni yig'ishtirib. – Mening baxtimga zomin

bo'lmoqchimisiz, nima haqqingiz bor? Bilishimcha, Abdulvahobbey meni so'rayapti... Opamning o'rniga bering meni, gap tamom!

Behayo qizining bu gapini eshitib, Ali Rizobey g'uldurab qoldi. Soqit qilingan kelin behush yiqildi. Yolg'iz Xayriya xonim o'zini yo'qotmadi, xolos.

– Har qalay Najloning gapida jon borga o'xshaydi, – dedi u. – Qani, bafurja bir gaplashib olaylik-chi...

Tomoqlari bo'g'ilguncha allamahalgacha talashib-tortishishdi, biri olib, biri qo'ydi. – Ali Rizobey yo'q, bo'lmaydi, deb oyog'ini tirab turib oldi. Gapining mazmuni shu bo'ldi: „Bunday sharmandalikka borib yetgan odamdan har nimani kutish mumkin. Bunaqa ablahga qiz berish u yoqda tursin, hatto mushukni ham ravo ko'rib bo'lmaydi. Ko'cha-ko'yda tilanchilik qilib yurgan gadoyda ham or-nomus va insof bo'lsa borki, bunda o'shayam yo'q. Qolaversa, bu ablah Najloning tug'ishgan opasini sharmanda qilib ketdi. Shuni ko'ra-bila turib, yana o'shanga tegaman deyishlik uyat, o'taketgan razolat, o'taketgan qabohat bu!..“

Xayriya xonim eriga gap qaytarmay turdi: ha, Abdulvahobbey chindan ham ilonning yog'ini yalagan odamga o'xshaydi, to'g'ri unga mushukni ham ravo ko'rib bo'lmaydi. Ammo... iloj qancha, zamon og'ir bo'lsa, haligacha qarzlar uzilgan emas. Uyni sotib, boshpanadan ajrashga to'g'ri keladi. Yordam beradigan odaming bo'lmasa. O'zga chora ham yo'q, ahvol shu bo'lgandan keyin „yo'q, bo'lmaydi“ deb turib olishdan oldin bundoq o'ylab ko'rish kerak. Innaykeyin, bu ishga otaning roziligidan ko'ra ko'proq qizining roziligi kerak... Ha, Najlo nima desa, shu bo'ladi!

Otasi bilan onasi qancha jiqillashmasin, baribir uning aytgani bo'ladi. Buni yaxshi bilgani uchun Najlo ikkovining dahanaki jangini zavq bilan kuzatib turdi. Xo'sh, u nima desa, shu bo'ladimi?! Xat kelishi bilan ko'nglidagi gapni aytmadimi axir? Yangi kelin shuni o'ylab, shirin xayollarga cho'mdi. Xuddi ertakdagiday-a!.. Opasining boshiga qo'ngan baxt qushi mana endi buniki. Kuni kecha shu narsa tushiga kirib chiqqanida aslo ishonmagan bo'lardi... Najlo qorong'ida bir nimaga razm solayotganday oynaga tikilib



turdi. Hozir uning fikr-xayoli faqat bir narsada: nima qil-  
sa, boy arabni o'ziga yaxshilab og'dirib oladi, qandoq qilsa  
opasiga o'xshab g'aflatda qolmaydi, boshiga qo'ngan baxt  
qushini cho'chitib yubormaydi...

Laylo uch-to'rt kungacha indamay yurdi. Oxiri alami-  
ga chiday olmay, butun ichidagini otasiga to'kib soldi. Ha,  
buning sira ajablanarli joyi yo'q. Odam bolasi so'nggi umi-  
di ham puchga chiqqanidan keyin o'ziga hamdard qidirib  
qoladi. Dod solib yig'lashga, yuragini bo'shatishga haqqi  
bor. Binobarin, Najlo buni tushunishi kerak, chunki opasi-  
ning oxirgi umidiga chang solgan ham uning o'zi-ku axir.  
Hech bo'lmaganda tilini tiyib yurishi lozim, opasi to'yib-  
to'yib gapirib olsin... G'olib kelgan shafqat qilishni ham  
bilmog'i kerak-da. Ammo Najloning bo'sh kelgisi yo'q. Nima  
uchun opasining jig'iga tegmas ekan? Uning jonini chiqarib,  
xumoridan tarqagani ma'qul emasmi?.. Ana shundan keyin  
Layloning jazavasi tutdi.

– Mochag'ar! Buzuqi o'lgur! – deb qichqirdi u singlisiga  
xezlanib. – Sen o'g'risan! Kuyovimni o'g'irlab olding!..

– O'g'irlagan bo'lsam ajab qipman. Alam qilsin, – dedi  
Najlo ham bo'sh kelmay.

Xayriya xonim sal kechikkanida opa-singil yumdala-  
shib ketgan bo'lardi. U darhol ikkovining orasiga tushib,  
Layloning qo'liga yopishdi, shovqinga chiqqan Oysha Naj-  
loni nari sudrab ketdi. Ali Rizobey turgan joyida shilq etib  
yerga tushdi, boshini changallaganicha ho'ngrab yig'lab yu-  
bordi. Endi shu ko'rgilik qoluvmidi, yo Parvardigor – qizla-  
ri bir-biri bilan yoqa bo'g'ishib o'tirsa-ya? Nega bunchalik  
Xudoning qahri qattiq-a?

Najlo bir yulqinib, Oyshaning qo'lidan chiqdi-da, opasi-  
ning oldiga yugurib kelib shang'illay ketdi:

– Menga it tekkan qo'sqingni bermoqchi bo'luvding-a.  
Shundaymi? Nima, men ko'chada qolgan gadoyvachcha-  
manmi senga, sadaqa berasan! Xo'sh, endi qalaysan? Xudo  
hammaga fe'liga qarab beradi. Siz mo'yna po'stinda yu-  
ring-u, bizga eski-tuski ham bo'laverarkan-da?.. Shunaqa  
bo'ladi. Alam qilsin endi!.. Ha, mayli, endi olaqol, meni es-  
lab kiyib yurarsan. Buyursin!

Oradan ikki hafta o'tgach, Najlo bilan Abdulvahobbey Suriyaga jo'nab ketishdi. Daraxtdan yana bitta yaproq uzilib tushdi. Bu – uchinchi edi...

Laylo bilan Najlo – opa-singil, hatto bundan ham afzal. Bir-biriga shunaqayam mehribon, shunaqayam inoq ediki bular, yoshlari ham deyarli teng edi, ikkovining bo'y-bas-ti ham, fe'li ham bir-birinikidan qolishmasdi. Ikkovi birga o'sib-ulg'aydi, birga o'ynashdi, bitta karavotda katta bo'lishdi... Orasidan qil o'tmaydigan bu sirdosh opa-singil – dugonalar xuddi yetti yot begonaday bir-biriga qo'l berib xayrlashmadi ham.

Ali Rizobeyning farzandlari har yoqqa tarqab ketdi. Chol boyoqish kampiri-yu ikkita qizi – Laylo va Oysha bilan sho'ppayib qoldi.

Qarzdin qutulish maqsadida Ali Rizobey qishga borib Bog'larboshidagi hovli-joyini sotishga majbur bo'ldi. Ortib qolgan pulga Do'lop ko'chasidan ko'rimsizgina bir joy sotib olishdi. Hammalari jahannam deb atagan o'sha eski hovlini buning oldida chinakam saroy desa bo'ladi. Yangi makonni ko'rishi bilan Xayriya xonim erini koyib berdi.

– Bir nimadan quruq qolganday nuqul shoshilasan-da! Yana picha sabr qilsak ham bo'lardi, bir amallab chidardik.

– Yana nimaga sabr qilishim kerak ekan?– dedi Ali Rizobey zaharxanda kulib. – O'tgan yildagiga o'xshab senlar bor pulni sovursalaring-da, men boshpanasiz qolsam-a?

Eshikni ochib, uyga kirishlari bilan qizlar yig'lab yuborishdi. Xuddi qabrning og'zi ochilganday etlari jimirlab ketdi! Ali Rizobeyning ko'ngli g'ash tortdi. Lekin shunga qaramay u eshikni ochib, yengil nafas oldi, keyin kalitni labiga bosdi-da: „Ey Parvardigor, hamma balo-qazolardan o'zing saqla“, – deb pichirlab qo'ydi.

## 29

Laylo o'sha og'ir zarbadan keyin anchagacha o'ziga kelolmay yurdi. Yangi hovliga ko'chib kelishganining ertasi kuni bosh ogrig'i qo'zib, yotib qoldi. Bir yarim oygacha

u churq etmay, shiftga qarab yotdi. Xayriyat, shifokorlar undan biror illat topishmadi.

Shu atrofda turadigan bir keksa doktor Layloni muolaja qilgach:

– Asabdan... faqat asabdan bu... Yaxshi-yaxshi ovqat yesin, dam olsin, o'tib ketadi, hecham asorati qolmaydi. Aslo xavotir olmanglar, – deb taskin berdi.

Doktorning aytganicha bor ekan: bir yarim oy deganda Laylo o'rnidan turib ketdi. Lekin uni tanib bo'lmadi. Ozib-to'zib ketibdi, rang-ro'yi ham bir holatda. Endigina tetapoya qilayotgan bolaga o'xshab bitta-bitta qadam bosadi.

Ha, Layloni endi tanib bo'lmaydi. Ilgarigi shaddod va so'zamol Laylo qani? Chehrasida qandaydir yangicha bir tarovat balqib turgan bu qiz, qachon qaramang, jimgina xayol surib o'tiradi. Ali Rizobeyning nazarida u yana ham latifroq bo'lib qolgan.

Kasaldan turganidan keyin Layloning tabiati ham o'zgarib qoldi. Taqdiriga tan bergan odamday endi u bo'lar-bo'lmasga injiqlik qilavermaydi. Gohida Ali Rizobeyning nazarida bu sho'rlikning siynasida yig'ilib qolgan yoshlar ko'z oldini pardaday to'sib qo'yganga o'xshaydi: qizi chaqchqlashib turganida, xandon otib kulganida ham yurak-bag'ri ezilayotgandek, ko'zlari nola chekayotgandek tuyuladi... Darvoqe, otaga shunday tuyulayotgan bo'lishi mumkin. Qarilik qursin!.. Qiziga joni achiganidan endilikda qattiq gapirolmaydi, buning ustiga otalik mehri yana tovlanib ketgan. Layloni yoshligida ham xuddi shunday sevardi.

Nihoyat, Laylo ko'chaga chiqadigan bo'ldi. Doktor unga ko'proq yurishni tavsiya qildi. Ochiq havoda ko'proq yurishi, iloji bo'lsa, iqlimni o'zgartirishi kerak ekan. Iqlimni o'zgartirish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ali Rizobey busiz ham qizidan borini ayamayapti, ishqilib oyoqqa turib ketsa bas. Iqlimni o'zgartirishning esa o'zi bo'lmaydi, bunga katta pul kerak. Agar shu bilan tuzalib ketadigan bo'lsa, bemalol sayr qilib yuraversin.

Birinchi marta ko'chaga chiqishgan kuni Xayriya xonim arzonroq izvosh topib keldi, keyin qizini o'rab-chirmab, dengiz tomonga olib ketdi.

Ona-bola ketmoqchi bo'lib turishganida bir voqea yuz berdiki, Ali Rizobeyning yuragi zirqirab ketdi. Qizini izvoshga chiqarib qo'yganidan keyin Xayriya xonim bezovta bo'lganday yon-veriga bir qarab olgach, qo'lidagi qora duxoba po'stinni sekingina Layloning oldiga qo'ydi. Bu – Najloning „meni eslab kiyib yurarsan“, deb tashlab ketgan po'stini edi. Qizining achchiq ustida aytgan o'sha alamzada gapi beixtiyor cholning esiga tushdi. O'tgan ishga salavot-ku-ya, albatta, lekin, ishqilib, Layloning esiga tushmasin-da o'sha gap. Aks holda po'stindan ajrashga to'g'ri keladi... Haytovur Laylo churq etmadi. Xayriya xonim qech nima ko'rmaganday qiziga yuzlandi-da, muloyimgina qilib:

– Qani, qizim, manavini yelkangga tashlab ol-chi, – dedi.

O'rtaga og'ir jimlik cho'kdi. Ali Rizobeyning tomog'iga bir nima qadalganday bo'ldi...

Laylo o'ziga kelib, uyqudan turgan odamday yuzini siypab qo'ydi-da, jimgina onasiga kiftini tutdi.

Ali Rizobey yengil nafas oldi.

\* \* \*

Laylo har kuni duxoba po'stinni kiyib, ko'chaga otlanib qoladi.

Oldiniga Ali Rizobey qizining ko'chada xohlagancha tentirab yurishlariga unchalik e'tibor bermay yurdi. Laylo siqilib ketgan, mayli, biroz ovunsin, shahardan chetga chiqsa yoki ko'cha-ko'yda aylanib yursa, bahri-dili ochiladi. Qizi boyoqish loaqal bir nafas oiladagi muhtojlikni unutadi-ku. Qolaversa, qish kunlari bir tutam, qorong'i uyda odam siqilib ketadi.

Shunga qaramay ba'zan Ali Rizobeyni shubha kemiradi: „Qiz bolaning shaharda yolg'iz tentirab yurishi yaramaydi. Uygayam juda kech qaytadi... Buning ustiga yana bir vaqtlari uyimizga tanda qo'ygan eski tanishlarini topib olibdi...“.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, Laylo butun azob-uqubatlarini unutib, butkul sog'ayib ketdi, yana o'sha serzavq va quvnoq holiga qaytdi. Biroq otasining nazarida u hamon

majruh. Shuning uchun ham Ali Rizobey yana qizining yarasiga tuz sepmaslik uchun unga qattiqroq gapirishga bo'tinolmaydi. Ilgarilari shuni andisha qiladigan bo'lsa... bora-bora bu haqda, gap ochishdan qo'rqadigan bo'lib qoldi...

Nariroq borib, uning qulog'iga har xil mish-mishlar chalinib qoldi. Ochig'i, Laylo boshqacha bo'lib qolganini Ali Rizobeyning o'zi ham sezib yurgan edi. Keyingi paytlarda qizining gap-so'zi o'zgarib, odamni behurmat qiladigan, hatto tikka olishadigan odat chiqardi. Otasi nasihat qilsa, bobillab beradi-ya! Bularga shunchalik jon kuydirib gapirganing bilan bir pul ekan. Hammasi o'z bilganidan qolmaydi.

Mana, Laylo ham o'z erkim o'zimda, deb ko'ngliga kelgan noma'qulchiligini qilib yuribdi.

O'qtin-o'qtin Najlodan xat kelib qoladi. Ichi to'la hasrat va dard. Abdulvahobbey uning qo'ynini puch yong'oqda to'ldirgani yo'ldayoq ma'lum bo'libdi; Istanbulda yurganida, millioner boyman, degan edi, g'irt yolg'on ekan. Aslida u chakana ishlar bilan shug'ullanib, qo'l uchida tirikchiligini o'tkazarkan, biror yerdan keladigan daromadi yo'q ekan.

Najlo Bayrutda dang'illama saroyda turaman deb o'ylagan edi, bo'lmadi, tovuq katagiga o'xshagan torgina bir uyga borib tushdi: meni keng marmar zinalarda sodiq xizmatkorlar qo'l qovushtirib kutib oladi, deb xayol qilgan edi, bu ham chippakka chiqdi: ostonada uzun to'n kiyib turgan qaynatasiga, ikki kundosh-u bir etak bolaga ko'zi tushdi. Istanbuldan ko'tarib kelgan ashqol-dashqolidan bo'lak hech narsasi yo'qligini, afandiga o'xshab ikki qo'lini burniga tiqib qolganini ko'rib, Najlo oldiniga shox tashlamoqchi bo'ldi. Lekin qaynatasiga bir marta ro'para bo'lgach, churq etolmay qoldi.

Bir tomondan, ikkala kundoshning zahri, erta-yu kech jag'i tinmaydigan bir gala churvaqa bola, buning ustiga xiyolga bo'kirib beradigan serjahl qaynata – bular Najloni qiy-nab yubordi. Oldiniga u opasiga bildirmaslik uchun boshiga tushgan azoblar haqida xatida churq etmay yurdi, ammo keyinchalik bardoshi tugab, hammasini oqizmay-tomizmay yozib yubordi. Har gal u peshanasi sho'rligidan nolib, meni

bu yerdan tezroq olib ketinglar, deb yalinib-yolvorardi. Najlo oxirgi maktubida shunday debdi:

„Dada, ortiq chiday olmayman. Iloji bo'lsa, shu yerdan tezroq qochib qutulsam. Och-yalang'och yursam ham, uyimga boray. Bayrutdagi shohona hayoti ordona qolsin, bir burda nonga, bir qultum suvga zor bo'lsam ham mayli. Istanbulga yetib olay... Nuqul oyim bilan opamni tush ko'raman. Ayniqsa Laylani ko'p eslayman; sirayam ko'z oldimdan ketmaydi. Bilaman, kuyovini tortib olganim uchun mendan xafa u. Qani endi Laylo menga nasib qilgan o'sha „shirin turmush“ini o'z ko'zi bilan bir ko'rib qo'ysaydi, balki mendan minnatdor bo'lib yurarmidi...“

Laylo shu satrlarni o'qiganidan keyin singlisiga bo'lgan adovatini unutdi, darhol otasiga yolvord:

– Dadajon, Najlani qutqaraylik, xarob bo'lmasin!

Xayriya xonim ham Layloning yoniga qo'shildi, lekin Ali Rizobey oyog'ini tirab turib oldi. Qiziga u shu mazmunda xat yo'lladi:

„Xatingni olib qattiq xafa bo'ldim. Lekin ilojim qancha, yordam berolmayman. Ahvolimiz ilgarigidan ham beshbattar yomon, qolaversa, bu yerda senga nima bor? Har holda uy-joying, ering o'sha yerda... Abdulvahobbey biz o'ylagan odam emas ekan, mayli, lekin seni och qo'yib, tilanchilik qilgani ko'chaga haydamabdi-ku. Shunisiga shukur qilsang bo'lmaydimi. Taqdiringga tan ber, qizim, uy iching bilan to'tuv bo'l. Mening senga beradigan maslahatim shu. Ishqilib, o'zingdan tinchib ket...“

Ali Rizobey bu bilan qizining qaytib kelishiga qarshi ekaniga sha'ma qilgan edi. Ammo uning xati Najloga kor qilmadi. U endi yig'i-sig'idan oshkor po'pisaga o'tdi:

„Meni bu azobdan qutqaring, agar qutqamasangiz, o'zimni o'zim bir nima qilib qo'yaman, keyin uvolimga qolasiz...“

Qizi shu ishni qilishiga unchalik ko'zi yetmasa ham, har holda cholning yuragiga g'ulg'ula tushdi. Hozirgi juvonlarni bilib bo'lmaydi, hammasining asabi chatoq, bir nimani qilaman desa, qilaveradi.

Shuni o'ylab, Ali Rizobeyning boshi qotdi, ko'ngli g'ash bo'ldi.

„O'zing oson qil mushkulimni, ey Parvardigor! Qani menga qilgan marhamating? Esiz jigargo'shalarim, esiz, shamol ularni xazonday to'zitib yubordi-ya... Xazonrezgi degani shu-da, axir... Nahotki bu dunyo ularga torlik qilgan bo'lsa-a?..“ – deb pichirlardi u ba'zan alamiga chiday olmay.

### 30

Kunlardan birida Ali Rizobey iste'foga chiqqan bir mayor tanishini qahvaxonada uchratib qoldi.

– Siz bilan nozik bir masala yuzasidan gaplashib olmoqchiydim-u, lekin ikkilanib yurgan edim, – dedi mayor Ali Rizobeyni chekkadagi bo'sh stolga taklif qilib. – O'zingiz yaxshi bilasiz, sizga hurmatim baland. Himmatingizga ham tan beraman...

Ali Rizobeyning rangi o'chib ketganini ko'rib, mayor taqqa to'xtadi.

– Dilingiz ozor topmasaydi deb qo'rqaman, oshnam, – deb qo'ydi u biroz ikkilanib turgach.

Ali Rizobey o'ziga dalda bermoqchi bo'ldi. Podadan oldin chang chiqarib nima qiladi? Og'aynisini cho'chitib yuborsa, gapini eshitolmay qoladi... Aftidan, uyga xos biror noxush gapi bo'lsa kerak. Mayli, gapirsa gapira qolsin.

– Mendan sira tashvish tortmang, – deb javob qildi Ali Rizobey, – sabr-bardoshim joyida, chidayveraman...

– Gapimni eshitib, xafa bo'lmaysiz-a, so'z berasizmi?

– Sizga qolsa, o't ketsa-yu, hech narsa kuymasa ekan-da?! Qiyin gap-ku bu. Ha, mayli, urinib ko'raman.

Darvoqe, buning vahima qiladigan joyi ham yo'q. Men sizga do'stona bir maslahat bermoqchiydim, xolos... Katta qizingiz ko'chada ko'p yurmasin. Menga qolsa, umuman ko'chaga chiqarmaganingiz ma'qul...

– Nima gap o'zi, tinchlikmi?

– Hech gap yo'q... Shunchaki, nazarimda, hozirgi qizlar o'ziga ortiqcha erk berib yuborayotganga o'xshaydi.

– Unaqa qilmang, bir gapni boshlagandan keyin oxiriga yetkazish kerak. Bir nima eshitgan bo'lsangiz, ochiq gapiravering, iltimos.

– Yaxshi... Bilgan narsamni gapiraman. O'tgan hafta ichi qizingiz notanish bir erkak bilan mashinada ketayotganini ko'rdim... Ochig'ini aytsam, g'alati bo'lib ketdim. Yaqinda uydagilar boshqa bir gap topib kelishdi. Balki qo'shib-chatib gapirishgandir, lekin, o'zingizga ma'lum, shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi...

Mayor, Ali Rizobey, hozir uydagilar nima gap topib kelganini so'rab qoladi, degan andishada birpas indamay turdi. Lekin cholning so'raydigan holi yo'q edi. U xayr-ma'zurni nasiya qilib, hatto oshnasining betiga ham qaramay, shosha-pisha tashqariga chiqib ketdi.

– Bir kamim shu edi, – deb g'oldirardi u tosh yo'lda hassasini do'qillatib borarkan. – Shunisi yetmay turuvdi, – derdi u bo'g'ilib. – Qariganimda shunisi ham bormidi!.. Boshimga ne-ne kulfatlar tushmadi – och qoldim, odamlardan yomonlik ko'rdim, haqoratlar eshitdim. Hammasiga chidadim. Lekin bunaqa sharmandalikka chiday olmayman. Darhol buni bas qilish kerak!..

Chol uyiga yaqinlashganida to'satdan miyasiga bir fikr keldi: „Mayor hamma gapni aytmaganga o'xshaydi. Yo'q, u menga hammasini aytishi kerak... Chala eshitgan bilan bir ish qilishim qiyin...“

Ali Rizobey orqasiga qaytdi va halloslaganicha qahvaxonaga kirib keldi. Mayor endi ketay deb turgan ekan. Cholga hamma gapni aytib berdi.

Laylo badavlat bir advokat bilan o'ynashib yurarkan. Advokatning xotini bilan ikkita bolasi bormish. Laylo har gal u bilan sohilda uchrashib, keyin ikkovi mashinada Haydarposhodagi ishratxonaga borisharkan... Bu gap qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ry ekaniga men kafil bo'lolmayman, uydagilardan eshitdim, dedi mayor.

Shu kuni Ali Rizobey uyiga juda kech qaytdi.

– Laylo haliyam kelgani yo'q. Qayoqda sang'ib yurganikin-a? – dedi Xayriya xonim cholini ko'rishi bilan.



Ali Rizobey „qo‘y, boshimni og‘ritma, charchadim“ degan ma‘noda qo‘lini silkib qo‘ya qoldi-da, eshikning tagida turgan siniq katga o‘zini tashladi.

Kampiri bilan gaplashib olsamikin?.. Yo‘q!.. Oldin Layloning o‘zidan so‘rab, hamma narsani bilib olish kerak... Kampirga endi u ishonmaydi hammasidan xabardordir, unga bildirmay yurgan bo‘lishi mumkin... Qizining yonini oladi, xolos...

Xayriya xonim bilan Oysha ikkovi oshxonada ovqatga qarashyapti. Ali Rizobey bo‘lsa har xil xayollar iskanjasida to‘lg‘anib, qandoq qilsam Layloni qo‘lga tushirarkinman, qandoq qilsam o‘zi tilidan ilinib qolarkin, degan tashvishda o‘z yog‘iga o‘zi qovrilib o‘tiribdi. Oradan o‘n daqiqa o‘tarmo‘tmas darvoza tomondan mashinaning signal chalgani, saldan keyin esa tashqaridan oyoq tovushi eshitildi. Laylo ichkari kirgach, ovoz chiqarmaslik uchun pol taxtani bita-bitta bosib, chiroq ko‘ringan oshxona tomonga yurdi. Bir-ikki qadam yurgan ham ediki, otasi o‘rnidan turdi, Laylo cho‘chib tushdi.

– Sizmisiz, dada?! O‘takamni yordingiz-ku!..

Opasining ovozini eshitib, oshxonadan lampa ko‘targan Oysha chiqdi, orqasidan Xayriya xonim ko‘rindi.

– Shu mahalgacha qayoqda sang‘ib yuribsanz?– koyishga tushdi onasi. – Kutaverib ko‘zimiz teshildi-ku...

– Qayoqda bo‘lardi!.. O‘rtog‘imnikiga boruvdim... – To‘xtang, nafasimni rostlab olay... Keyin gapirib beraman.

Laylo durustroq bir bahona topib qo‘ymagan edi, shuning uchun vaqtdan yutish maqsadida Oyshani suvga yubordi.

Ali Rizobey zina tagidagi eshikka yaqin turgani uchun chiroqdan uzoqda edi.

– Mashinada keldingmi? – dedi u o‘zini bosishga harakat qilib.

– Ha, – til uchida javob qildi Laylo. – O‘rtog‘imnikida edim.

– Buni qarang-a, mehmonni mashinada kuzatib qo‘yadigan odat chiqarishibdi-da!.. O‘rtog‘ingiz kim edi, bilsak bo‘ladimi?

– Uni tanimaysiz... Haydarposhoga bormoqchi ekan, bichiqchining oldiga, – onasiga qarab gapirdi Laylo. – Seni tashlab o‘tarkan, dedi. Xo‘p dedim. Tekinga aylanib yursam yomonmi? Lekin bichiqchi ancha kutdirib qo‘ydi.

Haydarposho!.. Bir og‘iz so‘zni eshitishi bilan Ali Rizobeyning o‘ylab qo‘ygan zo‘r rejalari barbod bo‘ldi.

– Xo‘sh, Haydarposhoga o‘rtog‘ing bilan tez-tez borib turasanlarmi?

– Endi borishimiz, – o‘zini go‘llikka soldi Laylo.

– Endi borishimiz degin... Xo‘p, yaxshi! O‘sha bichiqchilaring qaysi ko‘chada turadi?

Laylo qorong‘ida dadasining yuziga razm solmoqchi bo‘lib, unga o‘girildi. Nahotki sezgan bo‘lsa? Imkoni yo‘q-ku buning! Yoki poylab yurganmikin?..

– Bu qanaqa bema‘ni savol, dada? Hayronman sizga, – dedi Laylo zarda qilganday bo‘lib.

Ali Rizobeyning sabri tugadi. G‘azabdan titrab, mushtini qisganicha qizining ustiga bostirib bordi-da, tishi tishiga tegmay bo‘kirdi:

– Haydarposhoda... advokat bilan... o‘ynashib... hamma bilarkan.

– Ali Rizobey, o‘chir! Nima deb valdirayapsan?! Yolg‘on! Tuhmat bu!.. Tuhmat!.. – deb chinqirdi Xayriya xonim erini to‘xtatmoqchi bo‘lib.

Agar Xayriya xonimning o‘rniga Layloning o‘zi shu gapni aytganida, o‘kirib-o‘kirib yig‘lab berganida yoki loaqal indamay turganida bormi, chol ancha hovridan tushib, mana shu iflos gaplarga ishonmagan, o‘ziga o‘zi pand bergan bo‘lardi. Ammo Laylo o‘zini oqlashni xayoliga ham keltirmadi. Qiz otasiga qarab bir o‘qraydi-da, shol ro‘mol yopilgan qaddini rostlab, duxoba po‘stinning etagini qayirdi, keyin ispan

raqqosalariday qo'lini beliga tirab, ikki sonini likillatgani-cha shang'illab berdi:

– Xo'sh, nima qipti shundoq bo'lsa? Mehribon dadachamizga tasanno! Qizini yolchitib qo'yganiga qulluq!

Oyshaning qo'lidagi chiroq Layloning yuziga tushib turgan edi. Afti burushib, bo'yoq surtgan lablari qiyshaydi, qora halqa tortilgan ko'zlari qisilib, Ali Rizobeyga kin va nafrat bilan tikilib qoldi.

– Yo'qol!– deb xirilladi Ali Rizobey hassaga yopishib. – Yo'qol! Ostonamga qadam bosma!

Laylo o'zini eshikka urib, ostonadan qichqirdi:

– Ko'ramiz hali, shu gapingiz uchun pushaymon bo'lasiz. Ming yalinib-yolvorsangiz ham, hech kim qadam bosmaydi!.. Ordona qolsin uyingiz!..

Bu qanaqa dunyo o'zi?! Qizi otasi bilan tikka olishsa-ya!.. Ali Rizobey g'azabdan titrab ketdi. G'oyibdan kuch kelganday u bir yulqinib, Xayriya xonim bilan Oyshaning qo'lidan chiqdi-da, yirtqich hayvonday bo'kirib osiy qiziga tashlandi. Laylo zo'rg'a qochib qutulmaganida holi voy bo'lardi. Ko'zining naxtasi chiqib ketgan chol uni o'ldirmagan taqdirda ham qattiq mayib qilardi. Lekin shu payt to'satdan Ali Rizobey bir nimaga qoqilib ketganday gindiraklab borib yerga quladi. Qo'lidagi hassa bir chekkaga uchib tushdi.

### 31

O'sha kuni Ali Rizobey miyasiga qon quyilib yiqilgan edi. Xudo bir asrab qoldi uni. Cholning og'zi qiyshayib, tili g'oldiraydigan, uy ichida bir amallab yurmoqchi bo'lsa, chap oyog'ini sudrab bosadigan bo'lib qoldi. Biroq Ali Rizobeyning o'zi bunga parvo qilmaydi, o'ziga qolsa, tanasiga mubham bir illat yopishgan, o'sha uni ich-ichidan kemirib yotibdi.

Chol kun bo'yi katalakday xonasida qamalib o'tiradi, birov ko'rib qoladi degan andishada ko'chaga ham chiqmay-

di. Derazaning tagida o'tirib olib, ro'paradagi yarim xaroba devorga, quyuq g'isht parchalari orasidan oftobga qarab bo'y cho'zgan nimjon maysa-giyohlarga uzoq tikiladi yoki bo'lmasa mushuklarning kaltakesak ovlashini tomosha qiladi. Peshinga yaqin devor tagiga bir tutam shu'la tushadi. Chol shunga ham mahliyo bo'lib o'tiradi. Qolaversa, Xudo yetkazgan shu soatga qarab vaqt qancha bo'lganini bilib oladi.

Laylo ketganidan keyin uy azaxonaga o'xshab qoldi. Hamisha pitirlab yuradigan Xayriya xonim ham holdan ketgan. Bir ish qilsa, nuqul imillaydi, zo'rg'a ovqat qiladi, kir yuvadi. Oyshaning sochini tarab qo'yadi. Xudoning bergan kuni inqillab, kasalini pesh qiladi, jangdan mayib bo'lib chiqqan qari soldatga o'xshab nuqul noliydi!

Layloning uydan ketishi Xayriya xonimga ham qattiq ta'sir qildi. Garchi eri haq ekanini, oilaga isnod keltirish yaramasligini bilsa ham, ichida bunchalik qahr qilishning, bunchalik bag'ritosh bo'lishning keragi yo'q edi, deb o'ylar, shuning uchun ham har qadamda cholini uzib-uzib olardi.

Ali Rizobey esa xotining fe'liga tushunmay, ich-ichidan ezilardi. „Birin-ketin farzandlarning hammasidan ajradik, – derdi u o'zicha fikrga cho'mib. – Xuddi yosh kelin-kuyovga o'xshab ikkalamiz sho'ppayib qoldik. Boshga tushgan nochorlik va kulfat azobi biz mushtiparlarni bir-birimizga hamdard qilib qo'yishi lozim emasmidi?.. Vaholanki yetti yot begonaga o'xshaymiz, xuddi oramizda adovat borday, bir-birimizni yeb qo'ygudek bo'lib yuramiz... yo Parvardigor, odamzod xo'p qiziq bo'larkan-da...“

Kampiri bilan o'zining Oyshaga bo'lgan munosabati uni battar taajjubga soladi. Beshta boladan bularning oldida faqat shu kenjasi qoldi. Shundoq ekan, uni boshlariga qo'yib, atrofida girgitton bo'lishlari lozim emasmidi!.. Qayoqda deysiz. Oysha boyoqish mushuk bolaga o'xshaydi, o'tgan ham tepadi, ketgan ham...

Oysha o'n to'rtini urib qo'ydi. Kundan kunga husni ochilib, opalariga o'xshagan barno qiz bo'lib yetilyapti. Ko'klam

chechagiday borgan sari yashnab ketyapti-yu, ota-onasi-ning parvoyi falak...

Ilgarilari bir gapirib, o'n kuladigan Oysha endi indamas bo'lib qolgan. Hamisha yuragini hovuchlab yuradi, uyida kasal odam yotganday yoki bo'lmasa o'lik chiqqanday ortiqcha yugurmaydi, kulmaydi, qattiqroq gapirolmaydi. Nuqul ko'chani payida bo'ladi, hovliga yoki qo'ni-qo'shninikiga chiqib yashirinib oladi.

Odamzod har narsaga ko'nikib ketarkan. Oradan ikki-uch oy o'tgach, Ali Rizobey ko'chaga chiqib o'tiradigan, ba'zan esa hassasiga tayanib, oz-oz yuradigan bo'ldi. Bir kuni u yurak yutib, qahvaxona oldidan o'tdi. Qahvaxo'r oshnalaridan biri derazani chertib, uni ichkariga taklif qildi. Ali Rizobey eshikning oldida birpas hayallab turgach, ichkari kirdi. Uni avvalgiday izzat-ikrom bilan kutib olishdi. Boshqacha bo'lishi mumkinmi axir?! Agar u Layloning axloqsizligini eshitgandan keyin ham unga uyidan joy berganida odamlar betiga qayrilib qaray olmasdi, albatta. Ammo u shu gapni eshitishi bilan qizini uydan haydab chiqardi, hatto nomini ham tilga oldirmay qo'ydi. Endi hech kim uni ayblamaydi, hamma rahm qiladi. Qizini o'z qo'li bilan ko'mgan ma'qulmi yoki uydan quvib haydaganmi – buning qaysi biri afzal ekani hali noma'lum...

## 32

Chindan ham Layloni hech kim tilga olmay qo'ydi. Umu-man o'g'il-qizlaridan gaplashib qolishganda Laylo to'g'risida og'iz ochishmasdi. Bir kuni kechqurun Xayriya xonim Oyshani chaqirmoqchi bo'lib Laylo deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi, keyin eriga yorilib, o'ringa yotganida nuqul ko'ziga qizi ko'rinib ketishini aytdi.

Devorda eski bir surat osig'liq turardi. Ali Rizobey o'rtada, atrofida o'g'il-qizlari, tizzasida Laylo. Chol rasmdan Lay-

lo turgan joyni qirqib tashladi. Otasining shimiga yopishgan jajji qo'lchalari qoldi, xolos.

Bola bolaligiga borar ekan. Bir kuni Oysha suratga qarab turib, beixtiyor:

– Voy, manavi jajji qo'lga qarang, dada... Laylo tizzangizga yopishib olib, kechirim so'rayotganga o'xshaydi-ya! Qarang, qarang, to'g'rimi?– deb yubordi.

Buni u sodda ko'ngilda aytdimi yoki jo'rttaga qildimi, kim biladi. Xayriya xonim yig'lab yubordi, Ali Rizobey esa qaltiroq qo'lini bigiz qilib, Oyshaga po'pisa qildi:

– Haddingdan oshma, shayton... Ikkinchi eshitmay uni, tushundingmi?

Biroq xuddi o'sha kundan e'tiboran Ali Rizobeyning so'zi yerda qoldi. Chol qanchalik g'ijini, baqirib-chaqirmasin, Xayriya xonimning og'zidan Laylo tushmaydigan bo'ldi. Oldiniga u gapni uzoqdan boshlab, Layloning yoshlikdagi qiliqlarini eslab ketardi. Keyin eshitgan gaplarini oqizmay-tomizmay choliga yetkazardi. Shuncha gapni qayerdan topib kelarkin, Xudo biladi. Xayriya xonim gapning bismillosini advokatdan boshlardi. Qizini yo'ldan urgan advokat yomon odamga o'xshamaydi. Taqsim maydonidan Layloga shi-namgina uy olib beribdi. Qizining turmushi yaxshi emish. Advokatning Layloga uylanish niyati ham bor ekan-u, lekin oldingi xotinini qo'yolmay yurganmish. Kim uni buzuqi degan bo'lsa, bekor aytibdi. Layloga muhabbati zo'r ekan, o'sha noma'qul ishni qilganiga ham shu sabab...

– Ovozingni o'chir, Xayriya, Xudo haqqi! Ajalimdan besh kun oldin o'ldirmoqchimisan meni, – derdi Ali Rizobey yolvorib.

Keyin bo'lsa uning gapini eshitib, ko'nglini buzmaslik uchun qulog'ini berkitib olardi... Berkitishga berkitardi-yu, lekin ichida qizi haqida yana biror gap eshitgisi kelardi – har holda farzandi-da!.. Qiziq, Xayriya xonim uydan ko'chaga chiqmaydi-ku, shuncha gapni qayerdan eshitarkin?..

Bir kuni kechqurun u to'satdan Laylo og'rib qolganini, ikki haftadan beri boshini ko'tarmay yotganini aytib qoldi.

– Qizim sho'rlikning holi nima kechdiykin!– dedi u ko'z yoshi qilib, – o'zi zo'rg'a yuruvdi... Bulturgiga o'xshab yotib qolmasaydi deb qo'rqaman...

Bu gapni eshitib, Ali Rizobey ichidan zil ketdi. Shu zahotiyoq ko'z oldida suyuq xotinlarga o'xshab hayosizlarcha shallaqilik qilayotgan surbet Laylo emas, balki dadasidan kechirim so'rab, isitmada to'lg'anib yotgan mushtipar qizi namoyon bo'ldi.

Xotini uning ahvolini sezib turganday edi.

– Agar xo'p desang, bir borib ko'rib kelsam. Boyoqishning holidan xabar olib kelardim, – dedi kampiri ko'zi mo'l-tirab.

Ali Rizobey bu gal uni jerkib tashlamadi.

– Esingni yeb qo'yganga o'xshaysan sen boyoqish! Or-nomus degan narsani bilasanmi o'zi,– dedi u kampirini koyib.– Men o'lganimdan keyin qizing bilan yuz ko'rishasan...

To'satdan cholning ovozi titrab, ko'zidan bir tomchi yosh oqib tushdi. Qattiq yorug' tushib, ko'zi qamashib ketgan odamday orqasiga o'girildi, boshini egib, chap oyog'ini sudraganicha tashqari chiqib ketdi.

Xayriya xonim o'zini go'llikka soldi.

\*\*\*

Bir haftadan beri Xayriya xonimni tanib bo'lmay qoldi. Ilgarilari kun bo'yi churq etmay, o'rnida ag'anab yotguvchi edi. Endi bo'lsa yeng shimarib uy tozalaydi, pol yuvadi, kir chayadi, ovqat pishiradi, qo'ni-qo'shniga yuguradi. Buning ustiga choli bilan ham muomalasi o'zgargan: har qadamda xushomad qiladi, bir gapirib, o'n kuladi, tilidan bol tomadi. Ali Rizobey shuni yaxshi biladiki, kampiri bir baloni boshlaydiganga o'xshaydi, bo'lmasa bunchalik ipakday muloyim

bo'lib yurmas edi. „Ha mayli, omon bo'lsak ko'rarmiz, – deydi u xayolga cho'mib. – Buning tagida bir gap borligi aniqku-ya, lekin nimaykin? Ishqilib, xatardan Xudoning o'zi asrasin...“

Sir tez kunda oshkor bo'ldi. Bir kuni bozordan kelsa, uyda Laylo o'tiribdi.

– Dada!.. Dadajon!.. – deganicha Laylo baqrayib qolgan otasining bo'yniga osildi.

Xayriya xonim bilan Oysha ikkovi uvvos tortib uning oyog'iga yiqilishdi.

Ali Rizobey orqasiga tisarilib, devorga tegdi va ko'zini chirt yumib oldi. Rang-ro'yi o'zgarmadi. Lekin titroq qo'li bilan zo'r berib ko'ylagining yoqasini yirtmoqchi bo'ldi – birdan havo yetishmay qoldi...

E, gap bu yoqda ekan-da. Shuning uchun ham Xayriya xonimning og'zidan qizi tushmay qolgan ekan-da. Onabola yashirincha ko'rishib, shu rejani tuzib qo'yishibdi-da? Ha to'g'ri, oldiniga qizining bolaligini esga solish, keyin jo'rttaga kasal qilib ko'rsatish, oxirida esa o'zini otasiga ro'para qilish... Chakki emas!.. Laylo sen bilan yarashmoqchi, deb aytishga tili bormagan-da, axir. Oyog'iga yiqilib yolvorgan qizini ko'rsa, yuragi yumshaydi, darrov uni bag'riga bosadi, deb o'y-labdi-da... Xo'sh, qizini ko'rib, yuragi yorilib o'lsa nima bo'lardi? Shu arzimagan narsa kampirning xayoliga kelarmidi... Laylo ko'z yoshi qilib olgach, Xayriya xonim oh-voh chekdi, Oysha yalinib-yolvordi – oxiri uchovi bir bo'lib ho'ngrashga tushdi.

La'nati yoqa! Tugmani yechib bo'lmaydi-ya! Ali Rizobey ko'zini chirt yumganicha hamon devorga suyanib turibdi. Layloning betiga qaramaslik uchun ataylab ko'zini yumib olganday...

Nihoyat Ali Rizobey tilga kirdi.

– Bekorga ovora bo'lmanglar, – dedi u sekingina, ertaga boshiga nima tashvish tushishini bilgan odamday o'zini xotirjam tutib. – Mening Laylo degan qizim yo'q. Men uchun u o'lgan, darvoqe, uning ham endi otasi yo'q...



Xayriya xonim, Laylo va Oysha Xudoning zorini qilganlari bilan chol o'z fikrida qat'iy turib oldi.

### 33

Qizi ketganidan keyin Xayriya xonim janjal ko'tardi. Kampir yaxshi gap bilan biror ish chiqarolmasligini bilgach, oshkor po'pisaga o'tdi.

– Men seni es-hushi joyida deb yurgan edim, o'ttiz yildan beri nima desang, shunga xo'p deb keldim. Oqibati nima bo'ldi? Yetar endi! Endi mening aytganim ham bo'lsin. Senga ishonib bola-chaqamdan ajraldim, yonimda faqat Laylo bilan Oysha qoldi. Qizim mensiz turolmaydi, men ham uni tashlab ketolmayman. Besh kunlik umrim qoldimi-yo'qmi, Laylo bilan birga bo'laman. O'zingga ma'qulini tanla; yo hammamiz birga turamiz, yo bo'lmasa... – Xayriya xonim gapini tugatmay piqillab yig'lab yubordi.

– U yog'ini gapirmasang ham bo'ladi, – dedi Ali Rizobey miyig'ida kulib. – Obidiydaniyam bas qil. Senga o'xshab men ham bir fikrga keldim. Senlarga xalaqit bermay qo'ya qolay. Men bo'lmasam, yaxshiroq turarsizlar. Sen ham bir yayrab ol... Gap shu!..

Ertasiga ertalab Ali Rizobey yo'l harakatiga tushib qoldi. Buni ko'rib Xayriya xonim uni shashtidan qaytarmoqchi bo'ldi.

– Esingni yedingmi? Qarigan chog'ingda qayoqqa sig'asan?.. Sal kuch-quvvating bo'lgandayam boshqa edi... Senga kimning ko'zi uchib turganikin. Bas, telbalik qilma!..

Ali Rizobey boshini og'ritib o'tirmaslik uchun yo'l qildi:

– Singlimni bir ko'rib kelay. Besh-o'n kun turib qaytaman.

Aslida esa u Otapozoriga – Fikratning uyiga borishni mo'ljallab qo'ygan edi. Fikrat bundan uch yil oldin Haydarposho vokzalida aytgan gapini chol tuni bilan o'ylab chiqdi. „Mabodo qattiq qiynalib qolsangiz, to'g'ri menikiga kelavering, – degan edi u. – Issiq-sovug'ingizdan o'zim xabar olib turaman...“ Ali Rizobeyning boshqa bir ilinji ham

yo'q emas. Fikrat uyida olib qolsa bormi, bu bema'ni tirikchilik azobidan, boshiga tushgan isnodlardan bir umr qutuladi. Ali Rizobey bировga og'irligi tushishini istamaydi, lekin qani endi Xudodan bo'lib shu o'ylagani amalga ohsa...

Ali Rizobey Fikratning uyini zo'rg'a qidirib topdi. Uyi Otapozorining bir chekkasida ekan. Baraka topkur bir politsiyachi ko'rsatib ketdi. Ammo chol ostona hatlab ichkari kirishi bilanoq butun orzu-umidlari chippakka chiqqanini payqadi.

Fikrat dasturxon yozayotgan ekan. Otasini ko'rib, dovdirab qoldi, suyunish o'rniga yuragi orqasiga tortib ketganday bo'ldi.

– Sizmisiz, dada?... Tinchlikmi? Xudoga shukur, sog'salomat ekansiz... – bo'shshibgina dedi Fikrat. Keyin otasiga yaqinlashib, bazo'r qo'lini labiga bosdi.

Qizim bunchalik sovuq kutib oladi deb o'ylamagan Ali Rizobey uni bag'riga bosishdan iymanib, sekingina kiftiga qoqib qo'ya qoldi. Nariroqda ikkita bola unga xo'mrayib qarab turardi. Shu payt qo'shni xonadan mo'yloviga oq tushgan, baland bo'yli bir kishi chiqib keldi.

Fikrat otasini ko'rib xijolatga tushganday. Uzoq yo'l bosib, horib-charchagan cholning ust-boshi ham bir holatda edi.

– Bu kishi dadam bo'ladilar... Mehmon bo'lib kelibdilar, – dedi botinqiramay Fikrat eriga.

– Mehmon... „Qo'yaver, xafa bo'lma... ko'p turmaydi. Bir-ikki kundan keyin uyiga ketadi“, – deb erini tinchitib qo'ymoqchi bo'lganga o'xshaydi qizi.

Kuyov Ali Rizobey bilan so'rashgan bo'ldi.

– Dadamiz yo'ldan charchab kelgan bo'lsa kerak, qorni ham ochgandir. Bor, ovqatni tezroq olib kel, – dedi u Fikratga qarab.

Qizi bu xonadonga tushib, ro'shnolik ko'rmaganga o'xshaydi, shundoqqina bilinib turibdi. Fikrat qattiq o'zgarib ketibdi, qarimsiq bo'lib qolibdi. Xuddi qishloqi xotinning

o'zi. Vaysaqiligi ham borga o'xshaydi – oshxonadan bolalar-ni qarg'agani eshitildi.

Ali Rizobey tog'orachadagi kartoshkani tinchitib o'tirganida qizi bilan kuyovi Istanbuldagi gaplardan surishtirishdi.

Fikrat ikkovi yolg'iz qolganida hamma gapni aytib beradi, albatta. Kuyov ham begona emas-ku, lekin andishasi bor-da. Shuning uchun ham Ali Rizobey bularning savoliga dudmalroq javob berib o'tirdi. Biroq bular hamma narsadan xabari borday, uning gaplariga ishonishmadi. Qayerdan bilisharkin, Otapozori Istanbuldan uzoq bo'lsa? Hatto qizi bilan kuyovi uning mujmal gaplarini eshitib g'ijini qo'yishdi.

– Uydagi gap-so'zlardan xabarimiz bor, biz ham eshitdik, – po'ng'illab qo'ydi kuyov.

– Ko'nglingizga kelmasin-u, dada, hammasiga o'zingiz aybdorsiz, – dedi Fikrat gapga aralashib. – „Dada, ko'zingizni oching!.. Bularning hammasi takasaltang. Zinhor bularga suyak tashlay ko'rmang, qopib olishadi“, deb ming marta aytdim sizga. Lekin siz o'z bilganingizdan qolmadingiz. Gapinga parvo ham qilganingiz yo'q...

Fikratning bu gapini eshitib, eriga jon kirdi.

– Qizingiz haq gapni aytdi, – dedi qizishib kuyov. – Siz ko'pni ko'rgan, katta-katta amallarda yurgan odamsiz. Nega endi ularga bo'sh keldingiz? „Mening gapim gap, aytganim bo'ladi“, deb turib olish kerak edi. Aslida sizning bir og'iz so'zingiz ular uchun qonun bo'lishi kerak! Bordi-yu, birortasi g'ing deydigan bo'lsa, darrov kavushini to'g'rilab qo'yish lozim. O'z uyingda so'zing o'tadigan bo'lsa, xohlagancha suyak tashlash mumkin. Qani, mard bo'lsa, birortasi qopib ko'rsin-chi!...

Yo'lda toliqib kelgan Ali Rizobey dasturxon tepasida zo'rg'a o'tirgan edi. Buning ustiga ta'na eshitib, battar ezilib ketdi.

– Qandoq qilaylik, ko'rgilik ekan, – deb qo'ydi u arang iljayib.

Yotadigan vaqt ham bo'ldi. Fikratning tul qayinsinglisi ham ikki bolasi bilan shu yerda turarkan. Bo'sh xona bo'lmagani uchun Fikrat otasiga mehmonxonaga joy qilib berdi.

Otapozorida chol ikki haftacha turdi. Fikratdan u yotsirab yurdi. Qiziga uydagi gaplardan, o'zidan yuragini ochib so'zlamadi. Chol bu xonadonga sig'masligiga ko'zi yetdi, darvoqe, kelgan kuniyoq o'zlari bunga sha'ma qilishgan edi. To'g'ri, bu yerga u qizini bahona qilib keldi, o'zi chaqirgan edi, ammo o'shanda qizi: „Xudo xohlasa peshanamga keng joy bitib qolar, hammamiz sig'isharmiz“, – deganmidi. Ha, shundoq degan edi. Niyatiga yetmabdi boyoqish. Turmushi ham uydagidan yaxshi emas, yomg'irdan qochib qorga tutilgan ko'rinadi.

Dadasining ko'zi oldida Fikrat har kuni qaynanasi, qayinsinglisi, eri yoki bolalari bilan jiqillashib oladi. Yaxshiyamki, tili burro, o'ziga pishiq, musht yeb qarab turadiganlardan emas.

Ali Rizobey ko'pincha qizi uning kasriga qolayotganini sezib qoldi. Bir kuni Fikrat qaynanasiga qarab:

– Dadamga til tegizmang! Ikkinchi eshitmay bu, gapni. Yana eshitsam, o'zingizdan ko'ring, ordona qolgur, bu uydan ketaman. Chorig'ingizni sudrab qolasiz, – dedi.

O'zining tashvishi o'ziga yetmasmidi, endi otasiniki ham bormidi.

Kechqurun Fikrat o'rin solish uchun ko'rpa-yostiq ko'tarib mehmonxonaga kirib kelgan edi, Ali Rizobey maqsadga ko'chdi:

– Seni ancha ovora qilib qo'ydim, Fikrat, aybga buyurmaysan. Ha, mayli, bugunchalik ham mehmonman agar ko'nglingga kelmasa, ertaga jo'namoqchiman.

Uyga sig'may qolganini qizining yuziga solmaslik uchun ataylab „ko'nglingga kelmasa“ degan gapni qo'shib qo'ydi.

– Buncha tez, dada?

– Bo'lar endi, qizim... Tag'inam ancha turib qoldim.

Fikrat bir zum indamay turdi-da, keyin ikkilanibroq dadasiga yuzlandi.

– Dada...

– Labbay, qizim?

Ali Rizobeyning nazarida qizi muhim bir gapni aytishga jazm qilganday bo'lib tuyuldi. Lekin Fikrat bu fikridan qaytdi shekilli:

– Demak, ertaga yo'lga chiqar ekansiz-da?.. Bo'lmasa damingizni oling... Yaxshi tush ko'rib yoting, dada, – deb chiqib ketdi.

Ali Rizobey yolg'iz o'zi qolgach, o'ylay boshladi: „Ikkinchi marta shunday bo'lishi. Bundan oldin ham allaqayerda shunaqa ovozni eshitgandim, o'sha odamning ko'ziyam xuddi shunaqa javdirab turgandi. Kim edi-ya o'sha?“ Birdan esiga tushdi: Shavkat edi! O'g'li ham ko'p marta dadasiga yuragini ochmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin botina olmagan-di...

## XOTIMA

Otapozoridan qaytib kelgach, Ali Rizobey uyiga bormadi. Bir necha kungacha ko'chama-ko'cha tentirab, tanishlarinikida yotib yurdi. Biroq qish kelib, sovuq tushishi bilan sho'ring qurg'ur chol shamollab yotib qoldi. Baxtiga bir tanishi joniga ora kirdi, yelib-yugurib uni kasalxonaga joylab qo'ydi. Ammo kasalxonada ham uzoq yotmadi. Bir kuni kasalxona binosining oldiga bir mashina kelib to'xtadi. Mashinadan Xayriya xonim bilan Laylo chiqdi. Ikkovi yig'lab-siqtab Ali Rizobeyga o'zini otdi.

– Dada, bu yerdan ketaylik. Yuring biz bilan, – deb yalindi Laylo.

Xayriya xonim unga qo'shildi.

– Bas endi, dadasi, hadeb o'jarlik qilavermagin. Bir marta mening ko'nglimga ham qarasang nima bo'пти.

Xayriya xonim bekorga jon kuydirayotgan edi.

Qarilik va dard o'jar Ali Rizobeyni yengib qo'ygan edi. Gap qaytarishga unda na majol qolgan va na shijoat. Chol xotini bilan qizini ko'rib, yosh boladay suyunib ketdi. Bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin tili aylanmay qoldi. Behisob jafolardan qattiq charchagan Ali Rizobey shundan keyin o'kirib yig'lab yubordi.

\*\*\*

Xayriya xonim bilan Oysha ikkovi Do'lop ko'chasidagi uylarini ijaraga qo'yib, Laylonikiga ko'chib kelishgan edi.

Advokat yalmog'iz xotinidan qutulgan kunlari, haftasiga ikki marta o'ynashinikiga kelib turadi. Qolgan kunlari Layloning bir o'zi sho'ppayib o'tiradi. Oldiniga u oqsoch qiz bilan ovunib yurgan bo'lsa, onasi bilan Oysha ko'chib kelganidan keyin ancha bag'ri to'lib qoldi. Advokatning topar-tutari yaxshi. Layloni puldan qismaydi. Ammo o'zi epsizroq,

ro'zg'or tutishni bilmaydi. Onasi ko'chib kelib, ro'zg'orni o'z qo'lga olmaganida qizi boyoqishning rosa sho'ri qurirdi.

Ali Rizobeyga Taqsim maydonidagi uydan kunga qargan eng yaxshi xonani ajratib berishdi. Derazadan shundoqqina dengiz ko'rinib turadi. Issiqqina o'rin, uydagi halovat tez kunda amaliy natija berdi: Ali Rizobey yostiqdan boshini ko'tardi. Yana bir necha kundan keyin u hassasini do'qillatib uy ichida yuradigan, ba'zan esa Layloning ovunchog'i bo'lmish qafasdagi to'tining oldiga borib, o'zining tili kelishmasa ham, unga gap o'rgatib o'tiradigan bo'lib qoldi.

Cholning dimog'i chog'edi. Advokatning oshna-og'aynilari mehmondorchilikka kelgan kunlari u o'zini qo'ygani joy topolmay qolardi. Bunday paytlarda Ali Rizobey goh oshxonaga kirib, Xayriya xonimga yordam berar, goh o'n beshga kirib, gul-gul ochilgan kenjatoyi Oysha bilan mehmonlarga muzdek sharbat ulashib chiqar, goh esa uni hol-joniga qo'y-may xonimlar bilan o'yin tushirishganida antiqa harakatlar qilib, hammani kuldirib o'tirardi.

Ali Rizobey uyda o'tiraverib diqqinafas bo'lib ketsa, darhol sayr-u tomoshaga yuborishadi. Ko'chaga chiqarishdan oldin yangi kiyim-bosh kiydirib, uni ochiq izvoshga o'tqazishadi-da, toza havo olgani olib ketishadi, bunday kezlarda cholning boshi osmonga yetadi, to'y sarposini kiyib, ot o'yinga borayotgan boladay terisiga sig'may ketadi.

Ali Rizobey faqat bir narsadan xavotirda: ishqilib, qahvaxo'r ulfatlaridan birortasi uni ko'rib qolmasa bo'lgani...

## MUNDARIJA

TAMG'A.....	3
XAZONREZGI.....	161

*Ruschadan MIAD HAKIMOV tarjimasi*



**„Jahon adabiyoti oltin fondi“ turkumi**

**Rashod Nuri Guntekin**

**TAMG‘A**



**XAZONREZGI**

*Romanlar*

**„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“**

Toshkent – 2019

«QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI» MCHJ va  
«YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» MCHJ hamkorligida chop etildi.

Muharrir *Rustam Mirzayev*  
Badiiy muharrir va  
kompyuterda sahifalovchi *Oygul Fozilova*  
Musahhah *Zulfiya G‘ulomova*

**Nashriyot litsenziyasi AI № 210, 26.03.2012.**

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.05.2019.

Bichimi 84x108<sup>1/32</sup> „PT-Serif“ garniturasida.

Kegli 11,5. Ofset bosma usulida bosildi

Nashr tabog‘i 18,0. Adadi 5000 nusxa.

97-19-sonli buyurtma.

„Yangiyul Poligraph Service“ MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44.

18260

Rashod  
Nuri Guntekin

84(57uk)

G95

# Tang'a

**«QALDIRG'UCH  
NASHRIYOTI»**

ISBN: 978-9943-5710-1-3



9 789943 571013